

XALQ TA'LIMI

ISSN 2181-7839

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2017

3-son

(may-iyun)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT



TAHRIRIYAT

- 4 Voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olishda profilaktik tadbirlarning o'rni



TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI

- Z. Saliyeva 7 Bolalarda o'qish madaniyati va mutolaa ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari
- A. Xasanov 12 Fanlararo aloqadorlikni tizimlashtirish: sifat va samaradorlik
- A. Hayitov 16 Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kommunikativ qobiliyatini rivojlantirish yo'llari
- O. Musurmanova 21 Uzlaksiz ta'lim tizimida o'quvchi-yoshlar ijtimoiy faolligini tarbiyalashning ilmiy-pedagogik asoslari
- O. Karaxonova 28 O'quvchilarda mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini hosil qilish bosqichlarining didaktik tavsifi
- A. Ismailov 32 Tarix darslarida interfaol usullardan samarali foydalanishda o'quvchilarni jarayonga moslashtirish
- D. Hakimova 37 O'quvchilarda refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish metodlari



TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI

- U. Masharipova 42 Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini o'stirishda ilg'or pedagogik metodlardan foydalanishning ahamiyati
- B. Tursunov 46 Tarix fanini o'qitishda og'zaki ta'lim uslubi va uning ahamiyati
- A. Xurramov 51 "Matematika o'qitish metodikasi" fani o'quv mashg'ulotlarini loyihalash metodi
- M. Tojiyev, H. Allaberganov 58 Geografiya fanidagi "tabiiy jarayonlar" mavzusini o'rganishda "panorama" trening uslubidan foydalanish



TA'LIM SIFATI: MAZMUN VA MOHIYAT

- N. Turdiyev, J. O'sarov 62 Yangi Davlat ta'lim standartlari asosida o'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirishning o'ziga xos jihatlari



TA'LIMDA MONITORING

- R. Xodjiyeva 68 Chet tili darsliklarining zamonaviy avlodini ishlab chiqishga doir pedagogik tavsiyalar



KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH

- M. Umarova, N. G'ofurova 73 Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarini kasbga yo'naltirish imkoniyatlari



HUQUQ VA HUQUQIY TARBIYA

- G. Umaraliyeva 77 Bola ijtimoiy manfaatini ta'minlashning huquqiy asoslari



JISMONIY TARBIYA VA SPORT

- К. Muxammadiyev 81 Jismoniy tarbiya darslarini musobaqa usulida tashkil etish texnologiyasi



MALAKA OSHIRISH VA QAYTA TAYYORLASH

- М. Axmedov 88 Xalq ta'limi xodimlarining malakasini oshirishda tizimli monitoring bosqichlari



MUSIQA VA SAN'AT TA'LIMI

- О. Nazarov 93 Xalq cholg'ulari orqali o'qitishda musiqiy bezaklar ustida ishlash uslubiyoti



TA'LIMDA AXBOROT RESURSLARI

- Н. Islomova 97 Axborot-resurs markazlari xodimlarini innovatsion metodlar va modellar asosida malakasini oshirish texnologiyasi



PSIXOLOGIYA

- Sh. Mamasoliyeva 103 Texnologik ta'lim jarayonida loyihalash metodidan foydalanishning psixologik jihatlari
- D. Abdumadjidova 106 Yoshlarda assertiv xulq-atvorni shakllantirish va ularni destruktiv g'oyalardan saqlashning ijtimoiy-psixologik jihatlari



QIYOSIY PEDAGOGIKA

- В. Djurayeva, X. Umarova 111 Maktabgacha ta'lim tizimida jahon amaliyoti: zamonaviy ta'lim dasturlari va metodlari
- G. Anorqulova, A. Karimov 117 Xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimining o'ziga xos yo'nalishi, uslubi va tahlili



ПРАВО И ПРАВОВОЕ ВОСПИТАНИЕ

- Н. Исраилова 124 Социальное партнерство в постинтернатном сопровождении воспитанников специализированных учебно-воспитательных учреждений как важное условие профилактики повторных правонарушений



ДОШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

- Ф. Раимбекова 131 Педагогическая валеология в дошкольном образовательном учреждении



ИННОВАЦИИ В ОБРАЗОВАНИИ

- Я. Исмадияров 135 Инновационная компетентность как новая составляющая профессиональной деятельности менеджеров образования



МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ И ИНТЕГРАЦИЯ

- Ф. Ибрагимова 140 Процесс формирования у будущих учителей английского языка интереса к культуре Англии – как средство совершенствования профессиональной компетенции

VOYAGA YETMAGANLAR O'RTASIDA HUQUQBUZARLIKLARNING OLDINI OLISHDA PROFILAKTIK TADBIRLARNING O'RNI

So'nggi yillarda mamlakatimizda yosh avlodni har tomonlama yetuk va bar-kamol etib tarbiyalash, ular o'rtasida turli illatlar tarqalishi, jinoyatchilik va huquqbuzarlik holatlarining oldini olishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Insonning har tomonlama kamol topishi, hayotining farovonligi, manfaatlari ustuvorligining ta'sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o'zgartirish yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosini tashkil etadi.

Buning uchun, avvalo, tinchlik kerak, xotirjamlik zarur. Zotan, bugun qo'lga kiritilayotgan barcha yutuqlarimiz zahirida bebaho boylik – tinchlik mujassam. Osoyishtalik tufayli turmushimiz kundan-kunga farovon bo'lib borayapti, ezgu orzu-niyatlarimiz ro'yobga chiqmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev joriy yil 9-fevral kuni ichki ishlar organlari faoliyati tizimidagi mavjud muammo va kamchiliklar, istiqboldagi vazifalarga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida inson manfaatlarini ta'minlash uchun uning huquq va erkinliklari, osuda va farovon hayoti himoya qilinmog'i kerakligi haqida alohida to'xtaldilar.

Yurtboshimiz ichki ishlar organlari quyi bo'g'in bo'linmalari, militsiya tayanch punktlari va profilaktika inspektorlari faoliyati samaradorligini oshirish, ichki ishlar bo'limlari faoliyatini reyting orqali baholash tizimini joriy etish, yoshlar sodir etayotgan jinoyatlarini chuqur tahlil qilib, ularning sababi va kelib chiqishiga zamin yaratayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, barcha ta'lim muassasalariga profilaktika inspektorlarini birlashtirib, ular kundalik ish faoliyatini ta'lim muassasalaridan boshlashni amaliyotga tatbiq etish masalalari bo'yicha tavsiyalar berdi va haftaning payshanba kunini "Jinoyatchilikning oldini olish va profilaktika kuni" deb e'lon qildi.

Bu bejiz emas, albatta. Negaki, bugun balo-qazodek yopirilib kelayotgan turli axborot xurujlari, odam savdosi, giyohvandlik kabi transmilliy jinoyatlar har birimizdan yanada ogoh va hushyor bo'lib yashashni talab etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi Qonun, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 7-fevraldagi 60-sonli "Huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organ yoki muassasalarning mansabdor shaxslari tomonidan chiqariladigan rasmiy ogohlantirish shaklini hamda uni chiqarish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi buyrug'i qabul qilindi.

Ushbu buyruqdan ko'zlangan maqsad xalq ta'limi muassasalarida ta'lim oluvchilar va xalq ta'limi tizimida faoliyat yurituvchi xodimlarning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish, huquqbuzarliklarning sodir etilish sabablarini hamda ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish choralarini ko'rishdan iboratdir.

Huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishning vazifalari esa, huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, ularni bartaraf etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish hamda xalq ta'limi muassasalarida jamoat tartibini saqlash hamda tarbiyalanuvchi, o'quvchi, talaba va xodimlarning xavfsizligini ta'minlash yuzasidan huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishdir.

Huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasi – huquqbuzarliklarning oldini olish, huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish bo'yicha vazirlik, uning tasarrufidagi tashkilot va muassasalarning faoliyatidir.

“Profilaktika” yunoncha “laktikos” so'zidan olingan bo'lib, “saqlovchi”, “oldini oluvchi” degan ma'nolarni anglatadi.

Profilaktika – odamlarning uzoq umr ko'rishi, ishlash qobiliyatini saqlab qolishi, aholining jismoniy rivojlanishini yaxshilash, kasalliklarning yuzaga kelishi va tarqalishining oldini olish hamda salomatlikni himoya qilishga qaratilgan iqtisodiy, ijtimoiy, gigiyenik va tibbiy chora-tadbirlar majmuyi.

Profilaktika jamoat tashkilotlari va alohida fuqarolar tomonidan amalga oshiriladi.

Profilaktika tushunchasi va uning amaliy shakli jamiyatning tarixiy taraqqiyoti davrida iqtisod, davlat tuzumi va ilm-fanning rivojlanishiga qarab o'zgarib turgan.

Qonun ustuvorligini ta'minlash, aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish, fuqarolarni qonunga itoat va hurmat ruhida tayyorlash demokratik, huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyati barpo etishning muhim shartidir. Yuksak huquqiy madaniyat – jamiyatdagi turli xil hayotiy jarayonlarga faol ta'sir ko'rsatuvchi, fuqarolarning, barcha ijtimoiy guruhlarining jipslashuviga ko'maklashuvchi, jamiyatning yaxlitligi hamda bartabligini ta'minlovchi va mustahkamlovchi omildir.

Xalqimizda “Kasallikni davolagandan ko'ra, uning oldini olgan afzal”, degan purhikmat naql bor. Albatta, bolaga yoki bo'lg'usi huquqbuzar-jinoyatchiga uning muayyan xatti-harakati g'ayriijtimoiy xulq-atvor yoxud huquqbuzarlik ekanligi, uning oqibatlari tushuntirilsa, sodir etilishi mumkin bo'lgan ko'ngilsizlikning oldi olingan bo'ladi.

Mamlakatimizning Birinchi Prezidenti “Biz inson ulg'ayib, faol turmushga kirishib, jinoyat qilganda yoki qonunni buza boshlagandagina u sodir etgan huquqbuzarliklarning oqibatlari bilan “muvaqqiyatli” kurasha boshlaymiz. Keling, aziz do'stlar, bir o'ylab ko'raylik. Vaqt o'tgach, bunday salbiy holatlarga qarshi kurashgandan ko'ra, avvalboshdan bunday qonun buzilishlarining oldini olgan yaxshi emasmi? Huquqbuzarlik qilgan inson hali yosh, dunyoqarashi va huquqiy ongi endigina shakllanayotgan, qonunlarga itoat qiluvchi kishi qilib tarbiyalash mumkin bo'lgan paytda aniq maqsadni ko'zlab, uning tarbiyasi bilan shug'ullangan yaxshi emasmi? Bu masalaning hal etilishi prokuratura idoralari, butun huquqiy tizimimiz va umuman, jamiyatimiz uchun asosiy faoliyat yo'nalishi bo'lmog'i kerak”, deya ta'kidlab o'tganlar.

Nafaqat huquqbuzarliklarning oldini olishda, balki o'z navbatida, shaxsni jamiyat uchun foydali kishi etib shakllantirishda, ayniqsa, yoshlarni yuksak ma'naviyatli, mustaqil va erkin fikrlaydigan, har tomonlama sog'lom va barkamol avlod sifatida voyaga

yetkazishda ham g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, xalqimizning “Daraxtdan meva olaman desang, niholligidan parvarish qil”, “Egri butoqni niholida tobini ol” degan hikmatli so'zlari bejiz aytilmagan.

Biroq erishilgan bu yutuqlar biz o'z oldimizga qo'ygan yuksak maqsadga qaratilgan uzoq va murakkab yo'lning bir qismi, xolos. Tobora oshib borayotgan hayot talablariga javob berish, kechayotgan davr bilan hamqadam bo'lish, ertangi kun talablaridan kelib chiqqan holda sud-huquq tizimini isloh qilish yo'lidagi izchil harakatlarimizni kuchaytirish zarurati huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimini hozirgi zamon talablaridan kelib chiqib yanada takomillashtirishni taqozo qiladi. Xususan, turli darajadagi qonun hujjatlaridagi huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid normalarni unifikatsiyalash, huquqbuzarliklar profilaktikasi yaxlit tizimini tashkil etishda yagona yondashuvni ta'minlash, tizimga kiruvchi subyektlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning huquqiy mexanizmlarini qonunchilik yo'li bilan mustahkamlash, mutasaddi tashkilotlarning mas'uliyatini kuchaytirish zaruriyati shular jumlasidandir.

O'quvchi-yoshlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarlikning profilaktikasiga doir faoliyatning asosiy prinsiplari voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarlik profilaktikasi, ota-onalarning ishtiroki, muassasalar faoliyati, ta'lim muassasalarida sababsiz dars qoldirayotgan, huquqbuzarlik va jinoyatchilikka moyil bo'lgan o'quvchi yoshlarni aniqlash va ular bilan tushuntirish ishlarini olib borishdan iborat.

Yoshlarimizni hozirda terrorizm va din niqobidagi ekstremizmning etnik, diniy va hududiy xususiyatini yo'qotib, xalqaro muammoga aylanayotganligini, shuning uchun ham ularning turli g'oyalarga aldanuvchan bo'lib qolmasliklariga chaqirishimiz, ular ongiga milliy g'oya, xalqparvarlik, tinchliksevarlik tushunchalarini singdirib borish zarurligini ta'kidlash kerak.

Yoshlar o'rtasida, xususan, voyaga yetmaganlar o'rtasida diniy aqidaparastlik, din tushunchasining aniq mazmun-mohiyati, undagi turli buzg'unchilik g'oyalarini targ'ib etuvchi turli zararli oqimlar haqida yetarlicha ma'lumot berib borish lozim.

Yurtimizda yashayotgan har bir fuqaro farzandining iqboli yo'lida hatto hayotini ham ayamaydi. Shu bois ularning jismonan sog'lom, aqlan yetuk va ma'nan barkamol bo'lib yetishi uchun huquqni muhofaza qilish organlari bilan har bir ta'lim muassasasi uzviy hamkorlikni yo'lga qo'yishi ko'zlangan maqsadga erishishning asosi sanaladi.

Zuhra SALIYEVA,
Nizomiy nomidagi TDPU o'qituvchisi,
pedagogika fanlari nomzodi

BOLALARDA O'QISH MADANIYATI VA MUTOLAA KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Maqolada muallif bolalarda o'qish madaniyati va mutolaa ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini yoritib bergan. Shuningdek, o'qish madaniyatining standart va nostandart usullari va mutolaa texnologiyasi, uning darajasiga doir amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar. Bola, madaniyat, o'qish madaniyati, mutolaa, ko'nikma, ma'naviy madaniyat.

В статье раскрыты педагогико-психологические механизмы формирования культуры чтения и навыков чтения у детей. Автором разработаны практические рекомендации по формированию культуры чтения и навыков чтения у детей.

Ключевые слова. Ребёнок, духовность, культура чтение, навык, навыки чтения, духовная культура.

The article deals with pedagogical-psychological mechanisms of formation of a children skills and culture of reading. The author developed practical recommendations on the formation of skills and culture of reading.

Key words. Child, spirituality, culture of reading, reading, skills, reading skills, spiritual culture.

Ma'lumki, 2017-yil 12-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaa-si va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komisiya tuzish to'g'risida"gi Farmoyishi qabul qilindi. Mazkur farmoyishda axborot-kutubxona muassasalarining, ayniqsa, ta'lim sohasidagi axborot-resurs fondlarini shakllantirishda o'quv adabiyotlar bilan bir qatorda badiiy, ma'rifiy, ilmiy-ommabop adabiyotlar ro'yxatini qayta ko'rib chiqish, chop etilayotgan kitoblarni ommaviy axborot vositalari, jumladan, "Madaniyat va ma'rifat" telekanali orqali targ'ib qilish, ta'lim muassasalari, kutubxonalar, mahallalarda kitob mualliflari bilan uchrashuvlarni tizimli ravishda tashkil etish hamda ta'lim muassasalari, ayniqsa, maktabgacha va boshlang'ich ta'limda o'qish madaniyatini va mutolaa ko'nikmalarini shakllantirish masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Bu esa, o'z navbatida o'quvchilarda o'qish madaniyati va mutolaa ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlarini takomillashtirishni talab etadi".

Yoshlarda mutolaa ko'nikmalarini shakllantirish, ma'naviy madaniyatni rivojlantirish hamda yuksak ma'naviyat, insonparvarlik an'analarga sadoqat, milliy o'zlikni anglash g'oyalari yanada chuqur singdirish va kitobxonlik madaniyatini oshirish lozim.

Ayni paytda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal taraqqiy etishi va internet tarmog'idan ma'lumotlar olish imkoniyatining kengayishi bolalarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda katta ahamiyat kasb etishi bilan birga, ta'lim-tarbiya jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi ayrim muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Jumladan:

1) axborotlarning elektron varianti mavjudligi yoshlarning yodda saqlab qolish va uzoq muddatli xotirani rivojlantirishni qiyinlashtirmoqda;

2) bolalarda o'qish va yozish ko'nikmalarini shakllantirish, axborotlarni tahlil etish, umumlashtirish, taqqoslash va xulosa chiqarish kabi tafakkur jarayonlarining taraqqiy etishiga ham o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda;

3) og'zaki va yozma nutqni, obrazli va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda psixologik to'siqlarni yuzaga keltirmoqda.

Pedagogik-psixologik nuqtayi nazardan maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarda o'qish faoliyatining o'yin bilan birga olib borilishi ularda o'qish madaniyati va mutolaa ko'nikmalarini shakllantirishda qator talablarga rioya qilishni talab etadi. Jumladan, bolalarga o'qish uchun kitoblarni tavsiya etishda zamon va jamiyat rivoji xususiyatlarini hisobga olish hamda ularning o'qishiga rahbarlik qilishda ilg'or an'analardan foydalanish; bolalarning psixofiziologik, neyropsixologik, yosh va individual xususiyatlari, bilish imkoniyati, qobiliyati, qiziqishlarini hisobga olish lozim.

O'qish madaniyati keng qamrovli tushuncha bo'lib, kitobga qiziqish va uni sevish, kitob bilan ishlash haqidagi maxsus bilimlarga ega bo'lishni, shuningdek, kitobdan to'liq foydalanishga yordam beruvchi ko'nikma va malakaga ega bo'lishni taqozo etadi. Shu bilan birga hozirgi vaqtda "kitobxonlik madaniyati", "mutolaa madaniyati", "axborot madaniyati", "axborot iste'moli" madaniyati kabi atamalar ham keng qo'llanilmoqda. Xo'sh, kitob mutolaa nima? "Mutolaa" so'zi arabcha "o'qish" degan ma'noga ega bo'lsa-da, bugungi kunda u kitob o'qishdan ko'ra kengroq tushunchani anglatmoqda. Mutolaa ko'nikmasi ijtimoiy guruhlar, uyushmalar va alohida individlarning umumiy ma'lumot olishga yo'naltirilgan jarayoni, xulq-atvor va faoliyatlari mazmuni hamda tarkibiy tizimlarida yuz beruvchi o'zgarishlar majmuyini ifodalovchi bilimlar, me'yorlar, ijtimoiy hodisalar asosida yuzaga keladi.

O'qish madaniyatini shakllantirish asosida "kitobxonlik madaniyati" tarkib toptiriladi. Chunki aynan o'qish madaniyatini egallagan shaxsga nisbatan "kitobxon" atamasini qo'llash mumkin. Kitobxonlik madaniyati o'qilgan kitoblar soni bilan belgilanib qolmasdan, balki u tushunib o'qish, o'qilgan kitobning ahamiyatini anglab yetish, o'z faoliyatida qo'llay olishga doir amaliy faoliyat tajribasini o'zida aks ettiradi. Ana shu sababli kitobxonlik madaniyati fan darajasiga ko'tarilishi, nafaqat kitob mutolaaasini targ'ib etish, balki muntazam kitob o'qishga odatlanish, o'qish uchun kitobni to'g'ri tanlay olish, voqelik bilan dialogga kirishi asosida o'z-o'zini anglashga erishish o'ta muhimdir.

Bolalarda mutolaa ko'nikmalarini shakllantirish tizimi quyidagi komponentlarni o'zida aks ettiradi:

1) mutolaa texnologiyasi – o'quvchining tez yoki sekin o'qishi. Bolaning matnini o'qish tezligi o'qilgan ma'lumotlarning olingan axborotni tahlil qilish tezligi, intellektual salohiyati kabi omillarga bevosita bog'liqdir;

2) mutolaa darajasi – o'quvchining ma'lumotni anglash darajasi. Mutolaa darajasi quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi:

– o'quvchi matnning mazmunini anglab, hikoya qilinayotgan voqeaning syujetini hamda uning asosiy jihatlarini eslab qoladi;

– o'quvchi matnning mazmunini hamda syujetini anglab, voqealar rivojini ma'lum darajada bashorat qila olish qobiliyatini namoyon qiladi;

– o‘quvchi matnga va unda hikoya qilinayotgan voqeaga o‘zining mustaqil munosabatini bildirib, qahramonlarning xatti-harakatlarini baholay oladi hamda asar epizodlarini tahlil qila oladi;

– o‘quvchi matnning mazmunini to‘la anglab, voqeani mustaqil tahlil qila oladi.

– qahramonlarning xatti-harakatlarini voqealar mantig‘i asosida tahlil qilib, sintetik, ya‘ni umumlashma xulosalar chiqara oladi;

3) mutolaaning intensivligi – manbalardan foydalanish davriy sur‘ati. Mutolaa intensivligining yuqori bo‘lishini ta‘minlovchi omillarga quyidagilarni kiritish mumkin:

– mutolaaga va ma‘lumot olishga qiziqish darajasining yuqoriligi;

– mutolaa manbalarining qiziqarli, mazmunan boy bo‘lishi;

– mutolaa manbalariga oson ega bo‘lishni ta‘minlash;

– davr va zamon talablariga mos ravishda turli adabiyotlar va boshqa mutolaa manbalari reklamasini keng yo‘lga qo‘yish.

Bolalarda o‘qish madaniyati va mutolaa ko‘nikmalarini shakllantirish ta‘lim muassasasidagi o‘qitish jarayoni bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, dars va darsdan tashqari shakllarni uyg‘unligida amalga oshiriladi. Ana shu sababli umumta‘lim fanlarida darslarni tashkil etish va o‘tkazish jarayonida quyidagi jihatlarga alohida e‘tibor qaratish lozim:

1) umumta‘lim fanining xususiyati hamda maqsad, vazifalaridan kelib chiqqan holda har bir darsning tashkiliy qismida badiiy-ma‘rifiy asarlarning mavzuga doir qismini o‘quvchilar bilan birga muhokama qilish birinchidan, o‘quvchilardan o‘quv motivini kuchaytiradi, ikkinchidan, bolalar kitob o‘qish texnikasi va mutolaa ko‘nikmalarini tezlashtiradi;

2) umumta‘lim maktablarida nazorat ishlarini o‘tkazishda fanning tegishli bo‘limini o‘rganish jarayonida o‘quvchilar tomonidan o‘qilgan badiiy-ma‘rifiy, ilmiy-ommabop asar bilan bog‘liq topshiriqning taqdim etilishi bolalarning kitob o‘qishga mas‘uliyatini oshiradi va ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantiradi;

3) umumta‘lim fanlaridan takrorlash va umumlashtirish darslarini badiiy-ma‘rifiy, ilmiy-ommabop asarlarni o‘qish bilan bog‘liq holda o‘yin texnologiyalari asosida o‘tkazish o‘quvchilar o‘rtasida raqobat muhitini va izlanishli faoliyatga doir amaliyotni tashkil etish imkoniyatini beradi;

4) dars jarayonida o‘quvchilarning matn ustida ishlashini tashkil etish, tushunchalarni aniqlashga doir interfaol metodlarning qo‘llanilishi maqsadga muvofiq. Amaliy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, bolalar nafaqat ilmiy tushunchalarni, balki ayrim so‘zlarning ma‘nosini tushinishda qiyinchilik sezishadi. Shu sababli yangi mavzuni o‘rganish jarayonida dastlab o‘quvchilarning matn bilan ishlashga jalb etish hamda matndagi tushunarsiz so‘zlarni daf-targa yozib, izohli lug‘at yordamida ularning ma‘nosini juftliklarda ishlash orqali tushunishga erishish materialni to‘liq o‘zlashtirish imkoniyatini yuzaga keltiradi;

5) o‘quvchilarni dars jarayonida voqelikni emotsional idrok etish, ijodiy xayolotga yo‘naltirish juda muhim va badiiy asarlar ana shu imkoniyatni taqdim etish qudratiga ega. Bolalar kitob o‘qish davomida o‘zining amaliy faoliyati tajribasida to‘plangan taassurotlarni qayta tiklash, yangi belgilar bilan boyitish, ularni o‘zaro birlashgan holatga keltirish ko‘nikmasini o‘zlashtirishadi. Yangidan yangi obrazlar esa, bolada kreativ iqtidorlilikni rivojlantirishning eng muhim omili hisoblangan ijodiy xayolotni tarkib toptirishga xizmat qiladi;

6) dars jarayonida o‘quvchilarda o‘qish motivini jadallashtirishga e‘tibor qaratish lozim. O‘quvchi shaxsiy faoliyatda erishgan dastlabki yaxshi natijasi uni boshqa natijalarni egallashga undaydi. Uning o‘qish faoliyatidagi birinchi mehnat mahsuli shodlik va quvonch his-tuyg‘usini keltirib chiqaradi. Ayrim o‘quvchilar u yoki bu matnni bir necha marta o‘qishga

harakat qiladi. O'qish faoliyatiga qiziqish uning mazmuniga ham qiziqishni vujudga keltiradi, bilim olish ehtiyojini tug'diradi va o'qish motivlarini tarkib toptiradi.

Darsdan tashqari jarayonda bolalarda o'qish madaniyati va mutolaa ko'nikmalarini shakllantirish amaliy faoliyatni tashkil etishning standart hamda nostandart usullarini uyg'unlashtirishni talab etadi. Bular:

1. Og'zaki va yozma davra suhbat. Yozma davra suhbat bu – birgalikdagi o'qitish metodi bo'lib, bunda qog'oz va ruchka doimo aylana bo'ylab, o'yin ishtirokchilarining kichik guruhi orasida uzatib turiladi. Masalan, o'quvchilardan biri o'qish uchun taqdim etilgan kitobdan biror syujetni yozib, keyin varaqni chap tomonidagi sherigiga uzatadi. U o'sha g'oyaga o'zining qandaydir mulohazalarini qo'shadi va varaqni keyingi o'quvchiga uzatadi. Og'zaki davra suhbat yozma variantga o'xshaydi, faqat u og'zaki shaklda o'tkaziladi. Har bir ishtirokchi navbati bilan oldingi o'quvchi aytgan fikrni ilg'ab oladi va rivojlantiradi.

2. Kitoblar ko'rgazmasi. Kitob mutolaasi targ'ibotining eng ta'sirchan illyustrativ vositalaridan biri – kitob ko'rgazmasidir. Unda o'quvchi bevosita kitobni ko'zi bilan ko'radi, kitobning tashqi ko'rinishi uni o'ziga jalb etadi. Ko'rgazmalar bolalarni aniq bir maqsadga qaratilgan rejali mutolaa qilishga o'rgatadi, zero, kitoblarning har biri o'quvchi uchun muto-laaning tayyor rejasini taqdim etadi.

3. Kitoblarga sharh yozish. Bolalarni axborot-resurs markazidagi kitoblar bilan tanish-tirib borish maqsadida mazkur usuldan samarali foydalanish mumkin. Bu ma'lum bir reja bo'yicha tuzilgan yozma va og'zaki hikoya bo'lib, unda kitoblarning tavsiyasi beriladi. Adabiyot sharhi mutolaani yaxshilash, kitobxon talabini oshirish maqsadida amalga oshiriladi. Bundan asosiy maqsad bolalar e'tiborini kitobga jalb etish, ularni qiziqtirishdir. Butun sharh tugal, yaxlit, g'oyaviy mukammal, hissiyotli, tushunarli va qiziqarli bo'lishi kerak.

4. Ifodali o'qish. Ifodali o'qishning samarali tomoni shundaki, kichik yoshdagi bolalar o'qishdan ko'ra eshitishni ma'qul ko'rishadi. Bundan tashqari, kitobni o'qib beradigan kishining intonatsiyasi, o'qish texnikasi yuqori bo'lsa, asar mazmuni bolalarga tez singadi va ular ham yaxshi o'qishga intilishadi. Agar o'qilgan matn yoki asar so'zlab berilsa, bolalar kitob mazmunini teranroq tushunib oladi va o'zi ham so'zlab berishni o'rganadi. Bu esa, o'qish madaniyatining shakllanishidan dalolat beradi.

5. Adabiy o'yin va viktorinalar. Bolalarga o'yin orqali ko'p narsani o'rgatish mumkin. Buni oila davrasida, sinfda, kutubxonada tez aytish, topishmoq, hazil she'rlar aytishdan boshlash kerak. Agar jiddiy shug'ullanilsa, bolalar o'qigan kitobidagi qahramonlarning holatlarini o'yin orqali, o'z xatti-harakatlari bilan ko'rsatishlari mumkin. Ayni paytda kitob yoki hikoya mazmunini musobaqa-o'yin vositasida ham ifodalash imkoniyatlari mavjud. Shu boisdan ham, adabiy o'yinlar va viktorinalar ishni jonlantiradi, yosh kitobxonlarga qiziqish hissini uyg'otadi, bilimni kengaytiradi, musobaqa ruhini olib kiradi, ko'proq berilib o'qishga istak paydo qiladi, o'qilganlarni eslab qolishga, qiyoslashga, o'ylashga undaydi.

6. Adabiy ertaliklar. Adabiy ertaliklar ko'pincha mavzuga oid bo'lib, biron-bir yozuvchining yoki aniq bir janrdagi asarlarga bag'ishlanadi va avvaldan loyihalashtirilgan reja asosida o'tkaziladi. Bolalarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olib, 1-, 2-sinf o'quvchilari uchun o'tkaziladigan ushbu tadbirlarga 20-25 daqiqa, 3-, 4-sinf o'quvchilariga 30-35 daqiqa ajratish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

7. Ijodiy uchrashuvlar. Bunday uchrashuvlarda asosiy e'tibor uchrashuv ishtirokchilarining kitoblarga bo'lgan aksiologik munosabatini qaror toptirishga qaratiladi. Bolalar kitobning ahamiyati, jamiyat taraqqiyotidagi o'rni, umuman, kitobsiz hayot mazmunsiz ekanligini shoir va yozuvchilar, olimlarning o'zlaridan eshitsalar uning ta'siri kuchliroq bo'ladi. Bolalar adabiyoti va kitobxonligi, hozirgi adabiy jarayon va adabiy tanqid xususida bildiradigan fik-

rlar kitobxonlarni o'ziga jalb qiladi. Bunday uchrashuvlar kitobxon qalbida bir umrga muhr-lanib qoladi, uni faol kitobxon bo'lishga chorlaydi.

Bola dastlabki tarbiyani oilada olganligi sababli, oila – bolalarni kitobga qiziqtiruvchi asosiy maskandir. Shunday oilalar borki, ota-onalar farzandlari bilan birgalikda kitoblar o'qib, olgan taassurotlarini muhokama qilishadi. Shuning uchun ham bu oilada tarbiyalana-yotgan bolalarda fikrlash qobiliyati rivojlanib, aniq maqsadlar sari intilish, ijtimoiy faollik yu-zaga keladi. Biroq oilaning hech bir a'zosi kitob o'qishga qiziqmaydiganlari ham uchraydi. Bunday oilalarda tarbiyalanayotgan bolalarning ko'pchiligi saviyasi va dunyoqarashi past, faolligi sust bo'ladi.

Yuqoridagi tahlillar asosida xulosa qilsak, bolalarda o'qish madaniyati va mutolaa ko'nikmalarini quyidagilar yanada shakllantiradi:

1. Har bir oilada ota-ona yoshligidanoq farzandlariga kitob o'qib berishlari va shu orqali kitobga qiziqish uyg'otib, bolada yoshligidanoq mutolaaga ko'nikma hosil qilishlari zarur.

2. Maktabda bolalarda o'qish madaniyati va mutolaa ko'nikmalarini shakllantirishda amaliy faoliyatni tashkil etishning an'anaviy va noan'anaviy shakllaridan, ayniqsa, adabiy o'yin va viktorinalardan samarali foydalanish, har bir sinfda kitoblar burchaklarini tashkil etish hamda kitob marafonlarini muntazam o'tkazib turish maqsadga muvofiqdir.

3. Mahallalarda kitobxonlik to'garaklari, bayramlar, mushoira va mutolaa madaniyati haqida davra suhbatlarini tashkil etish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi Farmoyishi.* // "Xalq so'zi" gazetasi. 2017-yil 13-yanvar.

2. *Odobnoma.* – T.: O'zbekiston, 2015.

3. *Yo'ldoshev E. Kutubxona va yosh kitobxon.* – T.: O'zbekiston, 2003.

4. *Umarov A. Mutolaa madaniyati: shaxs, jamiyat, taraqqiyot.* – T.: Fan, 2004.

5. *G'aniyeva B. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kutubxonachilik –bibliografiya bilimlari targ'iboti.* – T.: Fan va texnologiyalar markazi, 2006.

6. *Умаров А., Коваленко А. Психология читателя и чтения.* – Т.: Изд-во Национальной библиотеки им А.Навои, 2004.

Tahririyat: *Kitob mutolaasi insonni komillik sari yetaklaydigan, unga ma'naviy ozuqa beradigan, zehni o'tkir, tafakkurini kengaytiradigan muhim vositadir. Xo'sh, bugun qanday qilib yoshlarni kitobga oshno qilib tarbiyalash mumkin?*

Muallif maqolasida ushbu muammoning yechimini, kitob mutolaasining darajasi, me'yorlarini, kitobxonlik madaniyatini oshirishga doir metodik tavsiyalarni bergani nafaqat yoshlarni, balki barchani kitobxonlikka jalb qilsa, maqsadga aniq erishilardi.

Abdushohid XASANOV,

O'MKHTTKMO va UQT instituti katta ilmiy xodim-izlanuvchisi

FANLARARO ALOQADORLIKNI TIZIMLASHTIRISH: SIFAT VA SAMARADORLIK

Annotatsiya

Maqola bugungi kunda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi sifatini yanada oshirishga qaratilgan. Shuningdek, muallif fanlararo aloqadorliklar va o'quvchilarni o'qitishning hozirgi zamon didaktikasidagi tahliliy qarashlarni tizimlashtirish to'g'risidagi ma'lumotlarni keltirib o'tgan.

Kalit so'zlar. Bilim, mahorat, ko'nikma, fanlararo, aloqadorlik, didaktika, yondashuv, dialektik, gnoseologik, obyektiv, konseptual, integratsiya, sintez.

Статья посвящена проблеме дальнейшего повышения качества обучения в системе средне-специального, профессионального образования. Автором приведены сведения о межпредметных связях, а также представлен анализ современных дидактических теорий обучения учащихся.

Ключевые слова. Знание, умение, навык, межпредметная связь, дидактика, подход, диалектика, гносеологический, объективный, концептуальный, интеграция, синтез.

Article devoted to the problem of further improving the quality of education in the system of secondary special and vocational education. The author presents information on interdisciplinary connections, as well as an analysis of modern didactic theories of student learning.

Key words. Knowledge, skills, intersubject connection, didactics, approach, dialectics, gnoseological, objective, conceptual, integration, synthesis.

Bugungi o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv dasturlari ma'lum ma'noda obyektlarni, tabiat, jamiyat va ishlab chiqarishdagi jarayon va hodisalarni o'rganishga tizimli yondashuvni talab etadi. Ammo hozirgi bilimlarni taqsimlashning fanlar tamoyili o'quv predmetlardagi murakkablashgan chegarani buzmasdan turib, ta'limga tizimli yondashuvni to'liq joriy etishga imkon bermaydi. Shuning uchun ham bugungi kunda ta'limda fanlararo aloqadorlik tamoyili zarur hisoblanadi.

Tabiiy-ilmiy ta'limning samaradorligi birinchidan, o'quvchilarning o'quv faoliyati umumiy predmeti – yetarlicha ilmiylik darajasidagi tabiatni anglash bilan, ikkinchidan, umumiy o'quv-tarbiyaviy vazifalarning majmuaviy amalga oshirilishi bilan, uchinchidan esa, bilim, mahorat va ko'nikmalarni muvaffaqiyatli o'zlashtirilishni, ilmiy-materialistik dunyoqarashning shakllantirilishi va o'quvchilarning mehnat faoliyatini faollashtirish tizimi bilan, to'rtinchidan, o'quvchilarda zamonaviy tabiiy-ilmiy fikrlashni shakllantirishga yo'naltirish bilan ta'minlanadi.

Tabiiy-ilmiy o'quv fanlari mazmuni fanlararo aloqadorlikni amalga oshirish orqali hal qilinadigan bo'lsa, yanada ijobiyroq ta'sir ko'rsatishi mumkin. Biroq buning uchun fanlararo aloqadorlikning didaktik imkoniyatlarini yanada to'laroq aniqlab olish, ularning umumiy didaktikadagi maqomini, o'qitishdagi funksiyalarini aniqlash va shu bilan o'qituv-

chilar hamda murabbiylarga fanlararo aloqadorlikdan o'qitish jarayonida samarali foydalanish uchun dastak berish lozim.

Lekin izchillik tamoyili ham o'quv axborotining mazmuni bilan cheklangan va unga tamoyil maqomi berilgan, ya'ni bu fanlararo aloqadorlikni ta'riflash va uning maqomini belgilash sharti sanalmaydi.

Fanlararo aloqadorlik muammosi ko'pgina tadqiqotchi olimlarning ishlarida ham to'laroq o'rganilgan. Shuningdek, fanlararo aloqadorlikning mohiyati va ahamiyati aniqlashtirilgan, fanlararo aloqadorlikni amalga oshirish bo'yicha o'qituvchilar faoliyatidagi asosiy yo'nalishlar ajratib berilgan.

A.A. Xasanov fanlararo aloqadorlikka "o'quvchilar bilimi va ilmiy darajasi, ular fikrlashi, ijodiy qobiliyatlari rivojlanishida o'qitishning ahamiyatini oshirishning, ularda ilmiy dunyoqarash shakllanishining, bilimlarni o'zlashtirish jarayonlarini optimallashtirishning, bilishga oid mahorat shakllanishining va yakuniy hisobda o'quv jarayonini takomillashtirishning didaktik sharti" sifatida qaraydi. Mazkur ishdan fikrlashning qanday aniq turi va bilimlar (empirik yoki nazariy) haqida borayotganligi to'g'risidagi savolga javob topa olmaymiz.¹

V.N.Fedorova fanlararo aloqadorlikka quyidagicha ta'rif beradi:

"Fanlararo aloqadorliklar tabiatda obyektiv amalda bo'lgan shunday dialektik o'zaro aloqalarning o'quv fanlari mazmunidagi aksini namoyon qiladi va zamonaviy fan tomonidan o'rganiladi, shuning uchun fanlararo aloqadorliklarni ilm-fan yo'nalishlararo aloqalar ekvivalenti sifatida olib qarash lozim".

Fanlararo aloqadorliklarning ta'riflari bir-birlaridan mos holdagi asoslar bilan farq qiluvchi bir nechta ta'riflardan iborat bo'lishi lozimligi ta'kidlanadi. Bu gnoseologik, metodologik, umumdidaktik va xususiy didaktik jihatlarni aks ettiruvchi ta'riflar bo'lishi zarurdir.

Fanlararo aloqadorliklarni amalga oshirish jarayoniga ilmiy qiziqish hozir ham su-saygani yo'q. Bu borada yuzlab jurnallarda maqolalar nashr qilingan, o'nlab dissertatsiyalar va hatto doktorlik ishlari ham yoqlangan.²

Fanlararo aloqadorliklar muammosining oliy maktabda ishlab chiqilishidagi asosiy kamchiliklarni tahlil qila turib, ularning ichidan o'z tadqiqotlarimizga taalluqli joylarini ko'rsatib o'tish mumkin:

- fanlararo aloqadorliklarning yagona umumqabul qilingan nazariyasi yo'q;
- fanlararo aloqadorliklarning funksiyalari, darajalari va amalga oshirish shakllari haqida masalalarni kelgusida ishlab chiqish talab qilinadi;
- haligacha fanlararo aloqadorliklarning umumiy didaktikadagi maqomi masalasi oxirigacha hal qilinmagan va aniq pedagogik tizimlarda ularning mazmuniy va me'yoriy funksiyalari belgilab berilmagan;
- amalda fanlararo aloqadorliklar o'quvchilarda zamonaviy tabiiy-ilmiy dunyoqarashni shakllantirishdagi funksiyalarini yuzaki, deklarativ va illyustrativ xususiyatini tushunib yetmasligiga egadir.

Fanlararo aloqadorliklarning o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimidagi ahamiyati va o'rnini tadqiq qilish, kompyuterlashtirish va iqtisodiyot yo'nalishlaridagi fanlarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash lozim.

Biroq faqatgina fanlararo aloqadorliklarning tamoyilini e'lon qilishdagina to'xtab qolish mumkin emas. Qoida o'qitish tamoyillariga faqatgina "dastaklik" xususiyatiga ega bo'lgandagina, ya'ni uni qo'llash usuli ma'lum bo'lgandagina tamoyil deb hisoblanishi mumkin. Bu vazifani esa, aynan uning mazmuniy, me'yoriy va jarayonli funksiyalari bajaradi.

1 Xasanov A.A. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limida fanlararo aloqadorlikdan foydalanish imkoniyatlari. "Pedagogik ta'lim" jurnali. 2011-yil 5-son 16-19-b.

2 Abdullayeva B.S. Fanlararo aloqadorlikning metodologik-didaktik asoslari (ijtimoiy-gumanitar yo'nalishdagi akademik litseylarda matematika o'qitish misolida): Ped.fan.dok. ...dis. – T.: O'z.PFITI. 2006. 164-b.

O'qitishning usullari va tashkiliy shakllarini belgilovchi fanlararo aloqadorliklarning tamoyili quyidagi talablarni o'z ichiga oladi:

- fanlararo aloqadorlikdan borliqni, uning obyektlari va hodisalarini bir butun, yaxlit ko'rishni aks ettiruvchi ilmiylik tamoyili va tizimli yondashuv (borliqni tushunish tamoyili) bilan rivojlantirish tamoyilini birlashtirish uchun foydalanish;

- fanlararo aloqadorliklar tamoyilini o'quvchilarning konseptual fikrlashini shakllantirish va rivojlantirishga yo'naltirilgan, loyihalashtirilayotgan faoliyat mazmunini tartibga solishi zarur bo'lgan izchillik, tarixiylik, shaxsning yagonaligi, anglash va faoliyat tamoyillari bilan uyg'unlikda rivojlantiruvchi ta'limni tartibga soluvchi jarayon sifatida olib qarash;

- fanlararo aloqadorliklardan o'quvchilarning ilmiy bilimlari rivojlantirilishini ongli ravishda boshqarish va umumilmiy (umumfan) bilimlari, mahoratlari va ko'nikmalarini shakllantirishda foydalanish;

- odatdagi ta'limdan farqli ravishda o'quvchilarning nafaqat tashqi, balki ularning yosh xususiyatlarini, psixologik o'ziga xosliklarini e'tiborga olgan holda fikrlash jarayonlarini ham boshqarishda fanlararo aloqadorliklardan foydalanish;

- modellar, nazariyalar, borliqning ilmiy tasviri kabi tuzilmaviy umumlashtirishlarning mantig'i bilan belgilanadigan aqliy harakatlar tizimini tashkil etish hisobiga bilimlarni o'zlashtirishning yuqori mustahkamligini ta'minlash;

- aniq masalalarni yechishda turdosh fanlarda olingan bilim va mahoratlardan kompleks foydalanish, ilmiy bilimlarning ijtimoiy ahamiyatini yoritish va o'quvchilarni mehnatga va kasbiy faoliyatga tayyorlash uchun o'quv jarayonlarida fanlararo aloqadorliklardan foydalanish;

- fanlararo aloqadorliklar orqali ulardan foydalanishdagi optimal imkoniyatlarga erishish uchun turli fan o'qituvchilarining salohiyatlarini birlashtirib, o'qitishga majmuaviy yondashuvni rivojlantirish;

- turdosh o'quv fanlari orasida o'rnatiladigan aloqadorliklarning samaradorligi bo'yicha farq qiladigan fanlararo aloqadorliklardan optimal foydalanish quyidagicha bo'ladi:

1. Moslashtirish aloqadorliklari.

2. Majmuaviy moslashtirish aloqadorliklari.

3. Metodologik majmuaviy moslashtirish aloqadorliklari.

Shuningdek, fanlararo aloqadorliklarning o'quv fanlari integratsiyasini tadqiq qilishdagi ayrim funksiyalari ham aks ettirilgan. Uning asosida obyektiv integratsion omillarining bir necha darajalari ajratib ko'rsatiladi:

1. To'liqlik darajasi – majmuaviy (o'tuvchi) fanlar paydo bo'lishi asosidagi yangi integrativ o'quv fanlarining yaratilishi.

2. Didaktik sintez darajasi – kasbiy-texnologik sikl fanlari asosida tabiiy-ilmiy fanlar va kasbiy sikllarning o'zaro harakati doirasidagi texnik obyektlarni o'rganish.

3. Fanlararo aloqadorliklar darajasi – suverenitet (mustaqillik)ning saqlanishi va o'quv mashg'ulotlari integrativ shakllarining o'quv jarayonida yo'qligi.

Fanlararo aloqadorliklarning o'qitishdagi mohiyati va ahamiyati:

- turdosh fanlar chegarasida yangi fanlarning tashkil topishi;

- turli fan sohalarida bilimlarni majmuaviy qo'llash orqali ilmiy bilishning yangi usullarini yaratish;

- o'quvchilarning ekologik ilmiy dunyoqarashi shakllantirilishida, ularni mehnatga tayyorlashda, asosiy kasbni tanlash jarayonida kasb-hunar muassasasining tutgan o'rining oshishi.

Fanlararo aloqadorliklarning asosiy tuzilmaviy komponentlari, ularning mazmuniy asosi:

– o'quv fanlari sikllari uchun umumiy bo'lgan nazariy bilimlar (o'quv fani sikllari uchun umumiy tushunchalar, qonunlar, nazariyalar, shuningdek, materiya, harakat, sabab, oqibat singari umumilmiy tushunchalar);

– o'quv fanlari uchun umumiy bo'lgan bilishga oid mahoratlilar (misol uchun, kompyuter fanlari, mutaxassislik fanlari kabi) va o'quv mahoratlari;

– ilmiy bilish usullari: kuzatish, tajriba, fikriy modellashtirish, nazariy tahlil va nazariy umumlalashtirish;

– o'quv fanlari uchun umumiy bo'lgan amaliy mahoratlilar: qurilmalar bilan ishlash mahorati, o'lchash, grafiklarda ishlash va hisoblash ko'nikmalari hamda mahoratlari.

Fanlararo aloqadorliklarni amalga oshirish bo'yicha pedagoglar faoliyatining asosiy yo'nalishlari:

– bir o'quv fani boshqasining o'rganilishi uchun "zamin" tayyorlaydigan o'quv fanlarini o'qitishning vaqt bo'yicha moslashtirilishi. Bunday zamin vazifasini tushunchalar va o'quv mahorati tizimi bajaradi;

– umumiy tushunchalarni shakllantirishda, qonunlar va nazariyalarni o'rganishda izchillikni ta'minlash;

– umumiy tushunchalar, qonunlar va nazariyalarni talqin qilishda ularning yagonaligini ta'minlash;

– o'quvchilarda o'quv mehnatining umumiy mahorati va ko'nikmalarini shakllantirishdagi, rivojlantirishdagi, izchilligidagi umumiy yondashuvlarni ta'minlash;

– turdosh fanlarni o'rganishda o'quvchilar olgan bilimlarni faol qo'llash va chuqurlashtirish uchun sharoitlarni yaratish;

– turli o'quv fanlarini o'rganadigan har xil tusdagi hodisalarning o'zaro aloqalarini yoritish;

– turli o'quv fanlarida qo'llaniladigan tadqiq qilishning usullari umumiyiligini ko'rsatish (kuzatish, tajriba, nazariy tahlil va h.k.);

– turli o'quv fanlarida o'quvchilar olgan bilimlarni majmuaviy qo'llashni talab qiluvchi mashqlar tizimini ishlab chiqish, o'quvchilarning ularni bajarishlarini tashkil qilish;

– turli o'quv fanlarini o'rganishda bir xil muammolar va masalalarning takrorlanishini bartaraf qilish;

– o'quvchilar turli o'quv fanlarini o'rganishda olgan bilimlarini tizimlashtirish va umumlalashtirish muvaffaqiyatli hal qilinadigan o'quv mashg'ulotlarining majmuaviy shakllarini ishlab chiqish.

Shunday qilib, biz fanlararo aloqadorliklar o'qitishning ilmiyligi va yetarililigini oshirishga, o'quvchilarning bilishga oid faoliyatini sezilarli ravishda kuchaytirishga, ular bilimi sifatini oshirishga yordam beruvchi va fikrlashning zamonaviy usulini samarali rivojlantirishga va ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga imkon beruvchi didaktik tamoyil sifatida namoyon bo'lishi haqidagi nuqtayi-nazarni qo'llab-quvvatlaymiz. Ularni amalga oshirish o'quv rejasi, dasturlari, darsliklarning tuzulmasini vaqt bo'yicha tejamliroq belgilash imkonini berib, bu umuman olganda, o'quv jarayonlarini amalga oshirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xasanov A.A. *O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limida fanlararo aloqadorlikdan foydalanish imkoniyatlari. "Pedagogik ta'lim" jurnali. 2011-yil 5-son, 16-19-b.*

2. Abdullayeva B.S. *Fanlararo aloqadorlikning metodologik-didaktik asoslari (ijtimoiy-gumanitar yo'nalishdagi akademik litseylarda matematika o'qitish misolida): Ped.fan. dok. ...dis. – T.: O'z.PFITI. 2006. 164-b.*

Anvar HAYITOV,

Toshkent shahar Shayxontohur tumani

92-umumiy o'rta ta'lim maktab o'qituvchisi

BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

Annotatsiya

Maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kommunikativ qobiliyatini rivojlantirish yo'llari va o'quvchini ishontirish, uning ongiga ta'sir etish hamda taqlid qilish ko'nikmalarini shakllantirishga oid pedagogik-psixologik mahoratni qo'llash tajribasi haqida fikr yuritilgan. Muallif fikricha, o'qituvchining so'z boyligi va notiqlik malakasi o'quvchi ongiga ta'sir etishning muhim manbasi hisoblanadi.

Kalit so'zlar. Kommunikativ qobiliyat, nutq, nutqiy madaniyat, so'zamonlik, ishontirish, ongga ta'sir etish, taqlid qilish.

В статье освещены пути развития коммуникативных способностей у учащихся начальных классов, охарактеризован опыт применения учителями педагогико – психологического мастерства с целью воздействия на сознание учащихся и формирования у них навыков подражания правильной речи. По мнению автора, ораторское искусство и богатство языка учителя является важным фактором, влияющим на сознание учащихся.

Ключевые слова. Коммуникативные способности, речь, культура речи, красноречие, убеждение, влияние на сознание, подражание.

Article highlights the ways of development of communicative abilities in primary school pupils, describes the experience of teachers applying pedagogical and psychological mastery with the aim of influencing the consciousness of students and forming their skills in imitating correct speech. According to the author, oratorical art and the richness of the teacher's language is an important factor affecting the students' consciousness.

Key words. Communicative abilities, speech, speech culture, eloquence, persuasion, influence on consciousness, imitation.

Mamlakatimiz Birinchi Prezidenti Islom Karimov o'qituvchi pedagoglarning mas'uliyatini yanada oshirish maqsadida quyidagi fikrlarni aytib o'tgan: "Biz yurtimizda yangi avlod, yangi tafakkur sohibalarini tarbiyalashdek, mas'uliyatli vazifalarni ado etishda birinchi galda ana shu mashaqqatli kasb egalari-ga suyanamiz va tayanamiz, ertaga o'rnimizga keladigan yoshlarning ma'naviy dun-yosini yaxshi tasavvur qilamiz". Ushbu fikrlardan bugungi kun o'qituvchisiga nisbatan qo'yilayotgan talablarning mazmun va mohiyati anglaniladi.

O'qituvchi faoliyatining muhim jihati – bu uning nutqi va o'quvchilar bilan mu-loqotidir. Nutq – bu og'zaki kommunikatsiya, ya'ni til yordamida muloqot qilish jarayo-ni demakdir. Kommunikatsiya – (lot. "communicatio" – xabar, aloqa) biror mazmun-

ning til vositalari orqali berilishi, xabar qilinishi.¹ Ijtimoiy tajribada biron-bir mohiyatni anglatadigan soʻzlar ogʻzaki kommunikatsiya vositasi hisoblanadi. Soʻzlar eshittirib yoki ovoz chiqarmasdan aytilishi, yozib qoʻyilishi yoki kar-soqov kishilarda biron-bir mohiyatga ega boʻlgan imo-ishoralar bilan almashtirilishi mumkin. Pedagogik jihatdan kommunikatsiya va bevosita kommunikativ qobiliyatga taʼrif beradigan boʻlsak, kommunikativ qobiliyat deb – muomala va muloqot oʻrnata olish, oʻquvchilarga toʻgʻri yondashish yoʻlini topa olish, ular bilan pedagogik nuqtayi nazardan samarali oʻzaro munosabatlar oʻrnata bilish, pedagogik nazokatning mavjudligi hisoblanadi. Bu jarayonlarda esa, nutq asosiy oʻrinni egallaydi. Demak, nutqiy qobiliyatning ahamiyati ham yuqori sanaladi. Nutqiy qobiliyat kommunikativ qobiliyatning bevosita tarkibiy qismi hisoblanib, kommunikativ qobiliyat uchun asosiy vositadir.

Nutqiy qobiliyat – ixcham, maʼnoli, ohangdor, muayyan ritm, temp, chastotaga ega boʻlgan nutq, shuningdek, oʻqituvchi nutqining jarangdorligi, uning toʻxtam, mantiqiy urgʻuga rioya qilishi. Qobiliyatli oʻqituvchining nutqi darsda hamisha oʻquvchilarga qaratilgan boʻladi. Oʻqituvchi yangi materialni tushuntirayotgan, oʻquvchining javobini tahlil qilayotgan, maʼqullayotgan yoki qoralayotgan boʻlsa ham uning nutqi hamisha oʻzining ichki kuchi, ishonchi, oʻzi gapirayotgan narsaga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Fikrlar ifodasi oʻquvchi uchun aniq, sodda, tushunarli boʻladi.

Demak, mahoratli oʻqituvchining egallashi lozim boʻlgan bilim, malaka, koʻnikmalari va uning kommunikativ koʻnikmalarining mohiyati, ahamiyati haqida fikr yuritishimiz maqsadga muvofiqdir. Biz quyidagi pedagog va allomalarning oʻqituvchi nutqini rivojlantirish toʻgʻrisida bildirilgan fikrlarni koʻrib oʻtamiz.

Jumladan, A. Jomiy “Oʻqituvchining nutq madaniyati oʻquvchilarning darsdagi aqliy mehnatning samaradorligini hal qiluvchi darajada belgilaydi”, deb taʼkidlagan va bunday madaniyatni rivojlantirish oʻqituvchi soʻz yordamida hosil qilishga urindigan va oddiydan murakkablikka, yaqindan olislikka, aniqlikdan umumiylikka oʻtib boʻlmaydigan tushunchalar tafsilotidagi noaniqlikning sabab va oqibatlarini aniqlash yoʻllarini koʻrsatib bergan.

Soʻz bilan ogʻzaki taʼsir qilishda oʻqituvchi nutqi nihoyatda muxtasar, ravon va muloyim boʻlishi, intonatsiyalar oʻz oʻrnida ishlatilishi kerak. Soʻz bilan ogʻzaki taʼsir oʻtkazish qudrati Sharq xalqlarida azaldan maʼlum boʻlgan.

Adib Ahmad Yugnakiy ham soʻzlaganda nutqni oʻylab, shoshmasdan tuzishga, keraksiz, yaroqsiz soʻzlarni ishlatmaslikka, mazmundor soʻzlashga chaqiradi. No-toʻgʻri tuzilgan nutq tufayli keyin xijolat chekib yurmagin, deb soʻzlovchini ogohlantiradi:

*Oʻqub soʻzla soʻzni eva soʻzlama,
Soʻzung kizla kedin, boshing kizlama.*

Mazmuni: (Soʻzni oʻqib soʻzla, shoshib gapirma, keraksiz soʻzlarni yashir, yomon gaping tufayli keyin boshingni yashirib yurma).²

Bundan tashqari Farobiy “bitta soʻzning oʻzini goho buyruq, goho iltimos, goho

¹ Rasulov R., Moʻydinov Q. Nutq madaniyati va madaniyati sanʼati. Oʻquv qoʻllanma. – T., 2010. 28-30-b.

² Qarang: Ahmad Yugnakiy. Hibatul-haqoyiq. – T., 1971. 78-b.

nasihat kabi ma'no baxsh etgan holda turli ohangda talaffuz eta bilishi kerak” deb ta'riflagan.³

Yuksak nutq madaniyati – o'qituvchi tomonidan vaqtdan oqilona foydalanishning muhim shartidir.

Yuqoridagi fikrlardan bilishimiz mumkinki, o'qituvchining nutqiy madaniyati, mu-loqotga kirishish qobiliyati, so'zamonligi uning kommunikativlik qobiliyatini yanada rivojlantirishga turtki beradi.

O'qituvchining fikr almashuvi bilan bog'liq kommunikativ qobiliyatini rivojlantiruv-chi asosiy xususiyatlari o'quvchi ongiga qaratilgan faoliyat bo'lib, nihoyatda murak-kab jarayonda takomillashadi. O'zaro fikr almashish omillari bilan bevosita bog'liq bo'lgan kommunikativ qobiliyatning quyidagi yo'nalishlari mavjud:

- o'quvchilarni ishontirish;
- o'quvchilar ongiga ta'sir etish;
- o'zgalarga taqlid qilish.

O'quvchilarni ishontirish – tarbiyalanuvchining ongiga qaratilgan bo'lib, o'qituvchi fikr-mulohazalarini ta'sirchan nutq orqali o'quvchining bilimlar tizimiga, dunyoqara-shiga, xulq-atvoriga, xatti-harakatiga ta'sir etadi va uni qisman o'zgartiradi. Ishon-tirish o'qituvchining kasb faoliyatiga taalluqli bo'lgan asosiy ta'sir ko'rsatish vositasi bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonida ishlatiladigan usullardan biri hisoblanadi.

O'quvchi ongiga ta'sir ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan ishontirish usuli o'qituv-chidan bahs, munozara asosida dalillar keltirishni, isbot va mantiqqa tayanishni talab qiladi. Ayniqsa, o'qituvchi bilan o'quvchilar orasida o'rganilayotgan mavzuga taalluqli muqobillik mavjud bo'lganda, tanqid va fikrlar kurashiga tayanilganda sa-marali bo'ladi.

Ishontirish tarbiyalanuvchining ongiga qaratilgan ekan, o'qituvchining his-tuy-g'usi, nutqi va ishontira olish san'ati bunda muhim ahamiyatga ega. U pedagogik ta'sir ko'rsatish usuli sifatida darslarda yangi mavzuni tushuntirishda, o'quv-tarbi-yaviy soatlarda, turli uchrashuvlar va ijodiy suhbatlarda munozaralar shaklida qo'llaniladi. Tarbiyaviy tadbirlarda ishontirish usuli sinf jamoasi bilan hamda alohida o'quvchi bilan individual suhbatlar o'tkazish, siyosiy mavzulardagi darslarda keng qo'llaniladi. Ishontirish usuli yordamida o'quvchilarning dunyoqarashi shakllantirila-di. Bu ayniqsa, o'quvchi ongini yot mafkuraviy g'oyalardan himoya qilishda muhim ahamiyatga ega, ishontirish asosida o'quvchiga ideal va mustaqil fikrlar qayta quri-ladi, ularni ba'zi psixik ta'sirlar tufayli sodir bo'ladigan tushkunlik holatidan asraydi, ularda erkinlikni hamda mustaqil fikrlash qobiliyatini o'stiradi, o'ziga va kelajagiga ishonchini uyg'otadi va mustahkam irodani shakllantirishga undaydi.

O'quvchilar ongiga ta'sir ko'rsatish murakkab psixologik xususiyat bo'lib, o'qi-tuvchi kommunikativ qobiliyatining muhim omili hisoblanadi. O'qituvchilarning o'zaro suhbatlari va faoliyati jarayonida tarbiyalanuvchi ongiga ta'sir etishning o'ziga xos xu-susiyati shundan iboratki, u o'quvchilarning psixikasi va xulq-atvoriga sezilsiz ra-vishda ta'sir ko'rsatadi. Ta'sir o'quvchilar ongiga, psixikasiga nazoratsiz kirib borishi bilan alohida ahamiyatga ega, o'quvchilarning ijodiy faoliyatida, xatti-harakatlarida, intilishlarida yo'l-yo'riqlar ko'rsatish tarzida amalga oshiriladi.

³ Mavlonova R., Abdurahimova D. Pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. – T.: Fan va texnologiya, 2009. 47-b.

Ongga ta'sir ko'rsatish – shunday bir psixik jarayonki, o'quvchilar o'qituvchining yoki biror shaxsning ta'siri ostida, o'z ongining yetarli nazoratisiz voqelikni idrok etadi. Agar o'qituvchi bunda pedagogik qobiliyatga, psixologik tajriba va bilimlarga ega bo'lmasa, o'quvchilar ongiga ta'sir qila olmaydi, natijada ta'lim-tarbiya jarayoni ijobiy natijalar bermaydi, o'qituvchi o'quvchilarning hurmat-e'tiboriga sazovor bo'la olmaydi. O'qituvchi o'z tarbiyalanuvchilari ongini tashqi muhitning salbiy ta'sirlaridan, sinf jamoasi norasmiy yetakchilarining turli yashirin buzg'unchi g'oyalaridan himoya qilishga mas'ul shaxsdir. O'quvchi ongiga ta'sir o'tkazishda o'qituvchi yetakchilikni qo'lga kiritishi uchun:

- o'quvchilarning salbiy xatti-harakatlari tufayli sodir bo'ladigan emotsional his-tuyg'ularga berilmasligi;
- har bir o'quvchining psixologik va ruhiy holatini puxta o'rganmasdan uning ongiga tarbiyaviy ta'sir o'tkazishga harakat qilmasligi;
- har bir o'quvchiga alohida shaxs sifatida hurmat, e'tibor bilan munosabatda bo'lishi;
- sinf jamoasining norasmiy yetakchisini sezdirmasdan aniqlab olishi va uning xatti-harakatidan doimo ogoh bo'lishi;
- pedagogik mahoratning muhim jihatlari uzluksiz o'zida takomillashtirib borishi;
- o'ylanmay aytilgan har bir so'z, noo'rin fikr-mulohazaning oqibatini hech qachon tuzatib bo'lmasiligini o'qituvchi doimo his etishi lozim.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, hozirgi kunda axborot texnologiyalari maydonining nihoyatda kengligi tufayli o'quvchilar ongi tarbiyaga salbiy ta'sir o'tkazuvchi g'oya va mafkuralar bilan band bo'lishi tabiiy hol. O'qituvchilar yosh avlodni tarbiyalashda ongga ta'sir qilishning keng imkoniyatlarini o'z o'rnida qo'llay olishsa, o'quvchilar ongini turli keraksiz g'oya va mafkuralardan himoya qila olishadi. Shuni unutmaslik kerakki, o'quvchi o'zining yosh xususiyatlari va psixologik ta'sirga moyilligi tufayli har qanday ta'sirga nihoyatda beriluvchan bo'ladi. O'qituvchining esa bularga e'tibor bergan holda pedagogik faoliyatni olib borishi talab qilinadi.

Taqlid qilish – shaxsning psixologik xususiyati bo'lib, o'zi sevgan biror inson harakatiga, namunasiga, ibratiga amal qilishidir. O'quvchi o'zi uchun ideal deb bilgan kishining xulq-atvor namunalari ongsiz ravishda taqlid qiladi. O'quvchilar o'zgalar xulq-atvoridan andoza olib, taqlid qilishadi. Taqlid qilishning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, o'quvchilar o'z xatti-harakati va muomalasi jarayonida o'zi ko'rgan, kattalar bajargan harakatlarni takrorlashga intiladi. Taqlid qilishning yana bir xususiyati o'quvchi badiiy asarlarda o'qigan, kinofilmlarda ko'rgan sevimli idealidagi qahramon obraziga, xarakteriga, jasoratiga, imo-ishora, nutq, kiyinish uslublariga beixtiyor taqlid qiladi, o'z faoliyatida takrorlaydi.

O'qituvchi kommunikativ qobiliyati bilan pedagogik faoliyat olib borish jarayonida o'zaro fikr almashish yo'li bilan ta'sir ko'rsatishning ko'rib chiqilgan asosiy turlari – o'quvchini ishontirish, ongiga ta'sir etish, taqlid qilish – bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan psixologik xususiyatlaridir va ayni vaqtda, o'ziga xos farqlarga ega. Ishontirish va ongga ta'sirning o'zaro bog'liqligi shundan iboratki, biz ta'sir ko'rsatish usulining unisidan ham, bunisidan ham foydalanganda ko'pincha notiqlik san'atini namoyish etamiz. O'qituvchining so'z boyligi va notiqlik malakasi ishontirish va

o'quvchi ongiga ta'sir etishning muhim manbalaridir.⁴

O'qituvchining kommunikativ qobiliyatini rivojlantirishda quyidagi metodik tavsiyalarni keltirish mumkin:

1. So'z boyligini oshirish nutqdagi kamchiliklarni to'g'irlash va yanada rivojlantirish uchun kitob (badiiy)larni ko'proq mutolaa qilish.

2. Nutqdagi kamchiliklarni to'g'irlash va yanada rivojlantirish uchun o'z-o'ziga ma'ruza qilishi.

3. Nutqda ta'sirchan so'zlardan ko'proq foydalanish lozim, yani B.N.Golovin aytganidek, ta'sirchan nutq tinglovchi va o'quvchining e'tibori va qiziqishini hisobga oladigan nutqdir. Nutqning ta'sirchanligiga erishishda tilning tasviriy vositalari hisoblangan metafora, metonimiya, sinekdoxa, o'xshatish, epitet, takror va adabiy ko'chimlarning ham roli kattadir. Bulardan tashqari nutqda ta'sirchanlikni ta'minlash uchun maqol, matal, hikmatli so'z va iboralardan, ayniqsa, frazeologizmlardan unumli foydalanish darkor.

Xulosa qilib aytganda, o'qituvchining nutqiy madaniyati, kommunikativ qobiliyatini takomillashtirish va uning asl mohiyati va tushunchalarini yanada chuqur anglashga e'tiborni kuchaytirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmad Yugnakiy. *Hibatul-haqoyiq*. – T., 1971. 78-b.

2. Mavlonova R., Abdurahimova D. *Pedagogik mahorat, O'quv qo'llanma*. – T.: Fan va texnologiya, 2009. 47-b.

3. Rasulov R., Mo'ydinov Q. *Nutq madaniyati va madaniyati san'ati. O'quv qo'llanma*. – T., 2010. 28-30-b.

4. Xoliqov A.A. *Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilar pedagogik mahoratini rivojlantirish* – T.: Iqtisod-moliya, 2015. 111-114- b.

Tahririyat : Umumiy o'rta ta'limning asosiy poydevori – bu boshlang'ich sinf bo'lib, ushbu bosqichda har bir o'quvchining intellektual, noyob qobiliyatlari, iste'dodlari rivojlanibgina qolmay, bilimning asosiy qismini egallaydi. Ushbu ezgu yo'lda xizmat qilayotgan insonlardan esa, bilim, tajriba, mas'uliyat va madaniyat bilan birga, muallif fikricha, uning kommunikativ qobiliyatlarini ham rivojlantirish talab etiladi. Maqolada ushbu masalalar atroflicha tahlil etilgani tizimdagilarga yordam berishiga ishonchimiz komil.

⁴ Xoliqov A. Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilar pedagogik mahoratini rivojlantirish. – T.: Iqtisod - moliya, 2015. 111-114- bet.

Oynisa MUSURMONOVA,

O'zbekiston Davlat jahon tillari universiteti kafedra mudiri,
p.f.d., professor

UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA O'QUVCHI-YOSHLAR IJTIMOIY FAOLLIGINI TARBIYALASHNING ILMIY- PEDAGOGIK ASOSLARI

Annotatsiya

Maqolada o'quvchi-yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishning ilmiy-pedagogik talqini, mazmuni, yo'nalishlari, pedagogik shart-sharoitlari, omillari, bosqichlari, indikatorlari ilmiy-nazariy jihatdan talqin etiladi, xulosa va tavsiyalar olg'a suriladi.

Kalit so'zlar. Ijtimoiy faollik, pedagogik omil, pedagogik shart-sharoit, ijtimoiy tarbiya, fuqarolik pozitsiyasi, o'zaro muloqot almashinuvi, ijtimoiy-kommunikatsiya jarayoni.

В статье дается научно-теоретическое толкование научно-педагогического содержания педагогических условий, факторов, этапов, индикаторов повышения социальной активности учеников, выдвигаются соответствующие заключения и рекомендации.

Ключевые слова. Социальная активность, педагогические факторы, педагогические условия, социальное воспитание, гражданская позиция, социально-коммуникационный процесс.

Article presents a scientific and theoretical interpretation of the scientific and pedagogical content of pedagogical conditions, factors, stages, indicators of increasing the social activity of students, where also put forward a conclusions and recommendations.

Key words. Social activity, pedagogical factors, pedagogical conditions, social education, civic position, social and communication process.

Bugungi kunda globallashuv jarayoni talablariga mos ijtimoiy-siyosiy faol avlodni tarbiyalash masalasi davlat siyosatining ustuvor masalalaridan biri sanaladi. Bu masala O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni bilan tasdiqlangan "2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning besh-ta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da "jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtayi nazar-ga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish"¹ tarzida yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Chunki globallashuv, integratsiya jarayonida barcha sohalarda shiddat bilan kechayotgan taraqqiyot insoniyatning ijtimoiy faolligini taqozo etadi. Bu o'rinda yosh-larning ijtimoiy faolligini oshirishga alohida e'tibor berish davr talabidir. Ularning iqt-i-

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. 2017-yil 7-fevral

dori, iste'dodi, qobiliyati, intellektual salohiyati, kreativ va sog'lom tafakkurini jamiyat talablariga mos rivojlantirishdan davlat va jamiyat manfaatdordir. Respublikamizda hukumat qarorlari asosida yoshlar ishlari bo'yicha maxsus tizim joriy etildi. Undan maqsad yoshlarning jamiyatdagi ijtimoiy faolligini oshirishdir.

Shu o'rinda "Ijtimoiy faollikning o'zi nima? Nima sababdan bugungi kunda yoshlarda ijtimoiy faollikni tarbiyalashga davlat siyosati darajasida qaralmoqda?" degan haqli savol tug'iladi.

Lug'atlarda izohlanishicha, "Ijtimoiy faollik – ijtimoiy subyektlar (jamiyat, tabaqa, guruh va shaxslar)ning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtirokining, mehnat hamda madaniy-ma'rifiy faoliyatining kuchayishi, qonunda belgilab qo'yilgan huquq va burchlarini to'liq amalga oshirishga intilishi" demakdir. Shuningdek, "ijtimoiy faollik shaxsning jamiyatda o'z o'rnini topishi va xulq-atvorini ongli ravishda boshqarishning asosiy sharti hisoblanadi. Ijtimoiy tarbiya esa, tarbiyaning muhim bir shakli, butun jamiyat, xalq, millat va tabaqaga ko'rsatilgan maqsadga muvofiq ma'naviy ta'sirni ifoda etadigan tarbiya"²dir.

Bizning talqinimizcha, ijtimoiy faollik – shaxsning jamiyat taraqqiyotini ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, yaratuvchanlik hamda insonparvarlik siyosati mazmun va mohiyatini ongli ravishda bilishi hamda unga kreativ yondashuv asosida amal qilishi demakdir. Ijtimoiy tarbiya esa, shaxsning mavjud intellektual salohiyatini ijtimoiy-siyosiy ongi va tafakkurining mahsuli sifatida jamiyat taraqqiyoti uchun safarbar etishga tayyorlash demakdir.

Ijtimoiy faollik natijasi shaxs ongi va tafakkuri mahsuli sifatida amaliy faoliyatda o'zini namoyon etadi. O'quvchi-yoshlarning ijtimoiy faolligi demokratik fuqarolik jamiyati barpo etishning asosi hamda mamlakatimizni dunyodagi eng rivojlangan mamlakatlar qatoridan o'rin olishlarida muhim omil hisoblanadi. Shu bois, mamlakatimizda yoshlarni jahon standartlariga mos raqobatbardosh mutaxassis kadrlar bo'lib yetishishlari bilan bir qatorda ularni ijtimoiy faol fuqaro sifatida tarbiyalash davlat ta'lim siyosatining ustuvor masalalaridan biriga aylangan.

Pedagogika sohasida ushbu muammo bo'yicha olib borilgan tadqiqot ishlari natijasi tahlillari shundan dalolat beradiki, o'quvchi-yoshlar ijtimoiy faolligini shakllantirishning pedagogik mexanizmlari, uning tarkibiy komponentlari, manbalari, shart-sharoitlari, mazmuni va samarali shakl va metodlari globallashtirish sharoiti talablari asosida yetarlicha tasnif etilmagan. Shuningdek, ijtimoiy faollik shakllanganligini belgilovchi pedagogik indikatorlari ishlab chiqilmagan. Shu nuqtayi nazardan ushbu masalalar yuzasidan biz o'z ilmiy-nazariy qarashlarimizni olg'a surdik. Bizning ilmiy xulosalarimizga ko'ra, uzluksiz ta'lim tizimida bolalar va o'quvchi-yoshlarda shakllantirilishi lozim bo'lgan ijtimoiy faollikning to'rtta ustuvor yo'nalishlari mavjud. Ular:

- o'quvchi-yoshlarda globallashtirish jarayoni talablariga mos ijtimoiy-siyosiy faollikni shakllantirish;
- umuminsoniy va milliy demokratik qadriyatlarga sodiqlik asosida zamonaviy keng dunyoqarash va bag'rikenglikni rivojlantirish;
- ma'naviy-ma'rifiy tarbiya asosida yoshlarda mafkuraviy immunitet va milliy o'zlikni anglashni shakllantirish;

² Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'ati. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009, 187-188-b.

– jamiyat taraqqiyotida har bir shaxs o'z intellektual salohiyati, ijodkorligi, tashabbuskorligi va tadbirkorligini kreativ tafakkur mezonlari asosida fuqarolik pozitsiyasini namoyon etishdan iboratdir.

Mazkur yo'nalishlar asosida o'quvchi-yoshlar faoliyatida namoyon bo'ladigan ijtimoiy faollikning bir qancha indikatorlari mavjud bo'lib, biz ularni quyidagi mazmunda taklif etdik:

– mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosatining asoslarini va uning g'oyaviy-siyosiy mohiyatini nazariy va amaliy jihatdan anglab yetish va unga faoliyati jarayonida metodologik asos sifatida amal qilish;

– o'quvchi-yoshlarning o'z huquq va burchlarini mukammal bilishlari va ularga amal qilishlari;

– jamiyatda bo'layotgan tub o'zgarishlar va ularning mazmun va mohiyatidan xabardorlik;

– vatan, xalq, millat ravnaqi yo'lida butun kuch, bilim va imkoniyatlarini safarbar etish;

– ijodkorlik, tashabbuskorlik hamda o'z faoliyatining har bir turiga kreativ tafakkur bilan yondashish (o'qish, o'yin, ijtimoiy foydali mehnat) malaka va ko'nikmalariga ega bo'lish;

– o'z qobiliyati va intellektual salohiyatini oilasi, mahallasi, maktab yoki oliy ta'lim muassasi jamoasi manfaatlarini yo'lida saxiylik bilan namoyon etish;

– atrof-muhitda bo'layotgan voqea-hodisalarga sezgirlik va ogohlik bilan munosabatda bo'lish;

– mafkuraviy immunitet orqali turli yot mafkuraviy oqimlar, g'oyalarga nisbatan murosasizlikni o'z amaliy faoliyatida namoyon etish;

– umuminsoniy va milliy qadriyatlarga nisbatan hurmat va ehtiromni nazariy va amaliy jihatdan isbotlash;

– bo'sh vaqtlarini qiziqishlari, qobiliyatlari bo'yicha maqsadli, ijtimoiy foydali tashkil etish;

– sog'lom turmush tarzi asosida hayot kechirish, turli illatlarga nisbatan murosasiz bo'lish;

– globallashuv jarayoni talablaridan kelib chiqqan holda tolerantlik tafakkuri asosida turli millat vakillari, ularning milliy an'analari, tili, dini, madaniyati, san'atiga nisbatan hurmat va ehtiromni ko'rsatish;

– shaxsiy refleksiya talablariga rioya etgan holda o'z faoliyatini doimiy nazoratda ushlay olish, natijani oldindan ko'ra bilish qobiliyatini namoyon etish va h.k.

Albatta, o'quvchi-yoshlar ijtimoiy faolligini belgilab beradigan mazkur indikatorlarning hayotiyliigi, zamonaviyligi, ilmiy va metodik jihatdan asoslanganligi muhim rol o'ynaydi.

O'quvchi-yoshlar ijtimoiy faolligini shakllantirish va ularning natijasini baholash murakkab pedagogik jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayonni samarali tashkil etish uchun, avvalo, "O'quvchi-yoshlarda ijtimoiy faollik qanday pedagogik mexanizm asosida shakllantiriladi?" degan savolga javob topish lozim. Bu o'rinda biz besh bosqichdan iborat mexanizmni tavsiya etamiz.

Birinchi bosqich: ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida o'quvchi-yoshlarni maxsus dastur asosida ijtimoiy pedagogik va ijtimoiy psixologik tashxislash ishlari amal-

ga oshiriladi. Mazkur dasturning asosiy maqsadi – bolalar, o'quvchi-yoshlarning ijtimoiy ongi va tafakkurini, qiziqish va qobiliyatini, oilasining ijtimoiy turmush tarzi va uning jamiyatda tutgan o'rnini, ijtimoiy turmushda bo'layotgan voqea va hodisalarga nisbatan munosabatini, o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalarini aniqlash va shu asosida ta'lim-tarbiyaviy ishlarni tashkil etish modelini ishlab chiqishdan iboratdir. Ushbu dasturda bola, o'quvchi-talabanning pedagogik va psixologik xususiyatlari, ijtimoiy kelib chiqishi, etnik holati, turar joyining geografik joylashishi, milliy mansubligi, oilaviy hamda milliy an'analari, turmush tarzi, ta'lim muassasasi joylashgan ijtimoiy muhit, demografik vaziyat, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayoti, an'analari va boshqalar haqida ma'lumot olish nazarda tutiladi. Ushbu blokni aniqlovchi, ijtimoiy tashxislovchi bosqich sifatida izohlash mumkin. Shuningdek, mazkur bosqichda o'quvchi-yoshlarning rivojlanishi va shakllanishida ijtimoiy hayot, etnik hamda milliy, umuminsoniy qadriyatlarning ta'siri aniqlanadi. Bu, albatta, ular bilan olib boriladigan ijtimoiy va tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Ikkinchi bosqich: o'yin, o'qish va mehnat faoliyatining mazmuni bolalar va o'quvchi-yoshlarning psixologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ijtimoiy faollikni tarbiyalash nuqtayi nazaridan aniqlanadi. Ushbu jarayonni samarali tashkil etish uchun tarbiyachi, o'qituvchilar metodik jihatdan tayyorlanadi (metodologik, ijtimoiy-g'oyaviy, ilmiy-metodik, didaktik, tarbiya nazariyasi, ta'lim menejmenti) hamda o'z kasbiga ijtimoiy-metodik tayyorgarlik darajasi aniqlanadi. Bunda:

- o'qituvchilar nafaqat mutaxassislik fanidan, balki ijtimoiy, pedagogik, psixologik fanlardan yetarlicha ilmiy-nazariy bilim, malaka, ko'nikmaga ega bo'lishi;
- ijtimoiy hayotda bo'layotgan voqea-hodisalarning mazmun va mohiyatini chuqur anglab yetishi hamda unga munosabatini bildira olishi;
- ommaviy axborot vositalari (OAV), matbuot materiallarining qaysi ruknlariga qiziqishi;
- u yoki bu mamlakat tarixi, ijtimoiy hayoti, madaniyati, san'ati, an'analari, tili, dini, etnik hayoti, fan va texnika taraqqiyoti haqidagi bilim darajasi;
- ilg'or tajribali o'qituvchilar tajribasini o'rganishga moyillik holati, ya'ni pedagogik faoliyatga tayyorgarlik darajasi o'rganiladi va o'rganish natijalariga ko'ra, ularni shu jarayonga tayyorlash yuzasidan metodik ishlar tashkil etiladi.

Uchinchi bosqich: tashxis natijalari asosida ta'lim-tarbiya jarayonini loyihalashtirish, natijani oldindan aytish (mazmunni tanlash, innovatsion ta'lim-tarbiya shakl, metod va vositalarini aniqlash). O'quvchi-yoshlarning ijtimoiy faolligini shakllantirishda ta'lim-tarbiyaning an'anaviy hamda innovatsion shakl, metod va vositalaridan, o'tiladigan mavzu mazmunidan kelib chiqqan holda foydalaniladi.

Jumladan, multimedia resurslari, ommabop ijtimoiy xarakterdagi o'quv va badiiy adabiyotlar, rasmlar bilan bezatilgan gazeta va jurnallar, o'quv-metodik materiallar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, maxsus teleradio roliklari va reportajlar, xorijiy ilmiy-ommabop va ijtimoiy-siyosiy xarakterdagi media matnlar va ularning didaktik imkoniyatlari, media treninglar, hujjatli filmlar, elektron ta'lim resurslari, maxsus interaktiv web-loyihalar, ijtimoiy loyihalar mazmunidan kelib chiqqan holda umumdidaktik interfaol metod va vositalardan foydalaniladi.

To'rtinchi bosqich: ta'lim-tarbiyaga innovatsion yondashuv asosida jarayonni tashkillashtirish, nazorat qilish ishlari amalga oshiriladi. Ushbu blok o'quvchi-yoshlar

da ijtimoiy faollikni shakllantirishning asosi hisoblanadi. Bu o'rinda ham obyektidan, ham subyektdan o'z ustida ko'p ishlashi, izlanishi, analitik tahlil qilishi, mantiqiy fikrlashi, qiyosiy xulosa chiqarishi, shaxsiy refleksiya qoidalariga amal qilishi talab etiladi. O'quvchi-yoshlarda shakllantirilishi nazarda tutilgan ijtimoiy faollik indikatorlari darslikdagi ilmiy-nazariy ma'lumotlar + OAV, matbuot materiallari + hayotiy tajriba + o'quv va uslubiy qo'llanmalar + jonli muloqot vositasida tarbiyalanib boradi. Ushbu vositalar bir-birini mazmunan to'ldiradi. O'quvchi-yoshlar dars jarayonida egallagan ilmiy-nazariy bilim, hayotiy ma'lumotlar, yangiliklar, faktlar tajribada sinalgan ilg'or g'oyalar, xulosa va tavsiyalar bilan mustahkamlanib boradi.

Beshinchi bosqich: o'rganish, tahlil etish, umumlashtirish, baholash, xulosa va tavsiyalar yaratish, motivatsiyalashtirish iborat. Mazkur bosqichda tashkil etiladigan ta'lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligi pedagogik tamoyillarning aniq va maqsadli tanlanishiga bog'liqdir.

Tadqiqot natijalari shundan dalolat beradiki, o'quvchi-yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishning g'oyaviy-ijtimoiy manbalari mavjud bo'lib, ulardan dars va darsdan tashqari bo'sh vaqtda shug'ullaniladigan mustaqil ta'lim jarayonida foydalanish o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat talab etadi.

Ularni quyidagicha tasniflash mumkin:

- barcha o'quv fanlaridan darslik materiallari;
- metodik materiallar (o'quv-metodik qo'llanmalar, ommabop metodik risolalar, ilmiy tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan tavsiya va takliflar, tarqatma materiallar va b.q.);

- siyosiy-huquqiy xarakterdagi me'yoriy hujjatlar (qonunlar, Prezident farmon va qarorlari, hukumat qarorlari, davlat dasturlari, tegishli vazirlik va idoralarning huquqiy-me'yoriy hujjatlari va b.q.);

- yoshlar manfaatini yo'lida ishlab chiqilgan ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy loyihalar;

- OAV, media materiallar;

- xalqaro va milliy xarakterdagi ijtimoiy hayotda to'plangan ilg'or tajriba. Ularda jamiyatning yangi-yangi ehtiyojlari, g'oyalari va ijtimoiy mezonlari o'z aksini topgan.

Umuman, bu o'rinda ta'lim-tarbiyada uchta asosga tayanish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- birinchisi, ajdodlarimizning ma'naviy merosiga;

- ikkinchisi, zamonaviy ilm-fan, texnika va texnologiya yutuqlariga;

- uchinchidan, ijtimoiy hayotda bo'layotgan tub o'zgarishlar, voqea-hodisalar, hayotiy tajribalarga.

Bular o'quvchi-yoshlar ijtimoiy faolligini shakllantirishdagi tarbiyaviy ishlar uchun tayanch manba sanaladi. O'quvchi-yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda mamlatimiz va dunyo yoshlari hayotidagi kundalik yangiliklar asosida ularning o'zaro muloqot almashinuvi, ya'ni ijtimoiy-kommunikatsiya jarayonini ta'minlash eng samarali natijalarga olib keladi. Zero, ijtimoiy mavzulardagi kommunikatsiya jarayonida ishtirok etgan yoshlar o'z bilim va tajribalarini sinovdan o'tkazish bilan birga tengdoshlari o'rtasida targ'ibot ishlarini olib borishadi va shu asosda ularni ham faollikka undash imkoniyatiga ega bo'lishadi. Ayniqsa, ushbu metod uyushmagan yoshlar qatlami

hamda ijtimoiy-huquqiy xavfli guruhga mansub bolalarni birlashtirishda, ijtimoiy moslashtirishda ijobiy samara beradi.

O'quvchi-yoshlarni g'oyaviy yetuklik sari boshlash uchun o'z-o'ziga ishonch hissini uyg'otish kerak. O'ziga ishongan kishida yaxshilikka intilish va yomonlikni rad etish immuniteti paydo bo'ladi. Bu tuyg'u unda sog'lom tafakkurni shakllantiradi. Odamlarga, davlatga, jamiyatga va kelajagiga bo'lgan ishonch va ulkan mehrni uyg'otadi. Tajribalar shundan dalolat beradiki, o'quvchi-yoshlarda o'z-o'ziga ishonch hissini shakllantirishda yoshlarga oid amalga oshirilayotgan turli loyihalarning o'rni katta. Ushbu loyihalar yoshlarni yot g'oyalardan asrash, intellektual salohiyatini oshirish, ijtimoiy-siyosiy jarayonga faol jalb etish kabi ijtimoiy-siyosiy maqsadlarni amalga oshirishda muhim rol o'ynamoqda.

O'quvchi-yoshlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirishda qator ijtimoiy omillar ham faol ta'sir etadi. Jumladan:

- ijtimoiy muhit – makromuhit insoniyatni o'rab turgan ijtimoiy, moddiy va ma'naviy shart-sharoitlar;

- mikromuhit – bevosita insonni qurshab olgan oila, mahalla, mehnat jamoasi, o'quv guruhlari kabi tor doiradagi muhit;

- yoshlar faol kommunikatsiyaga kirishadigan oila a'zolari, turli toifa shaxslar va guruhlarining ijtimoiylashib borishi;

- o'quvchi-yoshlarning ijtimoiy tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi subyektlarning (ota-onalar, o'qituvchilar, fuqarolik jamiyati institutlari mutaxassis xodimlari, keng jamoatchilik) ijtimoiy-siyosiy ma'lumotlilik darajasi;

- ijtimoiy tarbiyaga oid ilmiy-nazariy, metodologik, ijtimoiy-siyosiy manbalarning ommabopligi shular jumlasidandir.

Shuningdek, o'quvchi-yoshlar ijtimoiy faolligini rivojlantirishga qaratilgan ba'zi muhim chora-tadbirlarni ham amalga oshirish bu boradagi ishlar samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan:

- mobil internet foydalanuvchilarga mo'ljallangan yoshlarning intellektual salohiyati va ijtimoiy faolligini yanada oshirishga xizmat qiladigan milliy intellektual o'yinlar mazmunini ishlab chiqish, normativ-huquqiy hujjatlarni targ'ib etuvchi alohida saytlar ochish;

- tegishli vazirlik va idoralar tomonidan mamlakatimizda turli sohalarda faoliyat olib borayotgan ijtimoiy faol yoshlar haqida hujjatli ommabop filmlar, teleradio ocherklari, risolalar, internet videoroliklarini yaratish, ijtimoiy saytlarda, OAVda maxsus ruknlar tashkil etish, ommaviy axborot vositalarida mavzuga oid ko'rsatuv va eshittirishlar berib borish;

- yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish bo'yicha vazirlik, idoralar va mahalliy hokimiyat organlari rahbarlari, ijtimoiy faol shaxslar, siyosatchilar bilan ijtimoiy tarmoqlarda to'g'ridan-to'g'ri uzatiladigan ochiq muloqotlar tashkil etish;

- uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchi-yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishga xizmat qiluvchi maxsus o'quv kurslari, fakultativ mashg'ulotlar mazmunini ishlab chiqish va uni amaliyotga tatbiq etish;

- ijtimoiy xarakterdagi muammolar bo'yicha to'garaklar tashkil etish, bitiruv malakaviy ishlari, ilmiy-ijtimoiy loyihalar tanlovlarini tashkil etish hamda respublika miqyosida mavzuga oid an'anaviy ko'rik-tanlovlar, ilmiy-amaliy Forum tashkil etish;

– uyushmagan, ijtimoiy xatarli guruhga mansub, boquvchisini yo‘qotgan chin yetim, imkoniyati cheklangan bolalarni qiziqishlariga ko‘ra “Barkamol avlod” markazlari, ijodiy va kasb-hunar to‘garaklariga imtiyozli jalb etishni takomillashtirish mexanizmini belgilab beruvchi konsepsiya yaratilmog‘i davr talabidir.

Shunday qilib, o‘quvchi-yoshlar ijtimoiy faolligini shakllantirish davr talabi bo‘lib, ushbu muammoning ilmiy-pedagogik asoslarini, shart-sharoitlarini, ta‘lim-tarbiya jarayonida amalga oshirish mexanizmini bilish va unga ijodiy yondashish uzluksiz ta‘lim tizimi o‘qituvchilari hamda fuqarolik jamiyati institutlari mutaxassis xodimlaridan ijtimoiy-siyosiy madaniyatni, g‘oyaviy kompetentlikni, shuningdek, ta‘lim muassasalari, tegishli vazirlik va idoralar, oila, mahalla va boshqa yoshlar masalalari bilan shug‘ullanuvchi fuqarolik jamiyati institutlarining hamkorligini talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947 sonli Farmoni. 2017-yil 7-fevral.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risi”dagi Qonuni. 2016-yil 14-sentyabr.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari – Yoshlar siyosati, madaniyat, axborot tizimlari va telekommunikatsiyalar masalalari kompleksi rahbari hamda uning maslahatchisining funksional vazifalari, shuningdek, yoshlar siyosati, madaniyat, axborot tizimlari va telekommunikatsiyalar masalalari axborot-tahlil departamenti to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida”gi qarori. 2016-yil 20-oktabr.

4. Ma‘naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009, 187-188-b.

5. Tillayeva G. Ijtimoiy muhit va yoshlar tarbiyasi. – T.: Falsafa va huquq instituti, 2009. 166-b.

Oysara KARAXONOVA,
Qarshi Davlat universiteti o'qituvchisi

O'QUVCHILARDA MANTIQUIY FIKRLASH KO'NIKMALARINI HOSIL QILISH BOSQICHLARINING DIDAKTIK TAVSIFI

Annotatsiya

Maqola boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga bag'ishlangan. Muallif tomonidan boshlang'ich sinf o'quvchilarida ushbu ko'nikmalarni hosil qilish jarayoni bosqichlari belgilangan, har bir bosqichda pedagogik jarayonning mazmuni yoritilgan, ularda mantiqiy fikrlash ko'nikmalari va o'quv-biluv faoliyatini kuchaytirishning didaktik tavsifi aniqlangan.

Kalit so'zlar. Mantiqiy fikrlash, bilim olish, mustaqil fikrlash, o'quv-biluv jarayoni, tahliliy ko'nikmalar, kuzatish, mantiqiy fikrlashni shakllantirish bosqichlari, didaktik masalalar, yangi axborot, muloqot.

Статья посвящена вопросам формирования логического мышления учащихся начальных классов. Автором обозначены этапы процесса формирования логического мышления младших школьников, раскрыто содержание педагогического процесса на каждом этапе, определены дидактические задачи по активизации учебно-познавательной деятельности учащихся и развитию у них навыков логического мышления.

Ключевые слова. Логическое мышление, усвоение знаний, самостоятельное мышление, учебно-познавательный процесс, аналитические навыки, наблюдение, этапы формирования логического мышления, дидактические задачи, новая информация, общение.

Article devoted to the issues of formation of logical thinking of pupils of primary school. The author outlines the stages of the process of formation of the logical thinking of junior schoolchildren, revealed the content of the pedagogical process at each stage, and determined the didactic tasks on the activation of students' learning and cognitive activity and the development of their logical thinking skills.

Key words. Logical thinking, mastering of knowledge, independent thinking, educational and cognitive process, analytical skills, observation, stages of formation of logical thinking, didactic tasks, new information, communication.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy fikrlash ko'nikmalari yozma ish mashg'ulotlari davomida yaqqolroq namoyon bo'ladi. Mantiqiy fikrlash jarayoni quyidagi xususiyatlarga ega:

– mantiqiy fikrlash savollar qo'yish va qo'yilgan muammoni hal qilish jarayonida boshlanadi;

– mantiqiy fikrlash muhitini vujudga keltirish uchun o'quvchilarga aniq dalillarni taqdim etish kerak.

S.S.G'ulomovning ta'kidlashicha, yozuv jarayonida fikrlashni kuzatish mumkin va bu o'qituvchi uchun ham qulaylik yaratadi. Yozayotgan o'quvchi doimo faol bo'ladi. U

doim mustaqil fikrlaydi va bunda o'zida mavjud bo'lgan barcha bilimlardan foydalanadi. O'quvchi o'z fikrini mustahkamlash uchun yetarli darajadagi ishonchli dalillarni keltira oladi. Bundan tashqari u o'z tabiati jihatidan ijtimoiy xarakterga ega bo'ladi. Chunki xat yozuvchi shaxs uni o'qiydiganga mo'ljallab yozadi. O'quvchi uchun eng qimmatlisi – o'qituvchining uning ishiga qiziqishi va unga hurmat bilan qarashi, o'z fikrlari to'g'risida sinfdoshlari, boshqa o'qituvchilar, ota-onalar va hatto, notanish kishilar bilan o'rtoqlashish imkoniyatiga ega bo'lganligidir. Shuning uchun ham, yozma ishlarning mavzulari muayyan izchillikka ega bo'lib, o'quvchilarda mantiqiy fikrlashni izchil rivojlantirish imkoniyatini yaratishi kerak¹.

Innovatsion texnologiyalar yordamida tashkil etiladigan o'quv-biluv jarayonida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash ko'nikmalari quyidagi bosqichlarda shakllanadi:

- o'quvchilarda bilim egallashga qiziqish uyg'otish va mayl hosil qilish;
- o'zlashtirilgan bilimlarni idrok etishlariga imkoniyat yaratish;
- tug'ilgan fikrlarni mushohada qilishga undash.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy fikrlash jarayoni ularda mustaqil fikrlash uchun moyillik hosil qilish bosqichidan boshlanadi. Bu jarayonda o'quvchilarda taqdim etilgan bilimlarga nisbatan qiziqish hosil bo'ladi, vaziyatni aniq tasavvur qilishlari uchun muayyan savollar beriladi. Ikkinchi bosqichda o'quvchilar o'zlashtirgan bilimlarining mazmun-mohiyatini anglab, idrok eta boshlashadi. Bu jarayonda o'quvchilar erishgan yutuqlari uchun o'qituvchilar tomonidan rag'batlantiriladi. Natijada ularda izlanuvchanlik sifatlari qaror topa boshlaydi. Uchinchi bosqichda o'quvchilar o'zlari egallagan bilimlarini umumlashtirish, qiyoslash, voqea-hodisalarni baholash, egallagan bilimlarini yangi vaziyatlarda qo'llash, o'zlashtirilgan axborotlar ustida mushohada yuritish, o'zaro munozaraga kirishish va o'z fikrlarini himoya qila olishga oid dastlabki ko'nikmalar shakllana boshlaydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy mushohada qilishlari uchun birinchi bosqich muhim ahamiyatga ega. Bu davrda o'quvchilarda yangi bilimlar egallash va maqsadga erishish uchun intilish kuchli bo'ladi.

Bu bosqichda mantiqiy fikrlash faoliyatining bir nechta turlari amalga oshiriladi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar muayyan mavzu to'g'risida bilganlarini esga olishda faol ishtirok etadi. Bu esa, ularni o'z bilimlarini tahlil qilish va o'rganilgan mavzu haqida o'ylashga undaydi.

O'quvchilar yangi bilimlarni ilgari o'rganganlari negizida qabul qilishlari sababi shundaki, ularda o'zlashtirish darajasi yuqori bo'ladi. Agar yangi axborot o'quvchilarga ilgari egallagan bilimlariga bog'lanmagan holda tarqoq tarzda taqdim etilsa, ular bunday ma'lumotlarni tez unutadi.

O'quv-biluv jarayonida o'quvchilarga taqdim etilgan yangi axborotlar ular o'zlashtirgan bilimlar bilan bog'lanib, mantiqiy fikrlash manbayini hosil qiladi. Natijada o'quvchilarning bilim zaxirasi va tasavvurlari kengayadi².

Mantiqiy fikrlash uchun moyillik hosil qilish bosqichining ikkinchi maqsadi – o'quvchilarda taqdim etilgan axborotni tezkorlik bilan idrok etishga qiziqishni kuchaytirishdan iborat. Chunki o'quvchilarda mantiqiy fikrlash ko'nikmasini hosil qilish jarayoni o'ziga xos pedagogik faoliyatni talab qiladi.

O'quvchilar yangi axborotni ongli tarzda puxta o'zlashtirishlari va taqdim etilayotgan yangi ma'lumotlarga mantiqiy nuqtayi nazardan yondashishlari uchun o'quv jarayonida faol qatnashishlari kerak. O'quvchi belgilangan maqsad asosida o'ylab, fikrlarini o'z so'z-

¹ G'ulomov S.S. Dalillarni eslab qolish va g'oyalarni isbotlash. – T.: O'qituvchi, 2005, 178-b.

² Safarova R.G. va boshq. O'quvchilarning bilish faoliyatini kengaytirishga yo'naltirilgan o'quv vaziyatlarini fanlar kesimida loyihalash. – T.: Fan va texnologiya nashriyoti, 2013, 148-b.

lari bilan ifodalash orqali faollashadi. O'zi egallagan bilimlarini amalda namoyon qilishlari o'z fikrlarini og'zaki yoki yozma ifodalash orqali sodir bo'ladi. O'quv jarayonida o'quvchilarga taqdim etilgan yangi axborotlarni ularning mavjud bilimlari bilan uyg'unlashtirish ularni tanqidiy fikrlashga o'rgatish uchun zamin tayyorlaydi.

Mazkur bosqichning uchinchi maqsadi – o'rganilayotgan mavzu bo'yicha o'quvchida oydinlashtirilgan maqsadni tushunishga zamin hozirlashdan iborat. Mayllar va maqsadlarning hosil bo'lishi o'quvchilarning faolligini oshiradi, fikrlash jarayonini tezlashtiradi.

Mustaqil ravishda tanlangan maqsadlar tashqaridan majburiy kiritilgan maqsadlardan kuchliroq bo'ladi. O'quvchining shaxsiy qiziqishlari uning xususiy maqsadlarini belgilaydi. Agar ularning qiziqishlari barqaror bo'lmasa, o'qishga bo'lgan mayllari pasayadi. O'quvchilar o'zlarida tug'ilgan savollarga javob topganlaridagina taqdim etilgan axborotlarni to'g'ri tushunib, anglab yetishadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari taqdim etilgan axborotlarni anglash jarayonida, o'zlarida mavjud bo'lgan ma'lumotlar bilan uyg'unlashtirgan holda qabul qilishadi³.

Ushbu bosqichning asosiy vazifasi:

- 1) o'quvchida mavjud bo'lgan faollikni qo'llab-quvvatlash;
- 2) o'quvchilarning o'zlari mohiyatini anglab yetgan ma'lumotlarni qabul qilishga bo'lgan intilishlarini rag'batlashtirishdan iboratdir.

O'quvchining ichki kechinma va holatlarini anglab borish jarayon refleksiyaadir. Refleksiya – (lotincha "reflexio" – "mushohada qilish", "qaytadan o'ylash") mantiqiy kategoriya bo'lib, u shaxs ongida sodir bo'layotgan o'zgarishlar haqida mulohaza yuritishni anglatadi. Demak, refleksiya jarayoni subyektning o'z-o'zini tushunish, anglash jarayoni bo'lib, u o'quvchining shaxsiy xususiyatlari, ta'sirchanligi, tasavvurlarining boshqalar tomonidan anglanishini ifodalaydi.

Bu bosqichning eng muhim vazifasi – yangi o'quv materialining o'zlashtirilish darajasini ta'minlashdan iborat. Faol o'quvchilar yangi axborotlar taqdim etilgach, ko'plab savollar bera boshlashadi yoki tushunmagan holatlarini keyinchalik so'rab aniqlash uchun yozib borishadi. Bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar esa, vujudga kelgan chalkashliklar, anglashilmovchiliklar, nimanidir tushunmay qolganlari haqida o'ylab ham ko'rishmaydi.

O'quvchilar taqdim etilgan bilimlarni o'zlashtirish jarayonida yangi ma'lumotlarni oldingilari bilan taqqoslashadi, ongli ravishda yangilarini avval ma'lum bo'lganlari bilan bog'lashadi. Ularda yangi tushuncha va tasavvurlar hosil bo'lishi uchun oldin va keyin o'zlashtirilgan bilimlar orasida muayyan zanjir, aloqadorlik vujudga keltiriladi.

O'zlashtirilgan bilimlarni idrok va mushohada qilish bosqichida egallangan bilimlar mustahkamlanadi, ko'nikmalar tarkib topadi va muayyan tasavvurlar shakllanadi. Bu o'quvchilarning bayon qilingan fikrlarida o'z ifodasini topadi. Shuningdek, bir nechta muhim maqsadlarga erishish nazarda tutiladi. Birinchi navbatda, o'quvchilar o'zlashtirgan yangi bilimlari asosida muayyan voqea-hodisalar haqida fikr bildirish kerak. Ikkinchi maqsad o'quvchilar orasida fikr almashinish, ya'ni o'zaro muloqotni tashkil etishdan iborat. Bu esa, o'quvchilarga o'z bilimlarini kengaytirish, mavjud so'z zaxiralarini boyitish hamda boshqa o'quvchilarning fikr-mulohazalari bilan tanishish imkonini beradi.

O'quvchilarning fikr-mulohazalari qo'llab-quvvatlanganda, o'qituvchilar tomonidan rag'batlantirilganda ularning mantiqiy fikrlash ko'nikmasi izchil shakllanadi. O'quvchilarning o'z shaxsiy qarashlarini ifodalashga ta'lim jarayonida imkoniyat yaratish kerak.

Mantiqiy fikrlash ko'nikmalarining shakllanishi o'quvchiga quyidagi imkoniyatlarni beradi:

³ Nurullayeva Sh. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish usullari. Ped. fan. nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis. – T., 2007.

- o‘quvchilarning fikrlash jarayoni jadallashadi;
- o‘quvchilar o‘z oldilariga aniq maqsadlar qo‘ya boshlashadi hamda ushbu maqsadga erishish yo‘llarini izlashadi;
- o‘quvchilar o‘zaro bir-birlari bilan faol muloqotga kirishish ko‘nikmasini egallay boshlashadi;
- o‘quvchilarda bilim olish, yangi axborotlarni o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqish ortadi;
- o‘quv-biluv jarayonida o‘quvchilarda faollik ta‘minlanadi;
- o‘quvchilarda ular orasida vujudga kelgan rang-barang fikrlarni tinglash va mu-shohada qilish ishtiyoqi kuchayadi;
- o‘quvchilarda o‘z fikrlarini dadil bayon qilish ehtiyoji vujudga keladi;
- o‘quvchilar egallagan bilim va tushunchalarini qayta ishlash, ular yordamida fikr ifodalash imkoniyatiga ega bo‘lishadi.

Mantiqiy fikrlashni shakllantirishda o‘quvchilar bilan guruhda ishlashni yo‘lga qo‘yish natijasida kutilgan samaradorlikka erishish mumkin. Bunda ularning muloqotga kirishish, fikrlash, o‘z fikrini mustaqil bayon etish va o‘zaro tasdiqlatish imkoniyatlari kengayadi. Natijada ular faol va to‘g‘ri nuqtayi nazarga ega bo‘la boshlashadi. O‘quvchilarda mantiqiy fikrlashni shakllantirish uchun ular bilan o‘qituvchilar orasida o‘zaro hamkorlik, jonli va ishchan muloqot vujudga keltirilishi kerak. O‘quvchilarda mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini tarkib toptirish uchun ularda ijodiy fikrlashni hosil qilish lozim.

Xulosa o‘rnida nemis olimi M. Mauyermanning quyidagi fikrini berishni lozim topdik: “Ijodiy fikrlash – bu inson uchun fikrlashning tayanch nuqtasi, g‘oyalari va axborotlar bilan o‘zaro munosabatga kirishishning tabiiy usulidir, u dars va darsdan tashqari jarayonlarda birdaniga sodir bo‘ladigan faoliyat bo‘lib, o‘quvchiga axborotlarni qat‘iy nazorat qilish imkonini berishini ko‘rsatib o‘tgan. Bu jarayonda, o‘quvchi axborotni bo‘rttirib ko‘rsatishi, qayta ko‘rib chiqishi, uni o‘ziga moslashtirishi yoki umuman qabul qilmasligi mumkin. Qachonki, o‘quvchilarda “Men bu bilimlardan qanday foydalanaman?”, “Bu bilimlar bilan mening ko‘nikmalarim orasida qanday mutanosiblik bor?”, “Bu ma‘lumotlar men uchun foydalimi?”, “Mening ma‘lumotlarga munosabatim qanday?”, “Bu axborotlar men uchun zarurmi, ular qanday ahamiyatga ega?” kabi savollarga javob topgandagina ularda mantiqiy fikrlash ko‘nikmalari samarali shakllantiriladi”⁴.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G‘ulomov S.S. *Dalillarni eslab qolish va g‘oyalarni isbotlash*. – T.: O‘qituvchi, 2005, 178-b.
2. Safarova R.G. va boshq. *O‘quvchilarning bilish faoliyatini kengaytirishga yo‘nal-tirilgan o‘quv vaziyatlarini fanlar kesimida loyihalash*. – T.: Fan va texnologiya nashriyoti, 2013, 148-b.
3. Nurullayeva Sh. *Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilarni mustaqil fikr-lashga o‘rgatish usullari*. Ped. fan. nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis. – T., 2007. 148-b.
4. Мауерман М. *Развитие интеллекта и его природные качества*. – М.: Торговый дом гранд, 2005, – С. 347.

⁴ Мауерман М. *Развитие интеллекта и его природные качества*. – М.: Торговый дом гранд, 2005, – С. 347.

Alisher ISMAILOV,

O'zbekiston tarixi davlat muzeyi bo'lim boshlig'i,
mustaqil tadqiqotchi

TARIX DARSLARIDA INTERFAOL USULLARDAN SAMARALI FOYDALANISHDA O'QUVCHILARNI JARAYONGA MOSLASHTIRISH

Annotatsiya

Mazkur maqolada tarix darslarida interfaol usullardan foydalanishda yuzaga kelayotgan muammolar yoritilgan. Shuningdek, muallif tomonidan mazkur muammoni bartaraf etishga doir tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar. Globallashuv, shakl, metod, vosita, texnologiya, tarix darslari, innovatsion usullar, realizatsiya, funktsiya, texnologik yondashuv, takrorlanish, qobiliyat.

В данной статье отражены вопросы использования интерактивных методов на уроке истории, а также авторам даны предложения по решению этого вопроса.

Ключевые слова. Глобализация, форма, способ, орудие, технологии, уроки истории, инновационные методы, реализация, функция, технологические определения, способности.

Article presents the issues of using of interactive methods in the history lessons, where also are given suggestions on how to address this issue.

Key words. System of continuous education, education, upbringing, practical assistance, globalization, form, method, tool, technology, history lessons, innovative methods, implementation, function, technological definitions, abilities.

O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish, jahon ta'limi standartlari darajasida shaxsga ta'lim berish va ijtimoiy tarbiya samaradorligini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilandi.

Jamiyat ma'naviyatini yuksaltirishga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojni qondirish talabi ta'lim tizimini takomillashtirishni taqozo etadi. Bu o'rinda O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov quyidagilarni ta'kidlagan edi: "Ta'lim-tarbiya – ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan, ya'ni xalq ma'naviyatini shakllantiradigan va boyitadigan eng muhim omildir. Binobarin, ta'lim-tarbiya tizimini va shu asosda ongni o'zgartirmasdan turib, ma'naviyatni rivojlan-tirib bo'lmaydi".

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlagan ma'ruzasi-da yoshlar tarbiyasiga alohida to'xtalib: "Bolalarimizni birovlarining qo'lga berib qo'y-masdan, ularni o'zimiz tarbiyalashimiz lozim. Buning uchun yoshlarimiz bilan ko'proq

gaplashish, ularning qalbiga quloq solish, dardini bilish, muammolarini yechish uchun amaliy ko'mak berishimiz kerak. Bu vazifalarni amalga oshirishda biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an'analarimizga, ajdodlarimizning boy tarixiga tayanamiz", deya ta'kidlab o'tdi.

Bugungi kunda barcha sohalaridagi globallashuv jarayonlari va axborotlarning shiddat bilan kirib kelishi hamda uzluksiz ta'lim tizimi o'quvchilarining keng ilmiy dunyoqarashini shakllantirish, ularni erkin, tanqidiy va global fikrlashga o'rgatishda interfaol usullardan samarali foydalanishga bog'liq bo'lib qolmoqda. Chunki o'quv fanlarining mazmuni, ta'limni tashkil etish shakl, metod, vosita va texnologiyalarining innovatsiyalanishi ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Ta'lim tizimi o'quv jarayoni bilan tanishish, tarix fani darslarini kuzatish asosida tarix darslarida innovatsion usullardan foydalanish texnologiyalariga doir qator kamchiliklarning mavjudligiga guvoh bo'ldik:

- innovatsion usullar texnologiyalarining o'quv jarayoniga joriy etish sur'ati va darajasining pastligi;

- o'qituvchilarda identiv (bir xillik) o'quv maqsadlarini o'quv vazifalariga aylantirishga doir ko'nikma va malakalarning yetarli emasligi;

- o'quv jarayonini tashkil etish texnologiyalariga yetarlicha e'tibor qaratilmayotganligi;

- innovatsion usullar orqali ta'limni loyihalash va realizatsiyalashning samarali tashkil etilmayotganligi.

Yuqoridagi kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida o'quv jarayonini tashkil etish texnologiyalari ustida fikr yuritamiz.

Hozirgi kunda barcha ta'lim muassasalarida o'qituvchining tarix darslarini tashkil etishida ko'pgina hollarda darsning texnologik jihatdan yetarli darajada tashkil etilmayotganligi ko'zga tashlanib qolmoqda.

Xo'sh buning sababi nimada?

Albatta, bunday muammolar birgina o'qituvchining xatti-harakati bilan hal etilmaydi.

Tarix o'qituvchisining darsni texnologik tashkil etishi bilan muayyan maqsadga erisha olmasligiga mashg'ulot jarayonida asosiy funksiyani bajaruvchi o'quvchi ko'p hollarda sababchi bo'lib qolmoqda. Lekin bu o'quvchi aybdor degani emas. Aksincha, mashg'ulot davomida qanday ishtirok etishni anglab yetmaganligida.

Bundan tashqari tarix darslarini tashkil etish texnologiyasiga to'liq amal qilinmayotganligini ham ta'kidlab o'tish mumkin.

Aslida, texnologik yondashuv ishlab chiqarish jarayonining umumiy tavsifini yoritishga xizmat qiladi. Muayyan mahsulot ishlab chiqarish maqsadida xomashyoni tanlash (dastlabki bosqich)dan mahsulotni iste'molchiga yetkazib berishgacha bo'lgan (so'nggi bosqich) davrini o'z ichiga olgan jarayon texnologik jarayon sifatida e'tirof etiladi.

Ushbu qoidadan ko'rinib turibdiki, texnologiyaning ishlashi natijasida tayyorlangan mahsulot bir xil sifatga ega va asosiysi hamma vaqt takrorlana oladi. Pedagogik jarayonda esa bu holatdan afsuski, samarali bir xillik va takroran amalga oshirish imkoni yo'q.

O'qituvchi darsga tayyorgarlik ko'rganda har taraflama o'z rejasini tahlil qilgan bo'lishi, maqsad va vazifani qisqa va aniq tuzishi, darslikning barcha tarkibiy qismini bilishi lozim bo'ladi.


Umuman olganda, darsni qanday darajada tashkil qilish o'qituvchining pedagogik qobiliyatiga bog'liqdir.

Har bir o'qituvchi o'ziga xos individual-psixologik xislatlarga ega bo'ladi. Ulardan ba'zilari harakatchanroq, sustkashroq, qattiqqo'ldir, boshqalari yumshoqroq bo'ladi.

O'qituvchida yuqoridagi qobiliyatlarning shakllanganligi mashg'ulot olib boradigan guruh muhiti va imkoniyatini yaxshi anglaydi.

Bu o'rinda o'qituvchidan darsni tashkil qilish, o'quvchilarni jarayonga moslashtirish borasida ham alohida shug'ullanish talab etiladi. O'qituvchining bunday harakati mashg'ulotni olib borishida, har qanday guruh bilan ishlashida foydadan holi bo'lmaydi.

Darsni tashkil qilish texnologiyasini shartli ravishda 5 ta bosqichga bo'lishi mumkin: (1-rasm)



1-rasm

Mazkur bosqichlar bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Birinchi bosqichning muvaffaqiyatli natijasi ikkinchi bosqichning muvaffaqiyatini ta'minlaydi, ikkinchisi esa uchinchi bosqichni va h.k.

Har bir bosqichdagi vazifalar o'qituvchi va o'quvchi tomonidan yaxshi o'zlashtirilishi maqsadga muvofiqdir. Aks holda o'quv jarayonida nosozliklar kelib chiqadi.

1-bosqich. Mavzuning xarakterini aniqlash bosqichi.

Tarix o'qituvchisi har bir mashg'ulot o'tkazishdan oldin mavzuning maqsadi va vazifasini aniqlab olish lozim bo'ladi. Mashg'ulotni tashkil etish rejasini mukammal tuzib chiqish kerak. Unda o'qituvchi mavzudan kelib chiqib dars shakli, metodi, usuli va vositasi (2-rasm) aniq aks ettirgan bo'lishi kerak. Bu holat darsning texnologik jihatdan harakatlanishi uchun yagona omil hisoblanadi. Bu bosqich o'qituvchiga guruh bilan qanday ishlash imkonini beradi.


Eng muhimi, o'qituvchi har bir keltirilayotgan atamalarning funksiyasi mazmunini, uning asl mohiyatini yaxshi bilishi va ular haqida o'quvchilar ongiga ham sindirib borishi lozim.

2-bosqich. Jarayonda o'qituvchining o'zi qanday vazifalarni bajarishi yoki rioya qilishini aniqlab olish bosqichi.

Bu bosqichda o'qituvchi darsni tashkil qilish uchun quyidagi jihatlariga e'tibor qaratishi lozim:

- mashg'ulotni oldindan prognoz qila olish;
- o'z tajribasiga ishonishi;
- guruh yoki jamoani yaxshi tuza olishi;

- zerikarli bo‘lib qolmasligiga erishishi;
- o‘quvchining individual harakatini hisobga olishi;
- insonparvarlik tamoyilini singdira olishi;
- kasbga yo‘naltirilgan bo‘lishi;
- ko‘nikma va malaka hosil qilishga qaratilishi;
- mulohaza va munozaraga chorlovchi;
- muhokama qilinishi, sinov uchun qo‘llana olishi;
- o‘quvchini tafakkur qilishga undashi;
- hayotiy, haqqoniy va xolis bo‘lishidan iborat.



2-rasm

Demak, o‘qituvchi bo‘lajak tarix mashg‘ulotini oldindan uning barcha jihatlarini bir necha marotaba o‘z mulohazalari asosida prognozlashi juda muhimdir.

3-bosqich. Jarayonda o‘quvchilarning bajarishi lozim bo‘lgan vazifalarni aniqlash bosqichi.

Darsga yaxshi tayyorgarlik ko‘rgan o‘quvchi o‘z vazifasini bajarish vaqtida o‘qituvchining ko‘rsatmasini kutmaydi. Aksincha, o‘z faolligini oshiradi.

Bunday holatda o‘quvchi o‘quv jarayonida so‘ralgan bilimga ega bo‘lishi, bahsga kirisha olishi, o‘z iste‘dodini ko‘rsata olish qobiliyatini yashirmasdan boricha ko‘rsata olishi; imkon qadar namunali bo‘la olishi; o‘z fikrining isboti uchun tortisha olishi va eng muhimi fikrlay olishi lozim bo‘ladi.

4-bosqich. Jarayonga o‘qituvchi va o‘quvchilar birgalikda bajarishi lozim bo‘lgan vazifalarni aniqlash bosqichi.

Bu bosqichda o‘qituvchi va o‘quvchi mashg‘ulotni o‘z xatti-harakatlari bilan demokratik va adolatli tashkil etilganligini yuzaga chiqarishi lozim.

Bundan tashqari mashg‘ulot uchun belgilangan vaqtga rioya qilish va natijani tahlil qilish yuqoridagi bochqichlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilganligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga keyingi bosqich muvaffaqiyatini kafolatlaydi.

5-bosqich. Jarayonni yakunlashda bajarishi lozim bo‘lgan vazifalarni aniqlash bosqichi.

Tashkil qilingan o‘quv mashg‘ulotining muhim tomonlari ko‘rib chiqiladi. O‘qituvchining 1-bosqichda amalga oshirgan vazifasi amaliyotda keyingi bosqichlarning ishlashiga qanday ta‘sir ko‘rsatganligi bilan ahamiyatlidir.

Mazkur jihatlar yosh avlodni barkamol, bilimli, kuchli qilib, ongini rivojlantirish bilan muhimdir.

Bu bosqichda o'quvchilar o'qituvchi tomonidan baholanishi; agar, o'yin usuli qo'llangan bo'lsa "durang" holati ham hisobga olinishi; jarimali holatlar izohlanishi; ijobiy va salbiy tomonlari o'rganilishi; samarasi izohlanishi; sifat darajasi ta'kidlanishi; guruhlarining mashg'ulotda ishtiroki o'rtasidagi tafovuti ko'rsatilishi; o'quvchilarning olgan rag'bati va tanbehi ko'rsatib o'tilishi lozim bo'ladi.

Shu yo'sinda tarix darslarini texnologik jihatdan tashkil etish tarix o'qituvchisining o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishishiga juda katta ko'mak beradi. O'quvchilarda har qaysi darsda o'z pozitsiyasini to'liq namoyon qilishini ta'minlaydi va unda kompetentlikni oshiradi. Mana shu jihatlar o'qituvchining darsni rejalashtirish, loyihalash, modullash va modellastirish jarayonini osonlashtiradi. O'quvchida esa darsga nazariy, amaliy jihatdan kompetensiyaviy yondashuvi o'z samarasini ko'rsatadi.

Aqlli shaxs deganda ma'lum malakaga ega bo'lgan, tahliliy fikrlay oladigan, voqeelikni induktiv va deduktiv analiz qila oladigan, fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan tadbirkor, intizomli shaxs tushuniladi. Shu xislatlarning birortasi yetarli bo'lmasa, shaxsni mukammal deb bo'lmaydi. Shuning uchun ham o'qituvchi o'quvchiga mukammal shaxs sifatida ta'lim-tarbiya berish zarurligini doimo his etishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
2. Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – T.: Fan, 2006.
3. Никулина Н.Ю. Методика преподавания истории в средней школе. Учебное пособие. Калининград, 2000.
4. Афонюшкина А.В. Методика работа с текстом о обучении истории. Воронежского Государственного университета, 2011.
5. Making history. A Guide for the Teaching and Learning of History in Australian Schools by Tony Taylor and Carmel Young/ Australia. 2003.

Dildora HAKIMOVA,

T.N.Qori Niyoziy nomli O'zPFITI katta ilmiy xodim-izlanuvchisi

O'QUVCHILARDA REFLEKSIV KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH METODLARI

Annotatsiya

Maqola o'quvchilarning refleksiv ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarini samarali tashkil etish uchun qulay metodlarni aniqlash va tanlashga qaratilgan. Shuningdek, muallif o'quvchilarning qiziqishi va moyilligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni hamda ularning o'quvchi shaxsiga ko'rsatayotgan turli darajadagi ta'sirini, o'quvchilarning har birining shaxsiy imkoniyatlarini ham inobatga olish zarurligini ilmiy asoslab bergan.

Kalit so'zlar. Refleksiv ko'nikma, refleksiv faoliyat, refleksiv yondashuv, pedagogik faoliyat, ta'sir ko'rsatish, tizimli yondashuv, shaxs-faoliyat yondashuvi, motivlashtirish.

Статья посвящена определению и выбору методов эффективной организации формирования и развития рефлексивных навыков учащихся, научно обоснованы факторы, влияющие на интересы, склонности учащихся и различные степени воздействия на их личность, а также, необходимость учета индивидуальных возможностей каждого ученика.

Ключевые слова. Рефлексивные навыки, рефлексивная деятельность, рефлексивный подход, педагогическая деятельность, оказание влияния, системный подход, личностно-деятельностный подход, мотивация.

Article is devoted to the definition and selection of methods for effective organization of the formation and development of reflective skills of students, the factors influencing the interests, inclinations of students and various degrees of impact on their personality are scientifically grounded, and also the need to take into account the individual capabilities of each student.

Key words. Reflective skills, reflexive activity, reflexive approach, pedagogical activity, influence, system approach, personality-activity approach, motivation.

O'quvchilarda refleksiv ko'nikmani shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarini samarali tashkil etish uchun qulay metodlarni aniqlash va tanlashda o'quvchi shaxsiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillarni o'rganish lozim. Shuningdek, samaradorlikni ta'minlashda o'quvchilarning qiziqishi va moyilligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni hamda ularning o'quvchi shaxsiga ko'rsatayotgan turli darajadagi ta'sirini, o'quvchilarning har birining shaxsiy imkoniyatlarini ham inobatga olish zarur.

Ilmiy xulosalar, tajribalar va ilmiy tadqiqotlar natijalariga asoslangan holda aytish mumkinki, ixtiyoriy metod barcha vaziyatlarda ham universallikka davogar bo'la olmagani sababli, o'quvchilarning refleksiv ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarini tashkil etishga tatbiq etiladigan ixtiyoriy metodni qo'llash ham ma'lum bir yondashuvlar asosida amalga oshirilishi zarur.

Shunday ekan, o'quvchilarning refleksiv ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari ilmiy xulosalar, tajribalar va ilmiy tadqiqotlar natijalariga asosan samarali deb topilgan metodlar va ilmiy yondashuvlar asosida tashkil etilsagina uni ilmiy asoslarda tashkil etilgan ta'lim-tarbiya jarayoni deb aytishimiz mumkin.

Demak, o'quvchining refleksiv ko'nikmasini shakllantirish va rivojlantirish jarayonining samaradorligi mazkur jarayon ishtirokchisining faoliyatini tashkil etish metodlari va uni tashkil etish yo'nalishidagi asosiy yondashuviga bog'liq bo'ladi.

Olib borilgan tajribalarga ko'ra, o'quvchilarda refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari umumiy hisoblanadigan ixtiyoriy pedagogik jarayonlar yoki boshqa ijtimoiy voqeliklardan o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun o'quvchilarda refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarida individual qo'llaniladigan metodlar va yondashuvlarning o'ziga xos xususiyatlariga ham bog'liq.

O'quvchilarda tashkilotchilarning o'quvchilar bilan ishlash jarayonidagi faoliyati ijtimoiy faoliyatning alohida shakli bo'lgan pedagogik faoliyat hisoblanadi. Mazkur pedagogik faoliyatning maqsadi o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish va o'zgarib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy talablar asosida ularda o'qish va kasb-hunar o'rganishga shaxsiy moyillik hamda qiziqishlarni shakllantirish va rivojlantirish asosida ularda refleksiv ko'nikmalar shakllantirish va rivojlantirishdan iborat deyishimiz ham mumkin.

Demak, pedagogik faoliyat o'quvchilarda refleksiv ko'nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari tashkilotchilari va o'quvchilarning xatti-harakatlaridan iborat. Mazkur faoliyat natijasida o'quvchilar o'qish va o'rganishga qiziqishi ortib, bilim, iqtidor va ko'nikmalarga ega bo'ladilar, o'z dunyoqarashini, shaxsiy qadriyatlar tizimini shakllantiradilar, shuningdek, ularda refleksiv ko'nikmalar shakllanib va rivojlanib boradi.

O'quvchilarda refleksiv ko'nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonida o'quvchi shaxsining turli sifatlari, fazilatlar va ko'nikmalari shakllantiriladi. Bunday o'zgarishlarni amalga oshirish va rivojlantirish turli pedagogik texnologiyalarni, metod va yondashuvlarni tatbiq etishga asoslanadi. Mazkur metodlar va yondashuvlar o'qituvchining pedagogik faoliyati va o'quvchilar shaxsiy xatti-harakatlari ta'siridagi o'zgarishlar orasidagi qonuniyatlarni ochishga, ularni tahlil qilishga imkoniyat yaratadi. O'quvchilar bilan o'qituvchilarning faoliyati, harakati, ta'lim mazmuni, metodlar, yondashuvlar, texnologiyalar va ta'lim vositalari orasidagi bog'liqlik, tabiat qonuniyati kabi obyektiv xususiyatlarga ega hisoblanadi.

Demak, o'quvchilarda refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari samaradorligini ta'minlash uchun ehtiyojlarga ko'ra individual tarzda turli metodlar va yondashuvlarni qo'llash, har bir o'quvchi faoliyati va faolligi yuzasidan nazoratni amalga oshirish mumkin. Shuningdek, samaradorlikni ta'minlashda o'quvchilar faoliyati va faolligi bo'yicha nazorat natijalarini tahlil qilish hamda obyektiv baholash, xatolarni o'z vaqtida tuzatish, o'qituvchining kompetentligi yo'nalishida belgilangan talablar bajarilishi zarur.

O'quvchilarda mazkur ko'nikmalarni rivojlantirish jarayonlarini samarali tashkil etishda metodlar muhim ahamiyat kasb etib, ular bu jarayonda o'quvchilar faoliyatini tashkil etish va ularni muvofiqlashtirishda qo'llaniladigan ta'sir etish yo'llari va usullarining majmuyi hisoblanadi. O'quvchilarda refleksiv ko'nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarini tashkil etish va boshqarish metodlari asosini ta'sir ko'rsatish mexanizmi tashkil etadi.

O'quvchilarda refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarini tashkil etish va boshqarish metodlari o'quvchilarning hamkorlikdagi o'quv faoliyatini amalga oshirish usullari va yo'llari majmuyidan, o'quvchilarga samarali va maqsadga

muvofig ta'sir ko'rsatishdan, ya'ni o'quvchilarda refleksiv ko'nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarining samaradorligini oshirish mexanizmidan iboratdir.

Samaradorlikni ta'minlashda o'quvchilarda refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlariga tatbiq etiladigan metodlarning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish, shuningdek, mazkur pedagogik jarayonlarda eng avvalo, o'quvchilarga samarali ta'sir ko'rsatuvchi, ya'ni ularda refleksiv ko'nikmalarni shakllantiruvchi metodlar va yondashuvlarni qo'llash o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, o'quvchilarda refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarining samaradorligini ta'minlash, ya'ni o'quvchilarda refleksiv qobiliyatlarni samarali tarbiyalash uchun ilmiy bilish metodlaridan foydalanish o'ziga xos ilmiy va amaliy qimmatga ega.

O'quvchilarda refleksiv ko'nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarining samaradorligini ta'minlashda ilmiy bilish metodlari komponentlaridan biri sifatida kuzatish o'ziga xos ham ilmiy, ham amaliy ahamiyat kasb etadi. Chunki kuzatish jarayonida o'qituvchi o'quvchilarning yashash, mehnat qilish va o'qish faoliyatiga aralashmaydi, balki faqat kuzatish asosida axborotlar to'playdi. Kuzatish usulidan foydalanishda o'qituvchi o'quvchilarga hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi. Kuzatishning ilmiy bilish metodlari komponenti sifatida afzalligi ham shundaki, u o'quvchilarning fazilatlari, moyilligi, qiziqishi va imkoniyatlarini, o'quvchilar yashayotgan muhitning o'ziga xos jihatlarini hamda ularga ta'sir ko'rsatayotgan omillarni o'rganadi.

Ilmiy bilish metodlarining asosiy komponentlaridan biri bo'lgan ijodiy yondashuv ham o'quvchilarda refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarining samaradorligini ta'minlashda muhim hisoblanadi. Mazkur yondashuv jarayonida kuzatish metodidan foydalaniladi, bu esa o'quvchilar to'g'risida xulosalar chiqarishda o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Kuzatish jarayonida o'qituvchi o'quvchilarning dunyoqarashi, mustaqil va erkin fikrlash darajasi, ta'lim-tarbiya jarayoniga va o'rganilayotgan tushunchalarga bo'lgan munosabatlarini aniqlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Shuningdek, kuzatish natijalariga asosan o'qituvchi o'quvchilarda refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarining holatini vaziyatlarga ko'ra aniqlash va zaruriyatga ko'ra vaziyatlarni o'zgartirish, o'quvchilar faolligini hamda ularning mustaqil faoliyatini ta'minlovchi metodlarni qo'llash imkoniyatlariga ega bo'ladi.

O'quvchilarda refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarini tashkil etish va boshqarishda samaradorlikni ta'minlashga xizmat qiluvchi refleksiv yondashuv ham o'ziga xos ham ilmiy, ham amaliy ahamiyatga ega. Chunki o'quvchilarda refleksiv yondashuv jarayonida induksiya va deduksiya, analiz va sintez usullaridan foydalaniladi, ya'ni refleksiv yondashuv jarayonida o'quvchilarning tahliliy faoliyati tashkil etiladi va tahliliy jarayonda olingan ma'lumotlar ularning moyilligi, qiziqishlari va imkoniyatlari bilan solishtiriladi. Ya'ni o'quvchilarning fazilatlari, moyilligi, qiziqishi va imkoniyatlari, o'quvchilar yashayotgan muhit to'g'risidagi axborotlarning tahliliy faoliyati jarayonida olingan ma'lumotlar bilan mutanosibli tekshiriladi.

Fikrimizcha, refleksiv yondashuvni amaliyotga tatbiq etishda o'quvchilarning fazilatlari, moyilligi, qiziqishi va imkoniyatlari, o'quvchilar yashayotgan muhitning ta'sirini o'rganish va tahlil qilish jarayonida olingan ma'lumotlarni umumlashtirish induktsiyasini ifodalaydi. O'quvchilarning fazilatlari, moyilligi, qiziqishi va imkoniyatlari hamda o'quvchilar yashayotgan muhitning qiziqishiga ta'sirini obyektiv baholash asosida o'quvchilarda aniq va ishonchli ma'lumotlarga asoslangan xulosalar, tushunchalar shakllanishi deduksiyani ifodalaydi. O'quvchilarda o'zi haqidagi tahliliy fikrlash analizni ifodalasa, xulosalar chiqarish esa sintezni ifodlaydi.

Shunday ekan, refleksiv yondashuv asosida o'quvchilarning refleksiv faoliyatini, ya'ni ularning mustaqil ravishda o'z faoliyati va faolligini hamda qiziqishlariga ta'sir ko'rsatayotgan obyektiv va subyektiv omillarning holatini o'zi tomonidan tahlil qilishini tashkil etishda muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish o'ziga xos ahamiyatga ega hisoblanadi.

O'quvchilarda refleksiv yondashuv ko'nikmalarini va malakalarini shakllantirish jarayonida ijtimoiy-psixologik va metodologik xususiyatlarga ega bo'lgan trening, interfaol suhbat, integrativ ma'ruza, ishchanlik o'yinlari kabi metodlardan foydalanish o'ziga xos amaliy ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarda refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarida o'quvchilarni tahliliy faoliyatga undovchi o'yinlar orqali refleksiv faoliyatni amalga oshirishga xizmat qiluvchi, o'quvchilarni o'zaro ta'sir ko'rsatishga undovchi metodlardan foydalanish ham muhim hisoblanadi. O'quvchilarda refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarida interfaol suhbat, ishchanlik o'yinlari, trening kabi metodlardan foydalanish o'quvchilarni mustaqil va erkin fikrlashga undaydi, chunki mazkur metodlar o'quvchilarda refleksiv ko'nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarida ularning faolligini ta'minlaydi.

Ishchanlik o'yini davomida o'quvchilarning moyilligi, dunyoqarashi va qiziqishlari darajasi aniqlanadi hamda vujudga kelayotgan vaziyatlarga ko'ra topshiriqlar muvofiqlashtiriladi. Muvofiqlashtirilgan yondashuv texnologiyasi asosida tashkil etilgan ishchanlik o'yini o'quvchilarning moyilligi, qiziqishlari va shaxsiy imkoniyatlari darajasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

O'quvchilarda refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish maqsadida tashkil etiladigan refleksiv faoliyat jarayonlarida o'quvchilarni mustaqil va erkin fikrlashga o'rgatish asosida ularning faolligini ta'minlash, bevosita muloqotga kirishishga undash, o'z fikrini erkin bildirishi uchun imkoniyatlar yaratish maqsadida aqliy hujum, g'oyalar konferensiyasi kabi metodlardan ham foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Bundan tashqari o'qitishning eng ilg'or texnologiyalaridan foydalanish, o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish, eng avvalo, ularning faoliyatini takomillashtirish asosida faolligini ta'minlash, shuningdek o'quvchilarning refleksiv ta'limiy muhitga psixologik moslashuvini tezlashtirish asosida ularda refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari samaradorligini ta'minlash mumkin.

Mazkur jarayonda o'quvchilarda o'qish-o'rganish, ta'lim olish va kasb-hunar o'rganishga moyilligi va qiziqishlarini shakllantirishdagi ta'lim, mustaqil ta'lim hamda o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi mavjud tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarining o'zaro aloqadorligi va bog'liqligini inobatga olgan holda, ularni muntazam rivojlanib boruvchi tizim komponentlari sifatida tasavvur qilib tizimli yondashuvni tatbiq etish zarur hisoblanadi.

Tizimning o'ziga xos xususiyatlaridan biri uni tashkil etuvchi komponentlarning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligi, har bir komponent yaxlit tizimning o'zgarishiga (ijobiy yoki salbiy) ta'sir ko'rsatishi bo'lib, o'quvchilarda refleksiv ko'nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonida tizimli yondashuvni tatbiq etishda motivlashtirish jarayonini ham o'ziga xosligini inobatga olish zarur. Ehtiyojlar, qiziqishlar, intilishlar, vositalar, e'tiqod, maqsad, orzu-istak, manfaatlar, talablar va boshqalar mazkur tizimning komponentlari sifatida xizmat qiladi.

O'quvchilarda refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish jarayonida o'quvchida o'qish va o'rganishga bo'lgan qiziqishni shakllantirish, ya'ni ta'lim-tarbiya

jarayonida faol ishtirok etishga o'quvchini motivlashtirishda shaxs-faoliyat yondashuvini tatbiq etish ham muhim.

Shaxs-faoliyat yondashuvida o'quvchilarning moyilligi va qiziqishlariga ta'sir ko'rsatuvchi mavjud omillarni o'rganish asosida o'quvchilar shaxsida vujudga kelayotgan o'zgarishlarni vaziyatlarga ko'ra tahlil qilish muhim bo'lib, bunda o'quvchilarning mustaqil va erkin fikr bildirishi, erkin muloqotga kirishishi, ya'ni o'z imkoniyatlarini namoyon etishi uchun yetarli shart-sharoitlar yaratish zarurati alohida inobatga olinishi kerak.

O'quvchilarda refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarida ularning faolligiga va subyekt sifatida rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi mavjud omillar va ularning ta'siri hamda vujudga kelayotgan o'zgarishlar vaziyatlarga bog'liq bo'lib, o'quvchilarning faolligini ta'minlashda mavjud vaziyatlarni o'rganish va tahlil qilish asosida ular faoliyatini muvofiqlashtirib borish zarur. Mazkur jarayonda o'quv faoliyatining tez o'zgaruvchan xususiyatlari o'quvchilarning ma'lum bir sharoitdagi faoliyatini vaziyatlarga ko'ra rivojlantirishga xizmat qiluvchi vaziyatli yondashuvni tatbiq etish zaruriyati vujudga keladi.

Vaziyatli yondashuv o'quvchilarda refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarining samaradorligini ta'minlash uchun o'quvchilarning faolligini hamda ta'lim-tarbiya jarayoniga bo'lgan munosabatlarini aniq vaziyatlarga ko'ra aniqlash va muvofiqlashtirishni nazarda tutadi.

O'quvchilarda refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarida eng avvalo, ularda o'qish va bilim olishga moyillik va qiziqishini shakllantirish uchun o'quvchilarning imkoniyatlariga mos keluvchi, eng qulay bo'lgan vaziyatlar tizimini vujudga keltirishda muvofiqlashtirilgan yondashuvni joriy etish lozim. Bunda belgilangan maqsadga erishish yo'nalishi o'quvchilar va o'qituvchilar faoliyatining natijalari orqali tavsiflanadi. Shunday ekan, refleksiv ko'nikmalar shakllantirish jarayonlarida barcha uchun teng va yetarli darajada shart-sharoitlar yaratish hamda o'quvchilarning faolligini ta'minlovchi ijodiy muhitni vujudga keltirish zarur.

Demak, o'quvchilarda refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarida o'quvchilarning faolligini ta'minlash, ta'lim olish va kasb-hunar o'rganishga qiziqishni shakllantirish hamda rivojlantirish jarayonlarida o'quvchilarni bevosita o'zaro muloqotga kirishishga undash, o'z fikrini erkin bildirishi uchun imkoniyat yaratuvchi metodlardan foydalanish muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. *Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir.* – T.: O'zbekiston, NMIU, 2015.
2. Karimov I.A. *O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida.* – T.: O'zbekiston, 2011.
3. Djurayev R.X., Turg'unov S.T. *Ta'lim menejmenti O'quv qo'llanma.* – T.: Voris, 2006.
4. Turg'unov S.T., Maqsudova L.A. *Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish.* – T.: Fan, 2008.

Umida MASHARIPOVA,

Nizomiy nomidagi TDPU katta o'qituvchisi

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING NUTQINI O'STIRISHDA ILG'OR PEDAGOGIK METODLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqola boshlang'ich sinf o'quvchilarining yoshi va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ona tili o'quv dasturidagi mavzularni o'zlashtirish hamda mashqlar tizimini ishlab chiqish xususida. Shuningdek, muallif ona tili darslarini "muammoli" tashkil etish yuzasidan bir qancha interfaol o'yinlarni misol qilib bergan.

Kalit so'zlar. Nutq, nutq o'stirish, so'z, so'z birikmasi, gap, interfaol o'yinlar, ona tili darsi, o'quvchi, pedagog.

В статье предлагается разработка отдельных тем учебных программ и системы упражнений по родному языку с учетом возрастных и психологических особенностей учащихся начальных классов. Автором приведены примеры интерактивных игр проблемного характера, которые могут быть использованы на уроках родного языка.

Ключевые слова. Речь, развитие речи, словосочетание, предложение, интерактивные игры, ученик, педагог.

Article proposes the development of specific topics of curricula and the system of exercises for the native language, taking into account the age and psychological characteristics of primary school pupils. The author gives examples of interactive games of a problem nature that can be used in native language lessons.

Key words. Speech, speech development, word combination, sentence, interactive games, pupil, teacher.

Boshlang'ich sinf ona tili ta'limining bosh vazifasi o'quvchilar nutqini o'stirish hisoblanadi. Hozirgi kunda ona tili darslarining maqsadini belgilar ekanmiz, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning: "O'z fikrini mustaqil ona tilida ravon, go'zal va lo'nda ifoda eta olmaydigan mutaxassisni bugun tushunish ham, oqlash ham qiyin", – degan so'zlarini shior qilib olib, darsda asosan o'quvchilarni mustaqil fikrlashga va o'z fikrini savodli qilib, chiroyli ifodalashga o'rgatish zarur.¹ O'quvchilarni o'z fikrlarini erkin, to'g'ri ifodalashga o'rgatish jamiyat uchun ham, psixologik va metodik jihatdan ham juda muhim bo'lib, hozirgi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

O'quvchilarning nutqini o'stirish ishlari dars jarayonida amalga oshiriladi. Darslarda o'quvchilarning ijodiy faoliyati qancha taraqqiy ettirilsa, ular o'z oldiga qo'yilgan aqliy vazifalarni shuncha qiynalmasdan bajaradi. Bola berilgan topshiriqlarni bajarib

¹ Karimov I.A. Barkmol avlod orzusi. – T., 1998, 134-bet

o'rgangani sari, unda ijodiy fikr yuritish qobiliyati shakllanadi. Shuning uchun ham boshlang'ich sinfning ona tili darsligida o'quvchining yozma nutqini o'stirishga alohida e'tibor qaratilgan. Shu bois ona tili darsligiga kiritilgan har bir mavzu va topshiriq, avvalo shu maqsadga qaratilgan bo'lishi lozim. Jumladan, zamonaviy ta'lim konsepsiyasiga asoslanib, davr talabiga mos dastur va darsliklar yaratildi, bilim sifatini to'g'ri nazorat etish maqsadida Davlat ta'lim standarti joriy etildi. Mazkur dasturda boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tili ta'limi sohasi bo'yicha tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan minimal talablar quyidagi uch parametrlilik standart o'lchovi orqali aks ettirildi: o'qish texnikasi, o'zgarlar fikrini va matn mazmunini anglash hamda fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi.

Fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi murakkab jarayon bo'lib, ona tili ta'limining maqsadi shu parametrdan mujassamlashadi va o'quvchi tomonidan yaratilgan matnda aks etadi. Bu parametr bo'yicha ta'lim sifatining natijasini baholashda o'qituvchi tomonidan quyidagi ko'nikmalarning darajasi aniqlanadi:

- fikrni mantiqiy izchillikda ifodalay olish;
- mavzuning murakkablik darajasi (sodda, murakkab, aniq va h.k.);
- tavsifning mavzuga muvofiq va mukammal bo'lishi;
- tavsifda tilning ifoda vositalaridan foydalana bilishi;
- imloviy (yozma) savodxon bo'lishi.

Nutq – inson faoliyatining turi, til vositalari (so'z, so'z birikmasi, gap) asosida tafakkurni ishga solishdir. Nutq o'zaro aloqa va xabar, o'z fikrini his-hayajon bilan ifodalash va boshqalarga ta'sir etish vazifasini bajaradi. Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishi faoliyatining muhim vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi. O'quvchi uchun esa nutq maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olish qurolidir.

Nutqni o'stirishda uch yo'nalish aniq ajratiladi: 1) so'z ustida ishlash; 2) so'z birikmasi va gap ustida ishlash; 3) bog'lanishli nutq ustida ishlash.²

Ko'rsatilgan uch yo'nalish parallel olib boriladi: lug'at ishi gap uchun material beradi; so'z, so'z birikmasi va gap ustida ishlash bog'lanishli nutqqa tayyorlaydi.

O'quvchilarning yoshi va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ona tili o'quv dasturidagi mavzularni puxta o'zlashtirilishiga yordam beradigan, mustaqil fikr yuritish, o'z fikrini erkin ifodalash, boshqalar fikrini tinglash, mulohaza yuritish, o'z fikrini ilgari surish, umumlashtirish va xulosalashga o'rgatish, bundan tashqari o'quvchilarda til materialidan foydalanishga qiziqish uyg'otadigan, ona tili ta'limi samaradorligini oshirishning omili sifatida e'tirof etilayotgan ilg'or o'qitish usullari va mashqlar tizimini ishlab chiqish davr talabidir. Ushbu talabdan kelib chiqib, ona tili ta'limiga quyidagi vazifalar yuklatiladi:

a) ta'lim jarayonini tashkil etuvchi o'quvchi va o'qituvchi shaxsiga o'quv faoliyati subyektlari sifatida yondashuv;

b) o'qituvchi va o'quvchining ta'lim jarayoniga ijodiy yondashuvini ta'minlash;

d) o'qituvchilar ona tili fanini o'qitishda takomillashtirilgan an'anaviy va noan'anaviy shakl, metod va vositalaridan foydalanish;

e) ona tili darslari loyihasining har bir bosqichiga til birliklari ustida ishlashni singdirish;

f) o'quvchilarning tilni amaliy o'zlashtirishlari uchun leksik-grammatik mashq topshiriqlarini va tashkil etish usullarini takomillashtirib borish;

² Qosimova K., Matjonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh., Ona tili o'qitish metodikasi, – T.: Noshir, 2009, 352-b.

g) o'quvchilar faoliyatini, o'zlashtirish darajasini doimiy o'rganib borish, natijalarini tahlil qilish, yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etish choralarini belgilay olish.

Ona tili darslarini "muammoli" tashkil etishda, "Aqliy hujum", "Klaster", "Kichik guruhlarda ishlash", "6x6x6", "Lahzada aql charhi", "Qarorlar mojarosi" kabi interfaol usullaridan hamda o'yinlaridan foydalanish o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, fikrini jamoa bilan maslahatlashishga o'rgatadi, muammolarni hal qilishda ishtirok etish maylini yuzaga keltiradi.

Ta'lim sohasida ilg'or texnologiyalarning joriy qilinishi o'qish sifatini ko'tarishga yordam bermoqda.

O'quvchi maktabga kelgan kunidan boshlab, maxsus metod va usullar, ish turlari vositasida o'z lug'atini boyitib boradi. O'quvchining lug'atini boyishi birinchi navbatda uni o'rab olgan muhit, tabiat, kishilarning hayoti, ijodiy va o'qish faoliyati, kattalar va tengdoshlari bilan bo'lgan munosabati asosiy manba hisoblanadi.

Dars o'tish jarayonida o'yinning turli bosqichlaridan foydalanish mumkin, ammo ular shunday rejalashtirilishi kerakki, o'quvchi og'ir aqliy mehnatdan so'ng o'yindan o'ziga emotsional quvvat olsin, o'zining harakatini o'rtoqlarining harakatiga solishtirsin va unda tashabbuskorlik paydo bo'lsin. Quyida boshlang'ich sinf ona tili darslarida qo'llash mumkin bo'lgan o'yin namunalari keltiramiz.

"Kim ko'p so'z tuzadi?" o'yini. Kartochkalarga bosma harflar tarqoqlikda yozib qo'yiladi. O'quvchilar shu harflar ishtirok etgan so'zlarni tuzadilar.

"O'yla, izla, top" o'yini. Berilgan matn ichidan ma'nodosh so'zlarni topib, ularni guruhlab yozadilar va nima uchun ma'nodosh ekanini izohlaydilar. Matn "O'qish kito-bi"dan olinishi yoki ona tili darsligidagi matndan berilishi mumkin.

"Zanjir" o'yini. O'qituvchi ma'nodoshi bor bo'lgan so'z aytadi, o'quvchilar parta ketma-ketligida unga ma'nodosh bo'lgan so'zni topib aytadilar. Ma'nodoshi qolmagandan so'ng, navbatdagi o'quvchining o'zi boshqa ma'nodoshli so'z aytib, o'yinni davom etishiga yordam beradi. Bir qator partada o'tirgan o'quvchilar bir necha ma'nodosh so'zlar guruhini tuzishlari mumkin. O'yinni o'quvchilar ketma-ket tarzda davom ettirishadi. Masalan, bir qatorda 10 ta o'quvchi o'tirgan bo'lsa uchta, to'rtta ma'nodosh so'z guruhini tuzishi mumkin. 4-sinf darsligidagi 304-mashq bajarilib bo'lingach bu o'yindan foydalanish mumkin.

"Iztopar" o'yini. O'qituvchi harflari tushirilgan ma'nodosh so'zlarni doskaga yoki kartochkaga yozib o'quvchilarga so'zni topishlarini va ularning ma'nolarini izohlashlarini topshiriq qilib beradi. Masalan, bu o'yin 4-sinf darsligidagi 224-mashqni va 236-mashqni bajarish jarayonida o'tkazilishi mumkin.

1. Be.or, be.ob, no.ob, no.og', xa.ta, og'.iq.

2. O . to . , q . yo . , q . ma . , k . n, sha . s.

"Alifbo bilimdoni" o'yini. O'quvchilar alifbodagi tartib raqamiga ko'ra sonlar o'rni-ga harflarni qo'yib, tartibsiz berilgan so'zlardan maqollar tuzadi. Maqollar mazmunini o'qish darsida o'qigan asarlari asosida izohlashlari so'raladi.

1-guruh

1) 18, 25, 24 27, 8, 17, 8, 13 27, 8, 17, 8, 13 2, 14, 11, 3, 1, 13.

2-guruh

2) 23, 14, 17, 8, 19, 1, 17 14, 23 8, 18, 8, 19, 12, 1, 23, 3, 8 2, 8, 17, 14, 16.

3-guruh

3) 23,1,22,27,8 3,25,18,19 23,25,16 10,8,19,14,2,2,1,13.

4-guruh

4) 2,4,3,1,13,1 10,25,15 25,19,11,14,16,3,1.
2,1,7,14,13,1 – 3,1,13,6,1,18,1,3,1.

Javoblari:

1. Shirin so'z boldan shirin.
2. Oy yoritadi, biroq isitmaydi.
3. Kitobdan yaxshi do'st yo'q.
4. O'tloqda bedana ko'p,
Dangasada – bahona.

Ma'lumki, fikrlash jarayoni, ya'ni o'rganilayotgan hodisaning muhim belgilarini aniqlash, ularni taqqoslash, guruhlash, umumlashtirish va xulosalash jarayoni ichki va tashqi nutq vositasida amalga oshiriladi. Umumlashma xulosalar ham nutq orqali reallashadi, ya'ni yuzaga kelgan fikr nutq vositasida tinglovchiga yetkaziladi. Bu jarayonlarning hammasida o'quvchi til birliklariga ehtiyoj sezadi. Bunda o'quvchining til materiallarini o'zlashtirishi uchun darslik material, o'qituvchi nutqi namuna vazifasini bajaradi. Shuning uchun darslikdagi o'quv materiallarining tili, o'qituvchining nutqi til birliklariga boy bo'lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. *Barkmol avlod orzusi*. – T., 1998. 134-b.
2. Qosimova K., Matjonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh., *Ona tili o'qitish metodikasi*, – T.: Noshir, 2009, 352-b.
3. *Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti*. – T.: Yangiyo'l poligraf servis, 2010. 42-46-b.
4. *Uzviylashtirilgan o'quv dasturi*. – T.: Yangiyo'l poligraf servis, 2010 46-68-b.
5. Ikromova R., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Shodmonqulova D. *Ona tili (4-sinf uchun darslik)*. – T.: O'qituvchi, 2013. 190-b.

Bekzot TURSUNOV,

Namangan viloyati XTXQTMOI kafedra mudiri,
tarix fanlari nomzodi

TARIX FANINI O'QITISHDA OG'ZAKI TA'LIM USLUBI VA UNING AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada tarix fanini o'qitishda og'zaki uslubdan foydalanishning o'ziga xos talablari, qoidalari hamda ahamiyati haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, muallif tarixda bo'lib o'tgan muhim tarixiy voqealar haqida ma'lumot berishda hikoyalardan foydalanishini aytib o'tgan.

Kalit so'zlar. Og'zaki uslub, jonli nutq, ko'rgazmali qurol, bayon, monolog, dialog, hikoya, tavsiflash.

В статье освещены особенности применения устного метода, раскрыто его значение в обучении истории. Автором особенно выделена роль рассказа в освещении важных исторических событий.

Ключевые слова. Устный метод, живая речь, наглядные пособия, изложение, монолог, диалог, рассказ, характеристика.

Article highlights the peculiarities of the application of the verbal method, reveals its significance in the teaching of history. The author especially highlighted the role of the story in covering important historical events.

Key words. Verbal method, live speech, visual aids, presentation, monologue, dialogue, story, characteristic.

Tarix fanini o'qitishning og'zaki uslubi boshqa uslublarga nisbatan eng ko'p qo'llaniladi. O'qituvchi o'qitish jarayonida ko'rgazmali usuldan yoki amaliy usuldan foydalanishidan qati' nazar og'zaki usul birga keladi. Chunki barcha tarixiy voqealar, ijtimoiy hayot manzarasi og'zaki tarzda tushunarli va sodda qilib tushuntirilishi kerak. Bu o'rinda o'qituvchining bayoni jonli, emotsional (his-hayajonli) bo'lishi kerak. Jonli nutqda mantiq, emotsiya, urg'u berish sifatga ta'sir etadi. Jonli nutq orqali o'quvchi (talaba) ko'z o'ngida tarixiy voqea va hodisalar, ijtimoiy hayotning yorqin manzarasi, obrazlari gavdalanitiriladi. Og'zaki bayon ishonitiruvchi kuchga ega. Jonli nutq o'quvchi (talaba) ongiga tez yetib borib, tarixiy jarayonlarning qonuniyatlarini tezroq tushunishiga ko'maklashadi. O'quvchi o'qituvchining og'zaki bayoni orqali tarixiy materiallarni o'rganib, tahlil qiladi va xulosa chiqaradi. Og'zaki nutq orqali o'quvchilar masalani tez va chuqurroq anglaydi.

O'qituvchining jonli nutqi juda katta tarbiyalovchi ahamiyatga ega bo'lib, bu ta'limda muhimdir. Chunki ta'lim va tarbiya birga olib borilishi kerak. Mavzu yoritilishi davomida o'qituvchi bo'lib o'tgan voqealar yoki tarixiy shaxslar orqali o'quvchilarni tarbiyalaydi. Ularni bir so'zli, dovyurak, vatanparvar, to'g'riso'z, halol, insonparvar shaxs sifatida shakllanishiga yordam beradi. O'qituvchi bayoni ishonarli bo'lishi

uchun ko'rgazmali bo'lishi muhimdir. Ko'rgazmali qurollar o'qituvchi nutqining tasdig'i bo'lishi bilan birga o'quvchilarda bayon qilingan voqeaga nisbatan ishonchni shakllantirsa, ikkinchi tomondan, materialni oson tushunilishiga yordam beradi.

Ko'rgazmali qurollar qatoriga tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan uy-ro'zg'or buyumlari, jang qurollari, taqinchoqlar, suratlar, illyustratsiya, karikatura, minatyura hamda qo'llanma, xristomatiya va hujjatlar, vaqtli matbuot materiallari ham kiritiladi. Ko'rgazmali qurollardan texnik vositalar orqali foydalanish ham yaxshi natija beradi. Ayniqsa, axborot texnologiyasining rivojlanishi bunga keng yo'l ochib berdi.

Bayonda o'qituvchining uslubi, intonatsiya va urg'uning kuchi pauza va jumalarning ixcham, mantiqqa to'g'ri ifoda etilishi, nutqning ravon boy obrazli va ta'sirchan bo'lishi, kerakli maqolalar, hikmatli so'zlar, asarlardan namunalar foydalanish o'rnini bilish juda muhimdir. Buning uchun ko'p o'qish, mashq qilish tinimsiz mehnat zarur. Ma'lumki, tarixda jonli nutq jamiyat hayotida muhim ahamiyat kasb etgan. Nutq sehrli kuchga egaki, qadim zamonlardan faylasuflar, siyosatchilar ommani o'zlarining nutqlari bilan lol qilganliklari to'g'risida ma'lumotlar ko'p.

Birinchidan, jonli nutq faqatgina darsning umumiy bayoni emas, balki o'qituvchining dars davomidagi jarangli nutqi, o'quvchilar bilan savol javobi, yakunlovchi nutq, uyga topshiriqlar mazmuni, topshiriqni bajarish yo'llarini izohlash va tushuntirish hamdir.

Ikkinchidan, o'qituvchi jonli so'zi bilan butun dars davomida o'quvchilarni boshqarib, rahbarlik qiladi.

Uchinchidan, jonli nutq tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lishi kerak.

O'qituvchining ehtirosli nutqi eng avvalo, o'quvchilarning butun diqqatini darsga, bayonga jalb qilishi lozim. Shu bilan birga jonli nutq o'quvchilarni faollashtirib, darsning samaradorligini oshiradi.

O'qituvchining bayoni maktab tarix darsligida berilgan mavzu matni asosida tayyorlanadi. Mavzu rejalarini ortiqcha kengaytirib yubormasdan, ko'rgazmali vositalar asosida aniqlashtirilib bayon etishi kerak. O'qituvchining bayoni ishonarli va emosional bo'lishi uchun tarixiy faktlar g'oyat katta kuchga ega bo'ladi. O'quvchilar uchun ham ma'lumot olishda darslik asos bo'ladi. Lekin o'quvchilar darslikdan, boshqa matnlardan ma'lumot olishlarida qiynalishlari, tushunmasliklari mumkin. Darslik yoki boshqa matnlar ularning qo'lida bo'lgani uchun bu muammolarni vaqt o'tgan sayin hal qilishlari, matnlarni xohlagan paytda qayta o'qishlari mumkin. O'qituvchi bayonni qayta eshitmaydi. Shuning uchun o'quvchilar o'zlashtirishda o'qituvchining nazorati va rahbarligi katta ahamiyatga ega. Shundan kelib chiqqan holda quyidagi talablarga e'tibor berilishi kerak:

- 1) o'quvchilarning o'rganishi pedagogik jihatdan to'g'ri tashkil etilishi;
- 2) o'qituvchi bayoni strukturasi (tizimi) pedagogik jihatdan to'g'ri tashkil etilgan bo'lishi;
- 3) bayon qilinayotgan materiallarni o'quvchilarning yozib olishlariga e'tibor berishi lozim.

O'qituvchi bayoni tushunarli bo'lishi uchun o'quvchilarni darsga qiziqtirishi zarur. Bu quyidagi yo'llar bilan amalga oshirilishi mumkin: o'qituvchi darsning vazifalari, maqsadlari va bayonning asosi haqida qisqacha hikoya qilishi kerak. Bundan tashqari o'qituvchi o'rganilayotgan masala (mavzu)ning muhimligi, tushunib olish

uchun nimalarga e'tibor berish kerakligi, chuqur o'rganish uchun qanday materiallarni qo'shimcha ravishda o'zlashtirish kerakligi oldindan tushuntirib o'tilishi lozim. Yuqorida qayd etilgan masalalar bajarilsa, o'quvchilarning o'qituvchi bayonini qabul qilishiga sharoit yaratilgan bo'ladi.

Tarix darslarida o'qituvchi turli sinflarda qaysi bayon usullarini qo'llashi muhim. A.Sa'diyevning fikricha, o'qituvchi bayonining muhim ikki shakli mavjud: tarixiy materiallarni bayon qilish (monolog) va tarixiy materiallarni o'quvchilar bilan muhokama qilish (dialog). Monolog qisqacha bayon, hikoya, ta'riflash, xarakteristika, tushuntirish, muhokama, ma'ruza kabilardan iborat bo'ladi. Dialog esa, suhbat, muhokama shakllarida bo'ladi.

Og'zaki nutqda eng ko'p ishlatiladigan turlardan biri bayondir. Yangi mavzu bayoni, biror bir voqea bayoni, tarixiy hujjat bayoni va boshqalar. Bayon bilan birga tarix darslarida qisqacha bayon shakli ham ko'p ishlatiladi. Qisqacha bayonda biror bir tarixiy voqealar haqida qisqacha ma'lumot beriladi. Ammo uning maqsad va vazifalari mazmuni hikoya qilinmaydi.

Tarixda bo'lib o'tgan muhim tarixiy voqealar haqida ma'lumot berishda hikoyadan foydalaniladi. Hikoyada tarixiy voqeaning to'liq mazmuni beriladi va shu orqali o'quvchilarda voqea haqida aniq tasavvur paydo bo'lib, uning mohiyatini tushuntirib olishiga yordam beradi. Aksariyat hollarda hikoya quyidagicha qo'llaniladi:

a) ta'lim-tarbiya jihatidan muhim va ularni o'rganish o'quvchilar ongida chuqur va yorqin iz qoldiradigan yirik tarixiy voqeani bayon qilishda;

b) o'quvchilarda yangi tarixiy hodisalar haqida mazmunli va ochiq tasavvur yaratilish zarur bo'lgan paytda qo'llaniladi.

Hikoya qilish bilan o'qituvchi tarixiy voqealarni tushunish, ularning mohiyatini, qonuniyatlarini, ijtimoiy munosabatlar tarifini ochib berishga o'rgatish hamda o'quvchilarning aqliy faoliyatlarini faollashtirishga harakat qilinadi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasasida sinfdan sinfga o'tib o'quvchilarning umumiy saviyasi oshib borishi bilan o'qituvchi bayonining mazmuni ham murakkablashib borishi kerak. Hikoyani o'qituvchi bayonining boshqa turlari ya'ni, tahlil qilish, tarif berish, nazariy jihatdan umimlashtirish, ma'ruza kabilarni bayon qo'shib olib borishadi.

Og'zaki bayonning yana bir turi tavsiflash bo'lib, o'qituvchi tarixiy hodisalarning muhim belgilari yoki xususiyatlarni, uning tuzilishi va ko'rinishini tavsiflab berishda qo'llaniladi. Tavsiflash hikoyadan farq qiladi. Hikoya syujetdan iborat bo'ladi. Tavsiflashda esa syujet bo'lmaydi, aksincha uning aniq obyekti bo'ladi. Uy-ro'zg'or buyumlari, mehnat qurollari, urush qurollari, tarixiy voqealar bo'lib o'tgan joylar, xo'jalik qurilmalari, arxitektura yodgorliklari, tarixiy shaxslar, ularning qiyofasi, kiyimlari tavsiflash obyektlari hisoblanib, ularga tavsiflab beriladi. Tavsiflash ham o'z navbatida ikki turga bo'linadi: suratlab tavsiflashda o'quvchilar ongida o'rganilayotgan obyekt haqida yaxlit, butun tasavvur yaratiladi. Analitik tavsiflashda esa, o'rgatilayotgan obyekt bo'laklarga, qismlarga bo'lib o'rgatiladi.

O'rganilayotgan voqealarga oid muhim belgilar, ularning ichki aloqalari, xususiyatlari, tarixiy shaxslar, siyosiy partiyalar, mamlakatlarning ma'lum bir davrdagi iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy ahvoli kabilarni aniq ifoda etishda tavsifnomadan foydalaniladi. Tavsifnoma tuzilishiga qarab qisqa va keng bo'lish mumkin. Qisqacha tavsif darsda o'qituvchi bayonining asosiy elementi yoki yakuni, umimlashmasi bo'lib xizmat qila-

di. Masalan: “Temur Malik ibn Mahmud – o‘ttiz yoshlarga borgan, barvasta, yelkalari keng, qo‘l-oyoqlari keng, yo‘g‘on ovoqli kishi”.

Hikoya qilish san‘atini egallash, tarixiy hodisalarni tavsiflash va tarif bera olish o‘qituvchining pedagogik mahoratini egallashida muhim bosqichdir. Biroq, o‘qituvchi bayonining mazmuni hikoya, tavsiflash va tarif berish bilan chegaralanmaydi. O‘qituvchi bayon qilish jarayonida tarixiy materialni idrok, tasavvur qilishnigina emas, uni tushunib olishni ham rejalashtiradi. Bu borada o‘qituvchi o‘z bayonida tushuntirish usulidan ham foydalanadi.

Bayon etilgan va tushuntirilgan faktik materiallar asosida ba‘zi nazariy xulosalarning mazmunini ochib berish va ularni asoslab berishga to‘g‘ri kelgan vaqtda o‘qituvchilarning bayoni muhokama yuritish xarakterini oladi. Masalan, o‘qituvchi ba‘zi tarixiy voqealar to‘g‘risidagi xato fikrlarni fosh etib, ular haqidagi haqiqatlarni oshkor etadi. Muhokama yuritish yo‘li bilan o‘quvchilar ma‘lum xulosalarga olib kelinadi hamda ularga nazariy xulosalarning mohiyati ochib berilib, fikrlashga o‘rgatiladi. O‘qituvchi bayonidagi muhokama aniq tarixiy materiallarni tahlil qilish va umumlashtirish asosida olib boriladi. Muhokama orqali o‘quvchilar tarixiy materiallarni tahlil qilish, solishtirish bilan xulosa chiqarishga o‘rganishadi. Og‘zaki bayonning bu ko‘rinishi yuqori sinflarga o‘tgan sayin ortib borishi kerak.

Tarix darslarida og‘zaki bayon turlari orasida ma‘ruza nisbatan ko‘proq qo‘llaniladi. Ma‘ruza ikki turga bo‘linadi: oliy maktab ma‘ruzasi va maktab ma‘ruzasi.

Oliy maktab ma‘ruzasi – aniq tarixiy materiallar asosida chuqur tahlil qilish va umumlashtirishdan iboratdir. Tahlil qilish, umumlashtirish, tizimga solish va muhokama yuritish usullari ma‘ruza metodining eng muhim tomonlarini tashkil etadi. Oliy maktab ma‘ruzasi o‘zining shu xususiyatlari bilan farq qiladi.

Maktab ma‘ruzasi – faqat ajratilgan vaqtning ko‘p yoki o‘zligi bilan emas, balki o‘zining mazmuni, o‘qitish va o‘rgatish metod va usullari jihatidan ham oliy maktab ma‘ruzasidan farq qiladi.

O‘qituvchining ma‘ruza mavzusi bilan uni bayon qilish rejasini ham e‘lon qiladi. Ma‘ruza mavzusi va rejalari e‘lon qilinishi bilan birga doskaga yozilishi bilan ahamiyatlidir. Ma‘ruza davomida og‘zaki bayonning bayon, tavsiflash, ta‘riflash, tushuntirish, muhokama kabi turlari qo‘shib olib borilishi mumkin. O‘quvchining qiziqishi, bilish faoliyatini faollashtirish, ularning diqqatini ma‘ruzaning muhim jihatlari jalb etish maqsadida o‘quvchilarga nazorat savollari berib boriladi. Ma‘ruza davomida bayon qilinayotgan voqealarning vaqti, shaxs va joy nomlari, yangi atamalar doskaga yozib borilishi va o‘z navbatida o‘quvchilarning yozib olishlariga erishish kerak.

Ma‘ruza og‘zaki bayonning boshqa elementlarini qamrab olganligi va o‘quvchilarning o‘zlashtirishlarida muhimligi sababli unga bir qator talablar qo‘yiladi. Ma‘ruza qo‘yiladigan asosiy talablar haqida metodist V.N.Bernadskiyning fikrlarini inobatga olish o‘zlashtirish uchun samaralidir.

1. Ma‘ruza ilmiy jihatdan mukammal bo‘lishi kerak.

2. Ma‘ruza darslik mazmunidan keng bo‘lmog‘i kerak. Agar ma‘ruza mazmuni darslik mazmunidan qisqa yoki aynan shu mazmundan iborat bo‘lib qolsa zerikarli bo‘lib, uni o‘quvchilar tinglashni xohlamaydilar.

3. O'quvchilarni o'tmishni jonli idrok etishlari uchun ma'ruza mazmunan ko'rgazmali bo'lishi lozim.

4. Ma'ruza o'quvchilarni fikrlashga o'rgatishi, tarixiy voqealarni tahlil qilish va umumlashtirish namunasini ko'rsatishi, o'quvchilarning fikrlashini tarbiyalashi kerak.

5. Ma'ruzaning o'quvchilarga yetib borishi uchun, o'qituvchi o'zining nutqi ustida ko'p ishlashi lozim.

Metodist V.N. Bernadskiy tomonidan ma'ruzaga qo'yilgan asosiy talablar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Ammo maktab taraqqiyotining hozirgi boqichida, ta'limning yangi mazmuni amalga oshirilayotgan bugungi sharoitda o'qituvchining bayoni va ma'ruzasi oldiga yuksak talablar qo'yilgan. Bu talablar birinchi navbatda, ma'ruzaning g'oyaviy, siyosiy saviyasini, ta'sirchanligini oshirishdan iboratdir.

Shunday qilib, darsda tarixiy bilimlar o'qituvchining bayoni, tavsiflash, hikoya, ta'riflash, tushuntirish, muhokama yuritish va ma'ruza shakllarini o'z ichiga oladi.

Og'zaki bayon ta'limiy jihatdan shubhasiz katta ahamiyatga ega. O'qituvchi o'quvchilarga og'zaki bayon orqali kerakli ma'lumotlarni yetkazib berib, shu jarayonda u og'zaki bayonning qisqacha bayon, hikoya, tavsiflash, tushuntirish, muhokama, ma'ruza yoki suhbat usullaridan foydalanadi. Bu usullar sinfdan sinfga o'tgach o'zgarib borishi kerak. Quyi sinflarda ko'proq hikoya va bayondan foydalanilsa yuqori sinflarda ma'ruza, muhokama, suhbatdan foydalaniladi. Bu jarayonda o'qituvchi tarixiy hujjatlar va badiiy adabiyotlardan foydalanilishi maqsadga muvofiqdir.

Birinchiidan, bu ko'rgazmalilik bo'lib o'qituvchi bayonini tasdiqlaydi.

Ikkinchiidan, o'quvchilarga o'rganilayotgan davrning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, voqealar mazmuni va tarixiy shaxslar xarakterini tezroq tushunishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I. A. *Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.* – T.: Sharq, 1998. 32-b.
2. Karimov I. A. *Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.* – T.: Ma'naviyat, 2008.
3. Babanskiy Y.K. *Hozirgi zamon umumiy ta'lim maktablarida o'qitish metodlari.* – T., 1990.
4. Sa'diyev A. *O'zbekiston xalqlari tarixini o'qitish.* – T., 1993.
5. Toshpo'latov T., G'afforov Y.A. *Tarix o'qitish metodikasi.* – T.: Turon-iqbol, 2010.

Anvar XURRAMOV,

Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini rivojlantirish markazi
katta ilmiy xodim-izlanuvchisi

“MATEMATIKA O'QITISH METODIKASI” FANI O'QUV MASHG'ULOTLARINI LOYIHALASH METODI

Annotatsiya

Maqolada “Matematika o'qitish metodikasi” fani o'quv mashg'ulotlarini loyihalash metodikasi berilgan bo'lib, unda dars mashg'ulotining loyiha tuzish bosqichlari va bajariladigan amallari bayon etilgan. Muallif “Matematika o'qitish metodikasi” fanining predmeti, fan sifatida uning taraqqiyot bosqichlari, o'quv predmeti sifatidagi maqsadi, mazmuni” nomli ma'ruza loyihasini tuzish metodikasini taklif etgan.

Kalit so'zlar. Matematika o'qitish metodikasi, innovatsion-pedagogik texnologiya, dars mashg'ulotlari, modul, sistema, matematika turkumidagi fanlar, loyihalash bosqichlari va metodikasi.

В статье изложена методика проектирования учебных занятий по предмету “Методика обучения математике”, определены формы составления этапов проектирования и описания практических действий. Предложена методика разработки лекций по теме “Методика обучения математике как учебный предмет и наука. Этапы её развития. Цель и содержание учебного предмета”.

Ключевые слова. Методы преподавания математики, инновационные педагогические технологии, учебные занятия, модуль, система, циклы науки математики этапы и методика проектирования.

Article describes the methodology for designing training sessions on the subject "Methodology for teaching mathematics", defining the forms for drawing up design stages and describing practical actions. Proposed a technique for developing lectures on the subject of "Methodology for teaching mathematics as a subject and science". Stages of its development. Purpose and content of the subject ".

Key words. Methods of teaching mathematics, innovative pedagogical technologies, training sessions, module, system, cycles science mathematics stages and design methodology.

Innovatsion pedagogik texnologiya o'qitish usullarining zamonaviy turi bo'lib, o'quv jarayonidagi pedagog va talabalar harakatini qat'iy belgilab beradi, shuningdek, o'qituvchining mahoratiga bog'liq bo'lmagan holda, bu jarayonning faqat a'lo darajada bo'lishini ta'minlaydi. Chunki pedagogik texnologiya tamoyillari asosida o'quv mashg'ulotining loyihasini tajribali pedagoglar yoki olimlar tuzadi. Quyida “Matematika o'qitish metodikasi” fani o'quv mashg'ulotlarini loyihalash metodikasini taqdim etamiz.

Loyiha tuzish bosqichlari va bajariladigan amallar quyidagilardan iborat:

1. “Matematika o'qitish metodikasi” fanida beriladigan materiallarning hajmi va mazmunidan kelib chiqib, “katta”, “o'rta” va “kichik” modullarga ajratiladi, so'ngra ularning maqsadi hamda ularga ajratilgan vaqt belgilanadi.

2. Har bir kichik modul yordamida beriladigan bilimlar tizimi ichidan tayanch tushunchalar ajratiladi.

3. Tayanch tushunchalar asosida nazorat savollari tuzilib, ta'lim oluvchilar bilim va ko'nikmalarini baholashning turi va mezonlari belgilanadi.

4. O'quv mashg'ulotlarining har bir kichik modulida qo'llaniladigan dars turi va tipi aniqlab olinadi.

5. Har bir kichik modulda qo'llaniladigan pedagogik uslublar (o'qitish metodlari) aniqlanib, kichik modulni o'rganish jarayonida ulardan foydalanish o'zni ko'rsatiladi, joylari topib qo'yiladi.

6. Ta'lim muassasasida mavjud axborot texnologiyalardan hamda har bir kichik modulda o'quv mashg'ulotining xarakteridan kelib chiqib, o'quv mashg'ulotini amalga oshirishda foydalaniladigan axborot texnologiyalarning qo'llanish o'rinlari belgilanadi.

7. O'quv mashg'uloti jarayonida har bir kichik modulda foydalaniladigan didaktik materiallarning turi va joyi aniqlanadi.

8. O'rta modul mazmuni va o'qitish jarayonining borishini ifoda etuvchi modulning yo'naltiruvchi matni ssenariysi yoziladi¹.

Masalan, “Matematika o'qitish metodikasi” fanining predmeti, fan sifatida uning taraqqiyot bosqichlari, o'quv predmeti sifatidagi maqsadi, mazmuni” nomli ma'ruza loyihasini tuzish metodikasini beramiz. Buni “o'rta modul” deb ataymiz va loyihalab chiqamiz.

O'rta modul nomi va maqsadlari

O'rta modul nomi	Moduldan ko'zlangan maqsad
“Matematika o'qitish metodikasi” fanining predmeti, fan sifatidagi uning taraqqiyot bosqichlari, o'quv predmeti sifatida maqsadi va mazmuni”	Ta'lim oluvchi: “Matematika o'qitish metodikasi” fani pedagogika turkumidagi alohida fanlardan biri ekanligini biladi; u matematikani jamiyatimiz taraqqiyoti darajasida ta'lim maqsadlariga mos keluvchi mustaqil fan ekanligini tushunadi; “Matematika o'qitish metodikasi” fanining predmeti nimadan iborat ekanligini anglaydi; fan sifatida uning taraqqiyot bosqichlarini tahlil eta oladi; ularning “Matematika o'qitish metodikasi” faniga bo'lgan qiziqishlari shakllanadi. Shu bilan birga, ular matematika o'qitish metodikasi fanidagi o'rganilayotgan har bir matematik tushuncha, ta'rif, hukm va xulosalarni anglaydi; “Matematika o'qitish metodikasi” fani maqsadini, mazmunini izohlay oladi va amalda qo'llay oladi.

O'rta modul ichidagi kichik modul nomlari va maqsadi

T/r	Kichik modullar nomi	Kichik modullarning maqsadi
1.	“Matematika o'qitish metodikasi” fanining predmeti	Ta'lim oluvchi matematika fani shartli ravishda elementar va oliy matematika bo'limlariga bo'lingan holda o'rganilishini tushunadi; matematika kursining asosiy maqsadini anglaydi; matematika o'qitish metodikasi masalalari bilan shug'ullangan olimlar to'g'risida tasavvur hosil bo'ladi; ularda ilmiy bilish faoliyatlari shakllanadi; olgan bilimlarini amalda qo'llay oladi.

¹ Tojiyev M. Uzluksiz ta'lim tizimida o'quv fanlarining modulli o'qitish metodikasi va amaliyoti. – T.: Turon-iqbol. 2017. 160-b.

2.	Matematika o'qitishning umumiy, xususiy va aniq metodikasi	Ta'lim oluvchi matematika fanining maqsadi, mazmuni, shakli, usullarini biladi; uni o'qitish vositalarining metodik sistemasini pedagogika va psixologiya fanlari qonuniyatlari hamda didaktik tamoyillari asosida ochib berishni tushunadi; matematika o'qitish umumiy metodikasining qonun-qoidalarini matematika o'quv mashg'ulotlaridagi aniq mavzu materiallarga tatbiq qila oladi; ularni amalda qo'llay oladi. Shuningdek, ta'lim oluvchi aniq metodikaga asosan ikki qismdan iborat ekanligini biladi, matematikaning biror bob mavzulari uchun umumiy va maxsus metodikaning xususiy masalalari sifatida qaralishini anglaydi, ularni amalda qo'llay oladi.
3.	Matematika o'qitishning umumta'limiy, tarbiyaviy, amaliy maqsadi	Ta'lim oluvchi matematika fanini o'qitishning umumta'limiy, tarbiyaviy, amaliy maqsadlarini tushunadi; matematikani o'qitishning umumta'limiy maqsadi orqali ma'lum bir dastur asosida matematik bilimlar tizimi yotishini biladi; ularda og'zaki va yozma matematik bilimlar tarkib topadi; matematik qonuniyatlar asosida real haqiqatlarni bilish ko'nikmasi paydo bo'ladi; amalda qo'llay oladi. Shuningdek, ta'lim oluvchilarning matematikani o'qitishning tarbiyaviy maqsadi orqali ilmiy dunyoqarashi shakllanadi, ularda matematikani o'rganishga bo'lgan qiziqish tarbiyalanadi, matematik tafakkuri va madaniyati shakllanadi va bu ilmlarni egallaydi.
4.	Matematika o'qitish metodikasining boshqa fanlar bilan aloqasi. Ta'limning isloh qilinishi	Ta'lim oluvchi "Matematika o'qitish metodikasi" fani fizika, pedagogika, psixologiya, falsafa, tilshunoslik va mantiq fanlari bilan uzviy aloqada ekanligini biladi; uni ilmiy metodik jihatdan ishlab chiqish va ularni ta'lim oluvchilarga tushuntirish kerakligini anglaydi; "Matematika o'qitish metodikasi" fani o'qitish qonuniyatlarini tushunadi, uni o'rgatishda boshqa fanlar bilan uzviy aloqadorligini ko'rsatish orqali ta'lim oluvchilarni ushbu fanni o'rganishga bo'lgan qiziqish ko'nikmasi shakllanadi va tarbiyalanadi; o'qitish metodikasi fanini boshqa fanlar bilan aloqasini o'rnatishda pedagogika, psixologiya, tilshunoslik, falsafa va mantiq kabi fanlar ham davr talabiga mos keluvchi amaliy xarakterdagi muammolarni hal qilishga qaratilganligini tasavvur eta oladi; ta'limning isloh qilinishi zaruriyatdan kelib chiqqanligini his eta oladi. Shuningdek, ta'lim oluvchi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi mazmun va mohiyatini tushunadi; uzluksiz ta'limni tashkil etish tamoyillari va turlarini biladi; Milliy dasturning maqsadini anglaydi hamda uning amalga oshirilish bosqichlarini tahlil eta oladi.
5.	Matematik ta'lim jarayonini amalga oshirishning didaktik tamoyillari	Ta'lim oluvchi matematik ta'lim jarayonini amalga oshirishda foydalaniladigan didaktik tamoyillarini biladi; ta'lim samaradorligini oshirishning sifat va miqdor ko'rsatkichlarini biladi; didaktik tamoyillar ta'lim oluvchi tomonidan ilmiy bilimlarning o'zlashtirilishi, egallanishi lozim deb topilgan malaka va ko'nikmalarni hosil qilishning asosiy qonun va qoidalarini o'z ichiga olishini anglaydi; didaktik tamoyillar mohiyatini yoritishda turli nuqtayi nazarlar va qarashlarni tahlil eta oladi; didaktik tamoyillar ta'lim samaradorligini oshirishga yo'nalganligini anglaydi va ularda ta'lim jarayonida qo'llay olish ko'nikmasi shakllanadi.

Kichik modullar ichidagi tayanch tushunchalar va ular asosida tuzilgan nazorat savollari

T/r	Tayanch tushunchalar	Nazorat savollari
1.	Matematika, metodika, fan, bilim, elementar matematika, oliy matematika, minimal matematik bilimlar sistemasi.	1) "Usul" yoki "uslub" deganda nimani tushunasiz? 2) "Metodika" so'zining ma'nosini aytib bering. 3) "O'qitish metodikasi" deganda nimani tushunasiz? 4) "Matematika o'qitish metodikasi" deganda nimani tushunasiz? 5) "Matematika o'qitish metodikasi" fani nimani o'rganadi?
2.	Umumiy metodika, xususiy metodika, aniq metodika, maqsad, mazmun, shakl, usul, uslub, vosita, didaktik tamoyil.	1) Matematika o'qitish metodikasining umumiy metodikasi nimani o'rgatadi? 2) Matematika o'qitish metodikasining xususiy metodikasi nimani o'rgatadi? 3) Matematika o'qitishning aniq metodika bo'limida nimalar o'rganiladi? 4) Ta'lim maqsadi deganda nimani tushunasiz? 5) Ta'lim mazmuni deganda-chi?
3.	Umumta'limiy maqsad, tarbiyaviy va amaliy maqsad, ilmiy dunyoqarash, matematik tafakkur va madaniyat, tasavvur, fazoviy tasavvur, mantiqiy mulohaza	1) Matematika fanini o'qitishdagi umumta'limiy maqsad nimalardan iborat? 2) Ta'lim oluvchilarda mantiqiy matematik bilimlarni shakllantirish uchun nimalarga ahamiyat berish kerak? 3) Fazoviy tasavvur deganda nimani tushunasiz? 4) Ta'lim oluvchilarning fazoviy tasavvurlarini shakllantirish uchun qanday metodik qonuniyatlardan foydalanish kerak? 5) Mantiqiy mulohaza yuritish deganda nimani tushunasiz?
4.	Fanlarning metodologik asosi, matematika fanining boshqa fanlar bilan aloqasi, matematik ta'lim, pedagogika, mantiq, psixologiya, tilshunoslik, falsafa, fizika, chizmachilik, kimyo, ilmiy tamoyil.	1) Matematikani o'qitishdagi tarbiyaviy maqsadlarni aytib bering. 2) Bilishning ilmiy tamoyili deganda nimani tushunasiz? 3) Matematikani o'qitishdagi amaliy maqsadlarni aytib bering. 4) Ta'lim oluvchilar mustaqil ravishda matematik bilimlarni oshirish uchun nimalarga ahamiyat berishlari kerak? 5) Matematikani o'qitishda qanday texnik vosita va ko'rgazmali qurollardan foydalanish mumkin?
5.	"Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, sifat bosqichi, uzluksiz ta'lim.	1) "Ta'lim to'g'risida"gi qonun qachon qabul qilingan? 2) Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qachon qabul qilingan? 3) Umumiy o'rta ta'lim davlat ta'lim standartlari (jumladan, matematika fani bo'yicha) ta'lim oluvchilar umumta'lim tayyorgarligi saviyasiga qanday darajani belgilaydi? 4) Matematika fani bo'yicha umumiy o'rta ta'lim Davlat standartlari nimani belgilaydi?

**Kichik modulning nazorat savollari asosida
tuzilgan testlar**

T/r	Savollar	Mumkin bo'lgan javoblar	
1.	“Matematika o'qitish metodikasi” fani nimani o'rganadi?	A	O'qitish usullarini.
		B	O'qitish metodlarini.
		C	Elementar va oliy matematikani.
		D	* “Matematika o'qitish metodikasi” fani pedagogika fanlari turkumiga kiruvchi mustaqil fan bo'lib, quyidagi savollarga javob beradi. 1) Nima uchun matematikani o'rganish kerak? (ta'lim maqsadi) 2) Matematikadan nimalarni o'rganish kerak? (ta'lim mazmuni) 3) Matematikani qanday o'rganish maqsadga muvofiq? (ta'lim metodlari) 4) Matematikani qayerda o'rganish maqsadga muvofiq? (ta'lim shakllari) 5) Matematikani nima yordamida samarali o'rganish mumkin? (ta'lim vositalari) 6) Matematikani o'rganishni oldindan kafolatlash (pedagogik va ta'lim texnologiyalari).
2.	Elementar matematika bilan oliy matematikaning qanday farqi bor?	A	*Elementar matematika fani oliy matematika-ning turli tarmoqlaridan, ya'ni nazariy arifmetika, sonlar nazariyasi, oliy algebra, matematik analiz va geometriyaning mantiqiy kursidan olingan elementar ma'lumotlar asosiga qurilgandir. Oliy matematika fani esa, real olamning fazoviy formalari va ular orasidagi miqdoriy munosabatlarni to'la aks ettiruvchi matematik qonuniyatlarni topish bilan shug'ullanadi.
		B	Maktabdagi arifmetika va geometriya qonuniyatlarini elementar matematika o'rgansa, oliy matematika esa, matematikani yuqori darajada o'rganadi.
		C	Matematikadagi elementar ma'lumotlar elementar matematika kursida, yuqori murakkablikdagi ma'lumotlar esa, oliy matematikada o'rganiladi.
		D	Elementar matematika maktabda, oliy matematika esa, oliy ta'lim muassasalarida o'rganiladi.

3.	Matematika o'qitish metodikasi bilan shu-g'ullangan birinchi olimning nomini ayting.	A	Rus olimlaridan S.Y. Gurev
		B	Metodist matematik Shoxor-Trotskiy.
		C	Matematika metodikasi haqidagi tushuncha birinchi bo'lib shvetsariyalik pedagog matematik G. Pestalotsi tomonidan kiritilgan.
		D	Rus matematik-metodist olimlaridan S.Y. Lypin tomonidan kiritilgan.
4.	Matematika o'qitish metodikasi asosiy nechta bo'limdan iborat?	A B C D	7 ta. 5 ta. 9 ta. 2 ta.
5.	Matematika o'qitish metodikasi predmeti shartli ravishda qanday bo'limlarga (qismlarga) bo'linadi?	A	Matematika o'qitishning umumiy metodikasi, matematika o'qitishning maxsus metodikasi va matematika o'qitishning aniq metodikasi.
		B	Matematika o'qitishning umumiy metodikasi va matematika o'qitishning maxsus metodikasi.
		C	Matematika o'qitishning umumiy metodikasi va matematika o'qitishning aniq metodikasi.
		D	Matematika o'qitishning maxsus metodikasi.
6.	Matematikani o'qitishning amaliy maqsadi o'z oldiga qanday vazifalarni qo'yadi?	A	Ko'nikma.
		B	Matematikani o'qitishda texnik vosita va ko'rgazmali qurollardan foydalanish masalalarini shakllantirish.
		C	Ta'lim oluvchilarni mustaqil ravishda matematik bilimlarni egallashga o'rgatish.
		D	Matematika kursida olgan nazariy bilimlarni kundalik hayotda uchraydigan elementar masalalar yechishga tatbiq qila olishga o'rgatish.
7.	"Matematika o'qitish metodikasi" fani qanday qismlarga bo'lib o'rganiladi?	A	Matematika o'qitishning umumiy va xususiy metodikasi.
		B	Matematika o'qitishning umumiy va aniq metodikasi.
		C	Matematika o'qitishning xususiy va aniq metodikasi.
		D	Matematika o'qitishning umumiy, xususiy va aniq metodikasi.

Dars turi va tipi hamda unda qo'llaniladigan pedagogik usul va uslublar

O'quv mashg'ulotining shakli	Mustaqil ta'lim elementlariga asoslangan ma'ruza mashg'uloti.
Ta'lim usullari	Modulli ta'lim, qiyosiy tahlil.
Ta'lim vositalari	Ta'lim oluvchilar o'quv faoliyati tartibi (modul kartasi) – tarqatma material; o'quv-metodik qo'llanma, tahlil jadvali.
Ta'lim shakllari	Ommaviy, guruh, yakka tartibda, juftlikda, jamoaviy.

O'qitish sharoitlari	Oddiy auditoriya.
Monitoring va baholash	Modulda ko'rsatilgan barcha topshiriqlar natijalari.

O'quv jarayonida foydalaniladigan axborot texnologiyalari va didaktik materiallarning qo'llanish joylari

T/r	Axborot texnologiya vositalari	Didaktik materiallar
1.	Yozuv doskasi	Qoidalar ifodalangan taqdimot
2.	Kompyuter, multimedia, yozuv doskasi	O'quv va ko'rgazmali materiallar va slaydlarning nusxalari
3.	Kompyuter, yozuv doskasi	Jadval
4.	Kompyuter ta'lim metodikasi-ning izchilligini ta'minlash	"Matematika o'qitish metodikasi" faniga doir darslik, uslubiy qo'llanmalar va o'quv-metodik majmua va ko'rgazmali qurollar hamda o'quv mashg'ulotlarning loyihalari, test.
5.	Mavzu mazmuniga doir tuzilgan testlar, nazorat savollari hamda test va nazorat savollari asosida tuzilgan slaydlar orqali namoyish qilish	Test

So'nggi jarayonda "Matematika o'qitish metodikasi" fanining predmeti, fan sifatidagi taraqqiyot bosqichlari, o'quv predmeti sifatidagi maqsadi, mazmuni" mavzusining mazmuni va o'quv jarayonini amalga oshirishni ifoda etuvchi matn ssenariysi shakllantiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tojiyev.M., Barakayev M., Xurramov A. *Matematika o'qitish metodikasi fani o'quv mashg'ulotlari loyihasi.* – T.: Fan va texnologiya, 2015. 224-b.
2. Tojiyev M. *Uzluksiz ta'lim tizimida o'quv fanlarining modulli o'qitish metodikasi va amaliyoti.* – T.: Turon-iqbol. 2017. 160-b.
3. Yunusova D. *Matematikani o'qitishning zamonaviy texnologiyalari. Darslik.* – T.: Fan va texnologiya, 2011. 200-b.
4. Yunusova D. *Bo'lajak matematika o'qituvchisini innovatsion faoliyatga tayyorlash nazariyasi va amaliyoti.* – T.: Fan, 2009. 165-b.
5. Yunusova D., Yunusov A. *Algebra va sonlar nazariyasi. Modul texnologiyasi asosida tuzilgan misol va mashqlar to'plami. O'quv qo'llanma.* – T.: Ilm Ziyo, 2009.

Mirazim TOJIYEV,
Hikmatillo ALLABERGANOV,
Toshkent moliya instituti o'qituvchilari

GEOGRAFIYA FANIDAGI “TABIY JARAYONLAR” MAVZUSINI O'RGANISHDA “PANORAMA” TRENING USLUBIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Maqolada geografiya fanidagi “Tabiiy jarayonlar” mavzusini o'rganishda “Panorama” trening uslubini qo'llanilishi haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, muallif mavzu bo'yicha amaliy mashg'ulotni tashkil etishda seysmofaol xarita, krossvord tuzilmalari va ijodiy topshiriqlardan foydalanish mumkin ekanligini aytib o'tgan.

Kalit so'zlar. Tabiiy jarayon, yer silkinishi, yer surilishi, interfaol metod, ball, magnituda, silkinish o'chog'i, epitsentr seysmofaol hudud.

Статья посвящена изучению темы “Природные явления” с использованием интерактивной формы обучения “Панорама” тренинг.

Ключевые слова. Интерактивный метод, природные явления, землетрясение, оползни, балл, магнитуда, очаг, эпицентр землетрясения, сейсмоактивная территория.

Article is devoted to the study of the topic "Natural phenomena" using the interactive form of training "Panorama" training.

Key words. Interactive method, natural phenomena, earthquake, landslides, point, magnitude, focus, earthquake epicenter, seismically active territory.

Hozirgi globallashuv jarayonida o'quv jarayonlarini innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish dolzarb masalalardan hisoblanib, ularning o'rni va roli benihoya kattadir. Chunki o'quv jarayoniga interfaol usullar, innovatsion texnologiyalarning qo'llanilishi bo'lajak mutaxassislar egallayotgan bilimlarni mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, xulosa chiqarishlariga sharoit yaratadi va shu bilan birga ularda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik qobiliyatiga ham erishiladi. Bunday masalaning ijrosi sifatida “Tabiiy geografiya” fanining mavzularini innovatsion texnologiyalardan “Panorama” trening usulida o'rganish va amaliy ko'nikma hosil qilish tavsiya etiladi.

“Tabiiy jarayonlar” mavzusi bo'yicha amaliy mashg'ulotni tashkil etishda seysmofaol xarita, krossvord tuzilmalari va ijodiy topshiriqlardan foydalaniladi. Bunda o'qituvchi amaliy mashg'ulotni tashkil etishda talabalarning tayyorgarligi hamda ularning faollik darajalari, guruhlar soni, dars o'tish vaqti va auditoriyaning texnik ta'minoti holatiga ko'ra interfaol metodlarni tanlashi muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi kunda ta'lim oluvchilarning ijodiy faolligini va o'qitishning samaradorligini oshirishda “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Keys-stadi”, “Muloqot trening”, “Venn di-

agrammasi”, “Panorama” nomli trening va boshqa interfaol metodlar qo’llaniladi. Shu maqsadda “Tabiiy geografiya” fanining “Tabiiy jarayonlar” mavzusini amaliy mashg’ulot darsida o’rganishda “Panorama” trening uslubiyatini qo’llab o’rganishni tavsiya etamiz.

Savollar.

1. Tektonik zilzilaning yer ostidagi o’chog’i nima deb ataladi?
2. Tektonik zilzila kuchini o’lchashda xalqaro o’lchov birligi kim tomonidan taklif qilingan?
3. 1992-yilda O’zbekistonning qaysi hududida suv toshqini havfi bartaraf etildi?
4. Daraxtlarning qiyshiq o’sishi qaysi tabiiy ofat darakchisi hisoblanadi?
5. Suv toshqini tabiiy ofatlarini qaysi turiga taalluqli?
6. O’tgan asrning 1920-yilida eng halokatli zilzila qayerda kuzatilgan (halok bo’lganlar soni yuqoriligi jihatidan)?
7. Tektonik zilzilaga bardoshli inshootlar necha xilga bo’linadi?
8. Tektonik zilzilani energiya nuqtayi nazaridan xarakterlaydigan o’lchov birligini ayting?
9. 9 ballga bardoshli inshootlar qanday materiallardan quriladi?

Javoblar.

1. Giposentr.
2. Rixter.
3. Qoraqalpog’iston Respublikasi.
4. Surilish.
5. Hidrometerologik.
6. Xitoy.
7. To’rt.
8. Magnitura.
9. Temir betonli.

Yuqoridagi savol-javoblardan kelib chiqib o’quvchilarga krossvord tuzish tavsiya qilinadi.

Mavzuni o’zlashtirish jarayonida talabalar o’rtasidagi his-hayajonni pasaytirish, shuningdek, xotiradan ko’tarilgan ba’zi tayanch so’z va iboralarni esga solish maqsadida mavzuga doir krossvordlarni yechish ham tavsiya etiladi. Krossvordlarni yechish o’yin xarakteriga ega bo’lganligi uchun talabalarning mavzuni oson o’zlashtirishlariga imkon beradi. Chunki krossvordlar talabalarning nafaqat bilim olishdagi faolligini oshiradi, balki o’rganayotgan mavzuni qanchalik darajada o’zlashtirganini, o’ziga ishonchini, zehni sinash imkoniyatini ham beradi.

Krossvordni yechishda 4 ta kichik guruhlariga bo’lingan talabalarga 1 ta variantdan iborat krossvordning bittadan varianti tarqatiladi va ularga kataklarni to’ldirish uchun 10 daqiqa vaqt ajratiladi. Guruhlardagi talabalar krossvord kataklarini to’ldirib, to’g’ri deb hisoblangan javoblarni qog’oz chetiga yozib qo’yadilar. O’qituvchi talabalarning javobi-

ni tekshirib, krossvordning to'g'ri javoblarini krossvord kataklarida proyektor yordamida namoyish etadi. Bunda talaba bir daqiqada o'z javoblarini to'g'ri yoki xato ekanligini anglab oladi va o'rganayotgan mavzuga oid ma'lumotlarni xotirasida uzoq vaqt saqlab qoladi.

"Tabiiy jarayonlar" mavzusi bilan bog'liq amaliy mashg'ulotni "Panorama" trening usulida tashkil etishda quyidagi ma'lumotlardan foydalaniladi (sxema, 1-jadval).


"Panorama" trening uslubida ham avvaldan tuzilgan kichik guruhlardagi talabalar (4-5 kishidan iborat) yer silkinishi va surilish ofatlarining xarakterlovchi ko'rsatkichlari taqqoslab o'rganiladi va ular o'rtasidagi umumiylik va xususiy xususiyatlarni topish imkoniyatlari yaratiladi. Ammo ikkala ofat to'g'risidagi mukammal ma'lumotlarni ularning boshqa sifatlarini xarakterlovchi ma'lumotlarni o'rganish orqali erishiladi. (1-jadval)

Mazkur topshiriq (tarqatma material) guruh talabalariga tarqatiladi va unda so'ralgan savollarga o'z fikr-mulohazalarini yozadilar. (1-jadval)

Bu vazifani bajarish uchun 15 daqiqa vaqt beriladi, so'ngra o'qituvchi guruhdagi tarqatma materiallarni guruhlararo almashtiriladi (sxema). Guruh a'zolari ularga kelib tushgan tarqatma material varag'idagi yozilmay qolgan tabiiy ofat sifatlarini vaqt mobaynida o'z fikrlarini qo'shimcha qilib yozishadi. Tarqatma materiallarni guruhlararo almashtirish va vazifalarni bajarish uchun 5 daqiqadan vaqt ajratiladi. Tarqatma materiallar o'z guruhlariga qaytgach, guruh a'zolari tarqatma materialda to'plangan barcha ma'lumotlarni o'qib, ularni umumlashtiradi va umumiy bir fikrga kelib, guruh vakillaridan biri tayyorlagan ma'lumotlarni taqdimot qiladi. Taqdimotda boshqa guruh a'zolari qo'shimcha qilishlari yoki to'ldirishlari mumkin. Har bir taqdimotga 10 daqiqadan vaqt beriladi.

Taqdimot tugagach, o'qituvchi o'rganilayotgan mavzu bo'yicha bildirilgan fikr va ma'lumotlarni umumlashtirib, guruhlarning bajargan ishlarini baholaydi.

Sxema.



1-jadval

Tarqatma material

Tabiiy jarayonlar turi	Yuzaga kelish sabablari	Salbiy oqibatlar	Ofat oqibatlarini tugatish tadbirlari	O'zbekistonning qaysi hududlarida kuzatilgan
Yer silkinishi va surilishi				

Xulosa qilib aytganda, “Tabiiy jarayonlar” mavzusi bo'yicha “Panorama” trening uslubida amaliy mashg'ulotni tashkil etish katta ijodiy samaraga olib keladi. Chunki bu uslubda talabalarning faolligini oshirish bilan bir qatorda har bir talabaning mavzuni o'rganishidagi ishtiyoqi, iqtisodiy fikr-mulohazalari, muloqotga kirishish yoki kirishmaslik holatlari, guruh a'zolarining yo'l qo'ygan xatolari va yutuqlarini ham tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'linadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Golish L.V., Xoshimova D.P. *Ta'lim jarayonida interfaol ta'lim uslublari va zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish // Trening o'quv-metodik materiallari.* – T., 2014. 80-b.
2. Avliyaqulov N.X., Musayeva N.N. *Pedagogik texnologiya. Darslik.* – T., 2012. 208-b.
3. Ro'ziyeva D., Usmonboyeva M., Xoliqova Z. *Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi, metodik qo'llanma.* – T., 2013. 116-b.
4. Eshmuhammedov R., Yuldashev M. *Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma.* – T., 2013. 278-b.

Narziqul TURDIYEV,

Respublika ta'lim markazi bosh metodisti,

Jabbor O'SAROV,

Nizomiy nomidagi TDPU katta ilmiy xodim-izlanuvchisi

YANGI DAVLAT TA'LIM STANDARTLARI ASOSIDA O'QUVCHILARDA TAYANCH KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Annotatsiya

Maqolada kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'limda o'quvchilarda shakllangan tayanch va fanga oid umumiy kompetensiyalarni baholash mezonlari haqida mulohazalar keltiriladi.

Kalit so'zlar. Kompetensiya, kompetentlik, baholash mezonlari, ta'lim, tayanch va predmetga oid kompetensiyalar.

В статье приводятся мнения об оценке сформированности ключевых и предметных компетенций у учащихся при компетентностном подходе к образованию.

Ключевые слова. Компетенция, компетентность, критерии оценки, образование, ключевые и предметные компетенции.

Article presents opinions on assessing the formation of key and subject competencies in students with a competent approach to education.

Key words. Competence, assessment criteria, education, key and subject competencies.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-sonli qarori bilan umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlari tasdiqlandi. Qaror ilovasida umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartining tarkibiy qismlari keltirilgan. Unga ko'ra, standartning tarkibiy qismiga umumiy o'rta ta'limning tayanch o'quv rejasi, umumiy o'rta ta'limning o'quv dasturi, umumiy o'rta ta'limning malaka talablari va baholash tizimi kiradi. Shulardan tayanch o'quv rejasi, umumiy o'rta ta'limning malaka talablari qarorning ilovalarida berilgan. Umumiy o'rta ta'limning o'quv dasturi tayanch o'quv rejaga muvofiq o'quv fanlarining sinflar va mavzular bo'yicha hajmi, mazmuni, o'rganish ketma-ketligi va shakllantiriladigan kompetensiyalari belgilangan hujjat hisoblanadi.

Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining umumta'lim fanlari bo'yicha malaka talablari:

- o'quv fanini o'rganishning bosqichlarini;
- tayanch va fanga oid umumiy kompetensiyalarni;
- o'quv fanining maqsad va vazifalarini;

- umumta'lim fanlarini o'rganishning mazmunini;
- umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari bitiruvchilarining umumta'lim fanlari bo'yicha majburiy tayyorgarlik darajalarini hamda ta'lim muassasalari bitiruvchilariga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilab beradi.

Yuqoridagilarga asosan, O'zbekiston Respublikasida ta'limning uzluksizligi, uzviyligi, o'quvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda quyidagi tayanch kompetensiyalar shakllantirilishi ko'zda tutilgan:

Kommunikativ kompetensiya – ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida hamda birorta xorijiy tilda o'zaro muloqotga kirisha olishni, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilishni, ijtimoiy moslashuvchanlikni, hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi – mediamanbalardan zarur ma'lumotlarni izlab topa olishni, saralashni, qayta ishlashni, saqlashni, ulardan samarali foydalana olishni, ularning xavfsizligini ta'minlashni, mediamadaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi – doimiy ravishda o'z-o'zini jismoniy, ma'naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, kamolotga intilish, hayot davomida mustaqil o'qib-o'rganish, kognitivlik ko'nikmalarini va hayotiy tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish, o'z xatti-harakatini muqobil baholash va mustaqil qaror qabul qila olish ko'nikmalarini egallashni nazarda tutadi.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi – jamiyatda bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish, o'zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish, unga rioya qilish, mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala va huquqiy madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Milliy va umummadaniy kompetensiya – vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish, badiiy va san'at asarlarini tushunish, orasta kiyinish, madaniy qoidalarga va sog'lom turmush tarziga amal qilish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi – aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarni tuza olish, kundalik faoliyatda turli diagramma, chizma va modellarni o'qiy olish, inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan, qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan foydalana olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Mazkur kompetensiyalar umumta'lim fanlari orqali o'quvchilarda shakllantiriladi. Shuningdek, har bir umumta'lim fanining mazmunidan kelib chiqqan holda o'quvchilarda fanga oid umumiy kompetensiyalar ham shakllantiriladi.

Qarorda umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlari 2017–2018-o'quv yilidan boshlab bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etilishi ko'zda tutilgan. Qarorning ijrosini ta'minlash maqsadida Xalq ta'limi vazirligi va Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'rta maxsus, kasb-hunar markazining davlat ta'lim standartlari asosida o'quv dasturlarini takomillashtirish to'g'risida qo'shma buyrug'i qabul qilindi va tegishli chora-tadbirlar hozirda izchil davom etmoqda.

Davlat ta'lim standartlarining tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan baholash tizimi – umumiy o'rta ta'limning malaka talablarini o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi darajasini hamda umumiy o'rta ta'lim muassasasining faoliyati samaradorligini aniqlaydigan

mezonlar majmuidan iborat bo'lib, umumiy o'rta ta'limning o'quv dasturi bilan birgalikda ishlab chiqilishi kerak. Bunda har bir fan bo'yicha o'quv dasturlarini ishlab chiqishda ma'lum bir muammolarni hal etish zaruriyati tug'iladi. Jumladan, yuqorida keltirilgan tayanch kompetensiyalar 12 yillik majburiy ta'lim uchun umumiy holda keltirilgan bo'lib, ularni amaliyotga joriy etish uchun bolaning yoshi, psixo-fiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda har bir sinf uchun alohida ishlab chiqilishiga erishish zarur.

Mazkur tayanch kompetensiyalarni fizika fani xususiyatlarini hisobga olib, uni 6-sinfda quyidagicha aniqlashtirib olish mumkin:

O'quv yili davomida o'quvchilarda fanga oid kompetensiyalar bilan birgalikda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar:

1. Kommunikativ kompetensiya (K.k): fizikadan 6-sinfda o'rganiladigan fizik atamalarni, qonunlarni, qoidalarni to'g'ri talaffuz qila olishi, boshqalarga tushuntirib bera olishi va yoza olishi, fizik kattaliklarning xorijiy tilda aytilishi va yozilishini bilishi kerak.

2. Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi (A.i): 6-sinf darsligi, masala yoki mashq kitobidan, kutubxona, axborot resurs markazi manbalaridan o'ziga kerakli ma'lumotlarni izlab topa olishi va ulardan samarali foydalana olishi hamda fizik birliklarni (kg, km, kN, MPa va h.k.) boshqa ulushli va karrali birliklarga (g, m, N, Pa va h.k.) aylantira olishi lozim.

3. O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi (O'.r): doimiy ravishda o'z-o'zini jismoniy, ma'naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirishi, hayot davomida mustaqil o'qib-o'rganishi, o'z xatti-harakatini adekvat baholashi va mustaqil qaror qabul qila olishi zarur.

4. Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi (I.f): sinfda, maktabda, oilada, mahallada va jamiyatda o'tkaziladigan tadbirlarda faol ishtirok etishi, o'zining fuqarolik burch va huquqlarini bilishi, unga rioya qilishi, o'zaro munosabatlarida muomala va huquqiy madaniyatga ega bo'lishi kerak.

5. Milliy va umummadaniy kompetensiya (M.u): vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lishi, fizika sohasi rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan allomalarning ibratli hayotini bilishi, orasta kiynishi va sog'lom turmush tarziga amal qilish layoqatini nazarda tutadi.

6. Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi (M.s): aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy rejalarni tuza olishi, fizikani o'rganishda turli formulalardan foydalana olishi, inson mehnatini yengillashtiradigan, qulay shart-sharoitga olib keladigan fizika fanidagi va texnika yangiliklaridan foydalana olishi zarur.

Xuddi shu kabi 7-, 8-, 9-sinflar uchun ham o'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar belgilab olinadi.

Navbatdagi muammo – bu o'quvchilarda fanga oid va tayanch kompetensiyalarining shakllanganlik darajasini aniqlaydigan mezonlarni belgilab olishdan iborat. Bunda mavjud baholash tizimi bilan uzviylikni ta'minlash, o'quvchi va o'qituvchilarda ortiqcha zo'riqishlarni vujudga keltirmaslik kerak bo'ladi. Shunga ko'ra, fanga oid umumiy kompetensiyalarni shakllanganlik darajasini odatiy besh ballik tizimda baholash taklif qilinadi. Bunda avvallari baho faqat o'quvchilarning egallagan bilim, ko'nikma va malakalariga ko'ra darajalangan bo'lsa, endi uning yoniga ularni kundalik turmushda qo'llay olish layoqati (kompetentligi) qo'shiladi. Masalan, o'quvchining fizikadan masala ye-

chish bo'yicha baholanishini qaraylik. Bunda o'quvchiga berilgan masala kompetentlikka yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

O'quvchi hodisa va qonuniyatlarning fizik ma'nosini to'la ochib bersa, asosiy tushunchalar, qonunlarni qo'llab, masalani to'g'ri yechsa; masala uchun chizma shart bo'lib, chizmalar to'g'ri chizilgan bo'lsa; fizik kattaliklar va ularning birliklarini to'g'ri keltirib chiqargan bo'lsa – 5 ball qo'yiladi. Agar o'quvchi javobi keltirilgan mezonga to'la mos kelmasa, keyingi darajadagi ballar qo'yiladi.

O'quvchilarda shakllangan tayanch kompetensiyalarni odatdagi 5 ballik tizimda baholab bo'lmaydi. Pedagog tomonidan o'quvchiga hech qachon sening ma'naviyatingga, vatanparvarliginga va h.k.ga ikki yoki bir bal qo'yaman, deyilishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Bundan tashqari, o'quvchining bilim, ko'nikma va malakasini sinfdagi boshqa o'quvchiga solishtirib, ball qo'yilish amaliyotini ham ta'lim jarayonida qo'llab bo'lmaydi. Chunki tayanch kompetensiyalar o'quvchining individual xususiyatlari bilan bog'langandir. Kimdir sergap, kimdir tortinchoq, kimdir tashkilotchi, kimdir yaxshi ijrochi bo'lishi mumkin.

Shunga ko'ra, tayanch kompetensiyalarni baholash o'quvchining "Shaxsiy rivojlanish natijalarini tashxislash" tarzida o'tkazilishini tavsiya etamiz. Uni turli shakllarda (tashxislash ishlari, kuzatish natijalari) tashkil etish mumkin. Istalgan holatda bunday tashxislash o'quvchi tomonidan o'z xatti-harakatlarini baholash, o'z hayotiy pozitsiyasini belgilash, motivlari, shaxsiy maqsadlarini namoyon qilishini taqozo qiladi. Bularning barchasi shunday intim sohaki, unda shaxsiy xavfsizlik, konfidentsiallik tashxislashni shaxsiylashtirilmaydigan ishlar ko'rinishida olib borishni talab qiladi.

Shu bois, o'quvchilarning o'zlarini baholash usullariga va natijalarini qayd etishga o'rgatish lozim bo'ladi. Bunda ular o'qituvchining maslahati va saylanma ravishda nazorati ostida asosan mustaqil ravishda bajara olishlari kerak. Yozma nazorat ishlari quyidagi yangi shakldagi ishlar bilan to'ldirilishi lozim:

- maqsadga yo'naltirilgan kuzatishlar (belgilangan parametrlar bo'yicha o'quvchi-da namoyon bo'ladigan harakatlar va sifatlarni qayd etish);
- qabul qilingan shakl bo'yicha o'quvchining o'z-o'zini baholashi (masalan, aniq faoliyat bo'yicha savollar varag'i);
- o'quvchilar o'qishdan va maktabdan tashqari jarayonda erishgan turli ishlarining natijalari.

Baholash tizimiga kiritilgan har bir yangilik ma'lum bir yashirin qaltislikka ega bo'ladi. Shu sababli yangi baholash tizimining qo'llanilish chegarasini va doirasini belgilab olish kerak.

Yangiliklarni asta-sekinlik bilan bosqichma-bosqich, oddiydan murakkabga qarab kiritish lozim. Natijalarni baholash tizimi tugallangan va o'zgarmagan holda berilmaydi. U hayotga singdirilish jarayonida javobini topish kerak bo'lgan yangi savollarni, muammolarni qo'yadi va rivojlanib boradi.

O'qituvchi tomonidan to'ldiriladigan hisobotlarni minimumga keltirish va to'ldirish muddatlarini optimallashtirish hamda pedagogni zo'riqtiradigan qo'shimcha qog'oz-bozlik ishlari bilan ko'mib tashlamaslik kerak. Bunda majburiy (minimum):

- tayanch kompetensiyalarni aniqlash va shaxsiyatga tegishli bo'lmagan tashxislash ishlarini kamida bir yilda bir marta o'tkazish;
- predmetga oid umumiy kompetensiyalarni aniqlovchi nazorat ishlarini kamida chorakda bir marta o'tkazish.

O'qituvchining xohishi va imkoniyatiga ko'ra (*maksimum*):

– istalgan boshqa topshiriqlar uchun (yozma yoki og‘zaki) – o‘qituvchi va ta’lim muassasasi qaroriga ko‘ra darslarda o‘tkaziladi.

Yangi mavzuni o‘rganishda yechilgan masalaga baho faqat o‘quvchi istagiga ko‘ra qo‘yiladi. Har bir mavzuni yakunlash bo‘yicha o‘tkazilgan nazorat ishi uchun o‘quvchilarning barchasiga baho qo‘yiladi. Chunki har bir o‘quvchi mavzu bo‘yicha ko‘nikma va malakalarini egallaganliklarini ko‘rsatishi kerak. O‘quvchi qo‘yilgan bahoni kundalik daftarga qo‘ydirmaslikka haqqi yo‘q, lekin uni qoniqtirmagan bahoni qayta (hech bo‘lmaganda bir marta) topshirishga haqli.

Tayanch kompetensiyalar shakllanganligi qanday mezonlar asosida baholash mumkin? Uni uch darajali muaffaqiyat alomatiga ko‘ra baholash tavsiya qilinadi .

Quyi darajasi (q)	Mazkur sinf o‘quvchisida shakllanishi zarur bo‘lgan kompetensiyalarga ega. Bunda birgalikdagi faoliyatida tashqaridan beriladigan yordamga muhtoj bo‘ladi.
O‘rta darajasi (o‘)	Mazkur sinf o‘quvchisida shakllanishi zarur bo‘lgan kompetensiyalarga ega. Bunda birgalikdagi faoliyatida tashqaridan minimal yordam oladi va boshqalarga qo‘lidan kelganicha yordam bera oladi.
Yuqori darajasi (y)	Mazkur sinf o‘quvchisida shakllanishi zarur bo‘lgan kompetensiyalarga ega. Bunda tashqaridan beriladigan yordamga muhtoj emas hamda birgalikdagi faoliyatida boshqalarga yordam bera oladi.

O‘quvchilarda tayanch kompetensiyalar shakllanganligining darajalari sinf jurnali-dagi qanday aks ettiriladi?

Buning uchun har predmet o‘qituvchisi o‘zining ishchi daftarida quyidagi jadvalni to‘ldiradi:

№	O‘quvchining i.sh.	K.k.	A.i.	O‘.r.	I.f.	M.u.	M.s.
1	Azamatova Sh.Y.	o‘	o‘	o‘	q	o‘	q
2	Bobojonov S.I.	y	o‘	q	o‘	q	o‘
3	Vohidov T.R.	q	q	q	o‘	o‘	q
4	Davronova D.S.	q	q	q	q	q	q

O‘quv fani o‘qituvchilari o‘z jadvallari nusxasini sinf rahbariga taqdim etishadi. Xuddi shunday jadval sinf jurnali oxiridagi alohida varaqda bo‘lib, unga sinf rahbari umumlash tirgan natijalarni kiritadi. Shunday qilib, fanga oid kompetensiyalari uchun o‘quvchilarga baho (“otsenka”) qo‘yilsa, tayanch kompetensiyalari shakllanganligi darajasiga belgi (“otmetka”) qo‘yiladi.

Ma’lumki, an’anaviy baholash tizimi hozirgi kunda “olib tashlash” prinsipiga asoslangan. O‘quvchining o‘quv masalasini yechishi qandaydir “ideal yechim” bilan solishtiriladi. Xatolar qidiriladi, namunaga mos kelmasa, baho pasaytiriladi. Bunday yondashuv muvaffaqiyatsizlikni qidirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, o‘quvchining motivatsiyasiga, uning shaxsiy o‘z-o‘zini baholashga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shunga ko‘ra, tayanch kompetensiyalarning shakllanganlik darajasini aniqlash uchun **“qo‘shib qo‘yish”** va **“darajali yondashuv”** tamoyiliga asoslangan shkaladan foydalaniladi. O‘quvchi tomonidan belgilangan quyi darajaga erishish, shubhasiz, muvaffaqiyat hisoblanadi. Lekin uning ortidan undan yuqoriroq darajadagi muvaffaqiyat keladiki, albatta, o‘quvchi unga intiladi.

Yangi baholash tizimini joriy etish o'qituvchidan qancha qo'shimcha vaqt sarflashni talab etadi? "O'z-o'zini baholash algoritmi" ko'pgina darslarda 5 daqiqadan ortiq o'quv vaqtini talab etmaydi. Lekin bu algoritmnı barcha o'quvchilar o'zlashtirib olsalar (taxminan 2-3 haftadan so'ng), undan foydalanish o'quvchilarning o'quv jarayoni samaradorligini sezilarli darajada ortishiga olib keladi.

Predmetlar bo'yicha har bir nazorat ishini tekshirish uchun qo'shimcha 5 daqiqa talab qilinadi. Bir chorakda barcha predmetlar uchun o'tkaziladigan nazorat ishlari hisobga olinsa, chorakda qo'shimcha 30 daqiqa vaqt ajratiladi.

Tayanch kompetensiyalar shakllanganligini tashxislovchi ishlar (bir yilda 1-2 marta o'tkaziladigan) uchun o'qituvchidan quyidagicha vaqt ajratish talab qilinadi:

- barcha tashxislash ishlari uchun bir yilda taxminan 2-3 soat (zaxira soatlar hisobidan), ya'ni qo'shimcha soatlar evaziga emas, balki sarflanadigan vaqt hisobidan;

- taxminan 2-3 soat vaqtı bu ishlarnı tekshirishga, natijalarini jadvalga joylashtirishga va ularni tahlil qilishga ketadi (tekshirish va tahlil qilish elektron ko'rinishga o'tkazilsa, ishlar yarim avtomatik ravishda bajarilib, o'qituvchining vaqti tejaladi).

O'quvchining "O'z-o'zini baholash algoritmi"ni to'ldirish uchun o'qituvchi tomonidan beriladigan yordam bir chorakda sinfdagi barcha o'quvchilar uchun o'rtacha 1 soat ketadi.

Shunday qilib, xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, o'qituvchining qo'shimcha sarflagan vaqti bir yilda taxminan 9 soatni tashkil etadi. Fidoyilik bilan ishlash oqibatida o'quvchilar o'z-o'zini baholash ko'nikmalariga, qisman mustaqil holda nazorat-baholash sifatlariga ega bo'lishadi. O'qituvchilar, ota-onalar, maktab ma'muriyati har bir o'quvchining real muvaffaqiyati va yutuqlarini kuzatish, kompleks jamlanma baho uchun kerakli ma'lumotlarnı olishi mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori. 2017-yil 6-aprel.*

2. *Turdiyev N.Sh., Asadov Y.M., Akbarova S.N., Temirov D.Sh. Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari. – T., 2015. 160-b.*

Ra'noxon XODJIYEVA,

O'zbekiston Davlat jahon tillari universiteti katta ilmiy xodim-izlanuvchisi

CHET TILI DARSLIKLARINING ZAMONAVIY AVLODINI ISHLAB CHIQISHGA DOIR PEDAGOGIK TAVSIYALAR

Annotatsiya

Mazkur maqolada olimlar tomonidan "darslik" tushunchasiga berilgan ta'riflar ko'rib chiqilgan. Shuningdek, muallif xorijiy tillar bo'yicha yangi avlod darsliklarini yaratish muammolari va bu kabi darsliklarning asosiy tavsiflarini ko'rsatib bergan.

Kalit so'zlar. Darslik, o'quv uslubiy materiallar, ta'lim tizimi, muammo, ta'lim tamoyillari, ta'lim sifati.

В данной статье рассматриваются различные подходы ученых к раскрытию понятия "учебник", обсуждаются проблемы создания учебников иностранного языка нового поколения. Автором определены основные характеристики учебников иностранного языка.

Ключевые слова. Учебник, учебно-методические материалы, система образования, проблема, принципы обучения, качество образования.

Article examines the different approaches of scientists to the disclosure of the concept of "textbook" and discusses the problems of creating textbooks of a new language of a new generation. Also determined the main characteristics of textbooks of a foreign language.

Key words. Textbook, educational materials, education system, problem, principles of education, quality of education.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng ta'lim tizimida tub islohotlar amalga oshirildi. Bugungi kunda muvaffaqiyat bilan amalga oshirilayotgan Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga binoan, xorijiy tillarni o'qitish bo'yicha uzluksiz tizim barpo etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrdagi "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" hamda 2013-yil 23-maydagi "O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlarida ta'lim tizimining barcha bosqichlarida chet tillarni uzluksiz o'rganishni tashkil qilish, shuningdek, barcha ta'lim bosqichlari uchun, xususan, oliy ta'lim tizimi uchun zamonaviy o'quv-uslubiy materiallar bilan ta'minlash zarurligini belgilab berdi.

Hozirgi kunga qadar ko'pchilik xorijiy tillarni o'qitish uchun yaratilgan darsliklar asosan an'anaviy uslublarda yaratilgan bo'lib, ular grammatika-tarjima metodiga asoslangan. Bugungi kun talabiga ko'ra, asosiy maqsad talabani chet tillarda muloqot mahoratiga o'rgatishdir. Umumyevropa standarti bugungi kunda xorijiy tillarni o'qitishda interfaol-kommunikativ metoddan keng foydalanishni taqozo etmoqda. Shunday

ekan, mamlakatimiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida chet tilni o'qitishni jahon andozalari darajasiga yetkazish uchun ilg'or davlatlar tajribasidan oqilona foydalanib, uzluksizlik va uzviylikka asoslangan Davlat ta'lim standartlari asosida chet tillar bo'yicha yangi avlod darsliklarini yaratish dolzarb masalalardan biriga aylandi.

Xorijiy tillar bo'yicha o'quv adabiyotlarning yangi avlodini yaratish muammolariga to'xtalishdan oldin, "darslik" to'g'risidagi ba'zi tushunchalar haqida fikr yuritsak.

Darslik muammolari bilan shug'ullanuvchi olimlar ilmiy ishlarida darslik tushunchasi turlicha ta'riflangan: "Darslik o'quv materialini va u bilan ishlash metodikasini tavsiya etadi hamda o'qituvchiga o'quv materialini o'qitish va o'rgatish, o'quvchiga esa o'rganish va o'zlashtirish usullarini taqdim etadi. Boshqacha qilib aytganda, darslikda ta'lim maqsadlari mazmun va metodlar ko'rinishida mujassamlashtiriladi"¹.

Haqiqatdan ham, darsga qo'yiladigan ko'plab ta'lim talablarini bajarish va o'quv materialini mustahkamlashda o'qituvchi uchun darslik eng yaxshi yordamchi vosita hisoblanadi. Sifatli darslikning har bir mavzusi o'ziga xos yaxlit va to'liq o'quv materialini o'zida qamrab oladi².

V.P.Bespalkoning ta'kidlashicha: "Darslik – axborotli model bo'lib, unda pedagogik tizimning quyidagi to'rtta elementi: ya'ni o'qitish maqsadlari; o'qitish mazmuni; didaktik jarayonlarni tanlash va ishlab chiqish; o'qitish shakllarini tashkil qilish kabi jihatlar o'z aksini topadi. Bunda darslik o'quvchining imkoniyatini inobatga oluvchi o'qitish vositalaridan biri hisoblanadi"³.

V.V. Krayevskiy va I.Y.Lernerlarning ilmiy adabiyotlarida "Darslik butun o'quv jarayonini tashkil qilish uchun xizmat qiladi" yoki "Darslikda nafaqat o'quvchining faoliyati, balki o'qituvchining faoliyati ham dasturlashtirilgan"⁴ degan fikrlar ilgari surilgan.

Ilmiy tadqiqotlarda darslikning umumiy tushunchasi quyidagicha bayon qilinadi: "Darslik pedagogik tizimning axborotli modeli bo'lib, unda o'quv jarayonining o'quvchilar bajarishi mumkin bo'lgan bosqichlari yoritiladi. O'quvchilar darslikdagi matnni o'qib, uning tarkibidagi mashqlar yoki topshiriqlarni harakatlar ko'rinishida bajaradilar, tekshiradilar, yechadilar, javob beradilar va h.k. Mazkur harakatlar darslik matnlarida ochiq yoki yashirin shaklda berilishi mumkin. Bu darslikda ma'lum pedagogik jarayonning u yoki bu holatda bayon etilishidan dalolat beradi. Pedagogik jarayon – bu muallif tomonidan darslikda ma'lum darajada aks ettirilgan moddiy mavjudlik va yangilikdir"⁵.

Darslik – bu moddiy obyekt bo'lib, u ma'lum bir aniq tizimli ko'rinishdagi ma'lumotlarni o'ziga qamrab oladi. Bularga ilmiy bilimlar, o'qitish maqsadlari, vazifalari va mazmunlariga muvofiq faoliyat usullari to'g'risidagi bilimlar, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchining o'zaro ta'sirini modellashtiruvchi materiallar kiradi⁶.

Darslik o'quv jarayonining o'zagi va o'quv predmetining modeli hisoblanadi. Un-

¹ Claude Allegre. Речь на пресс-конференции, посвященной партнерству в области образования и культуры, 9 апреля 1999 год.

² Аскарлов Е.С. Учебные пособия о научной работе//Учебник третьего тысячелетия: Материалы III Международной научно-практической конференции. 5-7 июня 2003.– Алматы, Атамур, 2003.

³ Беспалько В.П. Теория учебника Дидактический аспект. – М.: Педагогика, 1988. – С.160.

⁴ Краевский В.В., Лернер И.Я., Скаткин М.Н. Современная концепция содержания образования.

⁵ Беспалько В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. – М.: ИТПИМО, 1995. – С.169.

⁶ Арутюнов А. Р. Теория и практика создания учебника русского языка для иностранцев. – М.: Рус. яз., 1990. – С.168.

dagi yoritilgan bilim, ko'nikma, malaka va faoliyat usullari davlat ta'lim standartida belgilangan minimumdir. Ushbu minimum darajasidagi kichik mutaxassislar tayyorgarligi esa ta'limning bahosi hisoblanadi⁷.

O'quvchilarning davlat standartida va o'quv dasturida belgilab berilgan bilimlarini faol va ongli suratda o'zlashtirishlari uchun mo'ljallangan asosiy o'quv kitobi darslik hisoblanadi. To'laqonli yaratilgan darslik axborot modelining majmuidan iborat bo'lib, bu model pedagogik tizimning o'qituvchi-darslik-o'quv jarayoni-o'quvchidan iborat to'rt muhim tarkibiy qismini aks ettiradi va ularni amaliyotga tatbiq etishga imkon beradi. Bunda darslik o'qitishning texnik vositasi sifatida o'quvchining, ya'ni o'z iste'molchisining imkoniyatlarini hisobga olish zarurdir.

"Uzluksiz ta'lim tizimi uchun o'quv adabiyotlarning yangi avlodini yaratish konsepsiyasi"ga muvofiq "Darslik – davlat ta'lim standarti, o'quv dasturi, uslubiyoti va didaktik talablari asosida belgilangan, milliy istiqlol g'oyasi singdirilgan, muayyan o'quv fanining mavzulari to'liq yoritilgan, tegishli fan asoslarini mukammal o'zlashtirilishiga qaratilgan hamda turdosh ta'lim yo'nalishlarida foydalanish imkoniyatlari hisobga olingan nashr" deb ta'riflanadi⁸.

Ushbu konsepsiyaga muvofiq oldingi ta'lim tizimidan farqli ravishda hozirgi vaqtda yaratiladigan o'quv adabiyotlarining yangi avlodi shaxsni rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Birinchidan, xorijiy tillar o'qitish ta'limiga yangi Davlat ta'lim standartining joriy etilishi jarayonida o'quvchi shaxsi markaziy figura hisoblanadi. Ikkinchidan, fan-texnika va texnologiyalarning taraqqiy etishi esa o'zgaruvchan ta'lim mazmuniga o'tishni talab qiladi, uni tanlash o'quv-uslubiy ta'minotni ishlab chiqish strategiyasi bilan aniqlanadi. Uchinchidan, xorijiy tillarni o'qitish aniq bosqichlarga (A1, A2, B1, B2) bo'linganligi har bir bosqich uchun darsliklarni yaratishni talab etadi. Ushbu asosiy omillar xorijiy til ta'limi uchun darsliklarning yangi avlodini yaratish vazifasini qo'yadi. Shunday ekan, xorijiy tillar bo'yicha darsliklarning yangi avlodi qanday bo'lishi kerak va bu kabi darsliklarning asosiy tavsiflari nimalardan iborat?

Ularga javob berish darslikni o'quv-tarbiya jarayonini amalga oshirish vositasi sifatida o'rganilishini talab etadi. Aynan mana shu nuqtayi nazar yordamida yangi avlod chet til darsligining asosiy tavsiflari shakllantirilishi mumkin. Bu tavsiflar darslikni baholashda mezon vazifasini ham bajarishi mumkin.

Chet tili darsligining yangi avlodi quyidagi tavsiflarga ega bo'lishi kerak deb hisoblaymiz:

1. Darslik amaldagi ta'lim tizimiga yo'naltirilgan bo'lishi, unga mos kelishi va shu bilan birgalikda ma'lum miqdorda uni takomillashtiruvchi ta'lim jarayoni namoyon bo'lishi shart.

2. O'zaro bog'liq bo'lgan ta'lim vazifalarini bajarish orqali darslikda ta'lim maqsadlari aks etishi zarur. Bu vazifalar bir tarafdin muloqotga tayyorlashi, ikkinchi tarafdin, muloqotning asosiy vazifasini bajarishga qaratilishi, va nihoyat, o'quvchilarning o'z-o'zini nazorat qilishiga qaratilishi kerak. Shunday qilib, zamonaviy darslik o'quvchilarni oraliq xulosalarni chiqarish orqali rejalashtirilgan natijalarga olib keladi.

⁷ Альмуханбетов Б.А. Как мы видим современный учебник // Учебник третьего тысячелетия: Материалы III Международной научно-практической конференции. 5-7 июня 2003. – Алматы, Атамұра, 2003. – С.91.

⁸ Uzluksiz ta'lim tizimi uchun o'quv adabiyotlarning yangi avlodini yaratish konsepsiyasi. – T.: Sharq, 2002. 20-b.

3. Darslikka ta'limning barcha tarkibiy qismlari kiritilgan bo'lishi lozim: a) nutq, mavzu, muammo, muloqot holatlari; b) til va nutq materiallari (harf va tovushlardan tortib, tilni o'rganishning turli darajalaridagi: fonetik, leksik, grammatik va shu bilan birgalikda muloqot darajasidagi bog'lovchi matnlar); d) muloqot faoliyatini tashkil etuvchi ta'lim tarkibining jarayonli jihatlari:

- faoliyatga yo'naltirish, tayyorlash;
- faoliyatni o'zlashtirilgan darajada amalga oshirish (takrorlash);
- faoliyatni namuna darajasida amalga oshirish (o'qish, tinglash);
- faoliyatni ishlab chiqarish darajasida amalga oshirish (so'zlashish, yozish);
- nazorat, o'z-o'zini nazorat qilish;
- barcha tarkibiy qismlarga mamlakatshunoslik va ijtimoiy-madaniy jihatlarning singdirilishi. Turli mashqlar va ijodiy topshiriqlar bunday faoliyatni amalga oshirish shakli va vositalari bo'lib xizmat qiladi.

4. Darslik ta'limning quyidagi tamoyillarini amalga oshirishiga qaratilishi zarur:

- chet tillarni bilishga qo'yilgan talablarni aks ettiruvchi davlat ta'lim standartlari talablariga javob berishi;

- kitobxonni aniq belgilashi (o'quvchilarning yoshga nisbatan xususiyatlari, bosqich turi);

- ta'limning muloqot maqsadlari – o'quvchilar tomonidan chet tilida muloqot qilishning barcha vazifalarini bajarish qobiliyatiga ega bo'lishini ta'minlashi shart: o'rganish, ma'lumot olish (ma'lumot berish va so'rab olish); tartibga solish (iltimos qilish, maslahat berish, taklif kiritish); ruhiy va ma'naviy baholash (o'z fikrini bayon qilish, baholash, istak bildirish va h.k.); odob-axloq (ovqatlanish, jamoat joyida o'zini tuta bilish), ya'ni o'rganilayotgan tilda so'zlashuvchi millatga xos axloqiy me'yorlarni hisobga olish;

- ta'lim sharoitlarini hisobga olish va o'qituvchining ijodini rag'batlantirish zamona-viy uslubiy konsepsiyaga asoslanganligi;

- o'quvchi shaxsiga qaratilgan bo'lishi, uning qiziqishlari, moyilligi, qobiliyatini, ya'ni individual xususiyatlarini e'tiborga olishi va ta'limda alohida yondashuvni yo'lga qo'yishi;

- o'quvchilarni madaniyatlararo muloqotga chorlash orqali ta'limni ijtimoiy-madaniy yo'nalishda amalga oshirishi;

- imkoni boricha autentik matnlarning kiritilishi, xalq yoki millatning madaniy fondiga taalluqli bo'lgan badiiy asarlardan parchalar kiritilishi;

- ta'limning faol, muammoli tavsifini ta'minlashi, chet tillardagi nutq faoliyatining boshqa turdagi faoliyat turlariga kirib borishi: o'yin, mehnat, estetik (loyihali uslub orqali); faoliyatning turli shakllarini birlashtirishi: yakka tartibda, guruhli, juft va h.k.;

- nutq faoliyatining barcha ko'rinishlarini (gapirish, tinglab tushunish, o'qish) yozma nutqning o'zaro bog'liqligining ta'minlanishi;

- tilni egallashda va materiallarni taqdim etishda bosqichma-bosqichlikni ta'minlash, mashqlarning shartli holatlarda bo'lishi;

- o'qitishning samaradorligini oshirishga ko'maklashish, butun pedagogik jarayonni tashkil qilish orqali ta'lim olishga rag'batlantirish;

- darslarda chet tilida muloqot muhitining yaratilishini ta'minlash, mashqlarni muloqot orqali bajarilishi va bu faoliyatning rag'batlantirilishi;

- o'quvchilarning ona tili va oldingi tajribasiga tayanishni tashkil etish, ba'zi hollarda taqqoslash usullaridan foydalanish;

• o'quvchilarning mustaqil ishlari uchun sharoitlarni yaratish, o'quvchilarning avtonomligini ta'minlash.

5. Darslikning tashqi tuzilishi uning ichki, ya'ni konseptual tuzilishini aks ettirishi shart. Bu quyidagi ko'rinishda bo'lishi mumkin:

– darslik nomini asoslash, muallif g'oyasining o'quvchilar uchun tushunarli va aniq shaklini aks ettirishi lozim;

– darslik mazmunining aniq ko'rsatilganligi (keng sarlavha, mashqlarni, izohlar va h.k.ni shakllantirishda uslubiy apparatning mavjudligi);

– darslikning bo'limlarga aniq bo'linishi (mavzu, dars, bo'lak asosida);

– paragraf, bob, mavzu, matn, bo'lak, aniq dars mashg'uloti, syujetdagi burilishlarning aniq tarkibiy birliklarga egaligi;

– turli janr va ko'rinishdagi matn va suratlarning mutanosibligi;

– nutqiy faoliyatning asosiy ko'rinishlari xususiyatlarini hisobga olishga asoslangan mashg'ulotlar tiplari va ko'rinishlarning mutanosibligi;

– tasvirli materiallarning (rasmlar, suratlar, shakllar, belgilar, diagrammalar) didaktik ham rag'batlantiruvchi vazifani hamda estetik vazifani bajarishi;

– imkoniyatga ko'ra zamonaviy dizaynga ega bo'lishi lozim.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, chet tili darsliklarining yangi avlodi chet tillarni o'rganishda mamlakatimiz va chet elning ijobiy moyilliklarini hisobga olishi shart, yangiliklarning kirib kelishiga ko'maklashishi lozim. Natijada bir tarafdin tizimlilik va funktsionallikning mosligiga, ikkinchi tarafdin ta'limning pragmatik vazifalarini o'rgatish, tarbiyalash va rivojlantirish vazifalarining mutanosibligiga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Claude Allegre. *Речь на пресс-конференции, посвященной партнерству в области образования и культуры*, 9 апреля 1999 года.

2. Аскарлов Е.С. *Учебные пособия о научной работе // Учебник третьего тысячелетия: Материалы III Международной научно-практической конференции. 5-7 июня 2003.* – Алматы, Атамурра, 2003.

3. Беспалько В.П. *Теория учебника Дидактический аспект.* – М.: Педагогика, 1988. – С.160.

4. Краевский В.В., Лернер И.Я., Скоткин М.Н. *Современная концепция содержания образования.*

5. Беспалько В.П. *Педагогика и прогрессивные технологии обучения.* – М.: ИТПИМИО, 1995. – С.169.

6. Арутюнов А. Р. *Теория и практика создания учебника русского языка для иностранцев.* М.: Рус. яз., 1990. – С.168.

7. Альмуханбетов Б.А. *Как мы видим современный учебник // Учебник третьего тысячелетия: Материалы III Международной научно-практической конференции. 5-7 июня 2003.* – Алматы, Атамурра, 2003. – С.91.

8. *Uzluksiz ta'lim tizimi uchun o'quv adabiyotlarning yangi avlodini yaratish konsepsiyasi.* – T.: Sharq, 2002. 20-b.

Malika UMAROVA,

Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti., p.f.n.

Nodira G‘OFUROVA,

Nizomiy nomidagi TDPU II bosqich magistri

MEHRIBONLIK UYI TARBIYALANUVCHILARINI KASBGA YO‘NALTIRISH IMKONIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarini kasbga yo‘naltirish imkoniyatlari haqida ma’lumot berilgan. Shuningdek, mualliflar tarbiyalanuvchilarning qiziqishi, qobiliyat yo‘nalishini aniqlash maqsadida bir qancha psixologik-pedagogik usullarni tavsiya etgan.

Kalit so‘zlar. Tarbiyalanuvchi, kasb, qobiliyat, amaliy tajriba, o‘smirlik, individual, psixologik qiziqish, moyillik, kasb tanlash.

В статье рассматриваются особенности воспитательного процесса в домах "Мехрибонлик". Для того, чтобы определить возможности и интересы воспитанников, авторы рекомендуют использовать определенные психолого-педагогические методы.

Ключевые слова. Воспитанник, профессия, талант, практический опыт, подростковый возраст, индивидуальный, психологический, интерес, склонность, выбор профессии.

Article contains information about the specifics of the educational process in the houses of "Mehribonlik". In order to determine the possibilities and interests of pupils, the authors recommend using certain psychological and pedagogical methods.

Key words. Pupil, profession, talent, practical experience, adolescence, individual, psychological, interest, inclination, choice of profession.

Jamiyatimizda yashayotgan har bir inson qobiliyatiga qarab, o‘z manfaati hamda jamiyat uchun biron bir mehnat turi bilan shug‘ullanishi lozim. “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunning 12-moddasida “Umumiy o‘rta ta’lim bilimlarning zarur hajmini beradi, mustaqil fikrlash, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko‘nikmalarini rivojlantiradi, dastlabki tarzda kasbga yo‘naltirishga va ta’limning navbatdagi bosqichini tanlashga yordam beradi” deyilgan.

Kasb tanlash o‘quvchi uchun eng murakkab jarayon, chunki bu uning o‘smirlik va o‘spirinlik davriga to‘g‘ri keladi. Bu vaqtda uning shaxsi to‘liq shakllanmagan va bunday mas’uliyatli qarorga kelishi uchun yetarlicha tayyor holatda bo‘lmaydi. Shuning uchun ham o‘quvchilarning kasb tanlashda yordamga muhtojliklari sezilib turadi.

Kasb tanlashda tarbiyalanuvchilarga bir qator ichki va tashqi omillar ta’sir etishi mumkin. O‘quvchilarning individual-psixologik xususiyatlari, ya’ni sog‘ligi, temperamenti, xarakteri, qiziqishi, qobiliyati, irodasi va boshqalar ichki omillarni tashkil etsa, tashqi omillar esa, jamiyat tomonidan ta’sir etuvchi omillardir. Bular:

- oiladagilarning va atrofdagilarning fikri;
- geografik;
- ommaviy axborot vositalarining keng ta'siri;
- iqtisodiy imkoniyat va boshqalar.

Hozirgi kunda kasbga yo'naltirishdan maqsad – o'sib kelayotgan yosh avlodni kasbga ongli ravishda tanlashga tayyorlashdir. Kasbga yo'naltirishni shakllantirish kasbiy axborot va ta'lim-tarbiya o'quvchi qiziqishlarini o'rganib borish va mahorat bilan o'stirish, kasbiy maslahat, kasb tanlovi, maishiy-kasbiy moslashish kabi vositalarni o'z ichiga oladi. Ushbu vositalar kasbga yo'naltirish mazmunining asosini tashkil etadi.

Har bir tarbiyachi kasb tanlash ishini shunday tashkil etishi kerakki, tarbiyalanuvchilar ko'z oldida kasblarning mohiyati, ularning istiqbolliligi yaqqol namoyon bo'lishi kerak. Buning uchun tarbiyachi yuksak mahorat bilan tarbiyalanuvchilarga ta'sir ko'rsata olishi lozim.

Tarbiyachi tarbiyalanuvchilarga kasb-hunar haqida, har bir hunar egasi o'z mehnatini qandaydir mehnat quroli yordamida amalga oshirishi, kasblarning yaxshi-yomoni bo'lmasligi haqida tushuncha berishi kerak. Tarbiyalanuvchilarni kasbga qiziqitirish va yo'naltirishda turli kasb egalari bilan uchrashuvlar o'tkazish, kasb-hunar egallashga oid kitoblar, gazeta va jurnallarda chop etilgan maqolalar, ertaklar, topishmoqlar, o'yinlar, radio va televideniyeda beriladigan eshittirish va ko'rsatuvlardan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi.

Ayniqsa, tarbiyalanuvchilar bilan "Kim bo'lsam ekan?", "Men sevgan kasb", "Kasbim-faxrim", "Uddalayman", "Xohlayman", "Qiziqaman", "Hayotimda kerak", "Kela-jakdagi orzuyim", "Kasb tanlash hayot ko'zgusi" kabi mavzularda davra suhbatlari, bahs-munozara kechalari o'tkazilsa, kasbga bo'lgan qiziqish va ko'nikma yanada ortadi.

Tarbiyalanuvchilarning individual-psixologik xususiyati, qaysi kasbga qiziqishi va moyilligi ustun ekanligini turli psixologik-pedagogik usullar yordamida o'rganiladi. Bunday tashxis usullariga aqliy qobiliyat testlari, suhbat, intervyu, so'rovnomalar, kuzatish, pedagogik-didaktik testlar, faoliyat natijalarini o'rganish va boshqalar kiradi.

Mazkur usullar yordamida tarbiyalanuvchilarning qiziqishi, qobiliyat yo'nalishi aniqlangandan so'ng kasbiy maslahatning shakli, mazmuni va uni o'tkazish tartibi belgilanadi. Kasb-hunarga yo'naltirishda yangi pedagogik texnologiyaning interfaol usullaridan keng foydalaniladi.

Kasbga yo'naltirishning interfaol texnologiyalari deganda oldindan belgilangan maqsad va erishilgan natija oralig'idagi jarayon, ya'ni kasbiy maslahat davomida qo'llaniladigan psixologik-pedagogik vosita va usullar majmuini nazarda tutamiz.

Ushbu texnologiyaning faolligi nimada? Ma'lumki, an'anaviy kasbiy maslahatda o'quvchi "passiv maslahat qabul qiluvchi obyekt"ga aylanib qoladi. Bu texnologiyalar subyekti sifatida yondashadi hamda uning ongli va mustaqil kasb tanlashi uchun ijtimoiy-psixologik muhit yaratiladi. Bunday interfaol usullarga faol ijtimoiy psixologik o'quvlar, psixologik treninglar, rolli ish o'yinlari, korreksion rivojlantirish mashg'ulotlari kiradi.

Kasblarga oid o'yin. Uning maqsadi: Tarbiyalanuvchilar kasb-hunarga bo'lgan qiziqishlarini uyg'otish, mustaqil fikrlashga o'rgatish, kasblar haqidagi bilimlarini oshirish.

Xonada bolalar uchun 4 (5,6) guruhga mo'ljallangan stollar joylashtiriladi. Stollarining ustiga kasb nomi yozilgan karton o'rnatiladi. Masalan, tikuvchi, o'qituvchi, shifo-

kor, olim, quruvchi va h.k. Tarbiyalanuvchilar o'zlari xohlagan stol atrofida o'tiradilar. Tarbiyachi ularga vazifalar beradi.

1-vazifa: Uch daqiqa davomida guruh a'zolari bilan maslahatlashib, nima uchun aynan bu kasbni tanlaganingizni tushuntirib bering. Bu savolga hamma o'quvchi javob berishi shart.

2-vazifa: Siz tanlagan kasbning insonlarga qanday foydasi bor? Bu savolga javobni tarbiyalanuvchilar 5 daqiqadan keyin sahna ko'rinishida ko'rsatib berishlari shart.

3-vazifa: Siz tanlagan kasbingiz haqida qanday she'r, topishmoq, maqol, ertak, qo'shiqlar bilasiz? Ularni aytib bering.

Har bir vazifa natijasi baholanib boriladi. O'yin yakunida g'olib guruh aniqlanib, taqdirlanadi.

"Domino" o'yini tarbiyalanuvchilarning kasblar dunyosi to'g'risidagi ma'lumotlarni boyitish, kasb tanlash motivlarini shakllantirish, kasbiy o'zligini anglash ko'nikmalarini mustahkamlashga qaratilgan.

Domino donalari karton qog'ozidan kartochka ko'rinishida yasaladi. Har bir kartochkada ikkita so'z yozilgan.

Birinchi so'z – aniq bir kasb nomi, ikkinchi so'z esa umumlashtiruvchi bo'lib, ma'lum bir kasbiy faoliyat sohasini izohlashi lozim. Kartochkalardagi aniq bir kasb va kasbiy faoliyat sohalarining nomi bir-biriga mos bo'lmasin.

1. Sanoat – mashinasozlik – energetika – samolyotsozlik – avtomobilsozlik – metallurgiya – geologiya – kimyo sanoati – yengil sanoat – poligrafiya – oziq-ovqat sanoati.

2. Transport.

3. Aloqa.

4. Qurilish.

5. Uy-joy kommunal xo'jaligi.

6. Qishloq va o'rmon xo'jaligi.

7. Pedagogika.

8. Madaniyat va sport.

9. Ijtimoiy-iqtisodiy soha.

10. Tibbiyot.

11. Savdo sohasi.

(O'yin domino o'yini shaklida o'tkaziladi)

"Munozarali suhbat" usulida tarbiyalanuvchidan muhokama etish uchun o'zi yoqtirgan kasblardan birini tanlash so'raladi. Munozara davomida quyidagilar muhokama etiladi:

- shu kasbning mohiyati va muhimligi;
- mehnat sharoiti, daromad miqdori;
- shaxsga qo'yiladigan kasbiy talablar;
- shaxsning kasbiy talablarga mosligi va h.k.

"Munozarali suhbat" usulining asosiy yutug'i shundaki, u orqali o'quvchilarning kasbiy o'zligini anglashi va ongli ravishda kasb tanlashiga amaliy yordam beriladi.

"Kasb tanlashga tayyorman" trening mashg'uloti tarbiyalanuvchilarni tanlagan kasbini egallashga tayyorligini aniqlash va tanishtirishga yo'naltirilgan.

O'tkazish tartibi: O'z qiziqishlari, imkoniyatlariga qarab kasb tanlab bo'lgan tarbiyalanuvchilar bilan o'tkaziladi. Tarbiyalanuvchilarni guruh o'rtasiga qo'yib, savollar

beriladi. Kimda-kim “Yo‘q” javobini bersa, bir qadam orqaga, “Ha” javobini bersa, bir qadam oldinga qarab yuradi. Eng oldinga chiqqan tarbiyalanuvchi g‘olib hisoblanadi.

Fikringizni o‘zgartirasizmi?

1. Tanlagan kasbingizga do‘stlaringiz qarshi chiqdi...
2. Tanlagan kasbingiz bo‘yicha o‘qish uchun uzoqqa qatnash kerak...
3. O‘rtoqlaringiz nufuzliroq o‘quv yurtiga kirmoqchi...
4. Uyingiz oldida nufuzli o‘quv yurti ochildi, lekin qiziqishlaringiz to‘g‘ri kelmaydi...
5. Maktabda psixolog o‘tkazgan test natijalari siz tanlagan kasbingizga to‘g‘ri kelmaydi...
6. Axborotlarga qaraganda siz tanlagan kasbingizning oylik maoshi boshqa kasblarga nisbatdan kamroq to‘lanar ekan...
7. Tanlagan kasbingiz bo‘yicha siz yashaydigan hududda ish topish qiyin...
8. Siz tanlagan o‘quv yurtida faqatgina qizlar (yigitlar) o‘qiydi...
9. Tanlagan kasbingiz bo‘yicha o‘qisangiz shartnoma asosida pul to‘lashga to‘g‘ri keladi.
10. Siz boradigan ta‘lim muassasasida darslar yaxshi tashkil etilmagan deb eshitdingiz...

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. //Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1997, 20-29-b.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi to‘g‘risida”gi Qonuni. // Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1997. 31-61-b.
3. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: O‘zbekiston, 2008. 176-b.
4. Barkamol avlod orzusi //Tuzuvchilar: Sh.Qurbonov, H.Saidov, R.Ahliddinov. – To‘ldirilgan 2-nashri. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2000. 248-b.
5. Батаршчев А.В. Психодиагностика способности к обучению или как определить организаторские и коммуникативные качества личности. – М.: Гуманит. Изд. Центр ВЛАДОС, 1999. – С. 176.
6. Бизяйева А.А. Рефлексивные процессы в сознании и деятельности учителя: Дисс. канд. психол. наук. – С.- Пб. 1993, – С. 190.

Gulchehra UMARALIYEVA,

O'zbekiston Davlat san'at va madaniyat instituti katta o'qituvchisi

BOLA IJTIMOIIY MANFAATINI TA'MINLASHNING HUQUQIY ASOSLARI

Annotatsiya

Maqolada bola huquqlari himoyasi va kafolatlari masalasi yoritilgan. Muallif bunda bola huquqlarini ta'minlashning metodologik asoslarini tahlil qilib, ota-onalar, keng jamoatchilik e'tibor qaratishi zarur bo'lgan masalalarga ahamiyat bergan.

Kalit so'zlar. Bola huquqlari, sog'lom ona va bola, Konvensiya, voyaga yetmagan.

В статье освещены вопросы защиты и гарантий прав детей. Автором проводится анализ методологических основ обеспечения прав защиты детей, подчеркиваются проблемы, на которые необходимо обратить внимание родителей и широкой общественности.

Ключевые слова. Права детей, здоровая мама и ребенок, конвенция, несовершеннолетние дети.

Article presents an issues of protection and guarantees of children's rights. The author analyzes the methodological bases for ensuring the rights of child protection, emphasizes the problems that parents and the general public need to pay attention to.

Key words. Rights of children, healthy mother and child, concept, underage children.

Mamlakatimizda bola huquqlari himoyasi tobora mustahkamlanib bormoqda. Farzandlarimiz jismonan va ma'nan yetuk bo'lib voyaga yetishi, jahon standartlari darajasida bilim hamda tarbiya olishi, orzu-maqsdariga erishishi uchun barcha sharoitlar yaralgan. Bularning barchasi xalqimizning ezgu niyatlari, orzu-intilishlari, qolaversa, yoshlarning sog'lom va hur fikrli avlod sifatida kamol topishiga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 65-moddasida "Farzandlar ota-onalarning nasl-nasabidan va fuqarolik holatidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar. Onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi" deb, bolalarning huquqlari mustahkamlab qo'yilgan. "Sog'lom ona va bola yili" davlat dasturidagi: "Oilani, onalik va bolalikni muhofaza qilish, ayollar manfaatlarini himoya qilish, sog'lom bolani tarbiyalashda ularning rolini oshirish, kuchli, barqaror va ravnaq topayotgan davlatning negizi sifatida oila institutini mustahkamlashga yo'naltirilgan qonunchilik va normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish"¹ to'g'risidagi bandlari ham davlatimizda ona va bola sog'ligiga katta e'tibor qaratilayotganidan dalolat beradi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. "Sog'lom ona va bola yili" davlat dasturi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016., 7-son, (62-modda)

Voyaga yetmaganlarning huquq va erkinliklari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va boshqa qonun hujjatlari, jumladan, “Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Oila Kodeksi, xalqaro miqyosda esa, “Bola huquqlari to'g'risida Konvensiya” orqali kafolatlanadi. Ushbu Konvensiyaning qabul qilinishi bilan bola huquqlari himoyasi kafolati butun dunyoda ta'minlandi, xalqaro mexanizm vujudga keldi.

Konvensiya mubolag'asiz bola huquqlarini himoya qilishning kafolatlari mustahkamlangan muhim xalqaro huquqiy hujjat bo'lib, ishtirok etuvchi mamlakatlar uning qoidalarini qat'iy bajarishi shartligi belgilangan. Ushbu sanadan e'tiboran, bola huquqlari dunyoning qaysi mintaqasida buzilmasin, uni himoya qilish borasida xalqaro imkoniyat vujudga keldi. Konvensiya bolalar farovonligi mezonlarini aniqlab beruvchi yagona xalqaro hujjat sanaladi. Ahamiyatli tomoni, har bir davlat Konvensiya me'yorlarini bajarishda o'ziga xos milliy xususiyatlarni nazarga olish huquqi va imkoniyatiga ega.

Davlat bolaning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish, kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik, sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilishda bosh islohotchi hisoblanadi hamda bolalar huquqlari va imkoniyatlarining tengligini ta'minlaydi, ularning jismoniy, intellektual, ma'naviy va axloqiy kamol topishiga ko'maklashadi.

“Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 8-moddasida yashash huquqi har bir bolaning uzviy huquqi ekanligi, bola hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyat hisoblanishi ta'kidlangan. Bolaning huquqi u bilan birga tug'iladi, deyish mumkin. Chunki har bir bola tug'ilgan paytdan e'tiboran o'z ismi, sharifi hamda millati va fuqaroligiga ega bo'ladi. Bu O'zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida”gi Qonunining “Bolaning individuallikka va uni saqlab qolishga bo'lgan huquqi kafolatlari to'g'risidagi” 9-moddasida alohida ta'kidlangan. Bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uning ota-onasi, ota-onasining o'rnini bosuvchi shaxslar, qonunda nazarda tutilgan hollarda esa vasiylik va homiylik organi, sud tomonidan amalga oshiriladi.

Farzand huquqlaridan yana biri – ota-ona farzandiga hayotning har sohasida o'z o'rnini munosib egallashi uchun ta'lim berishlaridir. Har bir farzandni o'z salohiyatiga ko'ra ilm va hunarga yo'llash bilan ota-onalar bolalarining tez kamolga yetishiga yordam qiladi. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning “Nafaqat uyda, daladagi ishlarning ham katta qismi ayollarimiz yelkasiga tushayotganini qo'limizni ko'ksimizga qo'yib aytishimiz kerak. Ta'lim-tarbiya, sog'liqni saqlash sohasida ham, birinchi navbatda, kim xizmat qilyapti – ayollar”² kabi kuyunchaklik bilan bildirgan fikrlari jamiyatimizda ayollarga bo'lgan yuksak e'tiborni ko'rsatadi. Chunki ilm-fan sohasida orqada qolish ota-onani, farzandlarni ham hayotlarining mazmunsiz o'tishiga olib keladi. Shu sababli ham ota-onaning, eng avvalo, o'zlari yuksak ma'rifat egasi bo'lishlari taqozo qilinadi.

Ayni chog'da mamlakatimiz bolalar manfaatlari va huquqlarini himoya qilishga doir barcha asosiy xalqaro hujjatlarga qo'shilgan. BMTning “Balog'atga yetmagan bolalarga nisbatan odil sudlov yuritishga doir minimal standart qoidalari” (Pekin qoi-

² Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. – T.: O'zbekiston, 228-b.

dalari, 1985-yil) hamda “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida jinoyatlarning oldini olish uchun bosh tamoyillari” (Ar-Riyod bosh tamoyillari, 1990-yil) shular jumlasidandir.

Mamlakatimizda bolalar muammolari bilan bir qator nodavlat tashkilotlar, xususan, Xotin qizlar qo‘mitasi, “Sog‘lom avlod uchun” xalqaro xayriya fondi, “Sen yolg‘iz emassan” bolalar jamg‘armasi, “Mahalla” xayriya jamoat fondi, “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati va boshqa jamoatchilik institutlari ham faol shug‘ullanadi.

Buning natijasida ota-onasi qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni, kam ta‘minlangan oilalar farzandlarini ijtimoiy himoyalash darajasi yaxshilanishiga erishilmoqda. Ayniqsa, Mehribonlik uylarida tarbiyalanayotgan bolalarning ta‘lim-tarbiyasi, ularning turmush sharoitlarini yaxshilashda, huquqlarini va qonuniy manfaatlarini ro‘yobga chiqarishda, moddiy, tibbiy yordam ko‘rsatishda nodavlat tashkilotlar tomonidan olib borilayotgan tadbirlar yaxshi samara bermoqda.

Shuni alohida ta‘kidlash joizki, mamlakatimizda ijtimoiy himoyaga muhtoj ko‘p bolali oilalarga ko‘mak ko‘rsatish bo‘yicha aniq maqsadga yo‘naltirilgan ishlar yo‘lga qo‘yilgan. Ayniqsa, mustaqillik yillarida ona va bolaga davlat tomonidan ijtimoiy ko‘mak ko‘rsatish yaxlit tizimi shakllantirildi. Aytish lozimki, aholini ijtimoiy muhofaza etish uchun davlat byudjetidan yo‘naltirilayotgan mablag‘lar miqdori yildan-yilga oshib bormoqda.

Qabul qilingan Harakatlar strategiyasida ham 2017–2021-yillarda aholini ijtimoiy himoya qilish va bandligini oshirish, yoshlarga oid davlat siyosatini ta‘minlash, yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha alohida chora-tadbirlar belgilangan. Demak, bolaning ijtimoiy-huquqiy himoyasi oila va davlatning zimmasida. Mamlakatimizda sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning ijodiy va intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarish yo‘llarini hamda oilani mustahkamlash maqsadida chora-tadbirlar olib borilmoqda.

Yurtimizda har bir bolaning huquqlari, erkinliklari va manfaatlari qonuniy himoya qilinishiga qaramay, afsuski, obyektiv va subyektiv sabablarga ko‘ra, barcha oilalarda bolalarning tadbirlardagi teng huquqli ishtiroki ta‘minlanmaydi. Bu esa tabiiy ravishda bolaning kayfiyatiga ta‘sir ko‘rsatib, uning to‘laqonli shaxs sifatida shakllanishiga to‘sqinlik qiladi. Biz kattalar bolani shaxs sifatida e‘tirof etmasligimizning obyektiv-subyektiv sabablariga ruhshunos M.Mavlonov quyidagi omillarni ko‘rsatadi:

- bolaning jamiyatda tutgan ijtimoiy mavqeyi va roli, u kattalar uchun har qanday sharoitda ham “o‘quvchi” sifatida idrok qilinadi. Afsuski, ba‘zi stereotiplar ta‘sirida ham ularga nisbatan munosabatlarimizni uyushtiramiz;

- bolaning iqtisodiy jihatdan ota-onasi yoki kattalarga tobe ekanligi. Farzandlarni moddiy ta‘minlash, bizning konstitutsiyaviy burchimiz bo‘lsa-da, ba‘zida bu holatni haddan ziyod bo‘rttirib yuboramiz;

- turli vaziyatlarda bola o‘zini kattalardek tutishga intilsa, biroq uning hulqida bolalarga xos odat va o‘yingaroqlikning namoyon bo‘lishini ba‘zida ilg‘ab qolamiz, bunday holatlar bola haqidagi tasavvurimizni tubdan o‘zgartirmaydi;

- bolaning taklif yoki fikrlari bilan har doim ham o‘rtoqlashavermaymiz, ularning ham fikr-mulohazalariga e‘tibor berish, maqsadlarini tushunishimiz zarur;

- bolaning jismoniy, ijtimoiy, aqliy imkoniyatlaridan kelib chiqib, turli tadbirlarda (to‘y, hashar va shu kabilar) uning zimmasiga jiddiy topshiriq va vazifalarni yuklatish tufayli ijtimoiy jarayonni tezlashtirishga sabab bo‘ladi.

Ruhshunos olimning tahlillari va e'tiroflarini qo'llab-quvvatlagan holda ta'kidlash joizki, farzandiga tarbiya berayotgan ota-onalarning ko'pchiligi bola huquqi bilan bog'liq ma'lumotlarni bilmaydilar.

Shu bois erkin fuqarolik jamiyatini qurish yo'lidan borayotgan mamlakatimizda inson huquqlari va erkinliklari sohasida davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi bolalar va yoshlarning jismoniy, intellektual va ma'naviy rivojlanishi uchun qulay va eng yaxshi sharoitlarni yaratish, shuningdek, ko'p bolali oilalarni, yetim bolalarni va oila muhitidan mahrum bo'lgan bolalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash har bir fuqaroning burchi ekanligini unutishga haqqimiz yo'q.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. “Sog'lom ona va bola yili” davlat dasturi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016-y., 7-son, 62-modda.
3. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. – T.: O'zbekiston, 228-b.

Komil MUXAMMADIYEV,

Toshkent Temir yo'llari muhandislik instituti katta o'qituvchisi

JISMONIY TARBIYA DARSLARINI MUSOBAQA USULIDA TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYASI

Annotatsiya

Maqolada Respublikamizda jismoniy tarbiya va sportga bo'lgan e'tibor va bu borada qabul qilingan qonun va qonunosti hujjatlarning joriy etilishi, ta'lim jarayonini yanada rivojlantirish, o'quvchilarning salomatligini saqlash, mustahkamlash va ularning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish bo'yicha amalga oshiriladigan ishlar hamda jismoniy tarbiya darslarini tashkil qilishning an'anaviy shakllari bilan birga, yangi shakl va usullarini qo'llashning samaradorligi yoritilgan.

Kalit so'zlar. Jismoniy tarbiya darslari, musobaqa usullari, jismoniy tayyorgarlik, umumiy rivojlantiruvchi mashqlar, harakatli o'yinlar.

В статье изложена эффективность применения новых форм и методик в организации занятий физической культуры для совершенствования учебного процесса, сохранения и укрепления здоровья учеников и развития физических способностей, наряду с применением традиционных форм, согласно принятым постановлениям и законодательным документам.

Ключевые слова. Уроки физического воспитания, соревновательно-игровые методы, физическая подготовка, общеразвивающие упражнения, подвижные игры, двигательная активность.

Article outlines the effectiveness of the application of new forms and techniques in the organization of physical education for the improvement of the educational process, saving and strengthening of the health of students and the development of physical abilities, along with the application of traditional forms, in accordance with the adopted regulations and legislative documents.

Key words. Physical education lessons, competitive-game methods, physical training, general development exercises, outdoor games, physical activity, physical exercises.

Mustaqillikning ilk yillaridan boshlab mamlakatimizda barcha sohalarda amalga oshirilgan tub islohotlarning amaliy natijalari bugun iqtisodiyotimiz, ijtimoiy hamda ma'naviy hayotimizda ro'y bergan o'zgarishlar, yangilanishlar misolida yaqqol ko'zga tashlanmoqda.

Biz barkamol avlod deganda, avvalo, sog'lom, zamonaviy bilimlarni o'zlashtirgan hamda yuksak ma'naviyatli, vatanparvar shaxsni ko'z oldimizga keltiramiz. Shu ma'noda yoshlarga nafaqat bilim berish, balki ularda sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, jismoniy hamda ma'naviy sog'ligi asosi, hayotga katta umid bilan kirib kelayotgan yoshlarga o'z qobiliyat va iste'dodini ro'yobga chiqarishda katta ahamiyat berilmoqda.

Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 24-oktabrda qabul qilingan “O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasini tuzish to'g'risida”gi farmonida bolalar sportini aniq maqsad yo'lida va barqaror rivojlantirish borasida aniq vazifalar belgilanganligi ushbu yo'nalishda olib borilayotgan ishlarning yuqori samaradorligini ta'minlamoqda. Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 3-iyundagi “O'quvchi va talaba yoshlarni sportga jalb qilishga qaratilgan uzluksiz sport musobaqalari tizimini tashkil etish to'g'risida”gi qarori asosida o'quvchi yoshlarni ommaviy ravishda jismoniy tarbiya va sport harakatiga jalb qilishga qaratilgan sport musobaqalarining uch bo'g'inli, ya'ni “Umid nihollari”, “Barkamol avlod” va Universiada sport musobaqalarining muntazam ravishda o'tkazib kelinayotgani o'g'il-qizlarda sport bilan shug'ullanishga qiziqishni oshirmoqda.


Bugungi kunda ham aholi o'rtasida, ayniqsa, bolalar sportini rivojlantirishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2017-yil 7-fevralda qabul qilingan “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni bilan tasdiqlangan “2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi”ning ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarida ham “bolalarni sport bilan ommaviy tarzda shug'ullanishiga, ularni musiqa va san'at dunyosiga jalb qilish maqsadida yangi bolalar sport obyektlarini, bolalar musiqa va san'at maktablarini qurish, mavjudlarini rekonstruksiya qilish” vazifasi qo'yilgani ham bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-fevraldagi “Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoniga asosan, O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport davlat qo'mitasi tashkil etilganligi mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sport sohasida boshqaruv tizimining takomillashuviga, belgilangan vazifalarning to'laqonli amalga oshishiga, bir so'z bilan aytganda, sport sohasida davlat siyosatini yangi sifat darajasiga ko'tarishga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan farmon va qarorlar bajarilishi jamiyatda yuqori ma'naviy va axloqiy muhitni ta'minlash, xalqimizning jismoniy va ijodiy faolligini oshirish, yosh avlodni barkamol etib tarbiyalash uchun zarur sharoitlar yaratish, sport sohasida xalqaro miqyosda erishilayotgan yutuqlarimizni yanada ko'paytirish orqali mamlakatimiz nufuzini mustahkamlash uchun imkoniyat yaratadi.

Ma'lumki, yoshlar o'rtasida sportning ommaviyligini ta'minlashning asosiy omillaridan biri ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya darslarini oqilona tashkil etish, davlat ta'lim standartlarida belgilangan bilim, ko'nikma va malakalarning o'quvchilar tomonidan to'liq o'zlashtirilishiga erishish hisoblanadi. Buning uchun jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini o'tkazishda yangicha yondashuv, ta'lim jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni, samarali metod hamda usullarni joriy etish zarur bo'ladi. Maqolada ana shunday innovatsion usullardan biri, ya'ni jismoniy tarbiya darslarini musobaqa usulida olib borishning mazmuni, maqsadlari hamda samaradorligi xususida so'z yuritiladi.

Musobaqa usuli xoh u jamoaviy o'yinlarda, xoh u individual o'yinlarda tashkil etilishidan qat'i nazar, har bir o'quvchining, talabaning jismoniy tayyorgarligini aniqlovchi, ularda o'zlaridagi kamchiliklarni bartaraf etishga shaxsiy mas'uliyatni oshiradigan

hamda birgalikda ishlash ko'nikmasini rivojlantiradigan eng muhim usullardan biridir. Jismoniy tarbiya darslari o'zining alohida xususiyatidan kelib chiqqan holda o'ziga xos me'yoriy talab, tayyorgarlik, nazorat turlari bilan boshqa fanlardan farq qiladi. Ularni dars jarayonida samarali qo'llash o'quvchilarning kelajakda nafaqat sportda, balki o'z shaxsiy hayotida erishadigan yutuqlariga ham ilk poydevorning mustahkamligini ta'minlaydigan asosiy omillardan biri sanaladi.



1-chizma. Musobaqa usuli.

Jismoniy tarbiya o'qituvchisi o'quvchilar uchun jismoniy jihatdan qiyin tuyuladigan ko'pgina mashqlarni yengil bajarish imkonini beradigan xilma-xil vosita va usullarni qo'llashi mumkin. Innovatsion usullar dars jarayonini bir maromda, zerikarli o'tishining oldini oladi. Jismoniy tarbiya darsi va sport to'garaklarida eng samarali bo'lgan musobaqa usulini qo'llash aynan shu maqsadga xizmat qiladi. Bu usul ko'p qirrali bo'lib, o'quvchilarning harakat faolligini oshiradi, musobaqa jarayonida ularni ruhiy hissiyotlarini boshqarishga o'rgatib boradi. Amaliyotda sinovdan o'tkazilgan ushbu usulning yana bir eng muhim afzalligi – o'quv dasturidagi sportning barcha turlarida undan foydalanish imkoniyati mavjudligidir. Hattoki, uni jismoniy tarbiyaning o'yinga xos bo'lmagan turlarida ham muvaffaqiyatli qo'llash mumkin. Jismoniy tarbi-

ya bo'yicha o'quv jarayonida musobaqa usulining qo'llanilishi, umumiy qabul qilingan usullarga nisbatan vaqt va kuchning bir xildagi sarflanishi, o'quvchilarning jismoniy rivojlanishlari va tayyorgarliklari ko'rsatkichlarida yuqori natijalarga erishish, darslar jarayonini qiziqarli o'tkazish imkonini beradi. Musobaqa usulida majburlash orqali emas, ixtiyoriy ravishda o'rganish, o'zlashtirish va bajarishga erishish imkoniyatlari kengayadi (1-chizma).

Bu usul o'quvchilarda optimistik ruhiy holatni yuzaga keltiradi, oldinga intilishga rag'bat uyg'otadi, irodaviy sifatlarni, shaxsiy mas'uliyatni, qiyinchiliklarni yengib o'tishga bo'lgan ishonchni oshiradi.

Musobaqa usuli yordamida o'quvchilar jismoniy mashqlarni bekamu ko'st bajarishga, o'zlashtirishga qiyinalayotganlarga oddiyroq vazifalar berish orqali ularni ham asta-sekin dadillikka, ishonch bilan olg'a intilishiga va tashabbusni qo'lga olishga o'rgatib boriladi. Ushbu usulni nazorat qilish shakli o'zlashtirishga nisbatan yangi yondashuv hisoblanadi (o'quvchining harakat faolligi dars paytida baholanadi). Bu usul o'quvchilarni jismoniy tarbiya darslarida jismoniy mashqlarni bajarish jarayonida majburlab shug'ullantirishlarni bartaraf etib, aksincha, o'z ishtiyoqi bilan o'yin tarzida erkin o'rgatishga mo'ljallangan bo'lib, ularni jismoniy sog'lom qilib tarbiyalashda muhim o'rin tutadi.

Mazkur usulning o'ziga xos xususiyati ikkita qarama-qarshi harakat qiluvchi tomonlar musobaqa faoliyatining ixtiyoriy-majburiyligi hisoblanadi. Bu usul o'quvchilarda yuqori darajadagi ruhiy va jismoniy tayyorgarlikni hamda o'yin yoki musobaqaning belgilangan qoidalariga rioya qilish orqali g'alabaga erishishga o'zlarida ishonch paydo qiladi. Ayrim o'quvchilar o'zidagi eng yaxshi jismoniy va ruhiy sifatlarining mavjudligini sezmaydi yoki boshqa o'quvchilar oldida o'zini namoyon etishga tortinadi. Musobaqa usuli esa, yuqoridagi kabi holatlarni bartaraf etib, o'quvchining barcha sifatlarini namoyon etishiga yordam beradi.


Mazkur tizimni dars jarayonining barcha qismlari uchun qo'llash mumkin. Agar tizimli aloqa bo'lmasa, biron-bir natijaga erishish qiyin bo'ladi. Quyida biz musobaqa usulini darslarda qo'llanilish tartibini keltirib o'tamiz:

1. Har bir darsning tayyorgarlik qismida (vaqt bo'yicha qayta saflanish, bo'linmalar bo'yicha kim tezroq saflanish) vazifasi beriladi. Safdagi har bir mashqlar texnikasining guruhlarda ketma-ketligiga ko'ra to'g'ri bajarilishi (kimning guruhi eng kam xatoliklarga yo'l qo'yishi) nazorat qilinadi.

2. Undan so'ng umumiy rivojlantiruvchi mashqlar keladi. O'quvchilar bajarayotgan mashqlarni ma'lum bir vaqt ichida bajarish bo'yicha musobaqalashadi. Bajarish buyruq bo'yicha mustaqil ravishda, o'qituvchining sanog'isiz amalga oshiriladi. Sanoqni o'quvchilarning o'zlari amalga oshirishadi, har qanday mashqlar majmuasini sifatli bajarish bo'yicha bellashadi. Musobaqadan oldin o'qituvchi mashqlarni amaliy tarzda ko'rsatib berishi shart.

3. Keyingi jarayonda mashqlar majmuasini takroriy bajaradi, bajarilish jarayonida yo'l qo'yilgan xatoliklar o'qituvchi tomonidan tuzatib boriladi. Shundan so'nggina eng yaxshi va to'g'ri mashq bajarish bo'yicha musobaqa boshlanadi. Buning uchun quyidagicha qayta saflanishlar qo'llaniladi:

- kuchsizlar kuchlilarga qarama-qarshi turadi;
- qiz bolalar, o'g'il bolalarga qarama-qarshi turadi;



2-chizma. Musobaqa usulini dars jarayonida qo'llash tartibi (ketma-ketligi).

– o'quvchilar ko'rgazmali tarzda bir-birlarining mashqlarni bajarilishini kuzatishadi;

– bir-birlariga qarab o'z xato va kamchiliklarini o'rganishadi.

Bunday umumrivojlantiruvchi mashqlar jismlar bilan bajariladigan jismoniy mashqlarni bajarish texnikasini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

4. Keyingi, darsning tayyorgarlik qismi jarayonida esa, harakatda bajariladigan mashqlar darsning asosiy qismidagi ancha murakkab bo'lgan, ya'ni oldin bajarilmagan mashqlar va vazifalarni bajarishga ko'maklashadi. Bu jarayon ham musobaqa usulida olib boriladi. O'quvchilar harakatda bajariladigan, murakkab bo'lgan, oldin

bajarilmagan mashqlar texnikasini o'zlashtirish, bajarish va xatolarni to'g'irlash bo'yicha musobaqalashadi.

5. Darsning asosiy qismidagi vazifa biron-bir harakatni amalda o'rgatish yoki uni takomillashtirishga qaratiladi. Dars jarayonidagi har qanday mashqni bajarish texnikasi o'qituvchi tomonidan aniq va to'g'ri ko'rsatib berilishi, tushuntirilishi zarur. Berilgan vazifaning bajarilishida yo'l qo'yiladigan tipik xatolarni oldindan aytib o'tish, tushuntirish ham ahamiyatga ega.

6. Darsning yakuniy qismida musobaqa ishtirokchilari bilan birgalikda musobaqa jarayonini muhokama qilish, yo'l qo'yilgan xatolik va ijobiy tomonlarni ko'rsatish, vazifalarni yaxshi bajargan hamda musobaqa qoidalariga rioya etgan va ijodkorlik, tashabbuskorlik ko'rsatgan o'quvchilarni alohida aytib o'tish, ularni rag'batlantirish zarur. Bunday muhokamalarda o'quvchilar tomonidan musobaqa qoidalariga yo'l qo'yilgan xatoliklar misolida yanada yaxshiroq o'zlashtiriladi, tortishuvli holatlarga barham beriladi. Quyida musobaqa usulini individual hamda jamoaviy sport turlarida qo'llash yuzasidan amaliy misollarni keltirib o'tamiz:

Yengil atletika. Jismoniy tarbiyaning ushbu sport turi o'quvchilarning har tomonlama jismoniy rivojlanishi va salomatlikligini mustahkamlashlariga ko'maklashadi. Yengil atletika mashqlari jismoniy tarbiyada yetakchi hisoblanadi, u o'quvchilarda chidamlilik, epchillik, chaqqonlikni rivojlantirishga xos bo'lib, ko'p sonli harakatlarni majmuasidan tashkil topgan. Bu mashqlarni noto'g'ri bajarilishi natijasida o'quvchilarda yengil atletika darslariga bo'lgan qiziqishlari susayishi mumkin. Shuning uchun bir maromda bajariladigan yengil atletika mashqlari majmuasi bo'yicha musobaqa usulini qo'llash orqali o'quvchilarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zerikish holatlarini bartaraf etib, ularni faollashtirish mumkin. Bundan maqsad, o'quvchilarni bir xil turdagi mashqlarni bajarishga bo'lgan qiziqishlarini oshirish. Musobaqa mashqlarini va har xil vazifalarini xilma-xil qo'llash, yengil atletikadagi bir maromdagi zerikarli faoliyatni qiziqarli mashg'ulotga aylantirish imkonini beradi. Musobaqa-darsda o'quvchilarga quyidagi vazifalarni berish maqsadga muvofiq:

- guruhda yetakchini aniqlash;
- musobaqa yoki o'yinda jismoniy yuklamaning hajmi va jadalligini oshirib borish;
- erishilgan natijani baholash orqali musobaqalarni real shartlarga yaqin bo'lgan holatlarda o'tkazish;
- texnik usullarni qo'llashdagi hamda vazifalarni bajarish usullarining xilma-xilliklari uchun o'quvchilarni rag'batlantirish;
- o'zlarining shaxsiy natijalarini yaxshilay olgan o'quvchilarni ham muntazam rag'batlantirish maqsadga muvofiq.

Jamoaviy sport o'yinlari (futbol, voleybol, basketbol, qo'l to'pi va h.k.). Bir qarashda, sport o'yinlarini o'zlashtirishda musobaqa usulining o'rni uncha ahamiyatli ko'rinmaydi va uni qo'llash samarasi, sport o'yinlarida o'quvchilarda hissiyotga berilib ketish darajasi juda yuqoriligi va o'z-o'zidan o'quvchilarning jismoniy rivojlanishlariga ko'maklashishi tufayli pastdek tuyuladi. Lekin aslida bunday emas, chunki o'yin malakasi va ko'nikmasini mukammal egallash uchun maxsus jismoniy va ruhiy sifatlarni rivojlantirish talab qilinadi. Buning uchun o'zlashtirilishi kerak bo'lgan sport o'yinlarining elementlarini musobaqa mashqlari, harakatli o'yinlar va estafetalar (to'p

bilan quvlashmachoq o'ynash, to'pni uloqtirish, nishonga tekkizish, to'plarni ko'tarib olib o'tish, to'p uzatishlar va h.k) tarkibiga kiritish lozim. Vazifani murakkablashtirish, o'yinlar turini almashtirish mumkin. Shu bilan birga, har bir sport o'yinini alohida o'rganish orqali ma'lum bir malaka va ko'nikmalarni rivojlantirishga ko'maklashadigan musobaqa vazifalarini tanlash kerak.

Jismoniy tarbiya o'quv jarayonida musobaqa usulining qo'llanishi o'quvchilarning jismoniy rivojlantirishda va sport tayyorgarliklarida juda yuqori ko'rsatkichlarga erishishlarida, darslarni esa ancha qiziqarli o'tkazishga yordam beradi. Ushbu usul darsni qiziqarli bo'lishiga, asosiysi har qanday yoshdagi o'g'il va qizlar uchun mansub bo'lgan harakat faolligining asosiy muammosini hal qilishga yordam beradi. Shu bilan birga, musobaqa usuli o'quvchilarning jismoniy imkoniyatlarini amalda ko'rish va bundan kelib chiqqan holda, har bir o'quvchi uchun jismoniy yuklamani aniqlash imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, musobaqa o'tkazish jarayoni juda murakkab bo'lib, na faqat o'quvchilarning yosh xususiyatlariga, balki ularning jamoaviy o'yinlarga tayyorligiga, kayfiyatiga, o'qituvchining mahoratiga ham bog'liq.

Musobaqaning o'tkazilishi pedagogik jarayon bo'lib, o'qituvchi-murabbiydan o'quvchilar bilan ishlash tajribasi, ishtirokchilarning o'yin jarayonidagi harakatlarini sinchkovlik bilan kuzata olish, tahlil qilish va o'z xulq-atvorini to'g'ri baholash kabi jihatlarni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, 1997-yil 29-avgust.*
2. *O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi Qonuni. // Oliy ta'lim. Me'yoriy hujjatlar to'plami. – T.: Sharq. 17-52-b.*
3. *O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonuni. 2015-yil 4-sentabr.*
4. *Azizova R. Sport va harakatli o'yinlarni o'qitish metodikasi. // O'quv qo'llanma. T., 2010. 326-b.*
5. *Usmonxodjayev T.S., Meliyeva X.A. Milliy harakatli o'yinlar. // O'quv qo'llanma. – T.: O'qituvchi, 2000, 148-b.*
6. *Qurbonova S.Sh. Musobaqa-o'yin shaklida darslarni tashkil qilish. "Fan – sportga" jurnali. – T., 2015. 3-8-b.*
7. *Коротков И.М., Былеева В. Подвижные игры. //Учебное пособие для – студентов ВУЗов. – М.: ТБТ. Дивизион, 2009. – С. 216.*

Murodjon AXMEDOV,

A.Avloniy nomidagi XTXQTMOMI katta ilmiy xodim-izlanuvchisi

XALQ TA'LIMI XODIMLARINING MALAKASINI OSHIRISHDA TIZIMLI MONITORING BOSQICHLARI

Annotatsiya

Uzluksiz ta'lim tizimining ustuvor bosqichlaridan biri bo'lgan malaka oshirish tizimini yanada takomillashtirish va uni jahon ta'lim standartlari darajasiga ko'tarish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Ta'lim sifati monitoringi hamda baholashning yangi texnologiyalarini xalq ta'limi xodimlarining malakasini oshirish jarayonlariga tadbiq etish rahbar va pedagog kadrlarning bilimlarini ortishiga, kelgusida esa, o'quvchilarning bilim salohiyatlari o'sishini ta'minlaydi.

Kalit so'zlar. Malaka oshirish, xalq ta'limi xodimlari, ta'lim sifati, professional bilimlar, o'quv reja, tabaqalashtirilgan kurs, tizimli monitoring, monitoring va baholash.

Совершенствование повышения квалификации работников народного образования как приоритетного этапа в системе непрерывного образования и повышение его до уровня мировых стандартов образования является одной из актуальных задач сегодняшнего дня. Мониторинг качества образования и новые технологии оценки знаний обеспечивают рост знаний руководителей и педагогических кадров в процессе повышения квалификации работников народного образования, а в дальнейшем, способствуют росту уровня знаний учащихся.

Ключевые слова. Повышение квалификации, работники народного образования, качество образования, профессиональные знания, учебный план, дифференцированные курсы, системный мониторинг, мониторинг и оценка.

In this regard, the improvement of professional development of public education personnel as a priority stage in the system of continuing education and raising it to the level of world standards of education is one of the urgent tasks of present days. Monitoring of the quality of education and new technologies for assessing knowledge ensure the growth of knowledge of managers and teachers in the process of improving the skills of public education personnel, and further contribute to the increase in the level of knowledge of students.

Key words. Improvement of skills, public education personnel, quality of education, professional knowledge, curriculum, differentiated courses, system monitoring, monitoring and evaluation.

Bugungi kunda inson kapitalining nufuzi ortishi bilan birga ta'limning ahamiyati ham ortib bormoqda. Zero, mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini barpo etish yuqori intellektual salohiyatli kadrlarga bog'liq. Albatta, bu holat mamlakatimizdagi barcha ta'lim muassasalariga mas'uliyatli vazifani yuklaydi. Bu esa, o'z navbatida, ushbu ta'lim

muassasalari rahbar va pedagog hodimlarining kasbiy mahoratini tizimli yangilab borish zaruriyatini vujudga keltirmoqda.

Ushbu masalaga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev alohida to'xtalib, "Yana bir muammoni hal etish ham o'ta muhim hisoblanadi: bu – pedagoglar va professor-o'qituvchilar tarkibining professional darajasi, ularning maxsus bilimlaridir" deya ta'kidladi.¹ Buning uchun xalq ta'limi muassasalari rahbar va pedagog hodimlarining malakalarini tizimli oshirib borish kerak. Bu pedagog hodimlarning kasbiy mahorati ortishiga, pirovard natijada esa, o'quvchilarning bilim saviyalari o'sishini ta'minlaydi.

Tizimli monitoringni amalga oshirish ta'lim jarayonlarida yuzaga kelayotgan kamchiliklarni tezkor tuzatish, tinglovchilar bilimlaridagi bo'shliqlarni o'z vaqtida korreksiylashtirish, davlat talablarini sifatli bajarish, malaka oshirishda ta'lim sifatini diagnostika qilish va tahliliy xulosalarni shakllantirish imkonini beradi.

Yurtimiz olimlaridan R.Djurayev, Sh.Qurbonov va U.Inoyatovlar o'z ishlarida ta'lim sifati monitoringini amalga oshirishning pedagogik shart-sharoitlari, ta'lim sifatini boshqarishni takomillashtirish, umumiy o'rta ta'lim sifati monitoringiga tizimli-faoliyatli yondashuvni joriy etish muammolarini tadqiq etgan bo'lsalar, A.Begmatov va H.Yo'ldoshevlar rahbar kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish masalalarini o'rganishgan. Shuningdek, xorijiy manbalarda ham ta'lim sifatiga ta'sir ko'rsatuvchi turli omillar va uni baholash texnologiyalariga e'tibor qaratilgan.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda ta'lim sifatini oshirish borasida bir qator tadqiqotlar olib borilayotgan bo'lsa-da, bugungi kunda xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish (XTXQTMOI) muassasalarida ta'lim sifatini monitoring qilish va baholash tizimi bo'yicha yagona yondashuv mavjud emas.

Bugungi kunda XTXQTMOI asosan, to'g'ridan-to'g'ri, xususan, an'anaviy va masofadan malaka oshirish shakllari bo'yicha tashkil etilmoqda. XTXQTMOI to'g'ridan-to'g'ri shakllarining umumiy davomiyligi kamida 4 hafta, 144 soat qilib belgilangan. Malaka oshirish davriyligi esa, rahbar kadrlar uchun 3 yilda kamida bir marta, pedagog kadrlar uchun 5 yilda kamida bir marta qilib belgilangan. Albatta, hozirda ta'limning blok-modul tizimida olib borilishi katta yoshdagilarni o'qitishda o'zining samarasini bermoqda. Lekin malaka oshirishning belgilangan davomiyligi (4 hafta) amalda qisqa muddatni tashkil etganligi bois, ta'lim sifati monitoringining samaradorligi amalda past darajada qolmoqda. Tizimli monitoringni joriy etishning ahamiyati shundaki, rahbar va pedagog xodimlarning malaka oshirish ta'limi davri va undan keyingi faoliyati o'rtasida "qayta aloqa" o'rnatiladi. Bunda monitoringning maqsadi bo'yicha belgilangan vazifalar va amalga oshirilgan ishlarining natijasi o'rtasida doimiy kuzatuv o'rnatilib, yuzaga kelgan kamchiliklarni o'z vaqtda korreksiylashtirish imkoniyati paydo bo'ladi.

Fikrimizcha, malaka oshirish ta'lim sifatini yaxshilashda quyidagi muammolarni bartaraf etish orqali erishishimiz mumkin:

- mavjud me'yoriy hujjatlarda malaka oshirishga undaydigan motivatsion dastaklar tizimi ishlab chiqilmagan;
- XTXQTMOI va undan keyingi davrdagi mustaqil ta'lim faoliyati uzviy bog'lanmagan;
- malaka oshirishda ta'lim sifatini samarali monitoring qilish instrumentlari va

¹ Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. // "Xalq so'zi" gazetasi. 2016-yil 16-yanvar, № 11 (6705).

baholash texnologiyalari ishlab chiqilmagan;

– tinglovchilarning bilimlari individual diagnostika qilinmaydi.

Mavjud me'yoriy hujjatlarda xalq ta'limi xodimlarining malakasini oshirishga undaydigan (motivatsion) dastaklar tizimi mavjud emas.

Ma'lumki, barcha malaka oshirish institutlari xalq ta'limi hududiy boshqaruv organlari buyurtmalari asosida yillik malaka oshirish rejasini shakllantiradi.² Buyurtmachi tashkilotlar tomonidan amaliyotda buyurtmani shakllantirish mezonlari sifatida, asosan, malaka oshirishning davriyligi hisobga olinmoqda. Ya'ni qonunchilikda belgilangan muddatlarda (3-5 yil) malaka oshirish asosan davriylikni ta'minlash nuqtayi nazaridan amalga oshirilmoqda. Fikrimizcha, bunday yondashuv asosida tashkil etilgan malaka oshirish kurslaridagi ta'lim sifatini yuqori darajada deb bo'lmaydi. Chunki xalq ta'limi tizimidagi rahbar va pedagog kadrlarning kasbiy ehtiyojlari hisobga olinmagan holda malaka oshirish kurslarining tashkil etilishi, ularning bilimlaridagi bo'shliqlarni to'ldirishga yordam bermaydi. Zero, xalq ta'limiga oid me'yoriy hujjatlarda malaka oshirish ta'limiga undaydigan (motivatsion) dastaklar tizimini joriy qilish lozim. Malaka oshirish ta'limini muvaffaqiyatli tamomlagan xalq ta'limi xodimlarini moddiy va ma'naviy rag'batlantirish, shuningdek, ularga tegishli malaka toifalarini berish malaka oshirish ta'limining ahamiyatini oshirish bilan birga, kurslardagi ta'lim sifatiga hamda sog'lom raqobat muhitini shakllantirishga xizmat qiladi.

Xalq ta'limi xodimlarining malakasini oshirish va undan keyingi davrdagi (mustaqil ta'lim) faoliyati uzviy bog'lanmagan.

Yuqorida qayd etib o'tganimizdek, malaka oshirish ta'limi umumiy davomiyligi kamida 4 hafta (ayrim hollarda 3 hafta), o'quv rejada umumiy 144 soat qilib belgilangan. Fikrimizcha, qonunchilikda malaka oshirish davomiyligiga (3-4 hafta) qo'yilgan muddat va uning davriyligi (3-5 yil) nomutanosib bo'lib, malaka oshirish ta'limi va undan keyingi mustaqil bilim olish davrlari monitoringi o'zaro uzviy bog'langan bo'lishi lozim. Albatta, keyingi yillarda malaka oshirish tizimida amalga oshirilgan islohotlar natijasi o'laroq, hozirda tinglovchilarning kursdan keyingi faoliyatini qayd etish daftarchasi joriy qilinganligi ijobiy holat bo'lsa, pedagog xodimlarning barcha toifalariga bir xil shaklda berilishi va uning monitoringi yuritilmagani muammoli holat sifatida qaraladi.³ Bunday yondashuv pedagog hodimlarning malaka oshirishdan keyingi faoliyatining monitoringi samaradorligini pasaytiradi. Chunki 140 ta toifadan iborat xalq ta'limi xodimlarining faoliyati xususiyatlari va malaka oshirishga bo'lgan ehtiyojlari ham turlicha hisoblanadi.

Nazarimizda, xalq ta'limi xodimlarining bilim saviyasini ko'tarish maqsadida tizimning barcha darajalarida bir-biriga bog'langan tizimli monitoringni amalga oshirish maqsadga muvofiq. Ya'ni malaka oshirish ta'limi va undan keyingi davrdagi mustaqil ta'lim faoliyati o'rtasida "qayta aloqa" mexanizmlarini joriy qilish maqsadga muvofiq. Bunda xalq ta'limi hududiy boshqaruv organlari buyurtmalarni shakllantirishda rahbar va pedagog hodimlarning mustaqil ta'lim faoliyatida erishilgan yutuqlari ko'rsatkichlarini hisobga olish lozim.

² O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish to'g'risida"gi Nizom 7-bandi. 2014-yil 15-avgust.

³ Xalq ta'limi vazirligining "Xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish ta'lim muassasalarida tinglovchilarning malaka oshirishdan keyingi faoliyati samaradorligi monitoringini olib borish tartibi to'g'risida"gi Nizomi. 2015-yil 28-fevral.

Malaka oshirishda ta'lim sifatini monitoring qilish instrumentlari va amaldagi baholash texnologiyalari ta'limga qo'yilayotgan bugungi kun talablariga mos kelmay qoldi.

Xalq ta'lim xodimlarining malakasini oshirish ta'limini monitoring qilishning maqsadi – rahbar va pedagog xodimlarning malaka oshirishdan olingan bilim, ko'nikma va malakalarini davlat talablariga mosligini aniqlash, doimiy va tizimli kuzatuvni tashkil etish hamda uni ilmiy asoslash, olingan ma'lumotlar asosida tanlangan obyektga yoki butun ta'lim jarayoniga baho berish orqali uzluksiz nazoratni amalga oshirish, shuningdek, samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishdan iborat. Aytish joizki, hozirda malaka oshirish institutlarida davlat talablarining bajarilishini baholash nazoratga olingan bo'lib, litsenziyalash, attestatsiya va davlat akkreditatsiyasini o'tkazish yo'li bilan tartibga solinadi. Ushbu tizimning kamchiliklaridan biri, tashqi monitoring qonunchilikda belgilangan besh yilda bir marta amalga oshirilib, orada yuzaga kelgan muammo va kamchiliklarni o'z vaqtida korreksiyalash imkonini bermaydi. Aynan shuning uchun ham XTXQTMOlda ichki monitoring va baholash tizimi samaradorligini oshirish lozim.

Keyingi yillarda malaka oshirish ta'limini takomillashtirish yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida o'quv jarayoniga qator me'yoriy hujjatlar joriy qilindi.

Mazkur me'yoriy hujjatlarda XTXQTMOlda ta'lim sifatini boshqarish mexanizmlari, ta'lim muassasalari reytingini aniqlash mezonlari, nazorat shakllari, shuningdek, malaka oshirish tizimi samaradorligini aniqlash parametrlari kabilar tartibga solingan bo'lsa-da, amalda nafaqat ta'lim sifatini monitoringini tizimli tashkil etish, balki uni tatbiq etish va sifatni baholash yagona talablar asosida amalga oshirilmasdan qolmoqda. Aksariyat hollarda monitoring natijalari ta'lim sifatini boshqarishning bevosita instrumenti sifatida xizmat qilmaydi.

Masalan, malaka oshirish kurslariga qabul qilingan tinglovchilar darsdan bo'sh vaqtlarda modullar bo'yicha dastlabki nazoratdan o'tishlari belgilab qo'yilgan.⁴ Lekin kurslarga qabul qilish va kirish test sinovlarini tashkil etishdagi mavjud muammolar tufayli aksariyat tinglovchilarning bilimlari dastlabki diagnostik nazoratdan o'tkazilmaydi.

Kirish test sinovlarini o'tkazishdan maqsad, tinglovchilarning bilimlaridagi bo'shliqlarni aniqlash va malaka oshirish ta'limini takomillashtirish hisoblanadi. Albatta, buning uchun xalq ta'limi xodimlarining bilim va mustaqil ta'lim davrida erishgan yutuqlariga qarab tabaqalashtirilgan malaka oshirish kurslarini tashkil etish maqsadga muvofiq. Xalq ta'limi xodimlarining bilim va mustaqil ta'lim davrida erishgan yutuqlariga qarab kurslarni tabaqalashtirilishi, malaka oshirish ta'lim sifatini ta'minlash bilan birga tinglovchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini maqsadga yo'naltirilgan tarzda oshirish imkonini beradi.

Shuningdek, test sinovlari shaklidagi oraliq yoki yakuniy nazorat natijalari tinglovchilarning bilimini tezkor korreksiyalashga xizmat qilishi lozim. Lekin amaldagi o'quv reja asosida tashkil etilayotgan kurslardagi monitoring jarayonida tinglovchilarning individual bilim darajalari hisobga olinmaydi. Bu esa, tinglovchilar bilimini tezkor korreksiyalash imkonini bermaydi. Turli bilim darajasiga ega bo'lgan tinglovchilarga mos ravishda tabaqalashtirilgan o'quv dasturlarini joriy qilish ushbu muammoning ijobiy hal qilinishiga olib keladi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, rahbar va pedagog xodimlarning malakasini oshirishda ta'lim sifatini tizimli monitoringi va zamonaviy baholash texnologiyalarini joriy

⁴ Xalq ta'limi vazirligining "Xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish sifatini nazorat qilish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 88-sonli buyrug'i. 2015-yil 20-mart.

etish bugungi kunning muhim masalalaridandir. Tadqiqotlar natijalari malaka oshirish ta'lim sifatining quyidagi muammolar salbiy ta'sir etayotganini ko'rsatmoqda. Bular:

- belgilangan malaka oshirish davri (4 hafta) amalda qisqa muddatni tashkil etganligi bois, malaka oshirishda ta'lim sifati monitoringi samaradorligi ta'minlanmaydi. Tizimli monitoringni joriy etish ahamiyati shundaki, xalq ta'limi rahbar va pedagog xodimlar malakasini oshirish davrida va undan keyingi faoliyatida ham ular bilan doimiy "qayta aloqa" o'rnatiladi;

- mavjud me'yoriy hujjatlarda xalq ta'limi xodimlarini malaka oshirishga undaydigan (motivatsion) dastaklar tizimi ishlab chiqilmagan. Malaka oshirish ta'limini muvaffaqiyatli tamomlagan xalq ta'limi xodimlarini moddiy va ma'naviy rag'batlantirish, shuningdek, ularga tegishli malaka toifalarini berish, salohiyatli kadrlarni tegishli lavozimlarga tayinlash malaka oshirish ta'limining ahamiyatini oshirish bilan birga, kurslardagi ta'lim sifatini oshirishga hamda ta'limda sog'lom raqobat muhitini shakllantirishga xizmat qiladi;

- malaka oshirish kurslarini tashkil etish va undagi ta'lim sifatini monitoring qilishning mavjud instrumentlari va baholash texnologiyalari tinglovchilar bilimidagi bo'shliqlarni to'ldirishga samarali xizmat qilmaydi. Fikrimizcha, xalq ta'limi xodimlarining bilimi va mustaqil ta'lim davrida erishgan yutuqlariga qarab kurslarning tabaqalashtirilishi, malaka oshirish ta'lim sifatini ta'minlash bilan birga tinglovchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini shaxsga yo'naltirilgan tarzda amalga oshirish imkonini beradi.

Albatta, xalq ta'limi xodimlarining malakasini oshirish jarayonida ta'lim sifatini yagona yondashuv asosida tizimli monitoringini tashkil etish, zamonaviy fikrlaydigan, yuqori intellektual rahbar va pedagog xodimlar salmog'ini ortishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. *Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.* // "Xalq so'zi" gazetasi. 2016-yil 16-yanvar, № 11 (6705).

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish to'g'risida"gi 234-sonli Nizomi 7-bandi. 2014-yil 15-avgust.

3. Иноятмов У.И. *Теоретические и организационно-методические основы управления и контроля качества образования в профессиональном колледже: дисс.докт.пед. наук* : – Т., 2003. – С.236.

4. Xalq ta'limi vazirligining "Xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish ta'lim muassasalarida tinglovchilarning malaka oshirishdan keyingi faoliyati samaradorligi monitoringini olib borish tartibi to'g'risidagi" Nizomi. 2015-yil 28-fevral.

5. Xalq ta'limi vazirligining "Xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimida ta'lim sifati va samaradorligini oshirish to'g'risida"gi 53-sonli buyrug'i. 2015-yil 28-fevral.

6. Xalq ta'limi vazirligining "Xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish sifatini nazorat qilish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 88-sonli buyrug'i. 2015-yil 20-mart.

7. Van Kemenade E., Pupius M., Hardjono T.W. // *Quality in Higher Education*, 2008. – P. 175-185.

Odiljon NAZAROV,

O'zbekiston Davlat konservatoriyasi dotsenti,

O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artist

XALQ CHOLG'ULARI ORQALI O'QITISHDA MUSIQIY BEZAKLAR USTIDA ISHLASH USLUBIYATI

Annotatsiya

Maqolada xalq cholg'ularida milliy musiqa bezaklari ustida ishlash uslubi haqida so'z yuritilgan. Muallif milliy musiqa ijrochiligining o'ziga xos jihatlari, o'qitishning individual xarakterga ega ekanligi haqida fikr yuritgan. Shuningdek, uslubiyaatning asosiy omillariga har bir musiqiy bezak misolida to'xtalib o'tgan.

Kalit so'zlar. Applikatura, uslubiyaat, musiqiy ta'lim, milliy musiqa, musiqiy bezaklar, xalq cholg'ulari.

В данной статье речь идёт о методике работы над музыкальными украшениями при игре на народных инструментах. В ней рассматриваются вопросы индивидуального музыкального обучения и особенности традиционного музыкального исполнительства, а также на примере каждого музыкального украшения обращается внимание на основные факторы методики работы над ними.

Ключевые слова. Аппликатура, методика, музыкальное образование, народная музыка, музыкальные украшения, народные музыкальные инструменты.

In this article are presented information about the technique of working on musical ornaments when playing folk instruments. It addresses the issues of individual music education and features of traditional musical performance, as well as the example of each musical decoration draws attention to the main factors of the methodology for working on them.

Key words. Fingering, technique, music education, folk music, musical decorations, folk musical instruments.

Bugungi kunda mamlakatimizda uzluksiz musiqiy ta'lim tizimi to'liq shakllangan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki bugungi yoshlar musiqa va san'at maktablaridan tortib litsey-kollejlar va konservatoriya, san'at instituti hamda pedagogika universitetlarida musiqaning o'zlari tanlagan yo'nalishlari bo'yicha ta'lim olish imkoniyatiga ega. Ushbu ta'lim tizimining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lgan xalq cholg'ularida ijrochilik sohasida ham o'ziga xos o'qitish uslubiyaati yaratilgan bo'lib, uni yangi innovatsion o'qitish texnologiyalari bilan yanada takomillashtirish davr talabi ekanligi hech kimga sir emas.

Milliy musiqa ijrochiligi qadimdan og'zaki an'anada ustozdan-shogirdga o'tib rivojlanib kelgan. Hozirgi zamon musiqiy pedagogikasida o'qitishning ko'plab usul va uslubiyaatlari mavjud. Shunday bo'lsa-da, milliy musiqa ijrochiligi o'ziga xos qonuniyatlarga egaki, har qanday uslubiyaat qonuniyatlarni chetlab o'tolmaydi. Bu narsa nafaqat o'zbek

musiqasi, balki har qanday xalq musiqasiga xos bo'lgan xususiyat ekanligini mutaxassislar yaxshi bilishadi.

Ma'lumki, har xil melizmlardan (qochirimlar) iborat bo'lgan musiqiy bezaklar dunyoning barcha xalqlari musiqalarida o'sha millatning dardu-quvonchini, uning milliy xususiyatlarini ifodalab beradigan vositalardan hisoblanadi. Musiqiy bezaklarsiz musiqa o'zining to'liq mazmun-mohiyatiga ega bo'lmaydi. Ular kuyni har tomonlama boyitibgina qolmasdan, uning xarakterini ochib berishda katta ahamiyat kasb etadi.

Talaba-o'quvchilar bilan musiqiy bezaklar ustida ishlashda har bir ustoz o'z bilim va tajribasiga asoslanib ish olib boradi. Bunda ustozning ijrochilik borasidagi mahorati eng muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari cholg'ularda chalishga o'rgatishda har bir talabaga individual yondashish talab etilishi sababli musiqiy ta'limga xos bo'lgan o'quvchi-talabaning zehni va qobiliyatini hisobga olgan holda o'quvchi bilan ishlash uslubini tanlash musiqiy bezaklar ustida ishlash uslubiya-tida ham o'z ahamiyatini saqlab qoladi. Xalq cholg'ularida o'qitishda musiqiy bezaklar ustida ishlash uslubiya-tini shartli ravishda quyidagicha tasniflash mumkin:

- a) asarda ishlatilgan musiqiy bezaklarni aniqlash;
- b) ularni tahlil qilish, qiyoslash, taqqoslab chiqish;
- d) musiqiy bezaklar applikaturasini belgilab olish;
- e) asarlarning magnit yozuvlaridagi ijrolarini tinglash;
- f) muayyan cholg'udan dars beradigan ustozning o'zi bevosita ijro etib ko'rsatib berishi.

Amaliy ijrochilik mashg'ulotlarida ushbu murakkab ijro ko'nikmalari ustida ishlanganda ko'pincha talabalar nolalar tovushining sadolanish davomiyligini sezmasliklari, uni “o'chirib” qo'yishlariga guvoh bo'lish mumkin. Aynan mana shu kamchiliklar ijro mahoratining past bo'lishiga sabab bo'ladi.

Musiqiy bezaklar ustida ishlash uslubiya-tiga har bir bezak misolida alohida qisqacha to'xtalib o'tmoqchimiz. Jahon musiqasida melizmlar “trel”, “forshlag”, “mordent”, “gruppetto” deb nomlanadi va deyarli barcha xalqlar kuy va qo'shiqlarida hamda kompozitorlar ijodida keng qo'llaniladi. Shashmaqom asarlari va mumtoz o'zbek kuylarida uchraydigan bezaklar melizmlar deb atalishi bilan birga “qochirim”, “nola” deb ham yuritiladi. Qochirim, nola milliy musiqiy bezaklarning barchasini o'z ichiga oladi: “bidratma”, “sayqallar”, “to'liqlantirish”, “naxshlag”, “kashish”, “molish” shular jumlasidan bo'lib, ular milliy musiqamizni haqqoniy jaranglashiga va kuy ohanglari jozibasini to'liq ochib berishga yordam beradi.

“Sayqal”¹ – an'anaviy ijrochilikda juda keng qo'llaniladigan bezak turlaridan biri. U mordent belgisining ustiga + belgisi qo'yib ifodalanadi. Uning 4 turi mavjud. Mordent bilan sayqalning asosiy farqi, agar mordentning barcha tovushlari ijro etilsa, sayqal tovush sadosi ostida chap qo'lda torni bosish yo'li bilan amalga oshiriladi. Sayqalni ijro etishning asosiy xususiyati tovushning sadosini o'chirib qo'ymaslikdan iboratdir. Bunda pardani bosib turgan birinchi yoki ikkinchi barmoq pardadan ko'tarilmasdan o'ziga xos glissandolash orqali ohangning uzilmasligiga va keyingi tovush ohangiga ulanishiga olib kelishi kerak bo'ladi.

Keng tarqalgan melizmlardan biri “trel” – (“trillore” – “titramoq”, “tebranmoq”)² – deyarli barcha torli va puflama cholg'ularda qo'llaniladi. Tajribada talabalar trel chalganda o'ng va chap qo'llar harakatining bir-biriga mos kelmasligi kuzatiladi. Hozirgi zamon ijro-

¹ Sayqal – xalq amaliy san'atida keng qo'llaniladigan atamalardan biri. Asarga jilo berish, sayqal berish ma'nosida. Musiqada ham shu ma'noda ishlatiladi.

² Akbarov I. Muzika lug'ati. G'. G'ulom nomidagi nashriyoti. – T., 1987.

chilik repertuarining kengayishi va zamonaviy musiqaning, xususan, zamonaviy estrada kuy va qo'shiqlarning rivojlanishi ham milliy cholg'ularda ijrochilik san'ati taraqqiyotiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Bunday kuy va qo'shiqlarda trel bezaklarning boshqa elementlari bilan hamohang tarzda juda keng ishlatilishi bois ularni ma'lum bir yo'nalishda juda yengil harakatlar bilan nafis ijro etishni talab qiladi. Kompozitorlar ijodiga mansub asarlarni ijro etganda trel, asosan, birinchi va ikkinchi barmoqlar yordamida amalga oshiriladi. Hozirgi zamon estrada kuy va qo'shiqlar ijrosida esa, boshqa barmoqlarning ham juda yengil bo'lishi talab etiladi. Bu borada barcha barmoqlar ijrosida chalinadigan trel mashqlarini muntazam ravishda maqsadga yo'naltirilgan holda chalib borish ko'zlangan natijaga erishishda yaxshi samara beradi.

Trel an'anaviy ijrochilikda "bidratma" deb ham yuritiladi. Bidratmaning o'ziga xos tomoni shuki, mizrob bilan urib chalish bilan birga faqat bir zarb sadosi ostida ham ijro etish mumkinligidir. Bunda trel belgisi ustiga + belgisi qo'yiladi. Ko'pincha talabalar sayqal va bidratmani ijro etganlarida asosiy nota sadosini o'chirib qo'yadilar. Bu ko'nikmalarni o'zlashtirish juda murakkab jarayon bo'lib, muntazam shug'ullanishni va ko'p musiqa tinglashni talab etadi.

"To'lqinlatish" – vokal ijrochiligida hamda barcha cholg'ularda keng qo'llaniladigan usul. Tor ustida chap qo'l barmoqlar bilan torni to'lqinlatib ijro etiladi. To'lqinlatish kuyni ifodaviylik xususiyatini oshiradi, tovushlarni mayin, ohangdor va jozibali eshitishtirishni ta'minlaydi. Kompozitorlar asarlarida to'lqinlatish maxsus belgi bilan belgilanmaydi. Sozanda asarni puxta o'zlashtirgach, uni har qanday katta cho'zimli tremololarda yoki musiqiy jumalalarda emas, balki mantiqiy fikrdan kelib chiqqan holdagina qo'llashi kerak bo'ladi. Bu borada albatta, tajribali ustozlar tajribasiga tayanish maqsadga muvofiqdir. To'lqinlatishni o'zlashtirishda barmoqlarning torni "sezish" ko'nikmasi ustida ishlash talab etiladi. Bunda to'lqinlatishning me'yori uning qisqa yoki uzunligi, shuningdek, mayda yoki yirik bo'lishi asar xususiyatidan kelib chiqqan holda tanlanishi kerak. To'lqinlatish an'anaviy ijrochilikda shartli ravishda nota ustiga to'lqinsimon chiziq bilan belgilanadi.

Kompozitorlar ijodida "glissando" nomli melizm qo'llaniladi. "Glissando" (it. "glissando" – "sirg'anma") – bir tovushdan ikkinchi tovushga sirg'alib o'tish. Dastali cholg'ularda glissando chap qo'l barmog'ini dasta bo'ylab pastga yoki yuqoriga sirg'altirib amalga oshiriladi, pufiab chalinadigan cholg'ularda esa nafas olish va uni to'g'ri taqsimlash hamda eshitishtirish orqali amalga oshiriladi. Katta intervallar orasidagi glissando asosan birinchi barmoq bilan chalinsa, kichikroq intervallarda boshqa barmoqlarda ham ijro etish mumkin. Bunda sirg'alayotgan barmoq tovushni so'ndirib qo'ymasligi va ravon harakat bilan nota cho'zimiga mos vaqtda ikkinchi notaga yetib kelishi kerak bo'ladi.

Kompozitorlarning zamonaviy asarida sekunda intervalidagi glissandolar mizrob bilan rez usulida, chap qo'l bilan esa "kashish" usulida, ya'ni torni ko'tarish yo'li bilan amalga oshiriladi.³ Dastali cholg'ularda chap qo'l dasta bo'ylab sirg'alib glissando qilganda o'ng qo'l bilan mizrob yoki kamon orqali tovush hosil qilinadi, lekin ayrim hollarda o'ng qo'l bilan hosil qilingan tovush sadosi ostida ham glissando amalga oshiriladi. Bu usul Shashmaqom va o'zbek mumtoz kuylari ijrosida ko'p qo'llaniladi. Bunda glissando qilib tushiladigan tovush ustiga + belgisi qo'yib belgilanadi va bu bezak turi "molish" (fors. "molash" – "silamoq") deb ataladi. Sozanda bu bezakni dastlab o'rganish jarayonida glissandoning davriyligini seza olmasligi natijasida uning soxta va quruq jaranglashi kuzatiladi. Molishni puxta o'zlashtirish uchun, avvalo, talaba shu asarni chuqur anglagan bo'lishi, kuyning har bir jumlasini va elementlarini his qila olishi muhimdir. Bu usullar ashula yo'lida uchraydigan va kamonli cholg'ularda chalinadi-

³ Nazarov O. Qashqar rubobida o'qitish uslubiyati. – T., 2008.

gan mayda, yengil nolalarni boshqa mizrobli cholg'ularda ham ijro etish imkoniyatini beradi.

Musiqiy bezaklardan yana biri bu – kashish (fors. “kashidan” – “tortmoq”). N.Mironov o'zining “O'zbeklar musiqasi” (“Музыка узбеков”) kitobida xalq hofizlari tomonidan kuylangan qo'shiqlarda ovoz bilan o'ziga xos glissando qilib kuylanishi va bu xalq tilida “kashish” deb nomlanishini aytib o'tadi.⁴ Bu bezak torli mizrobli cholg'ularda torni barmoqlar bilan yuqoriga ko'tarib chalish usulida amalga oshirilsa, torli kamonli cholg'ularda chap qo'l bilan torni dastada yuqoriga torib, sirg'altirib, puflab chalinadigan cholg'ularda esa nafas hamda eshitish orqali amalga oshiriladi. Bunda bir tovushni o'zida bir tongacha pastga yoki yuqoriga glissando qilib uning balandligini o'zgartirish mumkin. Bu tremolo va yakka tovush usulida ham ijro etiladi. Yuqoriga glissando qilganda torni yuqoriga ko'tarishni boshlash bilan bir vaqtda o'ng qo'l bilan tor rez yoki zarb usulida chalinadi. Pastga glissando qilganda esa, avval tor chap qo'l barmog'i bilan ko'tarilib tushayotgan paytdan boshlab chalinadi. Bunda ko'tarilayotgan parda 2- yoki 3-barmoq bilan bosilishi, shu pardaga yonma-yon bo'lgan parda esa 1-barmoq bilan bosib turilishi va torni ko'targanda 2-, 3-barmoqqa yordam berishi kerak bo'ladi. Bu usul nihoyatda murakkab bo'lib, ko'p mashq qilish bilan birga ko'p eshitishni talab etadi.

Talabaga aynan chalik ko'rsatib berish yoki magnit yozuvlaridan keng foydalanish kerak bo'ladi. Ayniqsa, glissandoning qanday intervalda bo'lishi faqat ijrochining eshitiishi orqali tartibga solinadigan jarayon. Bundan tashqari chap qo'l barmoqlarining torni sezish malakasini o'zlashtirish ham asosiy omillardan biridir. Chunki dastlabki o'rganish davrida barmoqlarning torni sezmasligi natijasida torlar barmoqlar ostidan ikki tomonga ajralib chiqib ketishi yoki torlar birlashib qolib, tovushning ohangdorligi, jarangi yo'qolishiga sabab bo'ladi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, ushbu musiqiy bezaklar ustida ishlash uslubi aytilgan milliy cholg'ularga tegishli bo'lib, ularning har birini o'zlashtirish alohida yondashuv talab etishi musiqiy ta'limning boshqa cholg'ularida o'qitishda uchramaydi. Uning o'ziga xos xususiyati cholg'ular rang-barangligi, ularning tovush chiqarish usullarining xilma-xilligi, shuningdek, cholg'ularimizning ijro imkoniyatlari kengligi bilan bog'liq. Milliy musiqa bezaklari ijrosini o'zlashtirish faqatgina barmoqlar harakatlari orqaligina emas, balki eshitib boshqarish orqali erishiladigan murakkab ko'nikmalardan hisoblanadi.

Musiqiy bezaklar applikaturasining to'g'ri tanlanishi asarning to'laqonli ijrosini ta'minlash bilan birga ularni ijro etish imkoniyatlaridan kelib chiqqan bo'lishi maqsadga muvofiq. Chunki bu bezaklar muayyan belgilangan applikatura bilan chalingandagina haqiqiy milliy xususiyatlarni ifodalaydi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, xalq cholg'ularida o'qitishda milliy bezaklar ustida ishlash uslubi o'zining qat'iy talablariga ega bo'lsa-da, har bir talaba uchun individual xususiyat kasb etishini hisobga olgan har bir mutaxassis bu masalaga ijodiy yondashib, o'ziga xos uslublarni tanlay bilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Akbarov I. *Muzika lug'ati. G'.G'ulom nomidagi nashriyoti.* – T., 1987.
2. Nazarov O. *Qashqar rubobida o'qitish uslubi.* – T., 2008.
3. Миронов Н. *Музыка узбеков. О'zbekiston davlat nashriyoti, Samarqand, 1929.*

⁴ Миронов Н. Музыка узбеков. О'zbekiston davlat nashriyoti, Samarqand, 1929.

Hilola ISLOMOVA,

“O‘zbektelekom” AK “Billing Telekom” filialining
Dasturiy ta’minotlarni ishlab chiqish
bo‘limi oliy toifali muhandisi

AXBOROT-RESURS MARKAZLARI XODIMLARINI INNOVATSION METODLAR VA MODELLAR ASOSIDA MALAKASINI OSHIRISH TEXNOLOGIYASI

Annotatsiya

Maqolada axborot-kutubxona muassasalarini avtomatlashtirish sharoitida xodimlarning bilimini baholash uchun qo‘llanilgan metodlar va modellar keltirilgan. Shuningdek, axborot-kutubxona fanlarini o‘qitish nazariyasi va metodikasi yoritilgan. Unda avtomatlashtirilgan axborot kutubxona tizimini axborot-kutubxona muassasalari xodimlariga o‘rgatishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish to‘g‘risida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar. Axborot-resurs markazi, model, metod, forum, ARMAT-U tizimi, bibliografik yozuv, ma’lumotlar bazasi, o‘quv reja, elektron ta’lim, nazariy mashg‘ulot, amaliy mashg‘ulot, MARC-formatlar, Korporativ tarmoq, elektron resurslar.

В статье рассмотрены вопросы использования методов и моделей для оценки уровня знаний сотрудников информационно-ресурсных центров в условиях внедрения информационных технологий, изложена теория и методика обучения предметам информационно-библиотечной науки. Раскрыто значение автоматизированной системы библиотеки в использовании современных информационных технологий сотрудниками библиотеки.

Ключевые слова. Информационно-ресурсный центр, модель, метод, форум, ARMAT-U система, библиографическая запись, база данных, учебная программа, электронное занятие, теоретическое обучение, практическое занятие, MARC-форматы, корпоративная сеть, электронные ресурсы.

Article discusses the issues of using the methods and models for assessing the level of knowledge of employees of information and resource centers in the context of the introduction of information technology, outlines the theory and methodology of teaching subjects of information and biology. The importance of the automated library system in the use of modern information technologies by library staff is revealed.

Key words. Information and resource center, model, method, forum, ARMAT-U system, bibliographic record, database, curriculum, e-learning, theoretical training, practical lesson, MARC-formats, corporate network, electronic resources.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-yanvarda imzolangan “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish

bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida¹gi farmoyishida¹ ta'kidlangan zamonaviy elektron kutubxonalar faoliyati bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri bo'lib, bunda, birinchi navbatda, elektron kutubxonalarda faoliyat ko'rsatuvchi axborot-kutubxona muassasalari xodimlarining malakasini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bizga ma'lumki, axborot-kutubxona muassasalarida avtomatlashtirilgan axborot kutubxona tizimi (AAKT)ni samarali joriy qilish uchun xodimlarni tizimdan foydalanishga o'rgatish ta'lim jarayonini innovatsion metodlar va modellar asosida olib borishni talab qiladi. Shu sababli ham AAKTni axborot-kutubxona muassasasida joriy qilishdan avval o'quv-uslubiy qo'llanmalar, foydalanuvchilar uchun yo'riqnoma, o'quv reja va unga mos dastur, multimediali o'quv qo'llanmalar hamda o'quv adabiyotlari, testlar hamda virtual trenajyorlar tayyorlanishi, so'ngra maxsus kurslar tashkil qilinishi lozim.

AAKTda o'qitishning model va metodlari amaliyotda quyidagicha tadqiq etildi:

Birinchi model. 1. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining buyrug'i asosida 57 ta oliy ta'lim muassasasiga qarashli Axborot resurs markazlarining (ARM) har biridan 2 nafardan xodim o'qishga jalb qilindi. Maxsus kurs bo'yicha 36 soatlik o'quv rejasini ishlab chiqilib, mashg'ulotlar kichik guruhlarda (14 kishilik) o'tkazildi. O'quv mashg'ulotlari bevosita Toshkent axborot texnologiyalari universitetida olib borildi. Mashg'ulotlar har kuni 6 soat amaliy mashg'ulot va 2 soatdan mustaqil tayyorgarlik asosida tashkil etilib, ishlab chiqarishdan ajralgan holda o'tkazildi.

2. Tinglovchilarga AAKT bo'yicha maxsus o'quv uslubiy qo'llanma tarqatildi.

3. O'qitish to'lov shartnomasi asosida tashkil qilindi.

4. AAKTni o'rganish bo'yicha multimediali o'quv qo'llanmalardan foydanildi.

O'quv rejasiga ko'ra 6 soat nazariy va 30 soat amaliy mashg'ulotlar ajratilgan. Har bir mavzu bo'yicha texnologik kartalar ishlab chiqildi. AAKTni o'qitish jarayoniga bevosita dasturdan foydalanildi. Amaliy mashg'ulotda tinglovchilar ishtirokida taxminiy ARM faoliyati shakllantirildi va dars o'yin tarzida olib borildi.

ARMdagi har bir bo'lim faoliyati uchun rollar tashkil etildi. Tinglovchilarning bir qismi kitobxon, bir qismi kutubxonachi, bir qismi kataloglashtiruvchi, yana bir qismi komplektator rolini bajarishdi. Tinglovchilar orasidan kompyuter savodxonligi yaxshi bo'lgan tinglovchiga administratorlik roli berildi. Har bir ishtirokchining vazifalari AAKTda bo'lim faoliyatining avtomatlashgan holatini ko'rsatib berish orqali bajarildi. Tinglovchilar mustaqil ta'lim jarayonida AAKTni o'rgatishga mo'ljallangan multimediali o'quv qo'llanmalardan foydalanishdi.

Kataloglashtirish bo'yicha o'tkazilgan amaliy mashg'ulotlarda o'qitish quyidagicha olib borildi:

– o'qituvchi kataloglashtirilayotgan kitobni qo'lga olib, misol tariqasida tizim maydonlarini to'ldirishni og'zaki tushuntirib berdi;

– har bir tinglovchi kataloglashtirilayotgan kitobning bibliografik tavsif elementlarini tizimning tegishli maydon va maydonostilariga kiritish tartibini yozib olishdi;

– kataloglashtirish uchun tinglovchilarga bilimning turli sohalar bo'yicha kitoblar tarqatildi;


– amaliy mashg'ulotda tinglovchilar yozib olgan konspektidan foydalanib, kitobning bibliografik yozuvlarini shakllantirishdi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi farmoyishi. 2017-yil 12-yanvar.

Tinglovchilar tomonidan kiritilgan bibliografik yozuvlar proyektr yordamida katta ekranga tushirilib, yo'l qo'yilgan xatoliklar o'qituvchi tomonidan ko'rsatib berildi. Masalan, o'qituvchi nashr etilgan yil to'g'risidagi ma'lumotnomasini ochib, noto'g'ri kiritilgan bibliografik tavsif elementlarini ko'rsatdi va uni to'g'rilash yo'llarini o'rgatdi.

Mashg'ulotlar bunday usulda olib borilganda tinglovchilarning egallagan bilimlarini sinash, elektron katalogdagi bibliografik yozuvlarni to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aniqlash imkonini paydo bo'ladi. Egallagan bilimlarni sinashning bu usuli o'ta subyektiv bo'lib, mashg'ulot olib borayotgan o'qituvchining saviyasiga bog'liqdir.

Amaliy mashg'ulotlarda egallagan bilimlarni sinash uchun savollar tayyorlandi va har bir tinglovchiga 3 tadan savol berildi. Tinglovchilar berilgan savollarning javobini amalda bajarib ko'rsatishdi. Berilgan savollardan 2 tasiga to'liq javob berilsa, dars qoniqarli o'zlashtirilganligini bildirdi. Bitta savolga javob berganlar qoniqarsiz baholandi.



1-rasm. Birinchi model bo'yicha o'qitishdan olingan natijalarning tahlili

Internet tarmog'iga qo'yilgan AAKTda tinglovchilarning masofadan kiritgan bibliografik yozuvlari tahlil qilindi va ularning kamchiliklari seminarda muhokama etildi. Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, internet orqali kiritgan elektron kataloglar talabga javob bermaydi. Jumladan: kitob sarlavhasi, nashr etilgan yil, joy va nashriyotlar xatolik bilan yozilgan. Kiritilgan bibliografik yozuvlarning 30 foizi to'g'ri, qolganlarida turli darajadagi xatoliklar uchraydi.

AAKTni o'qitishda masofaviy ta'lim modelidan foydalanilib, Ta'limda elektron ta'limni joriy etish markazi qoshida masofadan AAKTni o'qitish tashkil etildi. Masofadan o'qitish respublikamizning barcha oliy ta'lim muassasalarini optik tolali kabellar orqali

birlashtirib turuvchi korporativ tarmoqda o'tkazildi. O'quv jarayonida tinglovchilardan tushayotgan savollarga javob berish maqsadida “Forum” tashkil qilindi. Tinglovchilarga mashg'ulotlar paytida o'qituvchilarga to'g'ridan-to'g'ri va darsdan tashqari paytlarda “Forum”dan foydalanib, savollar berish va tegishli javoblarni olish imkoniyati yaratildi. Masofadan o'qish jarayonida tinglovchilarga tarmoq orqali kerakli o'quv adabiyotlari tarqatildi. Tinglovchilar bilimini baholash maqsadida test savollari tuzildi, masofadan test o'tkazishga mo'ljallangan dasturiy vosita tanlandi.

Tadqiqot davomida quyidagilar amalga oshirildi:

- Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining buyrug'i asosida har bir ARMdan 30 foizgacha tinglovchi masofaviy o'qishga jalb qilindi (700 nafar kishi);

- maxsus kurs bo'yicha 36 soatlik o'quv rejasi ishlab chiqilib, tasdiqlandi va mashg'ulotlar Ta'limda elektron ta'limni joriy etish markazida videokonferensiya shaklida olib borildi;

- AAKT o'rgatish maqsadida korporativ tarmoq orqali masofaviy darslar tashkil qilindi;

- mashg'ulotlar ishlab chiqarishdan ajralmagan holda o'tkazildi;

- nazariy mashg'ulotlar yakuniga yetgach, har kuni 4 soat amaliy mashg'ulotlar, 2 soatdan mustaqil tayyorgarlik ishlari bajarildi. Amaliy mashg'ulotda uyga vazifa berildi. Tinglovchilar mustaqil tayyorgarlik paytida uy vazifalarini korporativ tarmoqda bajardi. Amaliy mashg'ulotlarning boshida uy vazifalari 10 ta oliy ta'lim muassasasi ARM misolida tahlil qilindi.

Bir paytning o'zida 69 ta oliy ta'lim muassasasida ARM xodimlari uchun masofadan mashg'ulotlar olib borildi. AAKTni har bir ARM bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri namoyish qilinib, uning asosiy funksiyalari tushuntirilib berildi. Shuningdek, amaliy mashg'ulotda har bir oliy ta'lim muassasasi ARMga avtomatlashtirilgan axborot kutubxona tizimini moslashtirish masalasi o'zlashtirildi;

- kitobxonlar ro'yxatga olindi;

- elektron kataloglashtirishni o'rgatishda tizimning elektron katalogi ishga tushirildi. Tizimning maydon va maydonostilarini to'ldirish tushuntirib berildi;

- o'quv uslubiy qo'llanmadagi sxemadan foydalanib, tizimning maydon va maydonostilariga bibliografik tavsif elementlarini kiritish qoidalari tushuntirib berildi;

- tinglovchilarga mustaqil ravishda o'quv qo'llanmadan foydalanib, 10 tadan kitobning bibliografik tavsif elementlarini kiritish topshirildi;

- tinglovchilar ta'lim muassasalarining ARMdan turib korporativ tarmoqning serverida joylashgan dasturning elektron katalogiga 10 tadan bibliografik yozuv kiritishdi;


- tinglovchilar tomonidan korporativ tarmoq elektron katalogi bazasiga kiritilgan bibliografik yozuvlar tahlil qilindi.

Ma'ruza mashg'ulotlarida yangi mavzu o'tilmasdan avval “Uy vazifalari” tahlili o'tkazildi. Bunda navbati bilan har bir oliy ta'lim muassasasi ARM xodimlari tomonidan korporativ tarmoqda joylashgan ARMAT-U dasturining elektron katalogiga kiritilgan bibliografik yozuvlar tahlili o'tkazildi. Bibliografik yozuvlar tahlili ARMAT-U tizimining elektron kataloglar ma'lumotlar bazasidagi tinglovchilar tomonidan kiritilgan bibliografik tavsif elementlarini qanday kiritilganligini aniqlash orqali amalga oshirildi.

Kataloglashtirilgan hujjatning bibliografik tavsif elementlarini to'g'ri yoki noto'g'ri kiritilganligini taqqoslash quyidagi jadval asosida ko'rish mumkin:

№	Bibliografik tavsif elementi	To'g'ri	Noto'g'ri
1.	Kataloglashtirilayotgan hujjat muallifi to'g'risida ma'lumot	Alimov I. A.	I. A. Alimov
			Alimov I.A.
			Alimov I.A
2.	Kataloglashtirilayotgan hujjatning chiqish ma'lumotlari	Toshkent	T.
		Sharq	Sharq nashriyoti
		2012	2012 y.
3.	Sarlavha to'g'risida ma'lumotlar	O'tkan kunlar	Utgan kunlar
			O'tgan kunlar
			Utgan kunlar.

Elektron katalog ma'lumotlar bazasining ma'lumotnomalari ochilib, ularga kiritilgan bibliografik tavsif elementlari yuqoridagi jadval asosida tekshirildi. Har bir oliy ta'lim muassasasi ARM xodimi tomonidan yo'l qo'yilgan xatolik ko'rsatildi. Tahlil bir paytning o'zida 57 ta oliy ta'lim muassasasi ARM xodimlari tomonidan kuzatib borilganligi katta samara berdi.



2-rasm. Ikkinchi model bo'yicha o'qitishdan olingan natijalarning tahlili

Tinglovchilar tomonidan kiritilgan bibliografik yozuv katta ekranga tushirilib, yo'l qo'yilgan xatoliklar ko'rsatib berildi. Masalan, o'qituvchi nashr etilgan yil to'g'risidagi

ma'lumotnomani ochib, noto'g'ri kiritilgan bibliografik tavsif elementlarini ko'rsatdi va uni to'g'rilash yo'llari o'rgatildi.

Amaliy mashg'ulotlardan egallagan bilimlarni sinash uchun har bir oliy ta'lim muassasasi tomonidan korporativ tarmoqdagi elektron katalog bazasiga kiritilgan bibliografik yozuvlar tekshirildi va yo'l qo'yilgan xatoliklar soni aniqlandi. Kiritilgan 10 ta bibliografik yozuvlardan kamida 70 foiz to'g'ri kiritgan xodimlarga keyingi mashqlarni mustaqil bajarishga ruxsat berildi. 10 bibliografik yozuvdan 70 foizdan kam to'g'ri kiritgan xodimlar o'tilgan mavzu bo'yicha yo'l qo'yilgan xatolar ustida ishlashga tavsiya qilindi.

Ikkinchi model bo'yicha (2-rasm) har bir amaliy mashg'ulotda egallangan bilimlarni baholash test savollariga javob berish emas, balki bajarilgan ishning sifatiga qarab belgilandi. Nazariy va amaliy mashg'ulotlar yakuniga yetgach, egallangan bilimlarni baholash maqsadida onlayn test sinovlari o'tkazildi.

Korporativ tarmoqqa qo'yilgan AAKTda tinglovchilarning masofadan kiritgan bibliografik yozuvlari tahlil qilindi va ularning kamchiliklari mashg'ulotlar paytida aytiladi. Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, korporativ tarmoq orqali kiritgan elektron kataloglar talabga javob bermaydi. Jumladan: kitob sarlavhasi, nashr etilgan yil, joy va nashriyotlar xatolik bilan yozilgan. Kiritilgan bibliografik yozuvlarning 50 foizi to'g'ri, qolganlarida turli darajadagi xatoliklar uchraydi.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, o'qitishning bunday metodi samarasiz bo'lib, bunda tinglovchilarning o'zini-o'zi baholash (tekshirish) qobiliyati sustlashib, aksincha, o'qituvchiga tayanib qoladi. Ya'ni tinglovchilar ish faoliyati davomida egallagan bilimlarini sinash mashg'ulot olib borayotgan o'qituvchining saviyasiga bog'liq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining *"Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"*gi farmoyishi. 2017-yil 12-yanvar.
2. Islomova H. ARM xodimlarini avtomatlashtirilgan tizim bilan ishlashga o'qitish metodikasi. – T., 2016, № 1. 38-42-b.
3. Karimov U. F., Rahmatullayev M. A., Islomova H. E. *Korporativ elektron kutubxona: yaratish texnologiyasi ma'lumotlar bazasini shakllantirish.* – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2010.
4. Мальбахова С. И. *Библиотечное образование в Кабардино-Балкарии: история, современное состояние, перспективы развития. Диссертация ... кандидата педагогических наук.* – Краснодар, 2010. – С. 191.
5. Кондрашевский Г. В. *Современное состояние и перспективы применения новых информационных технологий в профессиональной подготовке библиотечно-информационного специалиста. Дис. ... канд. пед. Наук.* – М., 2004. – С. 238.

Shohista MAMASOLIYEVA,
Samarqand Davlat universiteti o'qituvchisi

TEXNOLOGIK TA'LIM JARAYONIDA LOYIHALASH METODIDAN FOYDALANISHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada texnologik ta'lim jarayonida loyihalash metodidan foydalanishning psixologik jihatlari va uning o'ziga xos xususiyatlari keltirilgan.

Kalit so'zlar. Umumiy va xususiy qobiliyatlar, emotsional irodaviy xislatlar, iroda, qat'iyat, maqsad sari intilish, sabr-toqat, ko'rgazmali-obrazli xotira, mavhum-mantiqiy tafakkur.

В статье дано психологические стороны и особенности применения метода проектирования в процессе технологического обучения.

Ключевые слова. Общие и специальные способности, эмоционально-волевые качества, воля, настойчивость, целеустремленность, терпение, наглядно-образная память, абстрактно-логическое мышление.

Article describes the psychological aspects and specific properties of the application of the design method in the process of technological training.

Key words. General and special abilities, emotional-volitional qualities, will, perseverance, purposefulness, patience, visual-shaped memory, abstract-logical thinking.

Ta'lim tizimida yosh avlodni barkamol inson qilib voyaga yetkazish jarayonini yangi pedagogik "qurol" lar bilan qurollantirishda tanlangan usul va vositalarning nafaqat pedagogik yutuqlarini, balki shu bilan birga ularning psixologik jihatlarini ham inobatga olish nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Chunki muayyan metodning didaktik samarasini baholashda uning psixologik xususiyatlari ham salmoqli o'rin tutadi. Shuning uchun ham texnologik ta'lim tizimida o'qitishning yangi metodlarini tanlashda metodning bir qator didaktik afzalliklaridan tashqari ta'lim oluvchilarning psixologik xususiyatlariga ham to'g'ri kelish yoki kelmasligini ham inobatga olish muhim pedagogik shartlardan biri hisoblanadi.

Yuqorida tilga olingan xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirilgan samarali metodlardan biri – loyihalash metodidir. Loyihalash metodi intellektual, jismoniy va psixologik imkoniyatlarni, ya'ni insoniylik fazilatlarini, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish orqali ta'lim oluvchi shaxsining o'zligini namoyon etishga qaratilgan metoddir. Loyihalash metodi muayyan vaqt mobaynida ta'lim oluvchilarning individual, birgalikdagi va guruhlariga bo'linib ish olib boradigan mustaqil faoliyatiga asoslanadi. Loyihalash metodining asosida ta'lim oluvchilarning bilishga oid ko'nikmalarini, o'z bilimlarini mustaqil egalay olish mahoratini, axborotlar olamida to'g'ri mo'ljal ola bilish mahoratini, tanqidiy

fikrlashni rivojlantirish kabilar yotadi. Loyihalash metodi biror bir muammo yechimini shunday nazarda tutadiki, unda bir tomondan turli xil metodlar va ta'lim vositalarini qo'llashni nazarda tutsa, ikkinchi tomondan fan, texnika, texnologiya va ijod sohasidagi bilimlar va malakalarni umumlashtirishni nazarda tutadi. Amalga oshirilgan loyihalarning natijasi shunday sezilarli bo'lishi kerakki, bunda agar u nazariy muammo bo'ladigan bo'lsa, o'zining konkret yechimini topishi, agar u amaliy muammo bo'lsa, tatbiq etilishga tayyor aniq natijaga ega bo'lishi lozim.

O'quv jarayonida loyihash metodini qo'llash mobaynida ta'lim oluvchilar loyihani amalga oshirish uchun lozim bo'lgan ma'lumotlarni o'zlari topishga harakat qiladilar. Bu vaqtda o'qituvchi “lektor-o'rgatuvchi” rolini “konsultant-yordamchi”ga almashtiradi. U bevosita, tabiiy ravishda ta'lim oluvchilarni boshqaradi. Bu esa ta'lim oluvchilarning “o'zligini”, psixologik nuqtayi nazardan olib qaraydigan bo'lsak, o'z “men”ini namoyon qilish imkonini beradi.

Ta'lim oluvchilar o'qituvchi bilan birgalikdagi faoliyatida o'zining yutuq, kamchilik va xatolariga javob berib, faoliyatning to'laqonli ishtirokchisiga aylanadi. Ijodiy loyihalarni bajarish mobaynida esa mustaqil qaror qabul qilishni, ularning tatbiq etilishida mas'ullikni his qilishni o'rganishadi. Ular o'qituvchi ishtirokidagi dastlabki paytlarda o'zlarining o'rganishdagi har bir qadamini tahlil qilib, o'z kamchiliklarini aniqlaydi, yuzaga kelgan qiyinchiliklar sababini izlaydi, xatolarni to'g'irlash yo'llarini topadi va bunday harakatlari orqali irodalarini toblaydi.

Ularga faoliyat turini tanlash, taxminlarni bildirish, jamoada turli qarashlarni ilgari surish, muhokama qilish huquqi beriladi. Tanlashdagi erkinlik hissi faoliyatning yanada samarali bo'lishiga yordam beradi. Loyihali faoliyat jarayonida ta'lim oluvchilarda umumiy va xususiy qobiliyatlar shakllanadi.

Loyihali faoliyatni amalga oshirish mobaynida har bir ta'lim oluvchi “ko'nglida-gidek ishni” (K. D. Ushinskiy) topadi va uni “chin dildan” (U. X. Kilpatrik) bajaradi. Mehnat qurollari bilan ishlash davomida ta'lim oluvchilardagi iroda, qat'iyat, maqsad sari intilish, sabr-toqat kabi emotsional irodaviy xislatlar mustahkamlanadi. Loyiha va mahsulotni tayyorlash jarayoni esa obrazli xotira va mavhum-mantiqiy tafakkurni rivojlantiradi.

Bajargan ishidan mamnunlik, qo'lga kiritilgan yutuqlardan g'ururlanish, muam-molarni hal qilishdagi izlanishlarning barchasi ta'lim oluvchilarning imidjini ko'taradi. Befarqlik, mas'uliyatsizlik sindromidan xalos etgan holda, sog'liqni saqlash imkonini beradi. Bu ham loyihalash metodining psixologik muvaffaqiyatlaridan yana biridir.

Loyiha yaratish davomida ta'lim oluvchilar ijod qilishga sho'ng'ib ketadilar, bu esa o'qituvchidan qidiruv va topilmalardan qoniqish, erkinlik atmosferasini yaratish; no-an'anaviy ahamiyatga ega bo'lgan yangi bilimlar, ko'nikmalar va malakalarni hosil qilishni talab etadi. Loyiha yaratish mobaynida ta'lim oluvchilarda loyihalash madaniyati (mahsulot yaratish sifati, ehtiyoj va ishlab chiqarish) bilan aloqalari o'rnatiladi. Ijodiy did paydo bo'ladi.

Loyihalash metodining natijalarini tahlil qila turib shuni anglab yetish mumkinki, guruhda ta'lim oluvchilarning qiziqishlari ortadi, dunyoqarashlari kengayadi. Loyihalash metodi o'z-o'zini namoyon qilish uchun ijobiy turtki (motiv) uyg'otadi. Bu ham mazkur metodning eng kuchli tomonlaridan yana biridir.

Loyihani yaratish uchun kerakli materiallarni qidirish, adabiyot bilan muntazam ishlashni talab etadi. Loyihani yaratish davomida ta'lim oluvchilarning aksariyati dars-

liklarga, o'quv metodik adabiyotlarga murojaat qilishadi. Bu esa muhim pedagogik ko'rsatkichdir.

Loyihali faoliyat davomida o'quvchilarda quyidagi qobiliyatlar shakllanadi:

1. Kommunikativ qobiliyat – ijodiy topshiriqlar muhokama qilinganda, o'qituvchi bilan konsultatsiya tashkil qilinadi, tengdoshlari bilan bo'lgan muloqotda esa eng kuchli fikrlar himoyalangani.

2. Shaxsiy qobiliyat – fikrlarning o'zgaruvchan va o'ziga xos bo'lishi, fantaziya, qiziquvchanlik va sog'lom ijodiy mulohazalar.

3. Ijtimoiy qobiliyat – jamoa faoliyatiga moslashuv, qoidalarga amal qilish va o'zgalar fikriga e'tiborli bo'lish.

4. Adabiy-lingvistik qobiliyat – fikrlarni yoritish, bayon qilish va himoya vaqtidagi ravon nutq.

5. Matematik qobiliyat – loyiha xarajatlarning hisob-kitobi, shakl va hajmning mosligi va h.k.

6. Badiiy-somatik qobiliyat – klauzurlarni ishlab chiqish, mahsulot dizayni va boshqalar.

7. Manipulyativ (murakkab va nozik harakatlar) qobiliyat – harakatlar koordinatsiyasi, asbob-uskunalar bilan ishlay olish.

8. Texnologik qobiliyat – ko'rgazmali-obrazli xotira, mavhum-mantiqiy tafakkur va boshqalar.

Shunday qilib, texnologik ta'lim tizimida loyihalash metodining psixologik va pedagogik yutuqlari katta. Ishonch bilan aytish mumkinki, loyihalash metodi ta'lim oluvchilarning ijobiy ma'nodagi o'zligini namoyon qilishlarida; umumiy va xususiy qobiliyatlarini shakllantirishda; loyihani yaratish mobaynida obrazli xotira va mavhum-mantiqiy tafakkurlarini rivojlantirishda, xullas, ta'lim oluvchi shaxsining ijodiy faolligini yuksaltirishda, bir so'z bilan aytganda, ta'lim oluvchilarning o'z "men"ini shakllantirishda va namoyon qilishda psixologik nuqtayi nazardan katta yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. E. G. G'oziyev. *Psixologiya. Kasb-hunar kollejlari uchun darslik*. – T.: O'qituvchi 2008. 181-182-b, 230-231-b, 263-264-b.

2. Лебедева Г. А. *Технология обучения педагогическому проектированию. Педагогика: науч.-метод. журн.* – М.: 2002. №1.

3. Полат Е. С. *Новые педагогические технологии. Пособие для учителей.* – М., 1997.

Dildora ABDUMADJIDOVA,
Toshkent Moliya instituti katta o'qituvchisi

YOSHLARDA ASSERTIV XULQ-ATVORNI SHAKLLANTIRISH VA ULARNI DESTRUKTIV G'OYALARDAN SAQLASHNING IJTIMOYIY- PSIXOLOGIK JIHATLARI

Annotatsiya

Maqolada yoshlarda assertiv xulq-atvorni shakllantirish va ularni destruktiv g'oyalardan saqlashning ijtimoiy-psixologik jihatlari yoritilgan. Shuningdek, assertivlik va yoshlarning o'z erkinligi va haq-huquqlarini har qanday ta'sirlarga berilmasdan, boshqalarning haq-huquqini poymol qilmasdan himoya qila olish qobiliyati haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar. Assertivlik, ekspressivlik, agressiv xulq, qat'iyatli xulq, qat'iyatsiz xulq, tashabbus, salbiy his-tuyg'ular, ijtimoiy qo'rquv, ijtimoiy xabardorlik.

Ассертивность – способность человека уверенно и с достоинством отстаивать свои права, не попирая при этом прав других. Ассертивным называется прямое, открытое поведение, не имеющее целью причинить вред другим людям. Ассертивность означает уверенное поведение, умение эффективно постоять за себя в межличностных отношениях, защищая свои права и уважая права других.

Ключевые слова. Ассертивность, экспрессивность, агрессивное, уверенное, неуверенное поведение, инициатива, негативные эмоции, социальный страх, социальная компетентность.

Assertiveness is the ability of a person to defend his rights confidently and with dignity, while not disregarding the rights of others. Assertive is a direct, open behavior that does not aim to harm other people. Assertiveness means confident behavior, the ability to effectively stand up for themselves in interpersonal relationships, protecting their rights and respecting the rights of others.

Key words. Assertiveness, expressiveness, aggressive, confident, insecure behavior, initiative, negative emotions, social fear, social competence.

Inson tabiatiga ko'ra atrof-muhit bilan munosabatda bo'lishda tinch-totuvlik va o'zaro tushunish tamoyili asosida hayot tarzini ta'minlashga intiladi. Atrofdagilar bilan qadr-qiyamatini saqlagan holda muloqotga kirishish ham nazariy, ham amaliy jihatdan juda murakkab.

Hozirgi globallashuv jarayonida yoshlar ongini egallashga qaratilgan destruktiv guruhlar ta'siridan saqlash, ularning ongida mustahkam ma'naviyatni shakllantirish, milliy va ma'naviy qadriyatlarimizga tayangan holda mafkuraviy immunitet, inson xavfsizligini ta'minlashda antimanipulyativ, assertiv xulq-atvorni tarkib toptirish dolzarb muammolar-dan biridir. Bu muammolarni hal etish kelajakda fuqarolar, jamiyat hamda davlatimizning xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan asosiy vazifalar hisoblanadi.

Yoshlarning destruktiv g'oyalar va guruhlar ta'siriga tushish ehtimoli ularning mikro va makro muhitga nisbatan ijtimoiy-psixologik jihatdan moslasha olmasliklari natijasida yuzaga kelishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, ta'lim va tarbiya jarayonida yoshlarimizga nafaqat bilim, ko'nikma va malakalarni takomillashtirishga, balki ularda assertiv xulq-atvorni va assertivlik xususiyatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish lozim.

Psixologiya fanida bugunga qadar assertivlik tushunchasiga oid tizimli ma'no kasb etadigan turg'un qaror topgan tasavvurlar mavjud emasligini hisobga olsak, assertivlik shaxsga oid bo'lgan falsafiy va psixologik konsepsiyalarning takomillashuvi uchun xizmat qila olishi mumkin. Assertivlik ifodalangan insonlarda o'z hayotining har bir lahzasida nima bilan shug'ullanishi va qaysi yo'nalishda rivojlanishi lozimligini o'zi hal eta olishi kuzatiladi. Inson o'zini o'zi yaratadi va u "o'zidan nimani yarata olgan bo'lsa, shunga ay lanadi"¹, buni insondagi bunyodkorlik kuchi deb ko'rsatsak xato qilmagan bo'lamiz.

Assertivlik subyektning asosiy xususiyati sifatida inson faolligining integral tasnifi bo'lib, maqsadga intiluvchan, mustaqil, erkin, tashabbuskor, matonatli, tirishqoq, talabchan, qat'iyatli, "yengib o'tuvchi", dadil shaxs toifasi bilan bog'liqdir. Assertiv inson no-aniiq vaziyatlarda qaror qabul qilishga tayyor ekanligi, o'z sa'y-harakatlarida mas'uliyatni zimmasiga olishi, muammoning yechimiga konstruktiv yondashuvi bilan farqlanadi. Assertivlik bu o'z "Men"i chegarasidan chiqqa olish, noqulay qaror topayotgan vaziyatlardan pozitiv tomonlarini topish, mavjud shart-sharoitlarga yaxshi ijtimoiy va shaxsiy moslashish malakasida namoyon bo'ladi. Agar inson ongli, ratsional, fikrlovchi, bilimli, chuqur o'ylovchi kabi faoliyatning turli sohalariga oid ma'lumotlarga ega bo'lsa, u holda assertivlik muvaffaqiyatli faoliyatga asos bo'lib xizmat qila oladi.

A.Lazarus assertiv xulq tushunchasini birlashtiruvchi asosiy sinflarning mavjudligini ta'kidlab, ushbu fenomenni tushinishda ko'rsatma, hayotiy falsafa va baholash kabi kognitiv jihatlarni kiritdi². Assertiv xulq mazmunii jihatdan, bu "yo'q" deya olish va hissiyot va ehtiyojlar haqida ochiq-oydin gapira olish qobiliyati, aloqalarni o'rnatish, shuningdek, suhbatning ibtidosi va intihosini amalga oshirish hamda pozitiv va negativ hissiyotlarni aniiq ifodalash kabi qobiliyat hisoblanadi. Formal kontekstda ushbu xulq o'z ichiga mimika, tana a'zolarining harakatlarini, "Men" tushunchasidan foydalanishni (muloqot davomida kam yoki juda ko'p qo'llanilishi mumkin), qarash, nigohlar to'qnashuvini, qaddi-qomat va ovoz ohangini qamrab oladi.

Agarda, jamiyat hayotining psixologik sohasida turli ko'rinishlarda namoyon bo'lib kelayotgan tahdidlarni, jumladan "...fuqarolarning ma'navii hayotiga zid bo'lgan axborot tahdidlari, axborotni manipulyatsiyalash (yolg'on axborot, ma'lumotni yashirish va o'zgartirish), aholini millii urf-odatlar, qadriyatlar, axloqii me'yorlar, etnik-madaniy va millii tarixii ildizlaridan ajratishga qaratilgan"³ destruktiv mazmundagi harakatlarni inobatga olsak, assertiv xulq inson hayot falsafasining muhim tamoyillari asosida ifodalanadi. Ayrim insonlarda hayotii tajriba bo'lmaganligi sababli, assertivlik yetarli tarzda ifodalanmaganligi kuzatiladi. Bu turdagi xulq oiladagi tarbiya va ota-onalar bilan o'zaro munosabatlarning o'ziga xosligiga qanchalik kuchli bog'liq bo'lishiga qaramay, u tengdoshlari bilan bo'lgan muloqotda yuzaga chiqadi. Assertiv bo'lish tashabbuskor va o'zini boshqara oladi, degan ma'noni bildiradi. "Assertivlik o'zini hurmat qilish va o'zining ahamiyatlilikiga asoslangan shaxsii samaradorlikka ishonishda o'z aksini topadi"⁴.

¹ Психология с человеческим лицом: гуманистическая перспектива в постсоветской психологии / Под редакций Д.А. Леонтьева, В.Г. Щур. – М.: Смысл, 1997. – С. 78.

² Шевцова И. Ассертивное поведение как "стиль воспитания" 2005. – С.35

³ Samarov R. Xavfsizlikning metodologik asoslari. – T.: Akademiya, 2010. 229-230-b

⁴ Бандура А. Теория социального научения. – СПб: Евразия, 2000. – С.51

Keltirilgan tasniflardan ma'lumki, assertivlik subyektning xususiyatlaridan biri hisoblanib, uning shakllanishida fiziologik, ijtimoiy, psixologik, iqtisodiy, ekologik, siyosiy, madaniy kabi omillar ta'sir ko'rsatadi va u quyidagi holatlarda namoyon bo'ladi:

- shaxsiy ahamiyati mavjudligi, faoliyatning natijalariga mas'ul ekanligini anglashda;
- murakkab vaziyatlarda axloqiylikka rioya qila olish ko'nikmasida;
- refleksiyada, o'zini mukammallashtirish, o'zini namoyon etish qobiliyatida;
- shaxsiy qadriyatli mazmunli ko'rsatmalarning shakllanganligida.

Assertivlikning mohiyati va tuzilishining nazariy tahlili quyidagicha:

- assertivlik shaxsning subyektiv sifati hisoblanadi;
- assertivlikning rivojlanishida ijtimoiy omillarning roli muhim;
- assertivlik murakkab hayotiy vaziyatlarda insonning o'ziga ishonch va boshqalarga nisbatan pozitiv munosabatda bo'lishini ta'minlaydi.

S.Rubinshteyn subyektning asosiy belgisi sifatida o'z-o'zini rivojlantirish, anglash, mukammallashtirish, ya'ni rivojlanishining oliy darajasiga o'z ideali darajasiga yetishini ko'rsatib o'tadi. Shuningdek, u "insonning boshlang'ich o'ziga xosligi uning inson sifatida mavjudligini bildiradi. Turmushning umumiy determinatsiyasida nafaqat ongning o'zi va uning subyekt, balki dunyoni anglab oluvchi mavjudotlar ham sa'y-harakatlarning subyekt sifatidir"⁵ deb yozgan.

Assertivlik bu o'z haq-huquqlarini dadil himoya qilib, o'z sha'nini, qadrini saqlab, boshqalarning haq-huquqini poymol qilmasdan, o'zini turli mazmundagi ta'sirlardan himoyalash qobiliyatidir. Ijtimoiy-psixologik jihatdan ijtimoiy munosabatlar doirasida boshqalarning shaxsiyati, hayot tarzi, qadriyatlariga ziyon yetkazmaslik mazmuniga ega bo'lgan ochiq xulq tarzi assertiv deb ataladi. Assertivlik tushunchasi psixologiya fanida yangi tushuncha hisoblanib, u asosan insonning shaxsiy xususiyatlarini tasniflashda qo'llaniladi.

Tadqiqotlarga qaraganda, psixologik yordam olish uchun murojaat etganlarning 57,4 foizida assertivlik mavjud bo'lmaganligi sababli oilada va kasbiy jamoalarida o'z "Men"ini shaxs va xodim sifatida namoyon eta olmaganliklarini kuzatish mumkin.

Xavfsizlikni ta'minlash yo'lida amalga oshirilayotgan dasturiy tadbirlar psixologiya fanining rivojlanishi bilan o'z samarasini bermoqda. Bu esa, o'z navbatida, fan va texnika yutuqlarini xavfsizlikni ta'minlashda muvaffaqiyatli qo'llashni talab etadi va boshqa fanlarning oldiga qo'yilayotgan muammolar qatorida, psixologiya fanining oldiga ham bir qator yechimini kutayotgan masalalarni qo'yadi. Psixologiya fani mustaqil tarmog'i sifatida xavfsizlik psixologiyasining obyekti hamda predmetini belgilab olish uchun imkoniyat yaratildi.⁶

Insonning manipulyatsiya etilishi, psixologik qaramlik, ongning nazorat qilinishi profilaktikasida asosiy e'tibor tanqidiy tafakkur va refleksiyani rivojlantirish, eng muhimi, assertiv xulq-atvor ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilishi lozim.

Tanqidiy fikrlash barcha narsa, voqea-hodisa yoki shaxslarni tanqid qilaverishni bildirmaydi. Tanqidiy tafakkur – shaxsning narsalarni tahlil qilishga, to'g'ri baholashga, narsalarga ko'r-ko'rona ishonavermaslikka, o'z xatti-harakatiga adekvat baho berishga, xatolarni anglash va ularni to'g'rilashga, atrofdagilarning taklif va mulohazalarini tanqidiy qabul qilishga bo'lgan intilishi tushuniladi.

Refleksiya ma'nosida shaxs, uning faoliyati va xulqi, ichki dunyosi, psixik xususiyatlari va holatini anglashga bo'lgan intilishi, o'zini boshqa inson o'rniga qo'yib ko'rishi, hayolan vaziyatni uning foydasiga hal qilib ko'rishi singari jihatlarini nazarda tutiladi. Chunki

⁵ Рубинштейн Л.С. Бытие и сознание. Человек и мир. – СПб: Питер, 2003. – С.78

⁶ Samarov R. Siyosiy psixologiya. O'quv qo'llanma. – T.: Universitet, 2008. 35-b.

holatni tahlil qilib ko'rish o'zi va o'zgalarning manfaatlarini tushunish, insonga konstruktiv harakat qilish, bir so'z bilan aytganda, assertiv bo'lish imkonini beradi.

Assertivlik – shaxs sifati, xarakter xususiyati bo'lib, insonning o'zini o'zi namoyon qilishida ko'zga tashlanadi. Bunday shaxs boshqalarning talablarini qo'rquv, hadiksirash, ishonchsizlik, zo'riqish kabi holatlarni his etmagan holda qabul qiladi. Assertiv xulq-atvorli shaxs o'zgalarning manfaatlariga zarar yetkazmaydi, ularning huquqlarini va shu bilan birga o'z manfaatlarini ham hurmat qiladi. Assertiv shaxsda insonlarga nisbatan ijobiy munosabat va o'zini o'zi baholashning adekvat, xolisona darajasi yuzaga keladi.

Assertivlik inson shaxsiy xususiyatlarining uyg'un birlashishi bo'lib, unda insonning aniq bir vaziyatda axloqiy jihatdan ma'qullangan tabiati, muloqot, ko'nikma va malakalari haqidagi bilimlari pozitiv yo'nalgan dunyoqarash pozitsiyasidan aniq bir sa'y-harakatlar ko'rinishida ifodalanadi. Assertiv xulqning shakllanishida shaxsiy xususiyat qatori vaziyat omili ham muhim o'rinni egallab, funksional tarzda uning quyidagi tamoyillari mavjudligini ko'rsatib o'tish mumkin:

– *shaxsiy xulqi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olish.* Mohiyatiga ko'ra assertivlik – shaxsiy mas'uliyat falsafasi hisoblanib, har bir inson o'z shaxsiy xulqi uchun o'zi mas'ul bo'ladi va bunda atrofdagilarning xulqi ta'sirida bironi ayblash axloqiy jihatdan nomaqbul hisoblanadi. Bu nafaqat shaxsiy, balki jamoaviy darajadagi barqarorlikni ta'minlash uchun muhimdir. Chunki shaxsiy hayotda yuzaga keladigan turli noxushliklar uchun bironi ayblash holatlari kuzatilmaydi;

– *o'ziga va boshqalarga nisbatan hurmatni namoyish qilish.* Bu tamoyil assertivlikning asosiy tarkibiy qismi hisoblanib, bu o'z-o'zini va boshqalarni hurmat qilishning mavjudligida namoyon bo'ladi. Inson o'zini hurmat qilsa, qadrlasa, boshqalarni ham hurmat qilib, qadrlaydi, bu esa shaxsiy hayot mazmundorligini ta'minlashga xizmat qiladi;

– *samarali muloqot.* Ushbu tamoyilga amal qilishda ikki muhim sifat, ya'ni suhbatda rostgo'ylik, suhbatdosh bilan samimiy bo'lish muhim hisoblanadi. Ammo bu "ijtimoiy munosabatdagi ikkilik" suhbatdoshning hissiy holatidan yuzaga kelmasligi lozim. Bu o'z navbatida, suhbatdosh bilan biror-bir masala yuzasidan muloqotga kirishganda uni ranjitmasdan, shaxsiy munosabatni beozor bildira olish ko'nikmasi bilan bog'liqdir;

– *dadillik va pozitiv ustanovkani namoyon etish.* Ya'ni o'ziga ishonch va dadillikni ifoda etish ikkita ko'rsatkich bilan bog'liq. Birinchidan, o'z-o'zini hurmat qilish bo'lsa, ikkinchidan, sohasi yaxshi egallagan professionallik darajasiga yetganlikni anglashda ifodalanadi;

– *diqqat bilan tinglash va tushunish.* Assertivlik mazmunan boshqa odamni diqqat bilan tinglash va uning nuqtayi nazarini tushunishga harakat qilish ko'nikmasiga ega bo'lishni taqozo etadi. Ijtimoiy hayot davomida har bir inson o'zini yaxshi tinglovchi deb hisoblashi mumkin, biroq boshqa odamni tinglash jarayonida turli taxminiy dalil va isbotlarni topishga o'tib, o'z nuqtayi nazarini tez bayon etish maqsadida boshqalarning so'zini bo'lish holatlarini kuzatish mumkin. Bu holatda axloqiy-psixologik jihat mavjud bo'lib, subyekt suhbatdoshining bildirgan fikrlariga shaxsiy nuqtayi nazar bildirish uchun uning fikrini oxirigacha tinglashi lozim.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, shunday xulosaga kelish mumkinki, assertiv xulq-atvor va assertivlik xususiyati tushunchalarini qiyosiy tahlilini amalga oshirish, uning asosiy g'oyalarini belgilash, yoshlarda assertiv xulq dinamikasining mavjud holatini, ularda assertiv xulqni shakllantirish jarayonida ta'sir ko'rsatadigan omillarni aniqlash hamda uning rivojlanish qonuniyatlarini va mexanizmlarini ishlab chiqish ijtimoiy psixologiyaning asosiy vazifalardan biridir. Xususan, ijtimoiy munosabatlar tizimida assertivlikning ifodalanmaganligi, subyektning maqsadga erishishiga to'sqinlik qilib, o'z-o'zini

baholash darajasini pasaytirishga olib keladi.

Agarda assertivlik mujassamlashgan bo'lsa, "inson o'z xatti-harakatlarining chegarasi, me'yorini bilib, unga rioya etsa, o'zgalarning huquqini hurmat qilib, odob doirasida uni joyiga qo'ya oladi". Shu sababli, assertiv xulqni shakllantirish ilmiy-amaliy masala sifatida namoyon bo'lib, uning tasnifi sifatida:

- assertiv xulq sohiblari ifodalanayotgan fikr va hissiyotlar ularga tegishli ekanligini ta'kidlashadi;

- e'tiroz bildirolmaydi, tazyiq, qo'rqitish, baho berish yoki fikr bildirishlardan foydalanishmaydi;

- predmetlarni tasvirlashda sharhlovchi tushunchalardan ko'p foydalanadiki, buning natijasida predmetga oid o'rinli savollar paydo bo'ladi;

- nigohlarini yashirmasdan, yerga qaramasdan, bukchaymasdan va ishonch yoki qat'iyat bilan suhbatdoshning ko'ziga to'g'ri qaray oladi;

- qat'iyat bilan, biroq tovushning me'yoriy balandligi va pastligiga rioya etgan holda gapirishadi;

- uzundan uzoq to'xtamlar va ishonchsizlikning boshqa belgilaridan foydalanmasliklari kabi ijtimoiy-psixologik xususiyatlarni ko'rsatib o'tish mumkin.

Yoshlarning psixologik salomatligini ta'minlash, ularda maqsadga muvofiq assertiv xulq-atvor ko'nikmalarini shakllantirish, turli destruktiv g'oyalar ta'siridan himoyalashga qaratilgan ishlarni izchil va tizimli olib borish, oila va ta'lim muassasalari hamkorligini kuchaytirish jamiyatimizning dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Shu bilan birga, ta'lim va tarbiya jarayonida, yoshlar bilan olib borilayotgan tadbirlarda tanqidiy tafakkur, refleksiya va assertivlikni rivojlantirishga e'tibor qaratilishi, psixologik manipulyatsiya va uning bartaraf etish usullarini batafsil o'rganib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Assertivlik psixologiya fanining umumiy psixologiya, ijtimoiy psixologiya va pedagogik psixologiya kabi mustaqil sohalarining tadqiqot predmeti sifatida o'rganilsa, uning tizimli psixologik tasnifi yaratiladi. Bu esa, yoshlarimizga ta'lim-tarbiya berish jarayonida ilmiy-psixologik tadqiqotlarning natijalaridan foydalanish imkonini yaratib, barkamol shaxslarni tarbiyalashda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Психология с человеческим лицом: гуманистическая перспектива в постсоветской психологии* / Под редакцией Д.А. Леонтьева, В.Г. Щур. – М.: Смысл, 1997. – С. 78.

2. *Шевцова И. Ассертивное поведение как "стиль воспитания".* 2005. – С.35

3. *Samarov R. Xavfsizlikning metodologik asoslari.* – T.: Akademiya, 2010. 229-230-b.

4. *Бандура А. Теория социального научения.* – СПб: Евразия, 2000. – С.51.

5. *Рубинштейн Л.С. Бытие и сознание. Человек и мир.* – СПб: Питер, 2003. – С.78.

6. *Социально-психологический словарь // Сост. В. М. Галицкий, О. В. Мельник, В. В. Синявский* – К., 2004. – С.110.

7. *Samarov R. Xavfsizlikning metodologik asoslari. Monografiya.* – T.: Akademiya, 2010. 44-b.

Barno DJURAYEVA,
Xadicha UMAROVA,

T.N. Qori Niyoziy nomli O'zPFITI ilmiy xodimlari, p.f.n

MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA JAHON AMALIYOTI: ZAMONAVIY TA'LIM DASTURLARI VA METODLARI

Annotatsiya

Maqolada xorijiy davlatlarning maktabgacha ta'lim tizimi tajribasi, zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalari tahlil qilingan. Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Xitoy, Yaponiya kabi ko'plab mamlakatlarning maktabgacha ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari va yo'nalishlari ko'rsatilib, uning asosiy turlari va dasturlari tavsifi keltirilgan.

Kalit so'zlar. Xorijda maktabgacha ta'lim, tarbiya, o'qish, maktabgacha ta'lim muassasasi, tajriba, amaliyot, texnologiya.

В статье проанализированы опыт дошкольного образования зарубежных стран, современные образовательные программы и технологии. Указаны основные особенности и направления дошкольного образования в Великобритании, Германии, Франции, Китае, Японии, охарактеризованы основные типы программ дошкольных учреждений.

Ключевые слова. Дошкольное образование за рубежом, воспитание, учеба, дошкольное образовательное учреждение, опыт, практика, технология.

Article analyzes the experience of preschool education of foreign countries, modern educational programs and technologies. Characterized the main features and directions of preschool education in Great Britain, Germany, France, China, Japan and also indicated the basic types of programs of preschool institutions.

Key words. Preschool education abroad, upbringing, education, pre-school educational institution, experience, practice, technology.

Dunyoning ko'pgina davlatlarida maktabgacha ta'lim yagona ta'lim-tarbiya tizimining dastlabki bo'g'ini hisoblanadi. Har bir mamlakatning maktabgacha ta'lim tizimi milliy o'ziga xos yo'nalishi va ilg'or tajribalariga egadir. Shu jihatdan xorijiy davlatlarda maktabgacha ta'lim tizimi tajribalari o'rganildi va tahlil qilindi.

Jumladan, **Buyuk Britaniyada** uzoq vaqt davomida kam ta'minlangan oilalar farzandlari uchun davlat nazoratidagi muassasalar faoliyat yuritgan. Hozirgi vaqtda ular zamonaviy maktabgacha ta'lim muassasalari sifatida bolalar tarbiyasiga differensiallashgan yondashuvni ta'minlamoqda.

Mamlakatda barcha bolalarni 5 yoshdan qabul qilinadigan maktab ta'limiga tayyorlash uchun maktabgacha muassasalar yetarli emas. Ularning asosiy turlari davlat va xususiy yaslilar, yasli maktablar, yasli sinflar, o'yin klublari, ona va bola klublari, "imkoniyatlar" guruhlarini hisoblanadi. Ular uch guruhga bo'linadi:

– bolalar parvarishini ta'minlaydigan kunduzgi yaslilar;

– bolalarni aqliy rivojlantirish, maktabga tayyorlash muassasalari sifatidagi yasli sinflar va maktablar;

– o'yin guruhleri, ona va bola klublari, “imkoniyatlar” guruhleri.

Xususiy kunduzgi yasli larni turli jismoniy shaxslar, tashkilotlar, xayriya jamiyatlari, diniy tashkilotlar va shu kabilar tashkil etadi. Bular fabrika, kompaniya, korporatsiya, banklar tomonidan o'z ishchilarining farzandlari uchun ochilgan yasli lar; tijorat, kooperativ yasli lar; ilmiy-tadqiqot markazlari qoshidagi psixologik-pedagogik sohadagi yasli lar hisoblanadi. Ularning maqsadi kichik yoshdagi farzandi bo'lgan onalar uchun kuniga bir necha soat bo'sh vaqtni ta'minlashdan iborat.

Mamlakatda ko'pgina xususiy tarbiyachilar bo'lib, ular ota-onalarning ixtiyoriga ko'ra ish kuni davomida tug'ilganidan 5 yoshgacha bo'lgan bolalar bilan ishlaydi.

Ayniqsa, 3-5 yoshdagi bolalar uchun bepul mintaqaviy yasli maktablari va sinflari keng ommalashgan. Yasli markazlari o'ziga xos tarzda birlashgan kunduzgi va yasli maktablari bo'lib, ular o'z afzalliklariga egadir, ammo ularning soni oz. Boshlang'ich maktablarda ko'pincha yasli markazlari tashkil etilib, ular bolalarning aqliy, jismoniy, ma'naviy, estetik rivojlanishlari, ularning individualliklarini shakllantirish bilan shug'ullanadi. Mazkur yasli markazlarni ota-onalar tashkil qilishadi.

O'yinli guruhlar maktabgacha muassasalarning eng keng tarqalgan turi hisoblanadi, ular maktabgacha o'yinlar guruhi Assotsiatsiyasida birlashadi. Ular qisman davlat byudjetidan, xayriya hissasi hamda ko'proq bolalarning ota-onalari tomonidan moliyalashtiriladi. Ularda 2-3 yosh oralig'idagi bolalarning 70 foizigacha miqdori tarbiyalanadi. O'yinli guruhlar rahbarlari maxsus psixologik-pedagogik tayyorgarlikka ega bo'lishlari shart (ko'pincha bular guruh tarbiyalanuvchilarining onalari bo'ladi).

Shifoxona o'yinli guruhleri davolanishda bo'lgan bolalarning tarbiyalanishlari uchun mo'ljallangan. “Imkoniyat guruhleri” rivojlanishida alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalarni tarbiyalash maqsadida tashkil etilgan. Mazkur guruhlar o'yinli guruhlar kabi faoliyat yuritadi, ammo guruhlardagi bolalar soni ozchilikni tashkil etadi. Mashg'ulotlarda maxsus o'yinli va o'quv materiallaridan foydalaniladi.

Maktabgacha ta'lim muassasalari va dasturlarning xilma-xilligi Buyuk Britaniyaning maktabgacha tarbiya konsepsiyasining o'ziga xosligini aks ettiradi: bola atrof-muhitni idrok etadigan faol subyekt hisoblanadi. Shu sababli tarbiyaning maqsadi bolaning individualligini tarbiyalash, turli faoliyat turlarini egallashda uning mustaqilligini ta'minlash hisoblanadi. Bolalarning ta'lim-tarbiyasi, dasturlari bola shaxsini yaxlit tasavvur qila olishga yo'naltirilgan bo'lib, ta'lim olishga motivli omillardan foydalanish, tashabbuskorlikni rivojlantirishga yo'naltiriladi.

Xitoyda asosan, kunduzgi vaqtga mo'ljallangan guruhlarda 25-26 nafar bolalar tarbiyalanadi, maktabgacha muassasalarning 5 foiz guruhleri – sutkalik bo'lib, ulardan ota-onalar bolalarni chorshanba va shanba kunlari uylariga olib ketadi. Tarbiyachilar va ularning yordamchilari turli yoshda bo'lishi, bolalarning xulqlarini aniq tashkillashtirishni bilishi, ularning ko'p vaqtga bo'sh qolishlariga yo'l qo'ymasligi, tartib-intizomga odatlantirish, jazolashni qo'llamaslik va jamoa hayotiga bo'lgan ko'nikmalarni hosil qilish, mehnatsevarlik, qat'iyatlilik, ota-onalar, tarbiyachilar va Vatan oldidagi mas'uliyatni tarbiyalashlari lozim. Vatanparvarlik hissini tarbiyalash o'quv-tarbiya jarayonining asosi hisoblanadi. Musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Germaniyada esa, maktabgacha tarbiya odatda ota-onalar bolalar ta'minotining 50 foizini to'laydi, boshqa xarajatlarni maktabgacha ta'lim muassasasining egasi qoplaydi.

Germaniyada maktabgacha ta'lim muassasalarining quyidagi turlari mavjud: 3-6 yoshli bolalarga mo'ljallangan to'liq kunlik va yarim kunlik MTMLar; bir guruhli maktabgacha muassasalar (ko'proq katta maktabgacha yoshdagi bolalar uchun); maktablar qoshidagi guruhlar (besh yoshdagi bolalar uchun); besh yoshdagi bolalarning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi umumta'lim maktablarining tayyorlov sinflari; 3-6 yoshdagi sog'lom bolalar uchun sutkalik internatlar; salomatligi va rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalar uchun internatlar; onalar markazlari. Unda onalar o'z farzandlari bilan birgalikda qiziqarli va foydali faoliyat bilan shug'ullanadi, pedagogika va psixologiya sohasidagi mutaxassislar bilan muloqot qilishadi.

Bolalar tarbiyasining asosiy konseptual tamoyillari ochiq va bepul MTMLarda amalga oshiriladi.

Bepul MTMLarning keng tarqalgan turi – "Shteyner" va "Montessori" MTMLari hisoblanadi. Ochiq MTMLar maktabgacha ta'limning vaziyatga yo'naltirilgan konsepsiyasi asosida tashkil etilgan, unga quyidagilar xos: bolalar ishtirokida ochiq rejalashtirish; haqiqiy hayotiy aloqalar asosidagi ta'lim; o'yin va ta'limning yaxlitligi; hayot va faoliyatning yosh davrlariga mos ravishda tashkil etilishi; jamoatchilik bilan aloqalar; ota-onalar va maktabgacha ta'lim muassasasining hamkorligi. Tarbiyachi tizimli va davomli kuzatuv, pedagogik faoliyat natijalarini tahlil qilish, prognozlash qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

Amerika Qo'shma Shtatlarida maktabgacha tarbiya tizimining rivojlanishiga "Xad Start" dasturining amalga oshirilishi ta'sir ko'rsatgan, unda maktabgacha ta'lim muassasalarni yaratish uchun mablag' ajratilishini ko'paytirish ko'zda tutilgan (avvalo, kam ta'minlangan oila farzandlari uchun). Hozirgi vaqtda maktabgacha ta'lim muassasalariga qatnash maktabga tayyorlov uchun odatiy hisoblanadi. Oilalarning ehtiyojlari turli-tuman maktabgacha ta'lim muassasalari tiplarining shakllanishiga sabab bo'ladi: maktablar qoshidagi 4-5 yoshli bolalar guruhlari. Mazkur davlat MTMLari tongda 2-3 soat ishlaydi va avvalo bolaning aqliy rivojlanishi to'g'risida qayg'urishadi; kichik yosh davridagi bolalar uchun maktab-yaslilar 3 yoshdan. Ulardan ayrimlari rivojlantiruvchi dasturlar asosida ilmiy markazlari va pedagogik kollejlarda faoliyat yuritadi; xususiy markazlar, asosan, korxona va tashkilotlar qoshida ishchi va xizmatchilarning farzandlari uchun kun davomida ishlaydi.

AQShning har bir shtati o'z ta'lim standartlariga ega, har bir muassasa esa o'z dasturi asosida ishlaydi. Odatiy guruhlar tarkibida rivojlanishida nuqsoni bo'lgan 1-2 nafar maktabgacha yoshdagi bolalar ham shug'ullanadi. Ular bilan individual dastur asosida maxsus pedagog va tarbiyachi ishlaydi, ularning vakolatlari butun guruhga tegishli bo'ladi.

Sog'lom bolalar bilan birgalikdagi faoliyati ularning ko'nikma va malakalarini rivojlanishiga ko'maklashishdan iborat. Odatda, bu rivojlanishdan ortda qoluvchi bolalar uchun ham, sog'lom bolalar uchun ham birdek ijobiy natijalarni ta'minlaydi. Bolalar integratsiyalangan jamiyatda yashashga o'rganadi, bolalikdan ijtimoiy-kommunikativ tajribaga ega bo'ladi, o'zida mehr-shafqat va insonparvarlikni tarbiyalaydi. AQShning maktabgacha tarbiya konsepsiyasi bolaning tajriba orttirishi orqali uning shaxsi rivojlanishini ko'zda tutadi.

Bolalar ijodi va iqtidorini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi. San'atga jalb qilish jarayonida bolalarda muloqot qilish qobiliyati rivojlanadi. Guruh xonasi odatda xilma-xil faoliyat turlarini tashkil etish uchun ajratiladi (burchaklar): sotsiodrama (syujetli-rolli o'yinlar), qo'g'irchoq teatri, san'at, pazandachilik markazlari, ilmiy-matematik

markaz, qurilish va loyihalash burchagi va boshqalar. Bu bolalarning o'z ixtiyorlariga ko'ra mustaqil ishlashlari uchun sharoit yaratadi.

Maktabgacha tarbiya tizimi bolani erkin, mustaqil shaxs bo'lishiga o'rgatadi. Shu bilan birga, bunda qobiliyatlar tengligi emas, balki imkoniyatlar tengligi nazarda tutiladi, bu esa ta'lim va tarbiya jarayonida har bir bolaga nisbatan erkinlik va tartib, talabchanlik va e'tiborlilik uchun sharoit yaratilishini talab etadi.

Finlandiyada maktabgacha muassasalarning quyidagi turlari mavjud:

- xalq MTMlari. Ular uzoq yillar avval yaratilgan va ota-onalari ish bilan band oilalar farzandlarining tarbiyasida ko'maklashish maqsadida tashkil etilgan. Oilada bolalarni kunduzgi vaqtlarda parvarishlash uchun ochiq MTMlar, ko'chma MTMlar (mavsumiy singari), jismoniy va ruhiy rivojlanishida alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalar uchun maktabgacha ta'lim muassasalar keng tarqalgan;

- oilaviy MTMlar, ularning vazifasi bolalarning oilaviy parvarishini ta'minlashdan iborat. Tarbiyachilar maxsus tayyorgarlikka ega bo'lishlari lozim;

- ochiq MTMlar, ular o'yin maydonchalari tipida ishlaydilar, u yerga ota-onalar farzandlarini sayr qildirish, tengdoshlari bilan birgalikda o'ynashlari uchun olib keladilar;

- maktabgacha muassasalar, ularning ishi katta oila tamoyili asosida tashkil etiladi.

Finlandiyada maktabgacha tarbiya tizimi oila bilan yaqin aloqada amalga oshiriladi. 3 yoshgacha bo'lgan bolalarning har 3 nafardan biri va maktabgacha yoshdagi bolalarning (maktabdan 1 yil avval) deyarli barchasi maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanadi. Ota-onalar maktabgacha muassasa ishida bevosita ishtirok etish bo'yicha keng imkoniyatlarga ega. Pedagogik xodimlarning ish tartibi kunduzi bolalar bilan barcha tarbiyachi va enagalar ishlashi asosida tashkil qilingan. Harbiy ruhdagi o'yinchoqlar sotilishi ta'qiqlangan. Tarbiyaviy ishlarda bayramlarning o'tkazilishiga katta ahamiyat beriladi, jumladan: BMT kuni, Finlandiyaning Mustaqillik kuni, Otalar kuni, Onalar kuni, Yangi yil bayrami, "Kalevali" kuni (karelsk – fin milliy eposi). Tarbiyachilik faoliyatiga maxsus oliy ma'lumotli shaxslarga ruxsat etiladi.

Fransiya davlatida maktabgacha tarbiya tizimiga jalb etilgan bolalar soni bo'yicha dunyodagi yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Mamlakatning maktabgacha pedagogika sohasi mahalliy va xorijiy pedagoglarning eng yaxshi nazariyalarini qamrab olgan. 2 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan bolalar tarbiyalanadigan maktabgacha muassasalarning asosiy tiplari – onalar maktablari, boshlang'ich maktablar qoshidagi go'daklar uchun sinflar, MTMlar hisoblanadi. Onalar maktabidagi asosiy mashg'ulotlar shakli o'yin hisoblanadi. Barcha ta'lim muassasalari uchun majburiy hisoblangan yagona davlat ta'lim dasturi amal qiladi. Onalar maktabi va boshlang'ich maktablarda bolalarga bir pedagog ta'lim beradi. U maktabgacha tarbiya va maktab ta'limi o'rtasidagi yaqin aloqadorlikni ta'minlaydi. Shu sababli onalar maktablarida va maktablar qoshidagi kichik bolalar uchun sinflardagi 5-6 yoshdagi barcha bolalar va kichik bolalarning 75 foizi maktabgacha ta'lim muassasalariga jalb etilgan.¹

Maktabgacha tarbiyaning umumiy maqsadi zamonaviy jamiyatda yashash uchun zarur bo'lgan malakalarni shakllantirishda muhim hisoblangan jismoniy, ijtimoiy, xulq-atvor va aqliy ko'nikmalarni rivojlantirish hisoblanadi. Nafaqat bilim orttirish, balki bolalar tashabbuskorligini rivojlantirish, ijtimoiy kompetensiyani tarbiyalashga katta ahamiyat beriladi.

¹ Сорокова М.Г. Современное дошкольное образование: США, Германия, Япония. – М., 1998.

Maktabgacha ta'lim muassasalarining faoliyati bolani jamoatchilik hayotiga jalb etish, turli faoliyat turlarini rivojlantirish, bilim olishga intilish, boshqa bolalar bilan munosabatlar o'rnatishga yo'naltirilgan.

Maktabgacha yoshdagi bolalar tegishli ko'nikma, malakalarni egallashlari, aqliy va nutq rivojlanishining muayyan darajasiga erishishlari, rasm chizish va tasviriy san'atning boshqa turlarini egallashlari lozim. Tarbiyachining rolini rivojlantiruvchi muhitni yaratish, bolalar xulqi va psixologiyasini o'rganish, ularning bo'sh vaqtlarini tashkil etishdan iborat. Kichik yoshdagi bolalar tarbiyasining maqsadi o'yinli faoliyatni, sezgi organlarini, motorikani rivojlantirish hisoblanadi. 4-5 yoshdagi bolalar bilan ishlashda sensor tarbiya murakkablashtiriladi, buning uchun turli xildagi qo'l mehnatidan foydalaniladi (gazlamaga, shishaga rasm chizish, sahna uchun bezaklar tayyorlash va boshqalar). Mashg'ulotlar jadvalida ko'p vaqt jismoniy tarbiya, musiqaga ajratiladi. 5 yoshdan katta bolalar ular uchun majburiy bo'lgan o'qish, yozish, grafika, matematika bo'yicha mashg'ulotlarda maktab ta'limiga tayyorlanadi, ammo ularni o'tkazish tartibi bolaning erkin tanlovi asosida belgilanadi.

Yaponiyada maktabgacha ta'limga katta e'tibor beriladi, chunki psixologlarning ta'kidlashicha, inson 7 yoshgacha bilimning 70 foizini, qolgan 30 foizini qolgan umri davomida o'zlashtirar ekan. Maktabgacha tarbiya odatda oiladan boshlanadi. Yapon ayollari uchun onalik har doimgidek birinchi o'rinda turadi. Yapon tarbiyachilarini bolalarni kichik guruhlariga bo'lib o'qitishlari maktabgacha tarbiyaning asosiy xususiyatlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Bu guruhlar o'zlarining stollariga, bolalarning o'zi tanlagan shaxsiy nomlariga (bu bolalarda qarorlar qabul qilishda, o'zgalar fikrini hurmat qilish, guruh a'zolarining barchasini tashabbuskor bo'lishga o'rgatadi) ega bo'ladi. Bunday usul kichik maktablarda ham, o'rta maktablarda ham davom etadi. Bu guruhlar o'rtacha har 5 oyda shakllanib turadi. Yapon bolalariga sinfni boshqarish juda yoqadi. Shuning uchun har kuni bolalarning o'zlari boshqaruvchi tanlashadi. Har bir bola bu vazifani bajarib ko'radi.

Tarbiya tizimi bolalar qiziqishi va layoqatlarni barvaqt aniqlash va qobiliyatlarni tabiiy rivojlantirishga yo'naltirilgan. MTMLardagi guruhlarda bolalar soni 40 nafarni tashkil etadi. Tarbiya muhiti ehtiyotkorona, did bilan tashkil etilgan. Bolalar xonada qulaylik va go'zallik yaratishda ishtirok etadi: ular gullarni o'stiradi, loyihalashtiradi, panno va gobelenlar tayyorlaydi va shu kabilar. Bolalarning tasviriy faoliyatda ishtirok etishlari majburiy hisoblanadi, chunki yaponlarning fikrlariga ko'ra, qo'l bilan yaralgan go'zallik insonni borliqni idrok etishidagi go'zallikni falsafiy tushunishiga sabab bo'ladi. Pedagoglarning vazifasi bolalarni muloqot qilish, g'amxo'rlik ko'rsatishga o'rgatish, har bir bola qulaylik, teng huquqlilikni his qilishi, guruh esa, do'stlik va hamkorlik asosida rivojlanishini ta'minlashdan iborat. Pedagog bolalarga tanbeh bermaydi. Tarbiyaning asosi yapon xalqining milliy qadriyatlari hisoblanadi, bu hatto individual ovqatlanishni tashkil etish bilan ham bog'liq. Ta'kidlanishicha, insonning taqdiri uning iqtidoridan ko'ra, uning sabri, ishlash qobiliyati, qat'iyatligi, tirishqoqligiga bog'liq. Shu tufayli hayot tartibi va faoliyatga amal qilishga muhim ahamiyat beriladi (barvaqt uyg'onish, tartib-intizomli bo'lish, ko'p ishlash, to'g'ri ovqatlanish, xushmuomalalik, salomlashish, tashakkur izhor etish shakllarini qo'llash). Kattalarga hurmat, boshqa insonni tushunish, umumiy qoidalarga bo'ysunish, bag'rikenglik ma'qullanadi.

Bolalar tarbiyasi tarbiyachilar va ota-onalarning yaqin hamkorligi asosida quriladi. Ota-onalarning sport kunlari, kuzatuv kunlari farzandlaridan xabar olishlari, pedagoglar va ota-onalarning bolaning rivojlanishi to'g'risidagi qiziqarli fikrlarini birgalikda yozib

borishlari, ota-onalar majlislari an'anaviy hisoblanadi. Ko'pgina maktabgacha ta'lim muassasalari o'z ishlarida, iqtidor – bolaning qobiliyatlari rivojlanishining maksimal darajasi, 6 yoshlik davr esa – uning taqdiri hal etiladigan davr deb hisoblashgan. Ular mashhur yapon skripkachisi va pedagogi Sudzukining tajribasiga tayanadilar ("Iqtidorni tarbiyalash tizimi"). Nutq va musiqiy qobiliyatlarning barvaqt rivojlanishi asta-sekin shaxsning yaxlit rivojlanishi tizimiga aylanib boradi, musiqa va ona tili esa, uning asosiy vositalari hisoblanadi. Sudzuki MTMLarining mashhurligidan ota-onalarning farzandlari dunyoga kelishidan 3-4 yil avval bolani qabul qilish to'g'risidagi arizani berishlari kerak. Bu muassasalarga bolaning hech qanday layoqatlari tekshirilmasdan qabul qilanadi. Tarbiyachilar yosh davrlari turlicha bo'lgan bolalar guruhlar bilan ishlaydi. Ularning rollari bola shaxsining mustaqil rivojlanishi uchun muhit yaratishdan iborat.

Bunda xotira, idrok (ko'rish, eshitish, tahlil), bolalarning tasviriy faoliyatlarining majmuaviy turlarini rivojlantirish nazarda tutiladi. Bolaga ikki yoshidan boshlab skripka chalish o'rgatiladi, buning uchun "Sudzuki" kompaniyasi to'liq o'lchamining 1/32 qismiga teng bo'lgan kichik skripkalarni ishlab chiqaradi. Mazkur MTMLarda tarbiya jarayoni insonparvarlik mazmuniga (tabiat, san'atning go'zalligi) va shakliga ega (bolani hech narsaga majburlashmaydi, balki uning uchun rivojlantiruvchi pedagogik muhitni yaratadilar).

Bolalar iqtidorini rivojlantirish muammolariga nafaqat pedagoglar, balki ota-onalar ham qiziqishadi. "Sony" firmasining asoschisi Masari Ibukining bolalar qobiliyatlarini tarbiyalash to'g'risidagi mashhur asarlarida keltirilishicha, "bola miyasining tuzilishi faol rivojlanadigan ilk uch yoshlik davrida uning idrok etish shaxsiy tajribasi aqliy qobiliyatlari rivojlanishining asosi hisoblanishi, hech bir bola daho yoki qoloq bo'lib tug'ilmasligi, har bir bola yaxshi o'qishi mumkinligi – barchasi insonparvar, bolaning imkoniyatlari, moyilliklari va qiziqishlarini inobatga oladigan ta'lim metodiga bog'liq". Uning ushbu fikrlari yapon maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimining o'ziga xos xususiyatlarini aniq va yaqqol ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Буре Р.С., Островская Л.Ф. Воспитатель и дети. – М., 2003.
2. Детский сад в Японии: Опыт развития детей в группе. – М., 2012.
3. Парамонова Л.А., Протасова Е.Ю. Дошкольное и начальное образование за рубежом: история и современность. – М., 2001.
4. Современные образовательные программы для дошкольных учреждений/ под ред. Т.И. Ерофеевой. – М., 2000.
5. Сорокова М.Г. Современное дошкольное образование: США, Германия, Япония. – М., 1998.

Tahririyat. Bolalik yillari – bu, eng avvalo nozik nihol qalb egasining kamol topish davri demakdir. Bolalar bizga tabiat ato etgan ulkan baxt va quvonch. Ular beminnat va samimiy muhabbatni his qilganlarida o'zlarini baxtli hisoblaydilar. Ushbu nav-nihol-larni voyaga yetkazishda esa, har qaysi davlat o'ziga xos yo'nalish va usulga tayanadi. Xo'sh ularning qay biri samaraliroq natijalarga erishmoqda?

Mualliflar ushbu maqolasida maktabgacha ta'lim tizimining xorij tajribasi va tahlilini bergani o'rinli va samarali, albatta.

Gulnoza ANORQULOVA,
Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti, p.f.n
Abdujamil KARIMOV,
mustaqil tadqiqotchi

XORIJIY MAMLAKATLAR TA'LIM TIZIMINING O'ZIGA XOS YO'NALISHI, USLUBI VA TAHLILI

Annotatsiya

Maqolada Yaponiya, Germaniya, Fransiya, AQSH, Xitoy kabi ko'plab ilg'or xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimi tuzilmasi, tajribasi va zamonaviy ta'lim dasturlari tahlil qilingan. Shuningdek, ta'lim tizimidagi tafovudlar, ularning yutuq va kamchiliklari, ta'lim standartlari monitoring qilingan.

Kalit so'zlar. Mamlakat, ta'lim, tajriba, tahlil, dastur, tuzilma, daraja, bosqich, xorijiy tajriba.

Статья посвящена анализу систем образования и современных образовательных программ ряда развитых государств, таких как Япония, Германия, Франция, США, Китай. Представлены результаты мониторинга различий, достижений и недостатков систем образования, образовательных стандартов.

Ключевые слова. Страна, образование, опыт, анализ, программа, структура, степень этап, зарубежный опыт.

Article is devoted to the analysis of education systems and modern educational programs of a number of developed countries, such as Japan, Germany, France, USA, China. Presented the results of monitoring difference, achievements and shortcomings of education systems, educational standards.

Key words. Country, education, experience, analysis, program, structure, degree stage, foreign experience.

Ma'lumki, mustaqillik yillarida mamlakatimiz erishgan ulkan yutuq va maralar haqida so'z yuritilganda, boshqa muhim sohalar qatori ta'lim-tarbiya, sog'liqni saqlash, onalik va bolalikni himoya qilish borasida amalga oshirilayotgan umummilliy dasturlarimiz, ularning ulkan amaliy natijalari birinchi navbatda tilga olinadi. Bu bejiz emas, albatta. Chunki bugungi kunda har qaysi xalq, davlat va jamiyatning taraqqiyot darajasi, avvalambor uning inson kapitaliga, inson rivojiga berayotgan e'tibori, bu yo'ldagi sa'y-harakatlari bilan o'lchanadi. Ayniqsa, ta'lim mazmuniga bo'lgan e'tibor rivojlangan mamlakatlardagi shart-sharoitlardan ortiq bo'lsa borki, lekin qolishmaydi. Buning isboti sifatida ilg'or xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimini tahlil qilib o'tamiz.

Yaponiya ta'lim tizimi.

Ilg'or xorijiy mamlakatlar ichida Yaponiya ta'limi o'ziga xos yo'nalishi, uslubi bilan yetakchi o'rinni egallaydi. Jumladan, Yaponiya ta'lim tizimining tarkibi quyidagicha: maktabgacha ta'lim, boshlang'ich maktab, kichik o'rta maktab, yuqori o'rta maktab, oliy ta'lim tizimlariga kiruvchi oliy o'quv yurtlari.

Boshlang'ich maktabda o'qituvchilar bolalarni tanqidga, ya'ni o'z xulqining yomon jihlatlarini, maktabdagi kamchiliklarni tanqid qilishga o'rgatishadi. Bundan ko'rinib tu-

ribdiki, o'qituvchi faqat ta'lim berish bilan cheklanib qolmay, bolaning har tamonlamma rivojlanishiga ta'sir etadi. Shuning uchun ham Yaponiyada o'qituvchi kasbiga katta e'tibor beriladi. Yaponiya rivojlangan davlatlar ichida o'qituvchining maoshi davlat rahbarlari maoshidan ham yuqori bo'lgan yagona davlatdir.

Majburiy ta'lim. Ta'limning bu pog'onasi 6 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan bolalarni o'z ichiga oladi. Muhtoj oilalarning bolalari bepul nonushta, o'quv qurollari, tibbiy xizmat bilan ta'minlanadi. Zarur bo'lgan hollarda ularning oilalariga moddiy yordam ko'rsatiladi. Shu bilan birga Yaponiyada xususiy maktablar ham mavjud.

Yuqori o'rta maktab 10-,11-,12-sinflarni o'z ichiga oladi, bunday maktablarning kunduzgi, sirtqi, kechki bo'limlari mavjud. Yaponiyada yozgi kanikul iyun oyining oxirida boshlanib, avgust oyida tugaydi.

Yuqori bosqich o'rta maktablarda butun o'quv jarayonida o'quvchilar 80 ta sinov topshirishadi. O'quvchilar majburiy asosiy fanlardan tashqari o'z xohishlariga ko'ra ingliz tili, texnik ta'lim va maxsus sinovlarga jalb etiladi.

Universitetlarga yuqori va o'rta maktabni yoki 12 yillik oddiy maktabni bitirgan o'quvchilar qabul qilinadi. Universitetlarga qabul qilish ikki bosqichga bo'linadi: 1-bosqichi turar joyda o'tkaziladi, buning uchun eski yapon tili, matematika, fizika, kimyo, jamiyatshunoslik, tarix bo'yicha test sinovlaridan o'tiladi.

Yaponiyada oliy ta'lim majburiy hisoblanadi va u kasb ta'limi bilan uzviy bog'liqdir. Oliy ta'lim tizimi quyidagi turlarni o'z ichiga oladi:

- to'liq sikldagi universitetlar (to'rt yil);
- tezlashtirilgan universitetlar sikli (ikki yil);
- kasb ta'lim kollejlari;
- texnika institutlari.

Yaponiya ta'limining asosiy maqsadi va mazmuni aholini zamonaviy texnik hamda texnologik jarayonlar bilan jihozlangan samarali ishlashga moslashtirishdir. Mamlakatda maktabga muhim ijtimoiy vazifani bajaruvchi jamiyatning olg'a siljishini ta'minlovchi dargoh, deb qaraladi va xalq tomonidan e'zozlanadi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, Yaponiyada ta'lim tizimi ham shaklan, ham mazmunan yuksak uyg'unlik kasb etgan. E'tiborli yana bir tomoni – Yaponiyada faqat milliy an'analar bilan cheklanib qolmay AQSh, Fransiya, Germaniya kabi taraqqiy etgan mamlakatlarning ilg'or pedagogik ish tajribalari ham o'zlashtirilgan.

Germaniya ta'lim tizimi.

Germaniya jahon ilm-fan va madaniyat o'choqlaridan biri. Ushbu davlatda har bir fuqaro o'z shaxsini erkin rivojlantirish, o'z iqtidori, moyilligi va qobiliyatiga qarab maktab, o'qish joyi va kasb tanlash huquqiga ega. Ta'lim sohasidagi bunday siyosatning maqsadi har bir shaxsning qiziqishi va talablarga javob beradigan malakali tayyorgarlikni olish imkonini berishida imkon qadar ko'proq yordam berishdan iboratdir.

Germaniyaning har bir fuqarosi butun hayoti davomida umumiy, oliy va kasbiy ta'lim olish imkoniyatiga ega. Chunki Germaniya yuqori rivojlangan sanoat davlatlaridan biri bo'lib, yuqori malakali mutaxassislarga ehtiyoj katta. Germaniya hukumati turli sohalarida sifatli mutaxassis kadrlarni tayyorlashdan manfaatdor.

Maktab ta'lim tizimi ikki bosqichli bo'lib, boshlang'ich va o'rta ta'lim muassasalaridan iborat. Barcha davlat maktablarida o'qish bepul. O'quvchilarga qisman bepul o'quv qo'llanmalar va darsliklar beriladi. Diniy fanlarni o'qitish majburiy emas. O'quvchi 14 yoshida bu fanni o'qish yoki o'qimaslikni o'zi tanlaydi.

Germaniyada maktab ta'limi quyidagi maktab tiplariga bo'linadi: boshlang'ich maktab; yo'nalish maktablari; asosiy maktab; real maktab; gimnaziya; umumiy maktab; maxsus maktab.

Boshlang'ich maktab – ta'lim tizimining poydevori hisoblanadi. Bu ta'lim bosqichining vazifasi – bolalarga ta'limni davom ettirishga imkon beruvchi bilimlar asosini berishdir. Boshlang'ich maktabdan so'ng o'quvchilar yo'nalish bosqichidagi maktablarga o'tishadi.

Asosiy yoki to'liq xalq maktabi boshlang'ich maktabni bitirib, real maktab yoki gimnaziya bormagan barcha o'quvchilar uchun majburiydir. Asosiy maktabning maqsadi – o'quvchilarni ikkinchi bosqich doirasidagi ta'lim va kasbiy ta'limni davom ettirishga tayyorlash va umumta'lim kurslariga qatnashishdir. Asosiy maktabdagi o'qituvchilar o'zi o'qimagan sohalar bilan ham shug'ullanishga majbur bo'ladi. Masalan, nemis va ingliz tili o'qituvchilari texnikani ham o'zlashtirishadi. Bunday kasbiy aralashuvning pedagogik vazifasi ham bor: sinf rahbari bolalar uchun ishonchli shaxsga aylanishi va o'z tarbiyalanuvchilari bilan imkon boricha ko'p vaqt birga bo'lishidadir.

Asosiy maktab o'qituvchilari o'zlarini o'qituvchi emas, ijtimoiy pedagog, deb his qiladi. Lekin asosiy maktabdagi o'quvchilar yomon o'zlashtirishga qaramasdan ko'pchiligi kasbiy ta'lim olishga muvaffaq bo'lishadi.

Hozirgi kunda Ta'lim vazirligi asosiy maktabni isloh qilish zarurati haqida fikr bildirmoqda. Bunda asosiy maktab o'qituvchilari boshlang'ich maktab o'qituvchilari kabi ixtisoslikka ega bo'lishlari kerak deyiladi.

Real maktablar ikkinchi bosqichga qarashli bo'lib, odatda 5-10 sinflarni o'z ichiga oladi. 7-sinfni bitirib, real maktabga o'tishni xohlagan asosiy maktab o'quvchilari uchun real maktabning alohida 3 sinf varianti mavjud. Real maktab yuqori darajali kengaytirilgan umumiy ta'lim beradi va o'quvchilarni mustaqil fikrlash, mas'uliyat hissi, insonlarga rahbarlik qilish ko'nikmalariga, yuqori talab qo'yadigan kasb egalari bo'lishi uchun kasbiy ta'lim kurslariga tayyorlaydi.

O'quvchilar ularga tavsiya etilgan o'quv yo'nalishlaridan bitta asosiysini tanlab olish imkoniga ega. Bu tabiiy-matematik, texnik, lingvistik, ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-tibbiy, musiqiy-badiiy yo'nalish bo'lishi mumkin. Barcha o'quvchilar chet tilini bilishlari shart. Asosiy maktablarda chet tilini tanlash huquqi yo'q, faqat ingliz tili o'rganiladi. Real maktablarda esa bir necha chet tilini tanlash tavsiya etiladi, o'quvchi bittasini tanlaydi. Real maktablarda o'qish yuqori darajada olib boriladi, fanlarni tizimlashtirishga katta e'tibor beriladi. Boshlang'ich va asosiy maktab o'qituvchisi ixtisosligini olganlar malaka oshirish kursiga qatnashib, imtihon topshirib, real maktablarda dars berish imkoniga ega bo'ladilar.

Gimnaziyalar umumta'lim o'quv muassasalari hisoblanadi. Unda o'qish 5-13-sinf-gacha 9 yil davom etadi. 11-13gacha o'qiydiganlar gimnaziyaning yuqori bosqichi deb ataladi. Imtihonlarni muvaffaqiyatli topshirgan gimnaziya bitiruvchisi oliy o'quv yurtiga kirish huquqini beruvchi yetuklik attestati oladi.

Gimnaziya o'qitishdan maqsad: umumta'lim bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish va shular asosida o'quvchilarni zamonaviy ma'lumotlarni olish va qayta ishlashning ilmiy metodlari bilan tanishtirish, oliy o'quv yurtida muvaffaqiyatli o'qish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratishdan iborat. Gimnaziyaning o'ziga xos xususiyati fanlarning differensial tuzilgani bo'lib, o'quvchiga tanlash imkoni beriladi.

Germaniya ta'lim tizimida hunar ta'limi muhim ahamiyatga ega, chunki yuqori malakali ishchilarga bo'lgan talab kuchlidir. O'qish 3 bosqichdan iborat bo'lib, birinchi yil asosiy hunar ta'limi beriladi. Bunga o'qitilayotgan kasbga taalluqli maxsus fanlardan

nazariy asoslar berilib, yirik korxonalarda amaliy mashg'ulotlar o'tkaziladi. Ikkinchi yil davomida maxsus hunar ta'limi beriladi. O'quvchining birinchi yildan ikkinchi yilga o'tishida sinov imtihonlari o'tkazilib, o'qishni davom ettiruvchi yoshlar tanlab olinadi. Uchinchi yil davomida maxsus hunar ta'limi yanada chuqurlashtirilib boriladi. Bitiruv imtihonlari maxsus komissiya tomonidan qabul qilinadi. Komissiya a'zolari korxonalarining yetakchi mutaxassislari, Federal Yerlardagi sanoat palatasi, hunarmandchilik palatasi vakillaridan tashkil topadi. Hunar maktablarining diplomlari oliy o'quv yurtlariga kirish uchun huquq bermaydi. Buning uchun 1 yillik tayyorlov kurslarini tugatish talab etiladi. O'qishga qabul qilish imtihonsiz, maktab ta'limi to'g'risidagi hujjatga asosan amalga oshiriladi.

Davlat malaka oshirganlarni rag'batlantiradi va malaka oshirish kurslarida o'qish davrida tinglovchilarga mablag' bilan moliyaviy yordam beriladi. Asosan ishsizlar o'z malakasini oshirish imkoniyatlaridan ko'proq foydalanadilar va bu bilan ish topish yo'llari tezlashadi. Oliy o'quv yurtlarida tadqiqot bilan shug'ullanish ularning qadimiy an'analari biri. Oliy o'quv yurtlariga kirish imtihonlarisiz qabul qilinadi, abituriyent uchun eng muhimi maktab yoki gimnaziyada bitiruv imtihonlarini muvaffaqiyatli topshirishdir. Nufuzli mutaxassisliklarga o'qishga qabul qilishda abituriyent maktab attestatining o'rta bali hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Fransiya ta'lim tizimi.

Fransiya ta'lim tizimi qadimiy va boy tarixga ega. U jahondagi iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar ichida yetakchi o'rinni egallaydi. Fransiya ta'limining asosiy maqsadi – shaxsni har tomonlama kamol topishini ta'minlash, uni mustaqil faoliyatga tayyorlash, bozor munosabatlari sharoitida o'quvchilarni tadbirkorlikka, ishbilarmonlik va omilkorlikka o'rgatish, kasb-korga ega qilishdan iboratdir. Bu yerda davlat maktablari, xususi maktablar, oraliq maktablar mavjud.

Fransiya boshlang'ich ta'lim maktablariga 6 yoshdan 11 yoshgacha bo'lgan bolalar jalb qilinadi. Boshlang'ich ta'lim bepul va majburiy. Uning vazifasi o'qish, yozish, hisoblash malakasini berishdir. Maktabda ovqatlanish pullik, lekin juda arzonlashtirilgan narxlarda.

Boshlang'ich sinflarda o'qish 5 yil bo'lib, uch bosqichda amalga oshiriladi: tayyorlov bosqichi; elementar kurs; chuqurlashtirilgan bosqich.

Tayyorlov bosqichida bolalar hisoblashga, o'qish va yozishga, kuylashga, o'ylashga, tabiat manzaralarini tomosha qilishga va undan bahra olishga, jismoniy mashqlar bilan mashg'ul bo'lishga, maktabning turli sport tadbirlarida ishtirok etishga, musiqa va mehnatga o'rgatiladi.

Navbatdagi bosqich elementar kurs bo'lib – bu bosqichda o'qish 2 yil davom etadi. Bunda o'quvchilarning tayyorlov bosqichida predmetlar bo'yicha olingan bilimlari yanada takomillashtiriladi.

Boshlang'ich maktabning 3-bosqichi chuqurlashtirish bosqichidir. Bunda o'quvchilarning tayyorlov va elementar bosqichdagi bilimlari yanada chuqurlashtiriladi. Fransuz maktablarining boshlang'ich bosqichida “Fuqarolik ta'limi”, “Nafosat ta'limi” ham o'qitiladi. Nafosat ta'limiga musiqa, tasviriy san'at, sport kiritilgan. O'quvchilar bilan yakka tartibda ishlash, ularni rag'batlantirish, shaxsiy qobiliyat va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, ta'limda uzluksiz va vorislikni ta'minlab berish boshlang'ich sinf o'quvchilariga qo'yilgan bosh talabdir.

O'quvchilar 11 yoshda boshlang'ich maktabni tugallab o'rta maktabga o'tishadi. O'rta ta'lim esa, kollej va litseylarda amalga oshiriladi. O'rta ta'lim ikki bosqichda bo'lib,

birinchi bosqichda fransuz tili va adabiyoti, chet tili (ingliz, nemis, ispan, italyan tillari), tarix, Fransiya geografiyasi, matematika, tibbiy fanlar o'rgatiladi. Birinchi bosqich yakunlangach, o'quvchilar kasbiy yo'nalishlari bo'yicha guvohnoma olishadi.

O'quvchilar umumiy ta'lim va texnik litseylarni tugatganlaridan so'ng bakalavr unvoni va diplom ishi uchun imtihon topshiradi. Ana shunday diplomga ega bo'lganlarga oliy o'quv yurtlariga kirish huquqini qo'lga kiritishadi. Fransiyada talabalar Pedagogika, Politehnika instituti, oliy ma'muriy maktablarga kirish uchun imtihon topshiradilar. Bundan tashqari shu kasbga moyilligi ham alohida sinab ko'riladi. Boshqa oliygohlarga va universitetlarga esa bakalavr diplomi bo'lgan yoshlar imtihonsiz qabul qilinaveradi.

Fransiyada oliy ma'lumot va ixtisos beruvchi oliy texnologik institutlar mingdan ortiq. Ular odatda sanoat, maishiy xizmat ko'rsatish, informatika mutaxassisliklariga ixtisoslashgan. O'qish muddati 2 yil bo'lib, sakkiz haftalik ishlab chiqarish amaliyotini ham ko'zda tutadi.

Shuningdek, ushbu davlatda maktab rahbarligi lavozimiga erishmoq uchun ta'limga rahbarlik qilishdan saboq beruvchi maxsus markazlarda o'qiydi. Bunday markazlarda ular rahbarlik qilish, maktab iqtisodiyotini boshqarish, ta'limdagi yuridik masalalar, qonunchilik, ota-onalar bilan ishlash, madaniy oqartuv ishlarini tashkil etish, jamoada yaxshi psixologik muhitni barpo etish kabi jihatlarni o'rganadi, o'qish yakunlangach, suhbatdan, test imtihonlaridan o'tishadi.

Amerika Qo'shma Shtatlari ta'lim tizimi.

Ilg'or, yetakchi va rivojlangan mamlakatlar ichida Amerika qo'shma shtatlari ta'lim tizimi alohida yo'nalishga egadir. Jumladan, maktablarda turli xil to'garak, uchrashuvlar va sayohatlar uyushtiriladi, ammo ularning hammasiga haq to'lash lozim. O'rta maktablar quyi va yuqori bosqichlardan iborat. 9-sinfni bitirgan talabalar tanlov asosida qabul qilinadi. O'rta maktablarda 4-yilda kasb asoslari o'qitiladi, bular: qishloq xo'jaligi kasblari ta'limi, biznes ta'limi, savdo va sanoat ta'limi, qurilish ta'limi.

Oliy ta'lim 4 ta asosiy bosqichda amalga oshiriladi: birinchi bosqich kichik mutaxassislik – 2 yillik kollejlarda amalga oshiriladi; ikkinchi bosqich, bakalavr 4 yillik kollejlarda amalga oshiriladi; uchinchi bosqichni davom ettirish uchun 4 yillik kollej yoki universitetni tugatgan bo'lishi kerak, 1-2 yillik magistr maktabi; to'rtinchi bosqichda aspirantura, doktorantura, kompyuter va h.k.larni qo'llash yaxshi yo'lga qo'yilgan.

Oliy ta'limda ikki yo'nalish mavjud: ta'limni individuallashtirish, talabaning mustaqil ishlashini amalga oshirish. O'qituvchi yo'naltiruvchi rol o'ynaydi. Asosiy maqsad talaba aqlini mashq qildirish, mantiqiy fikrlashga o'rgatishdir.

Oliy o'quv yurtlarida ilmiy izlanishlar olib borish bo'yicha AQSH jahon mamlakatlari orasida yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Bu mamlakatda ilmiy izlanishlar uchun mablag'ning 48 foizini davlat tomonidan, 50 foizini firma, konsernlardan undiriladi, oliy o'quv yurtlarining mablag'lari 2 foizni tashkil qiladi. Ishlab chiqarish korxonalari universitetlar bilan shartnoma asosida hamkorlik qiladi. Universiteti o'qituvchilarining asosiy qismi turli firmalarda ishlab chiqarish korxonalarining ilmiy laboratoriya bilan birgalikda maslahatchi, tadqiqotchi bo'lib ishlaydi. Ta'limni haddan ziyod demokratlashuvi talabalar bilimining puxtaligini tekshirish va nazorat qilishda qiyinchiliklar tug'diradi. Shu sababli boy moddiy baza va tajribaga ega bo'lgan davlatda butunlay savodsiz bo'lgan bolalar ham topiladi.

Koreya ta'lim tizimi.

Koreyada ham alohida iqtidorli bolalarga e'tibor kuchli. Maktablar uchun o'qituvchi kadrlar tayyorlash masalasiga ham katta e'tibor beriladi. O'rta ta'lim Koreya Respubli-

kasida 3 yil davom etadi u majburiy bo'lib, bir o'quv yili 1 martdan keyingi yil mart oyiga qadar davom etadi. O'rta ta'lim maktablarida davlat tili, axloq, ijtimoiy fan, matematika, jismoniy tarbiya, musiqa, san'at, chet tili kabi 10 ga yaqin fanlar o'qitiladi. Shuningdek, o'rta maktabda o'quvchi uchun tanlov fanlar mavjud. Bular qatoriga axborot, chet tili (ko'pincha nemis, fransuz, ispan, xitoy, yapon, rus, arab tillari) kabilarni kiritish mumkin. O'rta maktabda o'quvchilar qattiq nazorat qilinadi va o'quvchilarning formasi, soch turmagi hamda maktabdan tashqari faoliyatlari ham nazorat qilinadi. Boshlang'ich maktabdagi kabi o'rta maktabda ham o'quvchilar asosan bir sinfda o'tirishadi, ammo fanlar turli o'qituvchilar tomonidan olib boriladi. O'quvchilar har kuni 6 ta o'quv predmeti bo'yicha dars o'tishadi.

Boshlang'ich maktabda 9 ta fan o'qitiladi. Koreys tilini o'rganishga alohida e'tibor beriladi. Bundan tashqari arifmetika, ayrim ijtimoiy fanlar ham o'qitiladi. Koreyslar yana bir tilni — klassik xitoy tilini majburiy ravishda o'rganadilar. 8-sinfdan boshlab Xitoy tarixi o'rganiladi. Hunar maktablariga korxonalar hamkorlik qiladilar. Ta'lim haqidagi qonun talablaridan biri shudir.

Yuqori maktablar bir necha turlarga bo'linadi: davlat yuqori maktablari (Koreya Ta'lim va texnika fanlari vazirligi, Madaniyat, Jismoniy tarbiya va sayyohlik vazirligi boshqaradi); umumiy yuqori maktablar (har bir viloyatdagi yuqori tashkilotlar tomonidan boshqariladi); xususiy yuqori maktablar.

Koreya Respublikasida Ta'lim vazirligi maxsus tashkil etgan yuqori maktablar ham bor. Bular asosan qishloq xo'jaligi, baliqchilik, sanoat, xalqaro tillarga ixtisoslashgan bo'ladi. Bu juda yuqori ko'rsatkichdir. Mamlakatda oliy o'quv yurtlarining ishlari yaxshi yo'lga qo'yilgan.

Xitoy ta'lim tizimi.

Yana bir rivojlangan davlatlardan biri Xitoyda bolalar boshlang'ich maktabga 6-7 yoshdan borib, bu yerda 5-6 yil ta'lim olishadi, mamlakat bolalarining (boshlang'ich maktab yoshidagi) 95 foiz boshlang'ich maktablarga borishadi. Boshlang'ich sinflarda bolalarga xitoy tili, geografiya, tarix, matematika, musiqa, tabiatshunoslik, tasviriy san'at, jismoniy tarbiya va siyosiy ta'lim o'rgatiladi.

Boshlang'ich maktabni tamomlagach, bolalar o'rta maktabga borishlari mumkin. Quyi o'rta maktabda ta'lim 3 yil, yuqori o'rta maktabda esa, 2 yoki 3 yil davom etadi. O'rta maktabda boshlang'ich sinflardagi ko'pchilik fanlar ya'ni biologiya, kimyo, fizika, huquqshunoslik, ingliz va boshqa xorijiy tillar o'qitiladi. Professional va texnik o'rta maktablarda esa, qishloq xo'jaligi asoslari, industrial texnologiya va boshqa ixtisoslikka oid fanlar o'qitiladi. Xitoylik bolalarning 2/3 qismi o'rta maktabda ta'lim ola boshlaydi, ammo ularning hammasi ham o'qishni yakuniga yetkazmaydi.

Xitoyda oliy ta'lim olishni istagan yoshlar soni tobora ortib bormoqda. Ammo fakultetlar va imkoniyatlar yetishmasligi bois yoshlarning oz qismigina oliy ta'lim jarayoniga jalb etilmoqda.

Kirish imtihonlaridan o'ta olmagan yoshlar “ishchi universitetlar” deb atalmish qisqa muddatli kurslarda ta'lim olishlari mumkin. O'rta maktabni tashlab ketgan yoshlar erkin vaqt o'rgatiladigan maxsus maktablarda yoki televizion kurslar orqali ta'lim olishni davom ettirishlari mumkin.

Xulosa qilib aytganda, har qanday mamlakat istiqbolli rejalar tuzar ekan, avvalo ta'limga e'tiborni kuchaytiradi. Shu ma'noda bizning mamlakatimiz ham mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning “Kelajak bugundan boshlanadi. Hozir tarbiya masalasiga e'tibor qilinmasa, kelajak boy beriladi.

Tarbiyadan hech narsani ayamaymiz!” degan da’vatlari ostida ta’limni isloh qilishga kirishilib, komil inson tarbiyasi davlat siyosatining ustuvor sohasi deb e’lon qilindi.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlari, islohotlar, mamlakatimiz iqtisodiy qudrati oshib borish natijasida jamiyat ijtimoiy sohasining markaziy bo’g’ini hisoblangan Xalq ta’limi va Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligida ham tub islohotlar ro’y bermoqda. Ular yangilanmoqda, yoshlar ta’lim-tarbiyasini takomillashtirish, ularning mazmunini, uzluksizligini ta’minlab beradigan yangi hujjatlar, pedagogik texnologiyalar, amaliyot uslublari bilan boyib borilmoqda. Ta’lim-tarbiya jarayoniga o’qitishning zamonaviy va innovatsion pedagogik uslublarini hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish orqali ta’lim sifati oshirilmoqda. Jamiyatimiz oldida hozir o’ta muhim vazifa – o’z xalqi va vatani kelajagi uchun shaxsiy mas’uliyatni his etadigan yoshlarni tarbiyalash vazifasi turibdi. O’z vaqtida uzoqni ko’zlab ishlab chiqilgan, izchillik bilan amalga oshirilayotgan, dunyoda o’xshashi kam bo’lgan umumilliy dasturlarimiz tufayli ta’lim-tarbiya bo’yicha samarali tizim, ta’bir joiz bo’lsa, o’ziga xos model shakllandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ikramov A.B., Maxmudov S.Y., Anorqulova G.M. Germaniya: Ta’lim, ilm-fan (metodik qo’llanma). – T.: “Kasb mahorati” jurnali. 2004-yil. 2-son.
2. Ikramov A.B., Maxmudov S.Y., Anorqulova G.M. Germaniya: Dual tizim doirasidagi kasb-hunar ta’limi (metodik qo’llanma) – T.: “Kasb-mahorati” jurnali. 2004-yil 3-son.
3. Usmonov N., Yaponiyada bola tarbiyasi. “Ma’rifat” gazetasi. 2002-yil 13-mart.
4. Ivanova A., O’zbekiston-Germaniya ta’lim sohasidagi hamkorlik. “Xalq so’zi” gazetasi. 2002-yil 13-mart.
5. Usmonov N., Germaniyada kasb-hunar ta’limi. Xorijda ta’lim. “Ma’rifat” gazetas. 2002-yil 13-fevral.
6. Salimova N. Buyuk Britaniya, Finlandiya: Xorijda ta’lim. “Ma’rifat” gazetasi, 2001-yil.

Ноди́ра ИСРАИЛОВА,

руководитель отдела Республиканского центра социальной адаптации детей, кандидат философских наук

СОЦИАЛЬНОЕ ПАРТНЕРСТВО В ПОСТИНТЕРНАТНОМ СОПРОВОЖДЕНИИ ВОСПИТАННИКОВ СПЕЦИАЛИЗИРОВАННЫХ УЧЕБНО-ВОСПИТАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ КАК ВАЖНОЕ УСЛОВИЕ ПРОФИЛАКТИКИ ПОВТОР- НЫХ ПРАВОНАРУШЕНИЙ

Аннотация

Maqolada ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari pedagoglari va tarbiyachilari o'rtasida o'tkazilgan so'rovnomalar asosida tarbiyalanuvchilarni mustaqil hayotga tayyorlashning asosiy yo'nalishlari ochib berilgan. Davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlarining o'zaro faoliyati va ijtimoiy hamkorligiga asoslangan ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiya ushbu muassasalar bitiruvchilarining jamiyatga samarali moslashuvi va integratsiyasining muhim omili sifatida ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar. Ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiya, ijtimoiy adaptatsiya, integratsiya, professional kuzatuv, oila, ijtimoiy hamkorlik, profilaktika.

В статье на основе опросов, проведенных среди педагогов и воспитателей специализированных учебно-воспитательных учреждений, раскрываются основные направления их деятельности по подготовке воспитанников к самостоятельной жизни. Социально-педагогическая реабилитация, основанная на социальном партнерстве и взаимодействии государственных органов и институтов гражданского общества, рассматривается как важное условие успешной адаптации и интеграции в общество выпускников данных учреждений.

Ключевые слова. Социально-педагогическая реабилитация, социальная адаптация, интеграция, профессиональное сопровождение, воспитанник СУВУ, семья, социальное партнерство, профилактика.

Article reveals the basis of polls conducted among teachers and educators of specialized educational institutions, and also main directions of their activity on preparation of pupils for independent life. Social and pedagogical rehabilitation, based on social partnership and interaction of state bodies and civil society institutions is considered as an important condition for the successful adaptation and integration of graduates of these institutions into society.

Key words. Socio-pedagogical rehabilitation, social adaptation, integration, professional support, family, social partnership, prevention.

В современных социально-экономических условиях воспитание физически здоровой, духовно и интеллектуально развитой личности является одной из актуальных задач общества. В Указе Президента Республики Узбекистан “О стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан в 2017-2021 годах” определены приоритетные направления развития страны, направленные на формирование правовой культуры и правосознания граждан; повышение эффективности системы противодействия преступности и профилактики правонарушений в контексте реализации Государственной политики в интересах благополучия детей и молодежи Узбекистана.

Поэтому в числе самых сложных и важных являются вопросы, связанные с проблемами профилактики безнадзорности и правонарушений среди детей и подростков, социально-педагогическая реабилитация которых осуществляется в специализированных учебно-воспитательных учреждениях для детей, нуждающихся в особых условиях содержания, воспитания и образования (СУВУ). Деятельность этих учреждений осуществляется на основе гуманистического подхода к воспитанникам, направленного на оказание своевременной помощи и поддержки детям, ограждение от неблагоприятной деструктивной среды, обеспечение их прав на образование, здравоохранение, труд и отдых.

Необходимость осуществления мероприятий социально-педагогической реабилитации и адаптации воспитанников СУВУ законодательно закреплено нормативно-правовыми актами в данной сфере: Законами “Об образовании” (1997), “О профилактике безнадзорности и правонарушений среди несовершеннолетних” (2010); Положениями “О специализированных учебно-воспитательных учреждениях” (2010), “О Комиссиях по делам несовершеннолетних” (2011, 2017) и др.

При этом предполагается, что социально-педагогическая реабилитация воспитанников осуществляется на основе профессионального сопровождения, помощи и поддержки специалистов, немаловажная роль в этом процессе принадлежит педагогам и воспитателям данных учреждений. Успешная социально-педагогическая реабилитация является фундаментом для дальнейшей адаптации и ресоциализации воспитанников после выпуска, поэтому актуальным является организация условий по подготовке воспитанников к выпуску из учреждения с целью их успешной адаптации и интеграции в общество, предупреждения совершения ими повторных правонарушений.

Анкетные опросы, проведенные среди педагогов и воспитателей (n=45) СУВУ гг. Бахта, Коканда, Чиназа и Самарканда показали, что у педагогов, воспитателей возникают трудности по подготовке воспитанников к нормальной, уважающей требования нравственных и правовых норм жизни.

Известно, что основной причиной попадания детей в специализированные учебно-воспитательные учреждения является неблагополучная семья. При этом наиболее значимыми факторами воспитатели отмечают: неполные семьи; воспитание ребенка мачехой или отчимом; материальную необеспеченность в семье; безнадзорность и побеги ребенка из дома. В этой связи, необходима систематическая и поэтапная работа с семьями воспитанников, направленная на оздоровление семейной обстановки, усиление внимания семьи к проблемам ребёнка, минимизацию отрицательного влияния на него окружающей микросреды.

Поэтому одним из элементов социально полезных связей и педагогического влияния на воспитанников является работа с семьей, так как с одной стороны, семья есть объект, с другой – субъект социально-педагогической системы реабилитации подростков. Работа с семьей представляет собой очень важный, сложный

для проведения социально-педагогической реабилитации вид деятельности, так как неподготовленность части родителей по приёму детей в семью и не включенность их в данный процесс снижает эффективность организации социально-педагогической реабилитации детей и их последующую интеграцию в общество.

Опросы показали, что больше половины педагогов и воспитателей проводят беседы с родителями воспитанников СУВУ (таб.1), причем 40% из них оповещают родителей о тех изменениях, которые произошли с их ребенком за время пребывания в данном учреждении, об изменениях в поведении ребенка, достижениях и результатах в учебе. Вместе с тем, 4,4 % педагогов признались в том, что обращаются к родителям детей только тогда, когда воспитанник просит позвонить им, а каждый третий педагог и воспитатель не ответил на поставленный вопрос.

Табл.1

**Причины обращения педагогов-воспитателей СУВУ
к родителям воспитанников**

Причины обращения	N (45)	100%
когда воспитанник просит позвонить родителям	2	4,4%
для подготовки документов к выпуску	5	11,2%
обращаюсь постоянно, без повода	6	13,3%
обсуждаем достижения, недостатки ребенка, результаты в учебе	18	40%
нет ответа	14	31,1%

Согласно ответам 91,2% педагогов и воспитателей, родители посещают своих детей, но каждый третий педагог отмечает уровень их посещения как "низкий", каждый второй как "средний". Кроме того, 8,8% специалистов указали, что родители не навещают своих детей по причине трудовой миграции.



Рис.1. Ответы педагогов-воспитателей на вопрос: "Ощущаете ли Вы поддержку и участие родителей в социально-педагогической реабилитации воспитанников?", (N=45)

Тем не менее, педагоги и воспитатели предпринимают меры по привлечению родителей в вопросах воспитания, в проведении различных мероприятий (71,1%). 40% специалистов используют лекции как форму педагогического просвещения и психологической консультации родителей, в рамках которых разъясняют цели, задачи воспитания и проблемы по преодолению трудностей в воспитании их детей. Каждый третий педагог и воспитатель отметил, что старается привлечь родителей к участию в различных конференциях, дискуссиях, каждый пятый – в мероприятиях по случаю "дня открытых уроков", ролевых играх.

Ключевым направлением работы педагогов и воспитателей по подготовке воспитанников к самостоятельной жизни является работа по подготовке семьи к приему ребенка. Как показывают результаты исследования, больше половины педагогов и воспитателей (64,4%) осуществляют работу с семьями в этом направлении. Такая работа осуществляется посредством проведения бесед с родителями

(48,3%), им предлагаются рекомендации по вопросам воспитания (31,1%). Вместе с тем, каждый десятый специалист учреждения отметил, что каждую неделю проводит с воспитанниками занятия по семейной психологии на темы по оздоровлению детско-родительских отношений.

Однако педагоги и воспитатели отметили, что имеются проблемы, требующие решения. В числе их, недостаточный уровень материального достатка семьи, в результате чего родители отказываются принимать детей обратно в семью (42,2%). Вторая причина - сложные взаимоотношения между родителями и детьми (20%), что осложняет процесс возврата детей в семью, а это может свести к минимуму все усилия педагогов по социально-педагогической реабилитации и перевоспитанию несовершеннолетнего. Третья причина заключается в том, что некоторая часть детей является сиротами, либо родители лишены родительских прав или у детей может отсутствовать жилье и по этим причинам возвращение ребенка в семью невозможно (8,8%).

В таких случаях руководство и работники СУВУ предпринимают следующие меры:

- выезжают по месту жительства выпускников или осуществляют контроль за состоянием дел бывших подопечных в течение полугода (61,5%);
- осуществляют работу по оказанию помощи воспитанникам в трудовом и бытовом устройстве, восстановлении здоровья, в получении паспорта (57,7%);
- обращаются в хокимияты и махаллю по месту жительства выпускника об оказании комплексной помощи и поддержки (26,6%);
- готовят справки с приложением к ней характеристики воспитанника (19,2%);
- за месяц до выпуска рассылают письменное оповещение в Комиссии по делам несовершеннолетних по месту проживания выпускника (15,6%);
- продлевают срок пребывания ребенка в СУВУ в установленном законом порядке (15,6%);
- ходатайствуют в вопросах обеспечения выпускника жильём и принимают меры по их трудоустройству (13,3%), причем каждый второй педагог считает решение данного вопроса своей функциональной обязанностью;
- систематически контактируют с участковыми инспекторами профилактики органов внутренних дел по месту пребывания выпускника (7,6%).

Примечательно, что каждый десятый педагог, опираясь на положительную характеристику психолога и воспитателя, а также данных своих наблюдений, на итоги и результаты поведения воспитанников рассматривают вопрос о его выпуске на заседании Психолого-медико-педагогической комиссии (ПМПК). Затем ПМПК рассматривает вопрос о принятии решения о выпуске воспитанника, готовит характеристику (35,5%), составляет заключение о состоянии здоровья, уровне и объеме освоенных знаний и передает в соответствующую комиссию (24,4%), которая составляет рекомендации по дальнейшей социально-педагогической реабилитации и сопровождению воспитанника (13,3%). После рассмотрения данного вопроса на Педагогическом совете СУВУ ставится вопрос о выпуске воспитанника, документы которого направляются в Комиссию по делам несовершеннолетних (46,6%). Причем, 2,2% педагогов-воспитателей считают, что при принятии решения о выпуске подростка из СУВУ необходимо учитывать уровень его исправления, воспитания и объем приобретенных знаний.

В проведении работы по подготовке выпускников к самостоятельной жизни учреждения должны тесно сотрудничать с организациями и учреждениями для оказания помощи и поддержки воспитанникам, так как неготовность социума при-

нять его после учреждения приводит к изоляции их от общества и совершению повторных правонарушений.

Закономерно, что каждый третий педагог и воспитатель считает, что учреждение должно обеспечить благополучное прибытие выпускника в свой регион, и возвращение его в семью. Но при этом, отмечают педагоги, государственные и общественные организации должны предпринять меры по их трудовому и бытовому устройству (46,6%), по выдаче паспорта (11,2%), по своевременному оповещению участкового инспектора ОВД о выпускнике воспитанника (11,2%) с передачей его родителям (8,8%).

Достижение долгосрочного результата реабилитационной деятельности, на наш взгляд, может быть достигнуто лишь при условии участия в ней всех субъектов социально-педагогической реабилитации, которое строится на принципах взаимодействия и социального партнерства. Поэтому педагоги и воспитатели считают, что выпускник по прибытию к своему месту жительства должен посетить ряд организаций и учреждений: комиссии по делам несовершеннолетних КДН (28,8%), участкового инспектора ОВД (11,2%), махаллю (11,2%), биржу труда (8,8%), районный хокимият (8,8%), колледж (6,8%).

Опрос показал, что больше всего положительных оценок в вопросах взаимодействия и сотрудничества со специализированными учебно-воспитательными учреждениями получили органы и учреждения народного образования (88,8%), органы прокуратуры (77,7%), комиссии по делам несовершеннолетних (75,5%), хокимияты (73,3%), Центр среднего специального, профессионального образования (73,3%), органы внутренних дел (66,6%) и здравоохранения (55,5%).

Для успешной социально-педагогической реабилитации, адаптации и интеграции выпускников немаловажное значение имеет подготовительная работа с семьей выпускника. В этом направлении большую роль играют работники органов самоуправления граждан. Однако опрос показал, что больше половины педагогов и воспитателей отмечают отсутствие совместной работы данных учреждений с махаллей по подготовке к приему выпускников. В то время как опрос, проведенный среди сотрудников органов самоуправления граждан (n=111) показал, что работники махаллей совместно с ОВД и КДН проводят различные мероприятия по сопровождению детей, вернувшихся из СУВУ:

Табл.2

Оценка результативности взаимодействия СУВУ с организациями, учреждениями по оказанию помощи выпускникам СУВУ

Организации	Оценка результативности %			
	Положительно	Среднее	Плохо	Нет сотрудничества
Органы и учреждения народного образования	88,8%	6,8%	-	4,4%
Центр среднего специального, профессионального образования	73,3%	11,2%	8,8%	6,7%
Органы социального обеспечения (органы по труду)	6,8%	24,4%	35,5%	33,3%
Органы здравоохранения	55,5%	8,8%	28,8%	6,9%
Учреждения культуры	28,8%	24,4%	4,4%	42,4%

Учреждения спорта	51,1%	2,2%	6,7%	40%
Органы внутренних дел	66,6%	13,4%	20%	-
Органы прокуратуры	77,9%	8,8%	13,3%	-
Органы самоуправления граждан	28,8%	31,1%	33,3%	6,8%
Комиссии по делам несовершеннолетних	75,6%	2,2%	22,2%	-
Суды	40%	8,8 %	2,4%	48,8%
Адвокатура	22,2%	22,2%	2,2%	53,4%
Хокимияты	73,3%	15,5%	4,4%	6,8%
фонды, ННО (например, РЦСАД)	31,1%	40%	11,2%	17,7%

– 50,5% работников махаллей совместно с инспекторами профилактики ОВД проводят разъяснительные беседы с выпускниками, оказывают им помощь в завершении образования и трудоустройстве;

– 18,9% из них регулярно посещают семьи, организуют медосмотры, оказывают помощь в получении паспорта;

– 15,3% специалистов поддерживают телефонную связь с его семьей, проводят разъяснительные беседы, оказывают материальную поддержку семье;

– 5,4% работников махалли привлекают старейшин, которые могут оказать позитивное воздействие на всех членов семьи.

Активную работу по социальной адаптации и интеграции воспитанников СУВУ также проводят ответственные секретари КДН. Так, 59,3 % ответственных секретарей КДН (n=29) систематически ведут работу по приему выпускников СУВУ в семьи, осуществляя тесное взаимодействие с органами самоуправления граждан.

Совместно с инспекторами профилактики ОВД, ответственные секретари КДН, принимают меры по вовлечению выпускников в спортивные секции, приобщению их к здоровому образу жизни; организуют различные мероприятия, направленные на обеспечение законопослушного поведения; выявляют их профессиональные интересы и склонности к тем или иным профессиям, а затем рекомендуют им соответствующие учебные заведения. Особого внимания, по ответам ответственных секретарей КДН, заслуживают выпускники специализированных профессиональных колледжей гг. Бахта, Коканда, которым оказывается комплексная помощь. Ответственные секретари КДН отметили, что воспитанники обращаются к ним по различным вопросам. Так, каждый третий выпускник обращается в КДН по вопросам устройства их в общеобразовательную школу или профессиональный колледж для завершения образования; трудоустройства по специальности; оказания помощи в получении паспорта, прохождении медицинского осмотра и оздоровительных программ. Более часто в КДН обращаются выпускники специализированных учебно-воспитательных учреждений г.Самарканда и г.Коканда, реже выпускники г.Бахта, а обращение выпускников г.Чиназа вообще ими не было отмечено. Вместе с тем, ответственные секретари КДН считают, что в проведении профилактических мероприятий с детьми группы риска им необходима помощь психологов (25 %), опытных педагогов (20%), социальных работников (17,2%), сотрудников махаллей, представителей ОДМ “Камолот” (14 %), а также предлагают включить в работу с детьми специалистов из детских ННО (4,9%), спортсменов (4,6%), а также деятелей искусства и кино (3,3%).

Согласно данным анкетного опроса 93 % инспекторов профилактики ОВД (n=77) больше проводят работу по предупреждению попадания детей в специа-

лизированные учебно-воспитательные учреждения, так как специалисты считают, что помещение ребенка в СУВУ не всегда является эффективной мерой перевоспитания. Анализ опроса показал, что большинство инспекторов профилактики ОВД (79,4%) проводят профилактические беседы с выпускниками СУВУ гг. Бах-та, Коканда, Самарканда, Чиназа с целью предотвращения среди них повторных правонарушений. К тому же, специалисты отметили, что в вопросах оказания помощи по приёму выпускников СУВУ в семью и устройства их на учебу или работу они часто взаимодействуют с органами самоуправления граждан (махаллями). Но вместе с тем, 28,8% инспекторов профилактики ОВД испытывают определенные затруднения при работе с семьями по вопросам профилактики противоправного поведения и личностного развития детей, организации программ примирения в семье и налаживания здоровой обстановки в ней, по причине отсутствия методики и навыков работы с неблагополучными семьями. В связи с этим, большинство инспекторов профилактики ОВД (89%) считают необходимым включать в программы подготовки, переподготовки и повышения квалификации специалистов Академии МВД спецкурсы по возрастной психологии, педагогике, технологиям воспитания, психологии девиантного поведения.

Результаты проведенного опроса, показали, что в системе профилактики безнадзорности и правонарушений среди несовершеннолетних (СУВУ, КДН, подразделений профилактики ОВД, органы самоуправления граждан и др.) имеется потребность:

- в разработке и обеспечении специалистов методическими пособиями, программами тренингов, семинаров по постинтернатному сопровождению воспитанников и работе с их семьями;

- в совершенствовании взаимодействия и социального партнерства СУВУ, КДН, подразделений профилактики ОВД, органов самоуправления граждан, образовательных учреждений по проведению индивидуальной профилактической работы и социально-педагогической реабилитации воспитанников СУВУ, а также подготовки семьи по приему детей в семьи;

- в повышении профессиональной компетентности и квалификации работников СУВУ, КДН, подразделений профилактики ОВД, органов самоуправления граждан, образовательных учреждений по вопросам осуществления индивидуальной профилактической и воспитательной работы с детьми групп риска, воспитанниками и выпускниками СУВУ, их эффективной социально-педагогической реабилитации, адаптации и интеграции в общество.

Таким образом, анализ опросов показал, что актуальным является социальное партнерство органов и учреждений системы профилактики безнадзорности и правонарушений, вопросы постинтернатного сопровождения выпускников, что требует определения стратегии их эффективного взаимодействия.

Использованная литература:

1. Указ Президента Республики Узбекистан “О стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан в 2017-2021 годах” (от 7 февраля 2017 г., № УП-4947).

2. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан “Об утверждении Положений о специализированных учебно-воспитательных учреждениях” (от 26 ноября 2010 г., № 268).

Флюра РАИМБЕКОВА,
Инструктор физического воспитания
СДОУ № 422 Мирзо Улугбекского района

ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ВАЛЕОЛОГИЯ В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ УЧРЕЖДЕНИИ

Аннотация

Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning sog'ligini mustahkamlash va saqlash, ularni har tomonlama sog'lom shakllantirish kabi masalalar ko'rib chiqilgan. Shuning uchun bolalik valeologiyasi doirasida bolalarda o'zi tushinib yetgan holda sog'lom hayot kechirishning amaliy ko'nikmalari shakllanishi bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar. Maktabgacha tarbiya, bolalar sog'ligi, tizim, malaka, ko'nikma, sog'lom hayot tarzi.

В статье рассматривается роль системы дошкольного образовательного учреждения, которые обязаны обеспечить охрану жизни и укрепление здоровья детей, их всестороннее развитие, сделать счастливым детство каждого ребенка.

Ключевые слова. Дошкольное образование, охрана здоровья детей, система, обучение, навыки здорового образа жизни.

In given article is considered role of the system of the preschool educational institution, which are obliged to provide the guard to lifes and fortification of health children, their all-round development, do the lucky childhood each child.

In this connection, urgency is need of the shaping valeologies cultures and introduction it in system of the preschool education.

Kew words. Preschool education, children's health, system, training, skills, healthy lifestyle.

Задача развития у детей осознанной потребности в здоровье и становлении практических навыков ведения здорового образа жизни является наиболее актуальной в рамках валеологии детства .

В связи с этим возникает необходимость формирования валеологической культуры и внедрение её в систему дошкольного образования.


25 января 2005 году был издан приказ Министерства Высшего и среднего специального образования Республики Узбекистан о включении в блок дополнительных дисциплин в высших педагогических образовательных учреждениях учебной дисциплины "Валеология" . Министерство Высшего и среднего специального образования явилось основным разработчиком целевой программы по валеологии.

Валеология (*valeologia* – лат здравствовать, быть здоровым) – наука о здоровье. Впервые термин, предложенный проф. И.И. Брехманом в 1980 г., оказался довольно актуальным, емким и в настоящее время оформляется в науку – науку

фундаментальную и необходимую, в первую очередь, своей нужностью для людей, которые хотят посвятить себя обучению, воспитанию, профилактической работе, лечению и психофизической реабилитации подрастающего поколения.

Это, в первую очередь, относится к студентам педагогических вузов, ибо будущая трудовая деятельность педагога – это проблема научить, обучить, привить навыки и умения своим воспитанникам, по организации здорового образа жизни и охране собственного здоровья.

Валеология, являясь интегративной дисциплиной, опирается на данные анатомии, физиологии, гигиены, спортивной медицины, генетики, экологии, педагогики, психологии, социологии, теории физической культуры и спорта.



Педагогическая валеология изучает вопросы обучения и воспитания человека, имеющего прочную жизненную установку на здоровье и здоровый образ жизни на различных возрастных этапах развития. На сегодняшний день валеология развивается наиболее динамично, что обусловлено, по крайней мере, двумя следующими обстоятельствами:

- потребностью общества в срочных мерах по оздоровлению человека с возможностью наиболее быстрой отдачи;
- основными понятиями педагогической валеологии являются валеологическое образование, валеологическое обучение, валеологическое воспитание, валеологические знания, валеологическая культура.

Под валеологическим образованием понимают непрерывный процесс обучения, воспитания и развития здоровья человека, направленный на формирование системы научных и практических знаний и умений, поведения и деятельности, обеспечивающих ценностные отношения к личному здоровью и здоровью окружающих людей.

Валеологическое обучение есть процесс формирования знаний о закономерностях становления, сохранения и развития здоровья человека, овладение умениями сохранения и совершенствования личного здоровья, оценки формирующих его факторов; усвоения знаний о здоровом образе жизни и умений его построения, освоения методов и средств ведения пропагандистской работы по здоровью и здоровому образу жизни.

Валеологическое воспитание есть процесс формирования ценностно-ориентированных установок на здоровье и здоровый образ жизни, построенных как неотъемлемая часть жизненных ценностей и общекультурного мировоззрения.

В процессе валеологического образования у человека развивается эмоциональное и вместе с тем осознанное отношение к здоровью, основанное на положительных интересах и потребностях, стремление к совершенствованию собственного здоровья и к бережному отношению к здоровью окружающих людей, к развитию своего творчества и духовного мира, к осознанному восприятию и отношению к социуму.

Валеологические знания есть совокупность научно обоснованных понятий, идей, фактов, накопленных человечеством в области здоровья и представляющих собой исходную базу для дальнейшего развития науки и самого валеологического знания.

Результатом валеологического образования должна стать валеологическая культура человека, предполагающая знание им своих генетических, физиологических и психологических возможностей, методов и средств контроля, сохранения и развития своего здоровья, умение распространять валеологические знания на окружающих. Валеологическое образование связано и активно взаимодействует с другими видами образования: умственным, физическим, профессиональным, политическим и другими.

Принципами педагогической валеологии являются общепризнанные принципы педагогики. Кроме того, необходимо дополнить их в применении к валеологии гуманистическим, антропологическим и здоровотворческим принципами.

Внедрение педагогической валеологии в дошкольные образовательные учреждения ставит и разрабатывает цели, задачи, содержание и технологии валеологического образования и воспитания с дошкольного возраста, направленные на формирование жизненно устойчивой мотивации на здоровье и на приобщение ребёнка к здоровому образу жизни.

Многолетний опыт работы показал, что недостаточно создать благоприятные условия для развития здорового ребёнка, необходимо ещё и сформировать элементарные знания о своём организме, осознанное ведение здорового образа жизни. В связи с этим воспитателям дошкольного образования предлагается новая здоровьесберегающая образовательная педагогическая технология, которая соответствует возрастным и индивидуальным возможностям и использует адекватные технологии развития и воспитания, способствующие усвоению детьми ценностей здоровья и здорового образа жизни.

Результатом валеологического образования должна стать валеологическая культура человека, предполагающая знание им своих генетических, физиологических и психологических возможностей, методов и средств контроля, сохранения и развития своего здоровья, умение распространять валеологические знания на окружающих.

Педагогическая валеология в ДОУ ставит перед собой следующие задачи:

- воспитание у детей стойкой мотивации на здоровье и здоровый образ жизни на основе освоения ими знаний о приоритете здоровья и механизмах жизнедеятельности организма человека;

- обучение детей средствам и методам оценки своего физического состояния и использования функциональных возможностей организма и естественных средств оздоровления для поддержания своего здоровья;

- валеологическая оценка и динамический контроль уровня соматического здоровья учащихся и организация работы по их оздоровлению через систему занятий физическими упражнениями, психокоррекцию, психолого-педагогические консультации и т. п.;

- валеологическая оценка организации и содержания образовательного процесса в образовательном учреждении и его соответствующая коррекция;

- работа с родителями с целью создания благоприятных условий для здоровья учащихся в семье.

Таким образом, формирование валеологической культуры – это целенаправленный процесс изменения представлений, знаний и поведения старших дошкольников по отношению к себе, своему здоровью, а также по отношению к людям и их здоровью в результате воздействия на них педагогов ДОУ и родителей по заранее спроектированной модели с помощью адекватных мер и приемов воздействия.

Необходимость становления валеологической образованности дошкольников обусловлена формированием мотивационной сферы детей, которая к старшему дошкольному возрасту приобретает осознанный познавательный характер. Устойчивая мотивация на формирование здоровья дошкольников рассматривается сегодня как одно из приоритетных направлений гуманизации образования.

Здоровьесберегающие образовательные технологии наиболее значимы среди всех известных технологий по степени влияния на здоровье детей. Главный их признак – использование психолого-педагогических приемов, методов, подходов к решению возникающих проблем. Их можно выделить в три подгруппы:

- организационно-педагогические технологии, определяющие структуру воспитательно-образовательного процесса, способствующую предотвращению состояний переутомления, гиподинамии и других дезадаптационных состояний;
- психолого-педагогические технологии, связанные с непосредственной работой педагога с детьми (к ней относится и психолого-педагогическое сопровождение всех элементов образовательного процесса);
- учебно-воспитательные технологии, которые включают программы по обучению заботе о своем здоровье и формированию культуры здоровья учащихся.

Реализация плана осуществляется через интегрированное занятие 1 раз в месяц в области "Физическое развитие, гигиена и уход за собой"¹.

Использованная литература:

1. Приказ Министерства народного образования Республики Узбекистан об утверждении Государственных требований к дошкольному образованию (зарегистрирован МЮ 18.10.2013 г. № 2517). Собрание законодательства Республики Узбекистан № 42 от 21 октября 2013 года.
2. Постановление Первого Президента Республики Узбекистан И.А.Каримова. № ПП-2487 о Государственной программе "Год здоровой матери и ребёнка".
3. Опорная программа для дошкольных образовательных учреждений "Болажон". – Т., 2016.
4. Земскова Ю. А. Валеологическое воспитание в детском саду [Текст] // Педагогика: традиции и инновации: материалы II междунар. науч. конф. (г. Челябинск, октябрь 2012 г.). — Челябинск: Два комсомольца, 2012. — С. 52-54.
5. Валеологические подходы в системе естественного оздоровления детей / Л. В. Чернецова, М. Н. Канкасова, Г. В. Павлова и др. // Традиционные и нетрадиционные методы оздоровления детей: Тез. докл. В Междунар. науч.-практ. конф. – Ижевск: Изд-во Удм. ун-та, 1996. – С. 358-359.

¹ Государственные требования, предъявляемые к дошкольному образованию. Приказ министерства народного образования № 302 от 19 сентября 2013 года, утверждённый министерством юстиции от 18 октября 2013 года за регистрационным № 2517

Яшин ИСМАДИЯРОВ,
преподаватель ТГПУ имени Низами

ИННОВАЦИОННАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ КАК НОВАЯ СОСТАВЛЯЮЩАЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ МЕНЕДЖЕРОВ ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

Mazkur maqolada ta'lim tizimining innovatsion kompetentligi tuzilmasi, innovatsion kompetentlikni shakllantirishning pedagogik prinsiplari va shart-sharoitlari, mutaxassislar tayyorlash jarayoni samaradorligini ta'minlashdagi o'rni va ahamiyati ilmiy jihatdan asoslangan.

Kalit so'zlar. Innovatsion kompetentlik, oliy ta'lim tizimi menejmenti, boshqaruv, menejment, pedagog innovatsiyasi, zamonaviy tuzilish, innovatsion faoliyat.

В данной статье научно обоснована структура инновационной компетентности менеджера в системе образования, педагогические принципы и условия формирования инновационной компетентности, роль и значение инновационной компетентности в обеспечении эффективности процесса подготовки специалистов.

Ключевые слова. Инновационная компетентность, менеджмент, система высшего образования, управление, менеджмент, образовательная инновация, педагогическая инновация, инновационная деятельность, инновационные технологии.

Article scientifically substantiates the structure of innovative competence of the manager in the education system, pedagogical principles and conditions for the formation of innovative competence, the role and importance of innovative competence in ensuring the effectiveness of the training of specialists.

Key words. Innovative competence, management, higher education system, innovation, educational innovation, pedagogical innovation, innovative activity, innovative technologies.

В Узбекистане за годы независимости осуществлена целенаправленная широкомасштабная работа по развитию и модернизации системы высшего образования. В рамках постановления первого Президента Республики Узбекистан от 20 мая 2011 г. №ПП-1533 "О мерах по укреплению материально-технической базы высших образовательных учреждений и кардинальному улучшению качества подготовки высококвалифицированных специалистов" совершенствована материально-техническая база высших образовательных учреждений. Исходя из реальных потребностей экономики оптимизированы направления и специальности подготовки кадров. Внедрена новая структура организации регулярной переподготовки и повышения квалификации руководящих педагогических кадров высших образовательных учреждений.

Вместе с тем, образовательный процесс в системе высшего образования требует модернизации содержания профессиональной подготовки кадров исходя из перспектив социально-экономического развития страны, потребностей общества, современных достижений науки, культуры, техники и технологий. В достижении качества образования немаловажными задачами являются вопросы управления образовательными процессами, усиления роли менеджеров в системе образования, как ключевого организатора, формирующего содержание учебно-воспитательного и научно-методических процессов, а также внедрении инноваций.

В научной литературе различают понятия "нововведение" и "инновация". Так, нововведения определяются как меры, направленные на преобразование любых компонентов в структуре или функционировании организации, с целью улучшения адаптивности системы¹.

Наиболее распространённым толкованием понятия нововведение является определение американского учёного К. Роджерса, который считает новизну идеи, что есть для конкретного лица новой и неважно есть идея объективно новая или нет, мы определяем её во времени, прошедший с момента её открытия или первого использования².

Г. Евдошенко предлагает понимать под образовательными инновациями процесс воплощения в практику результатов экспериментальных творческих исследований или процесс создания, распространения и использования новых средств (нововведений) для тех педагогических проблем, которые до сих пор решались по-другому³.

Л.В. Буркова под инновациями в образовании понимает в первую очередь результат процесса разработки и практической реализации основных гипотез, идей, моделей, создание, распространение и использование новых форм, методов, средств для тех образовательных задач, которые до сих пор не решались, или решались иначе как в теории, так и на практике⁴.

В свою очередь И. Ермаков образовательные инновации раскрывает как актуальные и значимые системные образования, которые возникают на основе различных инициатив и нововведений и становятся перспективными для эволюции образования⁵.

Как видно из приведённых выше определений, пониманий, пояснений и трактовок, большинство исследователей рассматривают образовательные инновации как процесс, который в обязательном порядке вызывает определённые изменения в образовательной системе.

¹ Юсуфбекова Н.Г. В педагогической инноватике / Наталья Рустамовна Юсуфбекова // Сов. педагогика. 1992. № 11. – С. 21-24.

² Подольская Е.А. Американское образование как лидер в организации процесса обучения управленческих кадров / Е. Подольская // Американская философия образования глазами украинских исследователей: материалы Всеукр. научно-практической. конф. 22 дек. 2005 Полтава: ПОИППО, 2005. – С. 134 - 141.

³ Евдошенко Г. Педагогические инновации: идеи, реалии, перспективы / Евдошенко Г. // Школа, 1999, №45 – С. 8-9.

⁴ Буркова Л.В. Педагогические инновации и их диагностическая экспертиза: теоретический аспект / Людмила Васильевна Буркова. – К.: Наукова. мир, 1999. – С. 37.

⁵ Ермаков И.Г. Новая школа на рубеже веков / И.Г. Ермаков // Психология и педагогика жизнетворчества. – М.: ИЗМН, 1996. – С. 20-25.

Мы согласны с мнением исследователей, которые считают образовательные инновации не только конечным продуктом применения новизны в учебно-воспитательном и управленческом процессах с целью изменения (качественного улучшения) субъекта и объектов управления и получения экономического, социального, научно-технического, экологического и иного эффекта, но и процедурой их постоянного обновления⁶.

Таким образом, образовательная инновация характеризуется новизной в области научных исследований, направленных на значительное улучшение образовательного процесса и выраженных в усовершенствованных образовательных системах (дидактическая, воспитательная, управленческая), составляющих сущность образовательного процесса (цель, содержание, структура, формы, методы, средства, результаты), образовательных технологиях (дидактические, воспитательные, управленческие), научных и научно-методических разработках, технических устройствах и установках, нормативно-правовых документах, регламентирующих деятельность для высших учебных заведений.

Исходя из анализа научной литературы нами было предложена структура инновационной компетентности педагога менеджера образования, представленная на рис. 1.




Рис. 1. Структура инновационной компетентности педагога-менеджера образования

Представленная структура, позволяет заключить, что к психолого-педагогическим составляющим относятся различные новшества в учебном, воспитательном и управленческом процессах. Информационная компетентность охватывает навыки пользования компьютерными и телекоммуникационными технологиями, работы с информацией. А интеллектуальная креативность предусматривает

⁶ Буркова Л.В. Педагогические инновации и их диагностическая экспертиза: теоретический аспект / Буркова Л. В. – М.: Наук. мир, 1999. – С. 37.

владение современными технологиями развития личности, способности диагностирования и прогнозирования образовательных процессов, умения деловой работы с общественными организациями и международными научными и образовательными учреждениями.

Анализируя вышеизложенную структуру понятия "инновационная компетентность менеджера в системе образования", мы пришли к выводу, что предложенное нами понятие трактуется как динамично развивающийся процесс, новая технология, новые изменения, новый продукт, новая компетенция. Такое понимание, по нашему мнению, отражает специфику исследуемого педагогического явления.

Перейдём к рассмотрению формирования инновационной компетентности менеджера в системе образования. Инновационная компетентность отражает внедрение в практику новых образовательных идей, средств, педагогических технологий, в результате чего повышаются показатели (уровни) достижений педагогических систем и структурных компонентов образования. По нашему мнению, её формирование является социально-педагогическим процессом, взятым в динамику, и представляет собой целостный процесс качественно нового преобразования всей педагогической системы (глобальные инновации) или отдельных её элементов (локальные инновации).

Анализируя вышеизложенные, можно выделить обобщённое, единое понимание формирования данной компетентности, под которым, по нашему мнению, целесообразно понимать новую или усовершенствованную систему педагогической деятельности, обеспечивающую качественные изменения как в общем управлении образовательным учреждением, так и учебно-воспитательным, научно-исследовательским процессами.

По нашему мнению, под инновационным менеджментом в высшем образовании целесообразно понимать как процесс устойчивого развития компетентности менеджеров путём генерирования, разработки и применения нововведений, которые существенно изменяют результаты управления, подготовки специалистов. Управление инновациями обеспечивает инновационную деятельность системы высшего образования или высшего образовательного учреждения, которая характеризуется процессом внесения новых элементов в традиционную систему создания и применения интеллектуального продукта, реализации новых оригинальных идей в форме научной и технологической разработки, наличия инвестиций.

Таким образом, по результатам наших исследований инновационного менеджмента в системе высшего образования можно заключить, что происходящие процессы эффективного развития практически во всех сферах современной деятельности тесно взаимосвязаны с различного рода нововведениями, инновациями, которые активно используются в науке и практике. Это касается и системы высшего образования, для которой инновации являются движущей силой перевода социально-педагогической системы на более высокий уровень функционирования, развития. Кроме того, многочисленные исследования подтверждают, что педагогические инновации — это духовная и интеллектуальная перспектива развития общества в целом, суть которого связана с эффективными реформами образования, поскольку знания положенные в основу новой идеи всегда выс139

тупают мощной движущей силой прогресса. При этом, является очевидным, что инновационными процессами необходимо целенаправленно и эффективно управлять. Поэтому значительное внимание исследователей сосредоточено на организации применения инноваций во всех образовательных системах.

Результаты научно-педагогического анализа показывают, как правило, проводимые научные исследования недостаточно учитывают происходящие скоростные изменения. В частности, остаются недостаточно разработанными вопросы менеджмента в системе высшего образования на основе инноваций, обоснование средств и методов инновационного развития, а также их практическое внедрение. Вместе с тем, современная практика инновационного менеджмента требует научного обоснования именно этого аспекта как наиболее адекватного реальным потребностям, общественно-политическим и социально-экономическим условиям государства, тенденциям и перспективам дальнейшего устойчивого развития высшего образования.

Проведённые исследования различными учёными подтверждают и наглядно демонстрируют, что количество педагогических экспериментов в области инновационного менеджмента, которые осуществляются в системе высшего образования, значительно увеличилось, однако они требуют более глубокого теоретико-методологического обоснования и соответствующего организационно-методического обеспечения с целью повышения прикладной результативности.

Использованная литература:

1. Буркова Л.В. Педагогические инновации и их диагностическая экспертиза: теоретический аспект / Людмила Васильевна Буркова. – К.: Наукова. мир, 1999. – С. 37.
2. Ващенко Л.М. Научные подходы к инновационному развитию последипломного педагогического образования//Образование. 2011. № 2. – С. 3-8.
3. Дмитренко Г.А. Стратегический менеджмент: целевое управление образованием на основе квалитетричного подхода: учеб. пособие. / Геннадий Анатольевич Дмитренко. – М.: ИЗМН, 1996. – С. 140.
4. Евдошенко Г. Педагогические инновации: идеи, реалии, перспективы / Евдошенко Г. // школа. – 1999. 45. – С. 8-9.
5. Педагогические инновации в современной школе / ред. кол. И. Г. Ермаков (отв. ред.), В.Ф. Паламарчук, Д.И. Румянцева, В. Шевченко. - М.: Просвещение, 1994. – С. 86.
6. Педагогический словарь / под ред. М.Д. Ярмаченка. – М.: Пед. мнение, 2001. – С. 516.

Феруза ИБРАГИМОВА,

старший преподаватель Ташкентского Финансового Института

ПРОЦЕСС ФОРМИРОВАНИЯ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА ИНТЕРЕСА К КУЛЬТУРЕ АНГЛИИ – КАК СРЕДСТВО СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ

Аннотация

Maqola Angliya davlatining madaniyati, urf-odatlarini, kundalik munosabatlarini o'rganish, ularga taqlid qilish orqali ingliz tilini yanada mukammalroq egallashga, ya'ni ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan. Shuningdek, muallif hozirgi sharoitda bunday zamonaviy yondashuv ijtimoiy-pedagogik ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar. Ingliz tili o'qituvchisi, kompetensiya, davlat madaniyati, zamonaviy yondashuv, jarayon, hamkorlik, chet tili, aspekt.

Статья поднимает проблему совершенствования профессиональной компетенции учителя английского языка средствами изучения культуры страны - носителей языка. В современных условиях такой подход имеет социально-педагогическую значимость и совершенствует профессиональную компетенцию учителя иностранного языка.

Ключевые слова. Учитель английского языка, компетенция, культура страны, современный подход, процесс, сотрудничество, иностранные языки, аспект.

Article discusses the problem of improvement of professional competence of teachers of English, by means of studying the culture of native speakers. In modern conditions this approach has a pedagogical significance and improving professional competence of teachers of a foreign language.

Key words. Teacher of English language, competence, the culture of the country, a modern approach, process, cooperation, foreign languages, aspect.

В настоящее время у нас в стране придаётся большое значение изучению и преподаванию иностранных языков. “Сегодня трудно переоценить значение совершенного знания иностранных языков для страны, стремящейся занять достойное место в мировом сообществе, ведь наш народ видит своё великое будущее в согласии, сотрудничестве с иностранными партнёрами”.

Безусловно, знание культуры Англии, давшей миру язык международного общения – английский, обязательно, престижно, профессионально важно и социально статусно, особенно для будущих учителей этого языка. Тем более, что в

Государственной образовательной политике, в Национальной программе по подготовке кадров, в требованиях к гуманитарной подготовке, особенно в системе педагогического образования, акцентируется культурологический аспект – обращение к культуре не только своей страны, но и зарубежных государств, в том числе, отдельных исторических периодов; от кадров нового поколения требуется ориентир в общих вопросах мировой и отечественной культуры. Провозглашена необходимость воспитания поликультурной личности кадровых специалистов в сфере народного образования, способных к ценностным ориентациям и отношениям в области культуры.

В процессе подготовки учителей английского языка чрезвычайно актуальным, научно востребованным и практически необходимым, именно на современном этапе образования является формирование у будущих учителей интереса к культуре Англии. Решение проблемы в упомянутом культурологическом плане, в целях профессионального совершенствования будущих учителей английского языка представляется чрезвычайно важным и социально-педагогически значимым, требующим осмысленного методологического подхода, в том числе, методолого-педагогического и научно-исследовательского.

Методологию педагогического исследования обуславливает его грамотность: реальность исходного положения на основе состояния проблемы в теории и практике, собственный опыт (в том числе, на основе рефлексий), научное обоснование проблемы, понятийное и категориальное “пространство”, критериальные характеристики; системно-принципиальный

и логико-смысловой подход к теории и практике решения проблемы; принципы построения, формы, технологии, способы, методы и методика исследования, их творческое применение; предполагаемый результат; способ получения результата в апробации педагогических основ на практике.

Методологичность, оптимальность и педагогическая эффективность процесса формирования интереса к культуре Англии у будущих учителей английского языка обеспечивается экспериментальной программой.

Интерес будущих учителей к культуре Англии формируется на профессионально-компетентностной, системно-процессуальной, структурно-содержательной, технолого-педагогической основах.

Из многочисленных работ студентов по интересу (приводимых в Приложении) следует, что диапазон интересов будущих учителей к культуре Англии чрезвычайно широк и многогранен в частности по следующим направлениям:

- Великобритания – Соединенное Королевство; государственная геральдика; английский язык, англичане, их национальные черты;
- древние историко-культурные памятники (соборы, церкви, часовни, дворцы и замки) на территории Великобритании; Вестминстерское аббатство;
- Тауэр – замок, дворец, тюрьма, Тауэрский мост – символ высокой культуры Англии и Британии;
- Тюдоры - их династия; правление, культура при Генрихе VIII, Виктории, Елизавете;
- научные открытия, образование;
- английский фольклор; литература, поэзия (Шекспир, Байрон);
- изобразительное искусство, живопись, графика, скульптура;
- музыкальная и театральная культура, опера, балет;

– культура жителей современной Англии, Соединенного Королевства (Уэльса, Шотландии, Ирландии);

– традиции, обычаи и ритуалы, события в современной королевской семье во главе с Елизаветой II.

Немаловажным является ориентир будущих учителей на формирование у школьников интереса к культуре Англии (в программе внеаудиторных занятий – “Культура Англии” особым приоритетом пользуется раздел “Учащимся – о культуре Англии” (с темами, знание которых необходимо для формирования у учащихся интереса к английской культуре).

В исследуемом процессе у будущих учителей английского языка формируется не только интерес к культуре Англии, требующий социально-деятельностной реализации. Происходит профессионально-компетентностное совершенствование: расширяется культурологический кругозор; формируется креативность (профессионально-личностная). Развивается интеллект, мышление в его разных формах; формируются понятия; активизируется и обостряется восприятие, творческое воображение, внимание и память; определяются ценностно-потребностные предпочтения, появляется желание их интеллектуально-творческого отражения и “публичного” представления (социализации) с объективной самооценкой. Таким образом, развиваются и совершенствуются весьма важные профкомпетентные качества.

Укореняется профессионально-личностная мотивация – устойчивая, внутренняя – глубоко осознанная. Устойчивый интерес вызывается и формируется фактическим и занимательным материалом, обращением к интеллектуально-творческому потенциалу студентов, их воображению, вниманием к личностно-потребностным интересам, использованием такого конкретно-культурологического материала, как документальный, научно-популярный, художественный, познавательно-занимательный.

Устойчивый интерес студентов к занятиям в целом, определению “своего” интереса, к работе над ним поддерживается разнообразием и оригинальностью форм, методов, приемов и средств (в том числе, аудиовизуальных).

Мотив требует от студентов осознания цели, задач, содержания предстоящей работы, технологии, времени действия и результата; главное – эмоционального отношения, чувства необходимости, знания способов и методов достижения цели.

В обеспечении мотивационного настроя студентов важную роль играет индивидуально-потребностный подход, особенно при самостоятельном выполнении творческих заданий и работ.

На данном этапе у студентов происходит заданное активное определение интереса к культуре Англии, его удовлетворение, обогащение и развитие, до потребностной необходимости, выходящей за пределы интереса к средневековой культуре Англии – с предпочтением определенных знаний по культуре Англии в целом, в том числе, современной. На данном этапе экспериментального исследования используются различные формы занятий и эффективные методы.

Формы занятий:

- лекция, лекция-беседа с элементами рассказа, чтения, диалога, обсуждения;
- информационно-познавательные занятия: о традиционной культуре Англии;
- культурно-назидательные (как вести себя в английской семье, в обществе);

– часы, посвященные просмотру и обсуждению телефильмов и кинофильмов об Англии всех времен и эпох – информационно-познавательных, документальных, научно-популярных, художественных – о культуре Англии, художественно-фантастических; занятия – “Экскурсии и путешествия” (в том числе, во времени); теоретико-педагогические и практические занятия; семинары; консультации; контрольные и итоговые занятия.

Основные методы: целеопределение; моделирование содержания, схематизирование его последовательного изложения; эмоционально-содержательный рассказ, яркое описание, достоверное и доходчивое; иллюстрирование; оригинальные – незабываемые примеры и факты; ссылка на народную традиционную культуру, ее оригинальность, яркость и самобытность; приближенность материала к реалиям современной культуры Англии; расширение вида и круга информации о культуре Англии, англичан; вовлечение студентов в самостоятельный поиск различного культурологического материала (по интересу) относительно Англии; обработка поискового материала для общедоступной информации (в группе), использования в будущей педагогической деятельности.

В качестве примера приводим технологии занятий по темам: “История Англии X-XVI в.в.”, “Значительные события в истории и культуре средневековой Англии”, “Средневековая Англия. Тюдоры. Культура”. “Богата и разнообразна культура Великобритании своими традициями”. “Информационно-познавательный час”.

Без исторических знаний о стране, давшей миру общенародный язык, невозможно полноценное изучение этого всемирного коммуникативного средства. Тем более, что в текстах учебников английского языка для средних и высших учебных заведений имеются ссылки на значительные исторические и культурные события в Англии разных эпох, в том числе, относящиеся к периоду правления королевской династии Тюдоров. В настоящее время изучение английского языка на фоне истории Англии, значительных исторических и культурных событий становится и признается педагогически целесообразным и оптимально-результативным.

Использованная литература:

1. Каримов И.А. *Назначение науки – служить расцвету Родины: Наша цель: свободная и процветающая Родина.* – Т.: Узбекистан, 1996. – С.380.
2. Каримов И.А. *Современные кадры - важнейший фактор прогресса по пути безопасности и стабильного развития.* – Т.: Узбекистан, 1998. – С. 6 – 413.
3. Ариан М.А. *Пути совершенствования профессиональной компетенции учителей иностранного языка // Иностранные языки в школе.* – М., 2003. № 1. – С. 17-21.
4. Буранов Д. *Концепция обучения иностранным языкам в вузах Республики Узбекистан.* – Т.: УзГУМЯ, 1997. – С.32 .

Bosh muharrir:

Mahmudov Sarvar Yuldashevich

Bosh muharrir o'rinbosari v.v.b:

Umaraliyeva Muhayyo Abdugaparovna

Mas'ul kotib:

Tashxanov Nurbek Aybekovich

Badiiy muharrir:

Mamasoliyev Akbarali Hamzayevich

Tahrir hay'ati:

Ulug'bek INOYATOV, Dilshod KENJAYEV, Risboy JO'RAYEV, Hikmatilla RASHIDOV,
G'ayrat SHOUMAROV, Sharifjon ERGASHEV, Fayzulla AHMEDOV, Shavkat SHARIPOV,
Maqsudjon YULDASHEV, Islom ZOKIROV, Alisher ZOKIROV, Hikmatilla DAMINOV

Jamoatchilik kengashi:

Baxtiyor DONIYOROV, Ulug'bek ABRUYEV, Erkin ISKANDAROV, Bahodir SHAMSIYEV,
Norbek TAYLAQOV, Abdusamat RAHIMOV, Muhammadjon QURONOV

Tahririyat manzili: 100159. Toshkent shahri, Mustaqillik maydoni, 5-uy.

E-mail: xalq_talimi@xtv.uz Tel: (0 371) 239-27-14, Faks: 239-27-11

Jurnalga yuborilgan maqolalarga javob qaytarilmaydi, jurnalda e'lon qilingan maqolalardan olingan matnlar "Xalq ta'limi" ilmiy-metodik jurnalidan olindi, deb ko'rsatilishi shart. Jurnal 2015-yil 20-martdagi 214/2-sonli qarori bilan OAK ilmiy nashrlari ro'yxatiga kiritilgan.

"MAKTUB PRINT" mas'uliyati cheklangan jamiyatida chop etildi.

Toshkent shahri, Shayhontoxur tumani, Navoiy ko'chasi, 30-uy

Bosishga ruxsat etildi: 06.04.2017-y. Qog'oz bichimi 70x100 1/16. Ofset bosma usuli.

Shartli b.t. 12,0. Adadi 31 120 nusxa. - buyurtma.

Bahosi kelishilgan narxda.

Ushbu songa mas'ul – Sattarova Xulkara Ravshanovna

© "Xalq ta'limi" jurnali, 2017.